



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2020-yil, 6-son (124) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Filologiya, Pedagogika, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor
H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

- | | |
|---------------------------|--|
| S. S. G‘ULOMOV | - O‘zFA akademigi |
| A. SAGDULLAEV | - O‘zFA akademigi |
| T. MIRZAYEV | - O‘zFA akademigi |
| SH. A. HASANOV | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| S. A. KARIMOV | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| M. MUXIDDINOV | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| N. SH. SHODIEV | - ped.f.d., professor (SamDU) |
| M. M. MAXMUDOVA | - ped.f.d., professor (SamDU) |
| S. K. KARIMOV | - fals.f.d., professor (SamDU) |
| J. YA. YAXSHILIKOV | - fals.f.d., professor (SamDU) |
| N. U. ARABOV | - i.f.d., professor (SamDU) |
| B. E. ERGASHEV | - t.f.d., professor (SamDU) |
| B. S. G‘OYIBOV | - t.f.d., professor (SamDU) |
| TAMIR KLEIN | - Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil) |
| NAZIF SHAHRANY | - Indiana universiteti professori (AQSh) |
| HIROAKI HUZIIE | - Osaka universiteti professori (Yaponiya) |
| KIM SUNGHAE | - Daeju universiteti professori (Koreya) |
| BYLAPPA MANJUNATH | - Don Bosko boshqaruv maktabi professori (Hindiston) |

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

FILOLOGIYA / PHILOLOGY

Mustanova Sh.	
Sarlavhalarning asosiy funksiyalari (nemis tili materiallari asosida)	4
Mavlono A.X.	
“Saddi Iskandar” dostonida to‘y, bazm va musiqa bilan bog‘liq terminlarning qo‘llanilish xususiyati	8
Nasriddinov D.	
Fentezi genezisi va uning ilmiy talqini	12
Sharipova L., Anorboyeva F.	
Nemis so’zlashuv nutqida keng qo‘llaniladigan so’z va iboralar tahlili (nemis, o’zbek tillari misolida)	18
Меликова М.Н.	
Духовное наследие Алишера Навои в творчестве Е.Э.Бертельса	21
Amaeva Г.М., Уразкулова А.А.	
Двойственная характеристика междометных фразеологических единиц в английском языке	25
Юсупова С.С., Нурмухаммедова М.У.	
О фонологической характеристике адъективных словообразовательных морфемных швов «производящая основа + суффикс» русского языка	28
Buzrukova M.	
Diskursiv faoliyat kechishining asosiy omillari	32
Tuxtasinov I. M., Xoliyorov B. H.	
Nofilologik oliv ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari	37
Urazbayev H. I.	
Chet tillarni o‘rganish tizimida Yevropa til portfoliosini tadbiq etish imkoniyatlarining empirik tadqiqi	41
Yunussova D.	
Shavkat Rahmon ijodida aniqlovchi-aniqlanmish munosabatidagi sintaktik birliliklarining metafora hoslil qilish imkoniyatlari	45
Ёвкочева З.М.	
Обращения к лицам в стихотворениях М. Цветаевой	50
Юлдашева Д. М.	
Двуязычия и когнитивные способности мозга при двуязычии	55
Hamidova M. A.	
Ingliz va o‘zbek tillarida o‘timli fe’llar tasnifi muammosi	58
Sanaqulov U.S., Nurmonov F.X.	
Qarluq etnonimi va uning manbalardagi talqini	63
Omonova M.	
Ingliz va o‘zbek tillarida meliorativ terminlarning affiksatsiya usuli bilan yasalishi	66
Rahimova G., Xo‘jamqulova N.	
Boshlang‘ich sinflarda Alisher Navoiy ijodi namunalarini o‘rgatishda “didaktik tahlil metodi”ning afzalliklari	70
Abdumannatova N.A.	
Hotamitoy obrazi bilan bog‘liq hikoyatlarning tarixiy asosi	73
Ким С. Ф.	
Бессоюзное сложное предложение в концепции ученых современной синтаксической теории	77
Xo‘jaqulov S.X.	
Shamsiddin Shohinning "To‘hfai do’ston" asari va uning ma’rifatpravralik adabiyotidagi mundarijaviy hamda g‘oyaviy ahamiyati	81

PEDAGOGIKA / PEDAGOGICS

Aripov M.M., Tillayev A.I.	
Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarni qo‘llash usullari	86
Suvonova K.	
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning xususiyatlari	91
Eshqobilova G.N.	
Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishda uzviylik masalalari	95

Axmedov F. Sh.		
Dzyudochilar musobaqa faoliyatini baholash bo'yicha ilg'or tajribalar tahlili		100
Usmonova L.		
Inson kapitalini shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni		103
Shayzakova D.A., Nasimov A.M.		
Kimyo fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish		106
Shodiyev F. T.		
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining global jarayondagi burch va vazifalari texnologiyasi		109
Marufova M. E.		
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aktdan foydalanish		112
Toshmurodov O.E.		
Yuqori malakali kurashchilarning musobaqa faoliyati ishonchlilagini oshirish		115
Abduvakhanova U.Y., Akramova T.K.		
Критическое мышление и эмоциональный интеллект как неотъемлемая часть профессиональной подготовки второго языка		119
Aminov I.B., Tugayev R.		
Xalq ta'limi tizimidagi muassasalarining yagona axborot muhitining asosiy funksiyalari		123
Igamberdiyev X.X., Gapparov B.N.		
Talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida tarbiyalashning psixologik va tashkiliy pedagogik asoslari		126
Azizuddin Khan, Akhmedova Sh.B.		
Recommendations for improving the educational process at Samarkand State University (on the example of, the Faculty of Education)		129
Baydjanov B. X.		
Talaba-yoshlarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning huquqiy asoslari		131
Ergasheva G. A.		
Boshlang'ich sinflarda imloviy savodxonlik ta'lim ko'zgusi sifatida		136
Kipchakov B.B.		
Olimpiya o'yinlariga sportchilarini tayyorlash tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar		140
Nigmatova M. Z.		
Maktabgacha yoshdagи bolalar bilish jarayonlarini rivojlantirishda sensor tarbiyaning o'rni		144
Aminov I.B., Nizamov A.		
Informatika fanidan amaly mashg'ulotlarni tashkil etishda kreativ vositalardan foydalanish		149
Babaxolov G'.T.		
Yoshlarning ishbilarmonlik qobiliyatini innovatsion tarzda shakllantirish va rivojlantirish masalalari		155
Saidova G.H.		
Kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy faoliyatini tashkillashtirish		158
Abdumannotov E.		
Ummumta'lim maktabi o'quvchilarida ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg'usini takomillashtirish mexanizmi		162
Xushvaqtova X.S., Sharipova D.Dj.		
O'zbekistonda ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fanini o'qitishda o'zgarishlar		166
Murtagaeva Y.I.		
Концептуальные особенности и возможности кредитной системы обучения для совершенствования учебно-исследовательских компетенций студентов вузов		168
Abdullahayeva N.I.		
Diskret matematika fanini o'qitishda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning uslubiy jihatlari		172
Xolmuxamedov M.		
Professional ta'limda simulyatsion-imitatsion ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish masalalari		176

Mualliflarga

UDK: 81

SARLAVHALARNING ASOSIY FUNKSIYALARI (nemis tili materiallari asosida)**Sh. Mustanova***Samarqand davlat universiteti**mustanova – sh@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada matnga qo'yilgan sarlavhalarning semantik strukturalari, lingvistik va lingvistik bo'limgan funksional ko'rsatkichlari, xabar berish, nominativlik, ekspressivlik funksiyalari haqida so'z yuritiladi. Matn va sarlavha o'tasidagi bog'liqlik, asosiy funksiyalarini amalga oshiradigan leksik-grammatik vositalar nemis tilidagi badiiy asarlardan olingan misollar tahlilida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Sarlavha, semantik struktura, lingvistik va lingvistik bo'limgan funksional ko'rsatkichlar, funksiya, nominativlik, ekspressivlik, matn va sarlavha, leksik-grammatik vositalar, pragmatik ahamiyati, obrazlilik, stilistik usullar.

Основные функции заголовков (на материале немецкого языка)

Аннотация. В данной статье речь идёт о семантических структурах, лингвистических и нелингвистических функциональных показателях, информативных, номинативных, экспрессивных функциях заголовков текста. На основе примеров из немецкой художественной литературы показаны связи между текстом и заголовком, лексико-грамматические средства выполняющие основные функции.

Ключевые слова: Заголовок, семантическая структура, лингвистические и нелингвистические функциональные показатели, номинативность, экспрессивность, текст и заголовок, лексико-грамматические средства, pragmaticальное значение, образность, стилистические приёмы.

Main functions of text titles (in the basis of German language materials)

Abstract. This article is about the semantic structures of text subheadings, linguistic and non-linguistic functional indicators, functions of reporting, nominative and expressivity. The relationship between the text and title, lexical and grammatical functions that carry out their basic functions have been described in the analysis of examples of which were selected from German literary works.

Keywords: Title, semantic structure, linguistic and non-linguistic functional indicators, function, nominative, expressive, text and title, lexical-grammatical means, pragmatic significance, figurative, stylistic methods.

Matn va uning lingvistik mohiyati, matn bilan bog'liq bo'lgan muammolar hozirgi zamon tilshunosligida, xususan o'zbek, rus va german tilshunosligida ma'lum darajada o'r ganilgan va bu sohada ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu yo'nali shda rus tilshunosi I.R. Galperin, nemis tilshunoslari R. Xar veg, K. Ye. Xaydolf, rus tilshunosligida tadqiqot olib borgan A.I. Domashnev, V.G. Admoni, N.A. Klepetskaya, P.V. Kobzev, Ye.A. Referovskaya, N.I. Formonovskaya, Ye.M. Shafiro va boshqalarning ishlari e'tiborga loyi qidir.

So'nggi yillardagi lingvistik tadqiqotlar asosidagi ilmiy izlanishlar ob'ekti sifatida matn kompozitsiyasini o'rganish g'oyasi yotadi. Xususan, matnni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot izlanishlarida tematik-ma'noviy mazmun, stil va strukturaviy kompozitsiya birligi o'z aksini topgan [1s.161]. Matnga bo'lgan qiziqish gap birligidan kattaroq birliklarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning aynan o'zidir. Chunki yolg'iz bir gapning o'zi boshqa qo'shma gaplar bilan mazmunga kirishmay turib aloqa ko'p hollarda mustaqil tugallangan fikrni anglata olmasligi ko'plab tilshunos olimlarning diqqat-e'tiborini tortganiga ancha bo'ldi. Shu sababli ham butun matn, uning tarkibiy qismlariga va matnni yagona bir murakkab sintaktik butunlik sifatida uyuştirish uchun qo'llaniladigan vositalarga bo'lgan qiziqish nihoyatda ortdi. Matnni yaxlit bir murakkab sintaktik butunlik sifatida yuzaga keltiruvchi vositalar ham rang-barang va xilma-xil ekanligi tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topmoqda. Masalan, N.F. Skutelnik o'zining «Модальные слова в текстовой реализации современного немецкого языка» nomli ilmiy- tadqiqot ishida modal so'zlarning matnga nisbatan tutgan o'rni to'g'risida shunday yozadi: "Modal so'zlar matnning asosiy tarkibiy qismlari sifatida uning mazmuniy va strukturaviy shakllanishida, shuningdek, muhim strukturaviy-kompozitsion butunlik sifatida paydo bo'lishida muhim strukturaviy-kompozitsion ro'l o'ynaydi" [10.s.25].

Matnning yagona bir sintaktik butunlik sifatida shakllanishida modal so'zlardan tashqari boshqa vositalar ham ishtirok etishi mumkin. Bunday vositalar tarkibiga takroriy vositalar ham kirishi mumkin. Bizga ma'lum bo'lgan juda ko'plab ilmiy-tadqiqot asarlarda takroriy vositalarga matnni uyushtiruvchi asosiy markaziy vositalar sifatida qaralmoqda [5, s 15].

Hozirgi zamon tilshunoslarining diqqat-e'tiborini o'ziga qaratgan masalalardan biri - bu matnning strukturaviy kompozitsiyasini aniqlashdir. Ushbu yo'nalihsda o'rganilayotgan asosiy muammolar ichida matn (uning tarkibiy qismlari) tuzilish alomatlarini, shuningdek, uning sintaktik, semantik, kommunikativ, stilistik xususiyatlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ana shu muammolar asosida yagona matnni uyushtirishda ishtirok etuvchi vositalar va ularni ohib berishga intilish muhim omil bo'lib qoladi.

Matn tahlili doirasida tanlangan asarning nominatsiyasi ham alohida o'r'in tutadi, chunki har qanday asar nominatsiyasi, birinchidan asarning janr va stiliga xos xususiyatlarda sezilarli iz qoldiradi; ikkinchidan, til vositalarining aniq yig'indisi bilan farq qiladi. Matnni kompozitsion-stilistik talqin qilish usulidan foydalanish uning bir tizimda yasalish xususiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ushbu aloqada matn borliq aksining o'ziga xosligi (denotativ tavsif), semantik to'liqlik, konnotativ baholash (masalan, emotsiyal-eksressiv), strukturaviy va aynan til nuqtai-nazaridan ko'rib chiqiladi. Matn tavsiflashda ko'p hollarda talqin alohida aspektlarda - fonetik, leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik va hokazolarda [4 . s. 40-42;] turli xil aspektlarni o'zaro bog'liqligi asosida talqin qilinishi lozimligi aytildi.

Matn va uning tarkibiy qismlari to'g'risida mavjud bo'lgan fikr va mulohazalar ko'p qirrali, ayniqsa matnga berilgan ta'riflar ham bir xil emas. Bunga sabab tadqiqotchilarning matnga nisbatan turli nuqtai-nazardan yondoshishlari natijasidir. Biroq I.R.Galperinning matnga bergan ta'rifi matnga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi bilan tilshunoslarning diqqat-e'tiborini o'ziga alohida jalg etadi. Uning ta'riflashicha, matn - bu aniq bir maqsadga yo'naltirilgan va pragmatik ko'rsatmaga ega bo'lgan, leksik, mantiqiyl, stilistik aloqalar vositasida birikkan, adabiy andozaga solingan, yozma hujjat ko'rinishida mukammallashtirilgan va yakuniy xususiyatga ega bo'lgan, nutqiy-ijodiy asardir [6. s. 18]. I.R.Galperinning matnga bergan ushbu ta'rifida unga tegishli bo'lgan barcha vositalar, ya'ni leksik, grammatic, semantik, stilistik va boshqalar o'zining to'liq ifodasiga ega. Bu yerda birinchi navbatda matnni yoki uning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi leksik-grammatic vositalarga alohida e'tibor berilishi lozim. Chunki matnning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi bunday vositalar shaklan va mazmunan har xil ko'rinishda bo'ladi. Shuning uchun ham tanlangan mavzuda matnni tashkil qiluvchi vositalardan qaysi biriga alohida urg'u berilsa, o'sha vositalar alohida izohlanadi. Bunda matnni tashkil qiluvchi vositalarni temaga yoki remaga bo'lish ham e'tiborga olinadi.

Demak, matn nutqiy muloqotning har tomonlama (monologik, dialogik) shakli bo'lib, tilning yozma ko'rinishini aks ettiradi hamda o'ziga xos til xususiyatlarni saqlab qoladi. Albatta matn to'g'risida, uning strukturaviy-kompozitsion tuzilishi, tarkibiy qismlari haqida gap borganda, eng avvalo ko'z oldimizda matnning tematik va rematik elementlari nomoyon bo'ladi. Chunki matn tuzilishida tematik va rematik elementlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularsiz matn to'g'risida biror bir ma'lumotga ega bo'lish mumkin emas. Matnni yuzaga keltiruvchi ana shunday tematik va rematik elementlar S.A.Rabinovichning « Темо-рематическая сегментация текста» mavzusidagi ilmim-tadkikot ishida chuqur tahlil qilib berilgan. «Tematic va rematik elementlar matn doirasida kommunikatsiyani yuzaga keltirganligi yoki matn va uning tarkibiy qismlarining tahlili uchungina emas, balki yuzaga kelgan kommunikatsiyaning bugunligini saqlaganligi uchun ham dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Gap bu yerda asosan ana shu ikkala elementning o'zaro bog'liqligi tufayli paydo bo'lgan kommunikatsiyaning butunligi to'g'risida borayapti» [7, s.12]. Muallifning fikricha, tema va rema elementlari faqatgina matnning paydo bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatib qolmasdan, balki uning chegarasini ham aniqlashda muhim omil hisoblanar ekan. Muallif bu to'g'risida shunday yozadi: «Тематик butunlik bu bitta tema-rema guruhining (ya'ni matnning) chegarasini aniqlashda asosiy me'zon hisoblanadi [7, s.5]. Tematik yoki rematik elementlar deyilishiga sabab shuki, bir matn tarkibida bir vaqtning o'zida bir nechta tema yoki rema mavjud bo'lishi mumkin.

Tematik va rematik elementlar o'z tabiatiga ko'ra tema va rema tushunchalarini bildiradi. Tema va rema tushunchalari gapning aktual bo'linishi nazariyasi bo'yicha faqatgina yagona bitta gapga tegishli bo'lmasdan, balki ular ikki yoki undan ortiq gaplardan tashkil topgan matnlarga ham tegishli bo'ladi. Chunki matn ham o'z navbatida ikki yoki undan ortiq gaplarning o'zaro bog'lanishi tufayli yuzaga keladn. Nutq jarayonida gaplarning o'zaro bog'lanishi asosan oldingi gapdagi biror bo'lakni keyingi gapda takrorlash, oldingi gap struktura qismlarini keyingi gaplarda kengaytirish orqali yuz beradi.

Gaplarning ana shunday o'zaro mazmuniy va sintaktik bog'lanishi tufayli yuzaga kelgan matn logik butunlikni ifoda etadi. Odatda logik butunlik matn tarkibidagi gaplarning bir bo'lagi bilan o'zaro mantiqiyl bog'liqliknii ifodalaydi. Agarda matn tarkibidan biror-bir gap ajratib olinsa, unday gap dialektik

tabiatiga ko'ra struktura jihatdan tugal, fikran esa notugal xarakterda bo'ladi. Faqatgina matn tarkibidagina har qanday gap ham grammaatik, ham fikran tugal bo'ladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tematik va rematik elementlar ham ana shu tema va rema tushunchalarining ta'sirida namoyon bo'ladigan formantlardir. Tematik va rematik elementlarning yuzaga kelishida turli xil xarakterdagi leksik va grammaatik vositalar ishtirot etadi. Demak, ular matning tarkibiy qismini tashkil etuvchi vositalar va usullarga aylanadi.

Matning tarkibiy qismini tashkil etuvchi vositalar, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, muhim va muhim bo'lмаган guruhlarga ajratiladi. Agarda matning tahlili jarayonida uning tarkibiy qismlarini tashkil qiluvchi vositalardan birortasiga alohida urg'u berilsa, shu vosita qolgan vositalarga nisbatan muhimroq hisoblanadi. Natijada bunday vositalar ilmiy ishlarning alohida izlanish ob'ekti bo'lib qoldi. Biz uchun esa ilovali elementlar u yoki bu matnni yuzaga keltirishda ishtirot etadigan leksik va grammaatik vositalar ichida eng asosiy vositalardan biri sifatida talqin etiladi.

Tarkibida har xil mazmunga va har xil shakllarga ega bo'lgan ilovali elementlar uchraydigan matnlarga kelsak, ular boshqa mashqlardan o'ziga xos bo'lgan ba'zi bir xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu farq aoasan fikrning boshlanish markazi hisoblanmish tema tarkibida sodir bo'ladi. Chunki tema bir vaqtning o'zida xam tema, xam rema funktsiyasida kelishi mumkin, ya'ni o'zgarib turadi.

Ta'kidlash joizki, bu sohadagi ilmiy tadqiqot ishlari unchalik ko'pchilikni tashkil etmaydi, ammo keyingi yillarda matn va uning bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada prof. N.Q. Turniyozov, A.M. Bushuy, B.T. Tursunov, Sh.S. Safarov, D.U. Ashurova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Matn va uning sarlavhasi o'rtasidagi aloqaning shakllanishi masalasi dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadi, matnga qo'yiladigan sarlavhalar o'ziga xos xususiyatlari va struktural ko'rinishlarga ega bo'ladi. Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, ularni tahlil qilib quyidagicha xulosaga kelish mumkin: nemis tilida matnga qo'yiladigan sarlavhalarni kommunikativ nuqtai nazardan quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- matning kommunikativ maqsadni bajarishga qaratilganligi;
- matning mantiqiy-semantik strukturalarda ifodalanib kelishi;
- matnda ijtimoiy-psixologik kommunikativ vazifalarning aks ettirilishi va hokazo;

Hozirgi zamon nemis tilida matn va uning sarlavhasi o'rtasidagi chambarchas aloqani alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bunda quyidagilar katta ahamiyat kasb etadi:

1. Sarlavanhaning tanlanishi;
2. Sarlavanhaning leksik-semantik va grammaatik tarkibi;
3. Sarlavanhaning kitobxon diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilish xususiyati va hokazo.

Ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan misollar-matnlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunday matnlarni hosil qilishda turli leksik-grammatik vositalarning o'z o'rni borligiga va ular matn mazmunini bog'lashda, uning strukturaviy shakllanishda muhim ahamiyat kasb etishga guvoh bo'lamiz. Matn lingvistikasiga bag'ishlangan ishlarning aksariyatida asosiy e'tibor matn komponentlarining semantik-grammatik aloqasiga qaratiladi. Zero, matn faqat semantik jihatdan emas, balki sintaktik ham yaxlitlikni taqozo etadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, matn komponentlari qanday yo'sunda bo'lmasin sintaktik jihatdan ham o'zaro bog'langan bo'ladi.

Ta'kidlash kerakki, matn komponentlarining o'zaro sintaktik bog'lanishi, asosan, quyidagi vositalar orqali ro'y beradi:

1. Leksik takror vositasida;
2. Sinonimik vositalar;
3. Olmoshlar vositasida;
4. Kirish so'z va birikmalar;
5. Bog'lovchilar vositasida;

Xullas, matn komponentlarining turli yo'llari bilan, jumladan, leksik vositalar yordamida sintaktik munosabat tashkil etishini ko'rib o'tdik. Shu yo'sinda bog'li matn hosil qiluvchi vositalarning o'rni va ahamiyatini alohida ta'kidlash lozimligi konkret misollarda o'z ifodasini topadi.

Nemis tilida sarlavhalarni kommunikativ nuqtai nazardan quyidagi o'ziga xosliklarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: matning kommunikativ maqsadini bajarishga qaratilganligi, matning mantiqiy - semantik strukturalarda ifodalanib kelishi, ijtimoiy - psixologik kommunikativ vazifalarning aks ettirilishi kabilar.

Har bir matnga qo'yilgan sarlavha tugallangan fikrni anglatuvchi gap hisoblanadi, u kommunikativ birlik bo'lib, uning mazmuni lingvistik va lingvistik bo'lмаган funksional ko'rsatkichlar orqali umumlashtiriladi. Sarlavhalarning xabar berish, nominativlik va ekspressivlik funktsiyalari uning lingvistik funktsiyalari qatoriga kiritiladi, bu funktsiyalar tilning leksik-grammatik vositalari va turli xil birlklari

orqali amalga oshiriladi. Sarlavhalarning reklama qilish imkoniyatlari esa lingvistik bo'limgan vazifalarni bajaradi.

Nemis tilidagi matn va uning sarlavhasi o'rtasidagi chambarchas aloqani alohida ko'rsatib o'tishi lozim. Bunda sarlavhaning tanlanishi, uning leksik - semantik va grammaatik tarkibi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga berilayotgan xabarning eng muhim qismini sarlavha tashkil etadi. Sarlavhalar oddiy matnga qaraganda boshqacharoq grammaatik va stilistik qoidalarga bo'yusunadi. Matnga qo'yiladigan sarlavhalar sifatida ko'pincha maqollar, hikmatli so'zlar, frazeologizmlar va boshqa til birlklari qo'llanib, sarlavhalarning ma'nolarini kuchaytirishga, ularning pragmatik ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday leksik -semantik birliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) Otto hat an diesem Tag die erste Geige gespielt.
- 2) Karl Klein war einige Jahre an der Bühne.
- 3) Anna hat gestern ihre Rolle gespielt

Ushbu leksik-grammatik birliklar matnlarning sarlavhalari sifatida qo'llanilganda ularning kitobxonga nisbatan pragmatik ta'sir doirasi ancha kengayadi, bu sarlavhalar matnning mazmuni haqida ma'lum darajada tushuncha beradi, muallifning tasvir etilayotgan voqeа-hodisalarga munosabatini ifodalaydi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan leksik-semantik birliklar turli hil o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarni namoyon etadi. Sarlavhalarning bunday o'ziga hosliklari quyidagi ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin: xabar berish, aniqlik, fikrni qisqa shaklda bayon qilish, obrazlilik, kitobxonni o'ziga jalb qilish va boshqalar. Shuningdek, sarlavha orqali kitobxon matnning mazmuni haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi. Turli xil stilistik usullar sarlavhalarning yanada yorqinroq, kitobxonlar e'tiborini o'ziga jalb etadigan, mazmunan teran bo'lishini ta'minlaydigan vositalar hisoblanadi. Ana shu nuqtai nazardan olib qaralganda muallif (shoir, yozuvchi) ning vazifasi ko'zga tashlanadigan, tez esda qoladigan, kitobxonning diqqat-e'tiborini tortadigan sarlavhalarni tanlashdan iborat, bu vazifani bajarish uchun esa tilda mavjud bo'lgan o'ziga xos leksik - semantik birliklardan unumli foydalanish talab etiladi. Leksik - stilistik o'ziga xosliklariga ko'ra frazeologizmlar maqollar, hikmatli so'zlar sarlavha sifatida qo'llanish uchun juda mos keladi. Bunday leksik - semantik birliklar ishtirot etgan sarlavhalar kitobxonning diqqat - e'tiborini o'ziga jalb eta oladi, matnning asosiy mazmunini anglab yetish imkoniyatini yaratadi. Yuqorida qayd qilingan birliklar matn sarlavhalari sifatida o'zlarining asosiy (asl) ma'nolari va ko'chma ma'nolarini ifoda etib keladi.

Ana shu birliklardan tashkil topgan sarlavhalar qisqa struktural shaklda butun matnning asosiy mazmuni haqida xabar beradi, bunda ular ma'lum kommunikativ-pragmatik funktsiyalarni bajarib keladi.

Odatda sarlavha matnning nomlanishi sifatida uning mazmuni, ma'lum darajada matn bilan bog'liqligi haqida xabar beradi. Ana shu orqali sarlavhaning xabar berish funktsiyasi amalga oshiriladi. Dastlab matn ma'no tuzilishning xilma-xil elementlari sarlavhada qaydarajada o'z ifodasini topishini aniqlash zarur. Matnning ma'no tizimiga ana shu matnning asosiy g'oyasi, dastlabki va rivojlanib boruvchi tezislari, vaziyatni tahliliy baholash, matnda berilayotgan xabarning maqsadi kiradi. Sarlavhalarning ko'pchiligi matnning asosiy mavzuini ifoda etadi. Bunday sarlavhalarni tilshunos olim A.I.Domashnev termini bilan «mavzu anglatuvchi sarlavhalar» deb atashimiz mumkin.

Matn mavzui uning asosiy g'oyasi tarkibiga kiradi. Sarlavhaning asosiy vazifalaridan biri kitobxonga e'lon qilinayotgan matnning mavzui haqida xabar berishdan iborat. Kitobxon ana shu xabar orqali matnning mavzuini anglab oladi. Masalan: Die Institutsmannschaft hat diesmal unter Form gespielt.

Ushbu sarlavha orqali matnda keltirilayotgan aniq faktlar haqida xabar beriladi, matnni o'qish jarayonida sarlavhada o'z aksini topgan xabar yanada aniqlashadi.

Gazeta janri va uslubi nemis tilining boshqa uslublaridan o'zining lingvistik, grammaatik, leksik-semantik xususiyatlari bilan farqlanadi. Lingvistik xususiyatlariga ulardagи takrorlanadigan so'z va iboralar, ya'ni gazeta qoliplarining keng ishlatalishi, hamda I.V.Arnoldning ko'rsatishicha unda atoqli otlar, joy nomlari, muassasa nomlari, tashkilot va partiyalar ishlatalish foizi yuqoridir. Gazetalarda ishlataladigan atamalar asosan baynalminal xarakterga ega bo'lib, ko'pincha bir xil so'zlar bilan tarjima qilinadi. Neologizmlar ishlatalish foizi ham ancha yuqori bo'lib, bu neologizmlar boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar yoki yangi tushunchalarni ifodalovchi so'zlardir.

Nemis gazeta sarlavhalarini tarjima qilishda o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Agar sarlavhada obrazlilik mavjud bo'lsa, u holda matnni tarjima qilish oldidan uni o'kib chiqish va uning matndagi ma'nosini aniqlash darkor. Shundan so'nggina biz sarlavhada obrazlilik unsurlarini tarjimada saqlab qolishga harakat qilamiz. Ko'p hollarda sarlavhaning qiziqarliligini oshirishga qaratilgan unsurlar mavjudki, sarlavha o'zining axborot vazifasini yo'qotadi va xabarda mavjud ma'nosini bermaydigan darajada bo'lib qoladi. Bunday hollarda sarlavhadagi so'zlar sonini uning matndan ma'no beruvchi so'zlni olib sarlavhaga qo'shish lozimdir.

Xulosa qilib aytganda, sarlavhalarni tarjima qilishda avval uning matni bilan chuqur tanishish kerak, maqsad sarlavhani to'g'ri, aniq va tushunarli qilib tarjima qilishdi. Nemis gazetalaridagi matn o'ziga xos qolipi, sig'imining kichikligi va sarlavhalar tarkibidagi so'zlarning obrazliligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar

1. Абдушукрова Л.А. и Бушуй А.М. Лингвистическая интерпретация текста (Романские и германские языки).-Ташкент; 1980. - 161 с.
2. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. Л., 1988. С. 76-77.
3. Атхамова С. Газетный заголовок как показатель авторского стиля журналиста. Тил тизими ва нутқий мулоқат. Республика илмий - амалий анжумани материаллари. Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2010 – 195-196 б.
4. Begmatov M.B., M. B. Eshonqulova, G. Gazeta tilining ayrim xususiyatlari haqida mulohazalar, Til sistemasi hozirgi zamon lingvovidaktikasi. Respublika ilmiy –amaliy anjumani materiallari. – Samarcand 2010, 131-132 b.
5. Begmatov M.B. Gazeta sarlavhalarning kommunikativ pragmatic funksiyalari Xorijiy til ta'limning kognitiv-pragmatik tamoyillari Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari –Samarqand: SamDCHTI, 2007-24-25 b.
6. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвостилистического исследования.-М.; Наука, 1981. — 219с.
7. Рабинович Ц.А. Темо-ретматическая сегментация текста. Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. канд. филол наук. М., 1982. —20 с.
8. Сайдова М. Прагматическая установка вопроса заголовка в газетном тексте. Tarjima jarayoni va xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy – nazariy konferensiya materiallari.- Samarqand: SamDCHTI: nashri, 2006, 138-139 b.
9. Sattarov M. Matn, uning tarkibiy qismlari va birlashtiruvchi vositalari haqida. Tarjima jarayoni va xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy – nazariy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDCHTI nashri ,2006, 138-142 b.
10. Скутельник Н.Ф. Модальные слова в текстовой реализации современного немецкого языка. Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. канд. филол наук.-Львов, 1986.-25 с.
11. Begmatov M.B, Galnullov M.A.Некоторые особенности газетных заголовок в современном немецком языке. Zamonaviy filologiya va lingvovidaktika masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. II qism. Samarqand. SamDCHTI 2015 y, 89-91 b.
12. Ulug'ova Sh. Badiiy matn sarlavhasi tarjimasi tadqiqotiga kognitiv – stilistik yondashuv. Tarjima, axbarot, muoqat – siyosiy va ijtimoiy ko'pri. Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman materiallari. Samarqand, SamDChTI 2019 y, 88-89 b.
13. Xoliqurov I.B. Газетно – публицистический стиль и проблема газетных заголовков. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar va chet tillarni o'qitish didaktikasi. Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari. Samarqand. SamDChTI 2017 y, 103- 104 b.

UDK: 891.709

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA TO‘Y, BAZM VA MUSIQA BILAN BOG‘LIQ TERMINLARNING QO‘LLANILISH XUSUSIYATI

A.X.Mavlonov

*Samarqand davlat universiteti
mavlonovahmad87@gmail.com*

Annotatsiya. Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek, balki butun jahon adabiyoti, san’ati, madaniyati va tilshunosligiga ulkan hissa qo’shgan betakror siymolardan biridir. U tom ma’noda o‘zbek tilining asoschisi, g‘azal mulkining sultonidir. Turk tilida hech kim Navoiychalik “ko‘p va xo‘p” (Bobur) ijod qilmagan. “Saddi Iskandariy” “Xamsa”dagi dostonlarning hajman eng kattasidir. U 89 bobdan iborat. Dostonda juda ko‘p mavzuga doir terminlar qo‘llanilgan. Masalan, harbiy, dengizchilik, chorvadorlik, dehqonchilik, naqqoshlik, hayvonot olami, baliqchilik, oila, saroy, davlat ishlari, ijtimoiy-siyosiy va boshqa mavzuga doir terminlarni ko‘plab uchratamiz. Ushbu maqolada oila, nikoh, to‘y, musiqa, bayram, bazm bilan bog‘liq terminlar o‘rganilib, tuzilish, morfologik, leksik jihatdan tahlil qilindi. Ushbu terminlarni o‘zbek tilining izohli lug‘atidan o‘rganganimizda o‘zbek, arab va fors tillariga mansubligi ma’lum bo‘ldi. Bu terminlarning ko‘pchiligi hozirda umumiste’moldan chiqib ketgan bo‘lsa, ba’zilari o‘rnini boshqa bir so‘zga bo‘shatib bergen, yana bir qismi esa hozir ham ishlatalidi. Biz maqolamizda buni batafsil yoritishga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: termin, matn tilshunosligi, ayolg‘u, ayoqchi, mutrib, sur, may, jom, tarixiy so‘zlar, arxaik so‘zlar.

**Характеристики использования условий, касающихся свадеб, праздников и музыки в поэме
«Садди Искандарий»**

Аннотация. Садди Искандарий - самый крупный эпос Хамсы. Состоит из 89 глав. В эпосе используется много тематических терминов. Например, мы часто встречаем термины, относящиеся к военным, морским, животноводческим, сельским хозяйствам, живописи, дикой природе, рыбалке, семье, дворцу, правительству, социально-политическим и другим темам. В этой статье исследуются термины, относящиеся к семье, браку, свадьбе, музыке, празднику, застолью, и они анализируются структурно, морфологически и лексически. Когда мы изучили эти термины в узбекском словаре, стало ясно, что они относятся к узбекскому, арабскому и персидскому языкам. Хотя многие из этих терминов уже устарели, некоторые были заменены другими словами, а некоторые все еще используются сегодня.

Ключевые слова: термин, языкоznание, аялгу, аякчи, мутриб, сур, жам, исторические слова, архаические слова.

Features of use of terms related to wedding, party and music in the “Saddi Iskandariy”

Abstract. “Saddi Iskandariy” is the largest epic in Hamsa. It consists of 89 chapters. In the epic a lot of thematic terms were used. For example, we often come across terms related to the military, maritime, animal husbandry, agriculture, painting, wildlife, fishing, family, palace, government, socio-political and other topics. This article explores the terms related to family, marriage, wedding, music, holiday, feast, and analyzes them structurally, morphologically, and lexically. When we studied these terms in the Uzbek dictionary, it became clear that they belong to Uzbek, Arabic and Persian languages. Many of these terms are now obsolete, some have been replaced by another word, and some are still used today. We have tried to elaborate on this in our article.

Keywords: term, textual linguistics, ayalgu, ayakchi, mutrib, sur, wine, jom, historical words, archaic words.

Nizomiddin Mir Alisher butun hayoti davomida ilm, fan, san'at rivojiga homiylik qilgan, tinchlik va totuvlikni ta'minlashga harakat qilgan buyuk shaxs. U Navoiy va foniyl taxallusni ostida ijod qilgan o'zbek adabiyoti hama tilshunosligining eng yirik namoyondasi.

Uning adabiy merosi nafaqat o'zbek, balki butun dunyo adabiyoti, tili va madaniyati rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Har yili an'anaviy ravishda 9-fevral shoir tug'ilgan sana munosabati bilan adabiy tadbirlar, she'rxonlik va badiiy kechalar tashkil etiladi, maqolalar yaratiladi, konferensiylar o'tkaziladi.

Navoiy ijodi go'yoki bir ummon, uni qancha o'rgansak ham, yangi qirralari namoyon bo'laveradi.

Keying yillarda tilshunosligimizda matn tilshunosligi ve terminalogiya sohalari keng o'rganilmoqda. Shu o'rinda termin atamasiga to'xtalib o'tamiz.

Termin(lot.terminus – chek, chegara, chegara belgisi). Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatalish sohasi shu doiralar bilan chegaralangan so'z yoki so'zlar birikmasi; atama. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotSIONALLIKKA ega bo'lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi. Masalan, lingvistik terminlar: gap, ega, ot, son, tovush; geometriyaga oid terminlar: aylana, uchburchak...; fizikaga oid terminlar: jism, bosim, harakat, maydon; kimyoga oid terminlar: suv, kumush, ishqor, tuzlar va b. [11]

Atama istilohi esa aynan terminga teng kelishi o'zbek tilining izohli lug'atida aytilgan.

ATAMA 1 ayn.termin.[6]

Bizning fikrimizcha, termin hamda atama so'zları orasida farq bor. Termin so'zida ilmiylik kuchliroq, atama esa nisbatan kengroq tushuncha. Biz ushbu maqolamizda har ikki leksikadan ham foydalandik.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida harbiy soha, dengizchilik, hayvonot olami, geografiya, tilshunoslik, fizika, biologiya, dehqonchlik, chorvadorlik, yilqichilik kabi ko'plab sohaga oid terminlar qo'llanilgan. Biz ushbu maqolamizda to'y, bayram, bazm hamda musiqa sohasiga oid terminlarni o'rganishni niyat qildik.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida musiqa bilan bog'liq ko'plab terminlarga duch kelamiz. Bularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz.

Bayt:

Ayolg'ung necha yor-yor o'lg'usi,

Mening yig'larim zor-zor o'lg'usi. [Saddi Iskandariy, 398-bet]

Ayolg‘u terminidan hozir deyarli hech kim foydalanmaydi. Bu so‘zning ma’nosini o‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilmagan. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati 1-jildida ayolg‘uga “musiqa asboblaridan biri” [2]deb ta’rif berilgan.

Bayt:

Navoiy, topib soqiyi mohvash,

Yonida aning **mutribi nag‘mkash**. [Saddi Iskandariy, 510-bet]

O‘zbek tilining izohli lug‘atida mutrib so‘ziga shunday izoh berilgan. Mutrib [a. shodlantiruvchi, zavqlantiruvchi; ashulachi; cholg‘uchi] esk.kt. Sozanda va ashulachi. Qilg‘ay ermish mutribi ishq o‘z maqomini iroq, Shul sabab ohangi ushshoq giryai afg‘on emish. E. Vohidov [II tom, 655-bet]

Bayt:

Navoiy, chu sarmanziling chingadur,

Suruding dog‘i sur aro “**chinga**”dur. [Saddi Iskandariy, 397-bet]

Baytning mazmuni: Navoiy, borar manziling Chin bo‘lgach, to‘y tugaguncha “Chinga” (“yor-yor”) vaznida kuylayver. [Saddi Iskandariy, 624-bet]

Bayt:

Mug‘anniy tuzub chinga vaznida chang,

Navo chekki, hay-hay o‘lang, hoy o‘lang. [Saddi Iskandariy, 397-bet]

Bu baytda musiqa bilan bog‘liq juda ko‘p terminlar uchraydi. Mug‘anniy, chinga, navo chekmoq, chang, o‘lang kabi terminlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Mug‘anniy [f. ashulachi, sozanda] esk. kt. Nag‘ma chaluvchi sozanda, nag‘ma bilan qo‘sinq aytuvchi xonanda.[8]

Alisher Navoiy dostonda to‘y jarayoni bilan bog‘liq terminlarni ham qo‘llaydi. Masalan,

Gul-u sabza ayyomida bo‘ldi **to‘y**,

Bo‘lub gulshan oyin bila shahr-u ko‘y. [Saddi Iskandariy, 397-bet]

Navoiy bir o‘rinda “yor-yor” terminini ham qo‘llaydi:

Desang senki, jon qardoshim **yor-yor**!

Men aytayki: munlug‘ boshim **yor-yor**! [Saddi Iskandariy, 397-bet]

Alisher Navoiy to‘yda aytildigan yana bir qo‘sinq “hay-hay o‘lan”ni ham kiritib o‘tadi:

Mug‘anniy tuzub **chinga** vaznida chang,

Navo chekki, hay-hay o‘lang, hoy o‘lang. [Saddi Iskandariy, 397-bet]

Chinga(yor-yor) – qo‘sinq nomi. Yana chingadurkim turk ulusi zuffof va qiz ko‘churur to‘ylarida ani ayturlar, ul surudedur bag‘oyat muassir va ikki navdur. (Mezon ul-avzon, XIV - 180)[2]

O‘lang esa hozirgi kunda o‘lan shaklida qo‘llaniladi. O‘lan - xalq og‘zaki ijodida, odatda, to‘y, gap-gashtak va sh.k. da ijro etiladigan ashula, qo‘sinq, deya ta’rif berilgan. (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, V tom, 147-bet)

Arus fors tilida kelin ma’nosini anglatadi. Navoiy bu atamadan ham foydalangan:

Ki Chin ichra Iskandari Faylaqus,

Chu topti iki o‘yla zebo **arus**. [Saddi Iskandariy, 406-bet]

Ulug‘ bobomiz kelinlar taqinchog‘ini ham doston matnida qo‘llaydi. Xususan, hamoyil leksikasidan foydalangan.

Hamoyilsifat tortibon qo‘ynig‘a,

Ilinin hamoyil qilib bo‘ynig‘a. [Saddi Iskandariy, 406-bet]

Bu so‘zga o‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday ta’rif berilgan:

Hamoyil [a. tasma, qayish; kamarbog‘] Yelkadan belga tushadigan kamar, tasma, bog‘ich. [10]

Bizningcha, **ishq**, **vasl**, **aysh-u nishot** kabi so‘zlar ham to‘y, oila bilan bog‘liq atama hisoblanadi.

Bayt:

Skandarga chun **ishq** aro bo‘ldi kom,

Tilab **vasl** gulshang‘a qildi xirom. [Saddi Iskandariy, 402-bet]

Qilib Ravshanak birla **aysh-u nishot**,

Aning birla oz aylabon inbisot. [Saddi Iskandariy, 407-bet]

Xalqimizda mehmon kutish, bazm qilish an'anaga aylanib ketgan. Bu bilan bog‘liq ko‘plab atamalar ham uchraydi. Bunday atamalarni Navoiy ijodida ham uchratish mumkin. Masalan,

Bayt:

Burun dedi, kelturdilar ko‘p **taom**,

Ki **mehmonga** eti g‘izo birla kom. [Saddi Iskandariy, 438-bet]

Qadah so‘zi tilimizda may ichiladigan idish ma’nosini anglatadi. [10]

Bayt:

Yana shoh berdi kayoniy qadah –

Ki jong'a etkurdy yuz ming farah. [Saddi Iskandariy, 438-bet]

Tilimiz tarixida ayoqchi termini ham ko'p uchraydi. Bu so'zga o'zbek tilining izohli lug'atida sharob quyuvchi, kosagul deya ta'rif berilgan. [6]

Chu bir **jomni mehmon** qildi no'sh,

Ayoqchi, ko'ring turfakim, tutti qo'sh. [Saddi Iskandariy, 438-bet]

Yuqoridagi baytda jom hamda mehmon so'zlarini ham bayram, bazm, tantanalar bilan bog'liq termin hisoblanadi.

May so'zi ham tasavvufiy, ham o'z ma'nosida qo'llaniladi. Navoiy uni bu o'rinda o'z ma'nosida qo'llagan. **Bayt**:

Yana berdilar jilva jomi shigarf,

To'la maydin, andoqli, daryoyi jarf. [Saddi Iskandariy, 438-bet]

Navoiy ijodidagi yuqorida biz o'rgangan terminlarning ba'zilaridan biz hozir ham foydalanamiz. Masalan, taom, mehmon, qadah, yor-yor, ishq, vasl, may, to'y (o'lang so'zi esa tarkibida bir tovush tushib, o'lan shakliga kelib qolgan) va b.

Ba'zi terminlar butunlay iste'moldan chiqib ketgan(tarixiy) bo'lsa, yana ba'zilari o'rnini boshqa so'zga bo'shatib bergan(arxaik).

Tarixiy so'zlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:ayolg'u, ayoqchi, mug'anniy, chang, navo chekmoq, mutribi nag'makash, surud, sur, jom va b.

Arxaik so'zlarga esa quyidagilarni misol qilib keltiramiz: aysh-u nishot (aysh-ishrat), hamoyil (tumor, taqinchoq), marzbon (mezbon) va b.

Dostonda qo'llanilgan arus atamasi esa fors tilidan olingan so'z bo'lib kelin ma'nosini anglatadi.

Ushbu maqolamizda o'rgangan terminlarimizning kata qismi tuzilishiga ko'ra sodda (masalan, taom, mehmon, qadah, yor-yor, ishq, vasl, may, to'y) so'zdir. Shuningdek, matnda qo'shma so'z (navo chekmoq), juft so'z (aysh-u nishot), takroriy so'z (yor-yor)lar ham uchraydi.

Mutribi nag'makash esa izofali birikmadir.

Morfologik jihatdan olib ko'rsak, o'rganilgan terminlarning barchasi ot, faqat navo chekmoq so'zi fe'l turkumiga mansub.

Hamoyil so'zini qo'llash barobarida shoir o'xshatishdan foydalangan.

Bayt:

Hamoyilsifat tortibon qo'ynig'a,

Iligin hamoyil qilib bo'ynig'a.

Maqolada o'rganilgan terminlardan yor-yor, to'y, ayoqchi, o'lang termini o'zbekcha; taom, sur, qadah, surud, mutrib, aysh-u nishot, hamoyil, ishq, vasl terminlari arabcha; arus, jom, may, mehmon, marzbon, mug'anniy, chang, navo terminlari esa forscha so'zlardir[6;7;8;9;10].

Shunday qilib:

1. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida musiqa, to'y, bayram, bazm, ziyofat bilan bog'liq ko'plab terminlar uchraydi.

2. Bu terminlarning ko'pchiligi hozirgi kunda ham ishlatsa, ba'zilari butunlay iste'moldan chiqqan, yana bir qismi esa o'z o'rnini boshqa bir so'zga bo'shatib bergan.

3. Tuzilishga ko'ra terminlarning sodda, qo'shma, juft va takroriy turlari qatnashgan.

4. Matnda izofali birikma (mutribi nag'makash) ham uchraydi.

5. Matndagi terminlar asosan ot, shuningdek fe'l turkumiga oid.

6. Doston matnidagi terminlarning bir qismi sof o'zbek tiliga xos, nisbatan kattaroq qismi esa arab va fors tillaridan olingan o'zlashma so'zlardir.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент, 1983.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент, 1983.
3. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 11-том. – Тошкент, 1993.
4. Алишер Навоий. Садди Искандарий. – Тошкент, 2020.
5. Абдулхайр Манзар. Навоий асарларининг изоҳли луғати. - Тошкент, 2018.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент, 2006.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент, 2006.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент, 2007.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент, 2008.

10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент, 2008.
 11. Ҳожиев Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2000.
 12. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/2021_yilda_alisher_navoiy_tavalludining_580_yilligi

UDK: 82-9

FENTEZI GENEZISI VA UNING ILMIY TALQINI**D. Nasriddinov**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
 dilshodnasr@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada fentezi yo'nalishining yaralishida o'ziga xos fundamental asosga ega ekanligi, shuningdek, fentezi tarkibni shakklantiruvchi mif, ertak va ritsarlik romanlari va ularning paydo bo'lishi haqida ilmiy nazariy jihatdan tadqiq qilingan. Fentezi haqida horijiy olimlarning ilmiy qarashlariga nisbatan muallif o'zining ilmiy nazariy yondoshuvini asoslab bergan.

Kalit so'zlar: fentezi, janr, mif, ritsarlik romanlari, fol'klor, ertak, menippeya, ikkilamchi olam, fentezi transformasiyasi.

Генезис фантазии и его научная интерпретация

Аннотация. В данной статье исследуются конкретные теоретические основы создания фэнтезийного направления, а также мифы, сказки и романы, формирующие фэнтезийное содержание, и научная теория их возникновения. Автор обосновывает свой научно-теоретический подход к научным взглядам зарубежных ученых на фэнтези.

Ключевые слова: фэнтези, жанр, миф, рыцарский роман, фольклор, сказка, мениппея, вторичный мир, трансформация фэнтези.

Genesis of fantasy and its scientific interpretation

Abstract. This article examines the specific theoretical foundations for the creation of a fantasy direction, as well as myths, fairy tales and novels that form fantasy content, and the scientific theory of their origin. The author substantiates his scientific and theoretical approach to the scientific views of foreign scientists on fantasy.

Keywords: fantasy, genre, myth, knight's romance, folklore, fairy tale, menippea, secondary world, fantasy transformation.

Kirish. Fentezi adabiyotida keng uchraydigan epik, mif, ishq muhabbat ruhidagi asar, satira, tarixiy asar, utopik ertak, xalq ertaklari va masallariga duch kelamiz. Bu ro'yxatni kengroq tarzda davom ettirishimiz mumkin, biroq fentezining rivojlanish tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tadqiq qilishimizda shularning o'zi yetarli deb o'ylaymiz. Zamonaviy fentezi adabiyotining rivojlanish bosqichida ularni o'rganib chiqish juda muhimdir. Zamonaviy fentezida turli kichik epik turlarning qo'llanilishi, unda rang-baranglikni va taassurotni boyitish vositalarini hosil qiladi. Ammo u aniq bir farqlanuvchi termin sifatida rivojlna olmadidi. Shu sababli fentezi va fantastika terminlari ozmi ko'pmi o'zaro o'rinn al mashish shakllarini saqlab qoldi. Bu esa fentezi adabiyotining boshqa bir janrning kategoriyasiga mos kelishi yoki kelmasligi haqidagi bahslarga sabab bo'lidi. Fenteziga bo'lgan qiziqish o'tgan asrning 60 -70 chi yillarda boshlandi. Fentezining janr yoki yo'nalish sifatida aniqlanishida o'zlarining turlichay qarashlarini asos qilib ko'rsata boshladilar.

Natija va mulohazalar: Fentezi nazariyasini shu paytgacha olimlarning oldidagi qat'iy muqim bir yechim talab qilmaydigan jumboqli savol bo'lib kelmoqda. Fentezi nazariyasiga tegishli bo'lgan ko'plab fikrlar mulohazalar mavjud. Fentezi va uning mazmun mohiyatiga nisbatan olimlar Svetan Todorov, Ketrin Hyum, Mark Bauld, Rozmeri Jekson, Ireneush Opaski, Kolin Menlav, Jons D.V., Yakovenko O. K., Chernisheva T. O., Chepur Y. A., Frumkin K., Stroeva K., Neelov Y. M., Laxmann R., Krinisina O.P., Kovtun Ye. N., Kaplan V., Gopman V. L. Britikov A. F., Berezin V., Baturin D. A., v.b. fentezi va fantastika fenomenlariga o'zlarining ilmiy yondashuvlarini keltirganlar.

Polshalik adabiy tanqidchi Ireneush Opachki janrning rivojlanish tarixida yozuvchilar yashayotgan sharoit o'zgarsa adabiyot ham o'zgarishini, bunda o'z ichiga yangi mavzularni, motivlarni va vaqt muammolarini qamrab olishini ta'kidlab o'tgan. Olimning fikriga ko'ra janrlar o'zgarishiga sabab bo'luvchi maxsus uch yo'l mavjud. Bulardan ikkinchi va uchinchi evolyusion shakllanishini fentezi masalasiga bog'lasak bo'ladi. Ikkinchili shakliga ko'ra "bu – poetik elementlarning til evolyutsiyasida ifoda ma'nosining

o'zgarishi bilan bog'liq bo'lган semantik modifikasiyasidir. Janr tarixida bu jihat rivojlanishning turli bosqichlarida ikki tashqi o'xshash shakkarni paydo qilishi mumkin; biroq, ular omonimlar kabi turli shakklar, turli ma'nolar bilan keladi. So'ngra ularni bir butunlikda, janrning bir varianti yoki bir modelida birlashtirishning imkoniy yo'qdir; shuning uchun ham, aniq janr modelining chegaralarini aniqlash juda muhim. Uchinchi evolyusion turi - bu boshqa janrlarning aniq, tarixiy aniqlangan qisimlariga tegshli bo'lган bir janr yo'nalishidagi elementlar sohasiga kirishidir” [Opacki.I., 2000; 119-120]. Yuqorida keltirilgan fikrga nisbattan shuni aytishimiz mumkinki, fentezi va uning tarkibiy qismini tashkil etuvchi barcha kichik epik turlar tarixiy elementlar bilan o'zaro uyg'unlashgan bo'ladi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda fentezi tushunchasiga asosiy muammolardan biri deb qaratishiga sabab shuki, ilmiy izlanuvchilarining ko'pchiligi fenteziga janr sifatida qarashlaridir. Fentezi tushunchasini ko'plab olimlar o'zinig ilmiy izlanishlarida turlicha nomlar bilan ataganlar. Masalan, M.S Galina [Vil'yam.G., Fantastika. <http://mir.fantastics/articles/>] va Ye.N.Kovtun fenteziga “janr” [Kovtun.E.N., 1999; 308], A.Karelin - fantastikaning “subjanr”[Karelin A. Klassiki. Predtechni <http://mif.ru/Articles/art>], A.I.Osipov – “yo'nalish”[Osipov A.N., 1999; 320], sifatida qarab, shu nom bilan ataganlar. Shuningdek, “Collins Cobuild English Language Dictionary” [Collins Cobuild English Language Dictionary, 1991; 1704], “Longman Dictionary of English Language and Culture”[Longman Dictionary of English Language and Culture, 2005; 1620] kabi lug'atlarda fentezini janrga aloqador degan tushunchalar keltirib o'tilmagan. Turli tadqiqotchilar ham fentezi ma'noviy chegarasiga oydinlik krita olmaganlar. Ushbu keltirilgan izohlardan uzimiz uchun fenteziga nisbatan janr emas balki “yo'nalish” deb qarashni uzimizga maqbul yo'l deb bildik. Bu jihatdan, yuqorida A.I. Osipovning fikrini to'g'ri deb bilamiz.

Dastlab fentezi va unga tegishli bo'lган asarlar haqidagi birlamchi fikrlar ensiklopedik lug'atlarga termin sifatida kiritildi. Jon Klyut “fentezi” ga “fentezi matni uzlusiz hikoyadir. Qachonki fentezi bu olamda sodir bo'lsa, u biz qabul qilgan olamda sodir bo'lishi mumkin bo'lmannan hikoyani bayon qiladi...; qachonki u o'zga olamda sodir bo'lib, inson nuqtai nazarida mavjud bo'lsada aslida u olam mavjud emas”[Clute, John. 1997; 310-15]. Biroq fenteziga bu ta'rif bilan umumiy qarash asosli emas. Chunki fentezi adabiyotini shakklanishida bir necha unsurlarga murojaat qilamiz. Bu kabi unsurlarga tadqiqotimiz davomida to'xtalib o'tamiz.

Fenteziga nisbatan janr sifatida qarash juda ko'plab baxslarga sabab bo'lmoqda. Brayn Atteberri fentezini “uslub va formula o'rtasidagi oltin oraliq” [Attebery, Brian., 1992; 223-224] deb atagan. Haqiqatdan ham bu fentezi haqidagi fikrlarni yanada chigallashtiradi. Shunday bo'lsada, fentezi adabiyotda o'zining o'rniga ega bo'lib, juda sermazmun fentezi-romanlarining yaratilishiga asos bo'lmoqda. Zamonaqiy adabiyotda biz qiziqib mutolaa qilayotgan fentezi “Uzuklar hukmdori”, “Garri Potter”, “Taxtlar o'yini” kabi asarlar bunga yaqqol misoldir. Shuningdek, XIX asrda yaratilgan Jon Ruskinning TheKingoftheGoldenRiver (1851) (Oltin daryo qiroli), Uiliam Meikpis Tekerining TheRoseandtheRing (1855), (Atirgul va uzuk), Charliz Kingslining The Water Babies (1863) (Suv go'daklari) va Luis Kerolning Alicein Wonderland (1865) (Alisa mo'jizalar mamlakatida) [Collins Cobuild English Language Dictionary, 1991; 1704] kabi fentezi asarlar janrning sara na'munalari sifatida tilga olinadi. Keltirilgan asarlar bolalar uchun qiziqarli badiiy kitoblar bo'lib, ularda kitobxonni o'ziga tortuvchi sehrli sarguzashtlar syujeti aks etgan. Shu jihatdan, bu janrga nisbattan ilmda asosli ta'riflar ham keltirgan: “Fentezi ma'rifatchilik adabiy davridan keyingi proza janri bo'lib, tarkibida qo'shimcha (g'ayritabiy) kuchlar fundamental rol o'ynab, maqsadi iliyuziya borlig'ini shakllantirish bo'lган hikoyalardan tashkil topadi” [Kristian Bross, 2017; <https://books.google.co.uz>]. Demak, fentezi romanlarining shakklanishida turli sehrli mavjudotlar, turli ertak qahramonlar va real borliqda mavhum bo'lган jonzotlarning xarakterlanishi uning tarkibiy qismini bosqichma bosqich tadqiq qilishga undaydi. Shu asnoda olib qaraydigan bo'lsak, fentezining dastlabki asosida mifologiyaning o'rni muhim ekanligini ko'ramiz. Janr sohasidagi ilmiy tadqiqotchilar mifni fentezining etik-estetik va tizmlashtirilgan tarkibiy qismi deb baxolaydilar. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, fentezi syujetining asosiy qismini mif egallaydi.

Mif – xudolar, ruhlar, xudojo'y yoki o'zlarining kelib chiqishlarini ma'budlar bilan bog'laydigan olam yaralishida xizmat ko'rsatgan qahramonlar haqidagi voqelev elementlardir. Ba'zi hikoyalarda mif orqali fentezi xususiyatlari yoritib berilgan bo'lsa, boshqalarida esa uning vazifasini aniqlab berganligiga guvoh bo'lamic. Mif – bu murakkab, ko'p aspektli tushunchadir. Aynan shu murakkablik va ko'p aspektli tushuncha ilmiy tadqiqotchilar yondoshuvida diqqatni ikki tomonga qaratishiga undaydi.Uning tashqi tarafdan hikoyaga xos bo'lган, ichki tarafdan esa mazmun mohiyatini har tomonlama o'rganish imkonii bo'lmannan voqelevka nisbatan yondashuvdir.

Mif haqida ilmda ta'kidlanganidek: “Mif – bu shaxsning ishonchiga kirgan ertaknamo, mavjud bo'lmannan, afsonaviy, ramziy hodisa yoki inson” [Ushakova. D. N., 2013; 303]. Keltirilgan izohdan ko'rishimiz mumkinki, miflardagi barcha hodisalarning shakllanishida sehr-jodu orqali inson ishonchini

o'ziga bo'yosindira oladi va uni o'ziga ergashtirib boradi. Chunki, afsonaviylik yoki ertaknamolik xususiyatlarini o'z syujetiga asos qilib olgan asarlar inson ishonchiga to'g'ridan-to'g'ri kirib boradi.

Mif tushunchasiga ikki xil yondashuv mayjud bo'lib, birinchisi so'zning ma'nosiga to'g'ridan to'g'ri yondoshuv ya'ni, xudolar yoki qaxramonlar haqidagi qadimgi xalq ertagi, ikkinchisi esa majoziy ma'noda afsonaviy, fantastik, uydirma yoki o'ylab to'qilgan narsadir. Mif haqidagi ilmiy fikrlar turli manbalarda o'zining asosini topib borgan. "Словарь культуры XX века" (XX asr madaniyat lug'atida) uning umummadaniy uchta tushunchasi keltirilgan: "Mif – bu 1) qadimgi rivoyat, hikoya; 2) mifologik ijodkorlik, mifologik kosmogenez; 3) ongning asosiy holati, tarixiy va madaniy sharoit" [Rudnyov.V.P., 1999; 50]. Ushbu ta'riflar esa "mif" tushunchasini faqatgina bir tomondan mifologik syujetlarda nomoyon qilsa, boshqa tarafdan mifologik syujetlarning hikoyaga xos bo'lган o'zga dunyo haqidagi tushunchalarni nomoyon qiladi. Miflarning hikoyaviylik va mazmuniylik aspekti jihatidan ular o'zaro bir biriga bog'liqdir va ular bir vaqtning o'zida birgalikda shakllanib boradi. Miflarning muxim xususiyatlaridan biri u jamiyat va individual shaxsning maqsadiga xos bo'lган fikrni (ong) hosil qilishidir. Mifologik ong biz uchun u yoki bu madaniyatning muhim bo'lган jabhalarini qiziqarli qilib shakllantirib beradi. V.P. Rudnyovning fikricha, mifologik ong – bu "shunday holatdagi ongki, sarob va real voqelik, haqiqat va yolg'on, hayot va o'limdir, shuningdek, ong ikki qarama qarshi g'oyaviy madaniyatlar o'rtasida neytral hisoblanadi." [Rudnyov.V.P., 1999; 243]. Bu jihatdan, ikki qarama-qashi madaniyatlar o'rtasida kitobxonni ma'lum bir muvozanatda ushlab turadi, ya'ni uni yolg'onga to'liq ishontirib yubormasligi, yoki haqiqatni o'ziga rost deb bilishlikning oldini oladi.

Mifologik tessavurlar olamning yaratilishi, o'simlik va hayvonot dunyosining yuzaga kelishi, odamzotning paydo bo'lishini xayoliy uydirmalar vositasida izohlaydi. M.I.Steblin Kamenskiy ham mifni - bu muayan voqelik bayoni bo'lib, unda hikoya qilingan voqeа – hodisa nechog'lik uydirma bo'lmasin, yaratilgan va yashab kelayotgan joyida u hamisha haqiqat, real voqelik ifodasi sifatida qabul qilinishini ta'kidlab o'tadi. Darhaqiqat, mifni o'rganadigan har qanday tadqiqotchi, eng avvalo uning real voqelikdan ajralgan holda uydirma sifatida qaraydi. Shuning uchun ham mif bugungi kunda haqqoniy hayotiy voqelik ifodasi sifatida qaralmaydi. Bu esa tadqiqotchining tessavvurida "mif - uydirmadir" degan qarash yuzaga keladi.

Ajdodlarimizning olam, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot hususidagi qadimiy miflarning juda ko'p turlari keltirilgan. Biz tadqiqotimizning markazida turgan fentezi uchun

- ibtido haqidagi miflar (olammng yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi haqidagi miflar;
- samoviy miflar (osmon jismiari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar;
- antropogenik miflar (g'ayrioddii xislatga ega bo'lган afsonaviy personajlar haqidagi miflar, masalan, Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Hubbi haqidagi miflar);
- o'lib - tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar (masalan, O'lmas Koshey haqidagi mifologik syujetlar);
- dualistik miflar, (ezgulik va yovuzlik kuchlari) kabi turlarini asos sifatida tanlab olamiz. Bunga fentezi olamning yaratilishida mo'jizakorlikning o'rni ya'ni, tabiat hodisalarini boshqaruvchi ma'budlar, afsonaviy personajlarning ilohiy kuchlar bilan birgalikda gavdalanishi sabab bo'ladi. Shuningdek, o'lmas afsonaviy qahramonlarning voqeа markazida kelishi hamda ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning rivojlanib borishi fentezidagi asosiy xususiyatlarni shakllantiradi.

Adabiyotda fentezining asosiy tarkibiy qismlari tahlil ostiga olinganida, unda mif, Yevropa fol'klori kabilarning ro'yxatini shakllantirishimiz mumkin. Ammo, bularning ichida miflarning fentezi asarlarning yaralishidagi asosiy omil ekanligini ayta olamiz. Shu bilan birgalikda, mif o'zining hikoyaviyligi va mazmundorligi bilan fentezi janrning evolyusion rivojlanish zanjirida alohida o'rinnegallaaydi. Shuni ham ta'kidlashimiz lozimki, fentezi badiy adabiyotdagi janrlar zanjirida bo'lib, u rasman va mazmunan miflar bilan bog'langan. Miflarning fenteziga transformasiya bo'lish jarayoni esa, fentezi adabiyotining shakllanishidagi asosiy manba bo'ladi.

Miflardagi o'ziga xosliklardan yana biri mifologik hikoyalarda har doim boshqa bir zamon va makon haqida hikoya qilinadi. Bu zamon va makon hozir yoki o'tmishdan ajralgan holdagi voqelik bo'lib, u inson ongiga kirib boradi va uning his tuyg'ulariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aynan shu xususiyat mif chizgisini vujudga keltiradi. Epik poemalarda garchi asardagi voqelik bir sikl sifatida hozirgi vaqtida hikoya qilinayotgan bo'lsada, muallif va kitobxon uchun barcha voqealar xuddi o'tmishda sodir bo'lgandek nomoyon bo'ladi. Mifda ham zamon va makon tushunchasi - bu muhim bo'lган voqelikni hikoya qiladi. Ushbu voqelik esa fentezi va mif o'rtasidagi o'zaro bog'liklikni ta'minlaydi. Fentezida mif qaxramonlarining: buyuk ma'budlar va ularga bog'liqlikligi bo'lган xalq qaxramonlari, aynan mo'jizalarni paydo qiluvchi g'ayrioddii mavjudotlarning nomoyon bo'lishi – bu fentezi va mif o'rtasidagi ajralmas bog'liqlikn shakllantiradi.

Mifologiyada yana muhim bo'lgan masala bu – inson va tabiat munosabatidir. Bu narsa mifologiyada estetik aspektini rivojlantiradi. Chunki inson va tabiat o'rtasidagi zaro munosabat yillar davomida mifologik asarlardagi mazmun-mohiyatni tashkil etuvchi omildir. Bu borada Gomer eposlari taxvilchisi A.F.Losev qadimgi mifologik tabiat tassavvurlarini tartibsiz holda baholaydi. Mifologiyada tabiat va inson munosabatining doimiy bog'liqligini yozuvchi tomonidan badiiy qolipga solib berilishi esa uning mahorati yuksakligidan dalolat ekanligini ta'kidlaydi. Tabiatga hanuzgacha mifologik fenomen sifatida qaraladi. Tabiatda ham ikki hil fikr: yaxshilik va yomonlik mavjud. Bu mifdag'i binarlik oppozisiyasini vujudga keltiradi. Mifologiyaning asosini ikki qarama qarshi kuch: ezgulik va yovuzlik kabi binar oppozitsiyani tashkil qiladi. Binar oppozitsiya – bu "dunyoni anglashning umumiyo'vitositasidir. Binar oppozitsiya dunyo suratining tasvirida yotadi, shuningdek ular xayot - o'lim, o'ng - chap, yaxshi – yomon v.b. kabi universal xarakterga ega" [Rudnyov V. P., 1999; 50]. Mifologik binarlik tushunchasi bizni ezgulik va yovuzlik kategoriyalari orasidagi parallelilik tomon yetaklaydi. Demak, fentezi janridagi asarlarda voqealar silsilasida ham aynan ikki qarama qarshi tomonlarning o'zaro kurashini ko'ramiz.

Fentezida qaxramonlarning tasvirlanishi va voqealar rivoji miflardan tashqari ertakka xos bo'lgan obrazlarning yoki voqealar ketma ketligi kitobxonni o'ziga qiziqtira oladi. Shu jihatdan fentezi evolyutsiyasida ertaklarning o'rni ham sezilib turadi.

Ertak miflarning "merosxo'ri" sifatida o'zining adabiy xususiyatlari bilan folklor janrida rivojlanib kelmoqda. Ertak – asosan o'zining qiziqarli voqealarini va shaxzoda va malikalar, so'zlashuvchi hayvonlar, odamxo'r maxluqlar, yalmog'iz kabi obrazlardan boshqa inson shuuri bilan tasvirlay oladigan g'aroyib mavjudotlarni uchratish mumkin bo'lgan xalq og'zaki janridir. Xalq og'zaki ijodining eng mazmunli mahsuli sifatida ertak nafaqat bir millat, balki butun xalqlar adabiyotida o'zining janr sifatidagi o'rniga ega. Ilmda ertak janri yuzasidan juda ko'plab olimlarimiz ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Shunday olimlarimizdan biri Buyuk Karimiy bo'lib, u ertakka janriga nisbatan quyidagicha izoh bergan: "Ertak – termini uzoq zamonlarning mevasidir. Lekin qaysi zamonlardan beri ertak shaklida ishlatala boshlagani haqida qat'iy bir narsa deyishga hali qiynalamiz. Ammo ilgarilar ertak shaklida ishlatalgani bizga ma'lum. Lug'atlarga murojaat etganimizda ertaki so'zi erta, ertang so'zlaridan bo'lib, "ertagi, qadimgi, avvalgi" ma'nolarini beradi" [To'laboev.O., v.b., (Antologiya), 2017; 49]. Demak, ertaklarning yaralishida ma'lum darajada o'tmishdagi voqelikka aloqador bo'lib, bunda ertak o'tmishni badiylashtirib huddi jonli manzarani hosil qiladi va u barchani o'ziga ishontira oladi. Bu jihatdan ertaklarning kelib chiqish genezisi har bir millatning ma'daniy qadriyatlarini o'zida aks etuvchi epik turlardan biridir. Shuningdek, Yevropa olimlarining ta'kidlashicha: "ertaklar og'zaki ijod an'anlarining bir qismi bo'lib, xalq adabiyotiga tegishlidir" [Cuddon J., 1998; 283]. Ertak - xalq og'zaki ijodining bir na'munasi sifatida butun xalq yoki millatning ijtimoiy va madaniy jabhalarini yoritib berishga hizmat qiladi. Shunday ekan, fentezi syujetida ham aynan ertakka xos bo'lgan millat va xalqning o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan voqealar rivoji yotadi. Demak, ertaklarning kelib chiqish tarixini inson va madaniyatining yaralishga bog'lashimiz mumkin. Shu bilan birgalikda, J.A.Kuddon ertaklarning yozilish shaklini ozmi ko'pmi g'ayritabiy kuchlar borasidagi turli sarguzashtlarga ega deb biladi.

Ertaklar ham miflar ham fentezi bilan uzbek bog'lamaslik mumkin emas. Ular doim bir qolipda shakllanib kelgan. Mel'tinskiyning fikricha: "Sehrli ertakning shakllanishi ibrido'y jamoa tuzumidan, tarixiy davrlaridan keyinroq bir mucha taraqqiy etgan jamiyatda edi. Mifologik qarashlarning susayishiga endilikda sehrli ertakning poetik shaklga aylanganligi sabab bo'ldi. Aynan bu holat, miflar bilan bo'lgan sinkretik aloqaning batamom uzilishiga sabab bo'ldi" [Meletinskiy Ye. M., 1998; 291]. Bu yerda ham biz epik janrini tahlil ostiga olganda poetikaning mifologiyadan ustunligini ko'ramiz. Ammo, mif bilan ertakning o'zaro bog'liqligi hanuz o'z kuchini yo'qotmagan. Shu nuqtai nazardan, biz uni mif hikoyasi sifatida talqin qilsak bo'ladi.

Mif va ertaklar kompozisiyasiga bag'ishlangan voqeliklari ketma – ketligi bilan mos tushishi haqida gap ketganda V.Prop go'yo o'smir bilan bog'liq bo'lgan voqealar gapirilganda, o'smir haqida emas, balki qavm va an'analar asoschisi mo'jizaviy tarzda dunyoga kelgan ayiqlar, bo'rilar saltanatida olov va sehrli raqslar v.b. olib kelgan ajodolar haqida gapirish" tushunchasini berishni ta'kidlab o'tadi [Propp.V., 2004; 186]. Yuqoridaqizohlardan hulosa qilgan holda, ertak fentzining tarkibida kelib, ikkisi ham bir uyg'unlikda bir vazifani bajaradi ya'ni, o'tmish voqelikning borliqda aks sado berishiga hizmat qiladi. Bunda kitobxon o'qigan narsasini xoh u ertak bo'lsin, xoh fentezi asar, ularning ikkisida ham o'tmish sari sayohat qiladi.

Ertak voqeligi, o'tmishda sodir bo'ladi ammo, uning makon va zamonini aniqlab bo'lmaydi. Biz faqatgina bunday noaniqliklarga ertaklarga xos bo'lgan qolip shaklidagi an'anaviy debochasi "qadim o'tgan zamonda", "bir bor ekan bir yo'q ekan" va b.sh. kabi aniqlik kirita olamiz xolos. Bunday noaniqlik ertaklarning zamon va makon masalasini yo'qqa chiqaradi. Sehrli ertaklarning aynan fentezi bilan bog'liqligi - ularning har ikkkisida ham noreallikdagi voqelikning sodir bo'lisdigidir. Y. Kovtun fikricha:

“birlamchi adabiy shakl ikkilamchi shartlilik.... qabul qilingan barcha uydirmalar asosini sehrli ertaklar deb hisoblaymiz” [Kovtun Ye. N., 2008; 46]. Haqiqatdan ham, ertaklar olamini sehr-jodusiz tassavvur qilib bo‘lmaydi,. Aynan shuertak mazmun mohiyatini ochib berishda yoki ertakning boshqa asarlardan farqlanib turishida estetik ruh bag‘ishlovchi unsur sifatida xizmat qildi. Bu jihatdan M.Lipoveskiy ertaklardagi mo‘jizaviylik va g‘aroyib voqelikni dastlabki qatorga qo‘yadi va sehrli ertaklarda bu narsa uning ma‘lumot tarqatuvchi vazifasidan ko‘ra estetik jihatini belgilashini ta‘kidlab o‘tadi.

Fentezi asosan ertaklar qonuniyati asosida yaratiladi hamda ularidan personajlar vazifasini va obrazlar tizimini o‘zlashtiradi. I.Simirnov ertaklarga asarlarning yaratilishidagi metatuzilma kodi sifatida qaraydi. Demak, ertaklardagi har bir qahramon fentezi asarlaridagi personajlar bilan uyg‘unlashgan holda bir butunlikni tashkil qildi. Shuningdek, har bir asardagi berilgan voqealar huddi odamni tinch sokin joylarga boshlaydi va maroqli hissiyotni uyg‘otadi. Bu holatga fentezi olamida ham duch kelamiz ya‘ni, kitobxon hoxishidan qatiy nazar o‘zini o‘zga olamda ko‘radi va bu olamda turli ertak qaxramonlari bilan to‘qnash keladi. Bu to‘qnashuv jarayonida kitobxonda ikki xil ong osti fikr paydo bo‘ladi. Birinchisi, bu olamga qanday tushib qolishi va undagi barcha sir-sinoatlar haqida ma‘lumot olish bo‘lsa, ikkinchisi undagi qahramonlarni go‘yo oldin qayerda eshitgani yoki ko‘rgani haqidagi fikrdir. Bunda kitobxon bunday qaxramonlarni yoshligida buvilaridan eshitgan ertaklar yoki kitoblarda o‘qigan rasmlı ertaklarda uchratganligini anglab yetadi. Y. Brandis ta‘kidlashicha: “fenteziga” o‘xshash asarlarda.....biz sehrli ertaklardagi to‘liq yoki qisman o‘zgarishlarga, boshqacha qilib aytganda, miflarning o‘zgacha talqiniga, parodiyalanishga, taqlid qilinishga, to‘liq nusxa ko‘chirilishiga guvoh bo‘lamiz” [Brandis Ye., 1977; № 6. 110]. Bundan ko‘rinib turibdiki, miflar ertaklardan oldin paydo bo‘lgan. Bu ikki voqelikning talqinini fentezida uchratamiz. Demak, ertaklarga miflarning yangicha talqini sifatida qarasak, fentezini bu ikkisining uyg‘unlashuvidan hosil bo‘lgan o‘zgacha taqlid deb izohlasak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Ye.Neelov ham fentezi va ertak bog‘liqligi haqida “fentezidagi ertak go‘yo o‘zini bir necha koordinatalar tizimi sifatida belgilaydi” [Neelov. E., Фольклорный интертекст русской фантастики <http://www.philolog.ru/filolog/uchebnik.pdf>] degan fikrni ta‘kidlab o‘tgan. Shu fikrdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, fentezining dastlabki kaliti bu o‘zida barcha ertaklar jamlanmasining to‘liq yoki qisman vazifalari yashirin tarzda bo‘ladi. Shuning uchun ham, biz J.Tolkinning “Uzuklar hukmdori”, K.Roulinning “Garri Potter” kabi bolalar fentezi asarlaridagi voqealar silsilasida va obrazlar berilishida o‘ziga xos bo‘lgan o‘xshashaliklarni ko‘ramiz.

Shuningdek, fentezining estetik xususiyatini belgilab beruvchi “menippeya tushunchasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda minippeya tushunchasiga izoh berib o‘tsak. Minippeya – jidiyumoristik janr turi bo‘lib, dastlab bu termin M.Baxtin tomonidan qo‘llanilgan. Menippeya tushunchasi haqidagi fikrlarni M.Baxtin o‘zining “Проблемы поэтики Достоевского” (Dostoevskiy poetikasi muammolari) kitobida keltirib o‘tgan. Boshqa tarafdan “Menippeya” terminiga tarixiy nuqtai nazardan qarasak, o‘tmishdagi badiiy taffakkur tushunchasi bo‘lgan “Menippeya satirasi” (eramizdan oldingi III asrda yashagan faylasuf Gadaralik Menippa nomi bilan bog‘laydi) - janr sifatida ellinizm davrida paydo bo‘lgan va Suqrot dialoglari (fol’klor manbalaridan ajralgan holda paydo bo‘lgan) klassik epos va tragediyalardan keskin farq qiluvchi maxsus antik janrlar guruhiga kiruvchi “jiddiy – yumoristik” [Nikolyukin A.N. 2001; 525] janrdir. Menippeya satirasi haqida gap ketganda M.Baxtin quyidagi fikrni yozgan: “butun jaxon adabiyotida biz o‘zining to‘qima va fantastik jihatlari bo‘yicha menippeyanadan erkinroq bo‘lgan janrnni topa olmaymiz” [Baxtin M.M., 2002; 66]. Ko‘rinadiki, bu janr alohida tadqiqotni talab qiladi. Fentezi janrida menippeyaning o‘rni yoki uning o‘zaro bog‘liqlik jihatlarini ochish kelgusida yangi izlanishlarga yo‘l ochadi. Bu esa fentezining keng qamrovli soha ekanligini ko‘rsatadi.

Fentezi o‘z tarkibiga turli ertak va mif qaxramonlaridan tashqari ierarxaik obrazlarni ham kiritadi. Shuning uchun ham minippeyaning fentezida o‘z satirasini ko‘rsatib berishi, fentezi bilan minippeyaning o‘zaro aloqadorligini ta‘minlaydi. Bu holat o‘z o‘zidan fentezi janridagi uchinchi muhim bo‘lgan tarkibiy qismini hosil bo‘lishiga yordam beradi. Bizga malumki, ierarxaik obrazlar sifatida bir mavqega ega bo‘lgan avlodlarni: qiro, qirolicha, shahzodalar, malikalar v.b. ko‘ramiz. Aynan fentezi asarlarda o‘rtा asrlarga tegishli bo‘lgan stereotiplar va mavzular: ot ustidagi risarlar, qirolik oilalari, zindonlar, o‘rtा asrga xos bo‘lgan kiyim - kechaklar va qasrlar tarixiylik unsurlarini ochi beradi. Bu kabi stereotip obrazlar va ular o‘rtasidagi o‘zaro konfliktlar asar syujetini yanada jonlantiradi. Fentezi janrining Yevropa mamlakatlari shakllanishi uning tarkibiga yana bir tarixiy jamiyat qatlamini ifodalovchi risarlik romanlari va O‘rtा asrlarga tegishli xalq qahramonlarini olib kirdi. Bunda O‘rtा asrlar cherkovi tomonidan rad qilingan mifologik an‘analar fentezi janrining rivojlanishida zanjir bo‘lib xizmat qilib, O‘rtा asrlar tarixiy voqeligi bilan uyg‘unlashgan holda o‘ziga xos asar syujetini shakllantiradi. Shu tizim bo‘yicha ingliz zabon g‘arb dunyosida juda mashhur bo‘lgan klassik fentezi Robin Gud, Qirol Artur kabilar nafaqat o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealar hikoyalar tarzida yozildi. O‘rtा asrlar dunyosida g‘ayritabiyy kuchlarning

sarguzashtlar bilan qorishgan hikoya usuli dunyoga keldi. Bu davrlarda borliq bilan tasavvur o'rtasida deyarli farq mavjud bo'lman. Insoniyat o'zlarini turli o'zga kuchlar ta'siri ostidagi olamda ko'rganlar va ular yashayotgan hayotlarida turli g'ayritabiyy voqealar sodir bo'lishiga shubha ko'zi bilan qarashmaganlar. G'ayritabiyy kuchlar tushunchasi butun urf - odat va an'analarini o'ziga qamrab oldi, buning natijasida adabiy syujet sifatida turli hikoya yoki dostonlarda o'z o'rmini egallay boshladi. Keyinchalik O'rta asr Xristian jamiyatida odamlar dunyoqarashi bo'ri, tulki yoki sher kabi hayvonlar obrazini qanchalik to'g'ri qabul qilgan bo'lsa, endilikda bir shoxli ot, buqasimon odam (minotavr), farishta va odamxo'r maxluqlarni ham shular safiga kiritdi.

XX asrga kelibgina O'rta asr madaniyatidan darak beruvchi hikoyalari Britaniya orollarida yashovchi Anglo-Saksonlarning epik asari sifatida mashhur "Beovulf" asarining dunyoga kelishi bilan boshlandi. Bu jarayon Beovulf xalq qahramoni sifatida turli odamxo'r maxluqlarga qarshi kurashib qo'rqmas xalq qahramoni sifatida tasvirlangan. Buning davomi sifatida O'rta asrlarga tegishli Qirol Artur afsonalarini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, qirol Artur sikelida mifologik xususiyatlar, ya'ni Qirol Artur haqidagi romanlarda mifologik an'analar zamon va makon masalasida namoyon bo'lgan. Risarlik romanlari epik janrlar tizimi rivojlanish bosqichida paydo bo'lgan. Uning fentezi adabiyotidagi eng muhim jihatlaridan biri, hikoya shaklida kelib o'zining O'rta asr adabiyotiga va tarixiga xos bo'lgan "qilich va sehrgarlik"- tushunchasini atrofdagi voqealar bilan uyg'unlashgan holda ko'rsatib berilishidir. Risarlik romanlarida ertaklarga xos bo'lgan an'ana ya'ni ikki qarama - qarshi kuchlar o'rtasidagi nizolar romandagi asosiy syujetni egallaydi. Syujetdagi ezzulik va yovuzlik o'rtasidagi qarashlarda mifologik xususiyatlar yaqqol sezildi. Romandagi qahramonning kuch - qudratining ilohiyligi, ham mifologik ham ertakka xos bo'lgan qoliplar bilan asar mazmunini boyitib boradi. Bularning barchasi fentezi tarkibini shakllantiradi.

Xulosa

Tadqiqotimiz davomida juda ko'plab ilmiy asoslangan fikrlarni ko'rib chiqqan holda biz quidagi xulosaga keldik.

Birinchidan, tadqiqotimiz asl mohiyatini tashkil etuvchi fentezi va uning vujudga kelishini avvalo uning tarkibiy qismini tashkil etuvchi turli epik turlar ya'ni, mif, ertak va risarlik romanlarining alohida ahamiyat kasb etishini kitobxon yoki adabiyotshunos bilishi lozim.

Ikkinchidan, bunda barcha epik turlaridan sinkretizm orqali fentezi asarlarini yaratishimiz mumkin.

Uchinchidan, g'arb madaniyatini aks ettirgan fentezi asarlarda nafaqat ularning ijtimoiy ahvoli balki, o'zaro madaniyatlararo uyg'unlashuviga ham guvoh bo'lamiz.

To'rtinchidan, Yevropa o'rta asrlarda mamlakat boshqaruvida turli obrazlar orqali sehr-joduning ishlatalishi va qirol Artur afsonalari fentezinining janr sifatida shakkalanishiga asos bo'lgan deb aytta olamiz.

Beshinchidan, XX asrga kelib jahon adabiyotida fentezi janrga bo'lgan e'tibor va u asosida yozilgan va yozilayotgan badiiy asarlarning kitobxon tomonidan iliq munosabatda qabul qilinishi, bu janrga bo'lgan qiziqishning ortib borishidan darakdir va bu ko'plab fentezi asarlarning yaralishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Attebery B. Strategies of Fantasy. Bloomington: Indiana University Press, 1992.
2. Baxtin M.M. Problem poetics of Dostoyevsky. (Collection essay). 2002 - p. 130
3. Brandis E. Science fiction and man in today's world // Questions of literature. 1977. No. P 6.-110
4. CluteJ. —Fantasy.|| 1997. The Encyclopedia of Fantasy. Ed. John Clute and John Grant. Rpt. in Sandner 310-15.
5. Collins Cobuild English Language Dictionary [Text]. – London: Clays Ltd, St. Eves plc, 1991. – 1704p. (CCELD).
6. Cuddon J. *The Penguin dictionary of literary terms and literary theory*. (4th ed., xix, 991 s.) London: Penguin Books, 1998. – p.283 (801)
7. Karelina A. Classic. The Forerunners of fantasy. <http://mif.ru/Articles/art>
8. Kovtun Y.N. Extraordinary poetics: the artistic worlds of fiction, fairy tales, utopias, parables and myths (based on European literature from the first half of the 20th century). - M., 1999. S - 308.
9. Kovtun Y. N. Artistic consciousness in the XXth Literature. 2008. p. 46
10. Kristina B. Future History (Global Fantasies in seventeenth-century American and British writings. Oxford University Press. 2017. <https://books.google.co.uz>.
11. Meletinsky E. M Myth and tale. - M., 1998.- p. 291
12. Neelov E. Folklore Intertext of Russian Science Fiction // URL: <http://www.philolog.ru/filolog/uchebnik.pdf>
13. Nikolyukin A.N. Literary Encyclopedia terms and concepts. - M., NPK "Intelvak", 2001. - p. 525

14. Opacki I. 'Royal Genres.' Modern Genre Theory. Ed. David Duff. Harlow: Longman, 2000. 119-120.
15. Propp V. Historical roots of fairy tales - M., 2004. - p. 186.
16. Rudnev V.P. Dictionary of the twentieth century culture. - M., 1999 p. 50-243.
17. Tulaboev Olim. Uzbek Folklore (Anthology), some features of Uzbek folk tales. – p. 49 (592 pts). Tashkent-2017
18. Ushakov D.N. Explanatory Dictionary of the Modern Russian Language. Adelant. Moscow -2013. p-303.
19. William Godshock, Fantastic. <http://mir.fantastics/articles/>

UDK: 81

**NEMIS SO'ZLASHUV NUTQIDA KENG QO'LLANILADIGAN SO'Z VA IBORALAR
TAHLILI (nemis, o'zbek tillari misolida)**

L.Sharipova, F.Anorboyeva

Samarqand davlat universiteti

anorbayeva1992@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada nemis, fransuz va o'zbek adabiy tillarida kundalik so'zlashuv nutqida atamalar va ularning lingvistik munosabatlari taqqoslangan. Nemis, fransuz so'zlashuv nutqida frazologik birliliklardan foydalanish, boshqa tillardagi so'zlashuv nutqlari kabi nemis so'zlashuv nutqi ham adabiy tildan keskin farq qilar ekan. Ya'ni, bu nutq asosan og'zaki tarzda ijtimoiy-maishiy sohalarda ishlatalishi, so'z qo'llashdagi erkinlik tamoyili, gap bo'laklarining o'rmini istagancha almashtirish, unutilgan so'z yoki birikmalarni gap oxirida keltirish yoki alohida gap sifatida ifoda etish, asosan so'zlarni qisqartirish hamda sodda gaplar yordamida fikrni bayon etishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanar ekan.

Kalit so'zlar: atamalar, og'zaki nutq, nemis, so'zlashuv nutqida atamalar, fransuz va o'zbek tilidagi atamalar.

Анализ слов и фраз, обычно используемых в немецкой речи (на примере немецкого и французского языков)

Аннотация. В статье сопоставлены термины узбекского немецкого и французского языков и их лингвистические взгляды. Использование слов в немецкой и французской разговорной речи. Как и речи на других языках, немецкая речь резко контрастирует с литературным языком. То есть, эта речь в основном используется в устной форме в открытом доступе, принципе свободы слова, подстановке частей предложения по желанию, для того, чтобы поставить забытые слова или фразы в конце предложения или выразить их отдельно. Это в основном связано с сокращением слов и использованием простых слов для выражения идей.

Ключевые слова: термины, разговорной речь, термины узбекского немецкого и французского языков.

Analysis of words and phrases commonly used in German speech (for example German and French)

Abstract. Composition of certain vocabulary units of everyday conversational speech and German literary language. Some peculiarities of German and French conversational speech. The article analyses composition of certain vocabulary units. Like the speeches in other languages, the German speech is in stark contrast to the literary language. That is to say, this speech is mainly used verbally in the public domain, the principle of freedom of speech, the substitution of parts of the sentence as desired, to put the forgotten words or phrases at the end of the sentence, or to express them separately. This is mainly due to the reduction of words and the use of simple words to express ideas.

Keywords: Composition, composition of certain vocabulary, conversational speech, German and French literary language.

Ma'lumki, og'zaki so'zlashuv nutqida nafaqat alohida olingen so'zlarning ko'chma ma'noda kelishi, balki yana yaxlit ko'chma ma'noli iboralar hamda tasviriy ifodalar ham ko'plab uchraydi. Kishilar o'zlarining kundalik nutqida suhabatdoshlari bilan yanada yaqin munosabatda bo'lish, o'z fikrlarini ularga sodda, lo'nda bayon etish maqsadida o'z hududida yashovchi odamlarga tushunarli bo'lgan turg'un so'z birikmalari va tasviriy ifodalardan keng foydalanishadi.

Jumladan, nemis xalqi orasida keng qo'llaniladigan bunday birliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

den Mund halten (so'zma-so'z tarjimasi: og'izni ushlarimoq) - "jim turmoq" ma'nosida;
 auf die Beine kommen (so'zma-so'z tarjimasi: oyoqqa kelmoq) - "sog'ayib ketmoq" ma'nosida;
 Spaß machen (so'zma-so'z tarjimasi: bahr qilmoq) - "huzur bag'ishlarimoq", hazil qilmoq" ma'nolarida;
 große Augen machen (so'zma-so'z tarjimasi: katta ko'zlar qilmoq) - "ajablanmoq" ma'nosida;
 weit und breit (so'zma-so'z tarjimasi: uzoq va keng) - "har joyda" ma'nosida;
 unter die Haube bringen (so'zma-so'z tarjimasi: qalin mato (rumol) ostiga olib kelmoq) -
 "uyylanmoq", "turmush qurmoq" ma'nolarida;
 mit Kind und Kegel (so'zma-so'z tarjimasi: bola va yarog'i bilan) - "butun oilasi, bola-baqras
 bilan" ma'nosida;
 j-m auf die Finger sehen (so'zma-so'z tarjimasi: kimnidir barmoqlari ustida ko'rmoq) - "aniq
 kuzatmoq" ma'nosida;
 lange Beine haben (so'zma-so'z tarjimasi: uzun oyoqlarga ega bo'lmoq) - "uzoq cho'zilmoq"
 ma'nosida;
 den Kopf verlieren (so'zma-so'z tarjimasi: boshini yuqotmoq) - "yaxshi fikrlay olmaslik" ma'nosida;
 die Nase stecken (so'zma-so'z tarjimasi: burunni tiqmoq) - "o'ziga bog'liq bo'limgan narsaga
 aralashmoq" ma'nosida;
 j-m einen Floh ins Ohr setzen (so'zma-so'z tarjimasi: kimnidir qulog'iga burga qo'ymoq) -
 "kimnidir xavotirga solib qo'ymoq" ma'nosida;
 blau machen (so'zma-so'z tarjimasi: ko'k qilmoq) - "ishga bormaslik" ma'nosida;
 auf der Bärenhaut liegen (so'zma-so'z tarjimasi: ayiqning terisi ustiga qo'ymoq) - "dangasalik
 qilmoq" ma'nosida;
 Schwein haben (so'zma-so'z tarjimasi: cho'chqaga ega bo'lmoq) - "omadi chopmoq" ma'nosida;
 die Katze im Sack kaufen (so'zma-so'z tarjimasi: mushukni qopda sotib olmoq) - "biror narsani
 bilmasdan xarid qilmoq" ma'nosida;
 um ein Butterbrot kaufen (so'zma-so'z tarjimasi: bir buterbrotga sotib olmoq) - "juda arzon sotib
 olmoq" ma'nosida;
 unter vier Augen (so'zma-so'z tarjimasi: to'rt ko'z ostida) - "yuzma-yuz" ma'nosida va boshqalar.
 Jumladan, fransuz xalqi orasida keng qo'llaniladigan bunday birliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:
 1. Le silence est la meilleure réponse que l'on puisse faire à un sot-Jim bo'lish - ahmoqga beradigan
 eng yaxshi javob.
 2. **Être sur pied - og'ir kasallikdan so'ng oyoqqa turmoq** il est sur pied maintenant. Il va très bien.
 3. Les yeux et les oreilles sont les fenêtres de la maison, la bouche en est la porte; si celle-ci est bien
 gardée, rien de mauvais n'y entre, ni n'en sort. Il a les yeux plus grands que la panse.

Les yeux sont toujours enfants.

4. *Il ne faut pas acheter chat en poche*: il ne faut pas acheter un objet sans l'avoir vu avant !
5. *Avoir des yeux de chat* : avoir une très bonne vision, surtout dans l'obscurité.
6. *Être gourmand comme un(e) chat(te)*: aimer les plats délicieux et fins
- 8.Une maman c'est comme du cotton elle est a l'intérieur comme a l'extérieur et nettoie tous les
 maux.

Shunisi qiziqliki, nemis og'zaki so'zlashuv tilida bo'lgani kabi o'zbek tilining kundalik so'zlashuv
 nutqida ham yuqoridaq iboralarning aksariyati semantik jihatdan diyarli bir xil ma'noga egadir. Bu narsa
 esa ikki xalqning turmush tarzi, dunyoqarashidagi yaqinlikni o'zida ifoda etadi. Masalan:

nemis tilida o'zbek tilida fransuz tilida
 den Mund halten og'zini yummoq fermer sa bouche
 auf die Beine kommen oyoqqa turmoq se tenir debout
 große Augen machen ko'zlarini katta ochmoq garder ses yeux
 die Nase stecken burnini tiqmoq Fourrer son nez quelque part
 = être curieux ou indiscret

O'zbek va nemis tillarida har ikki tilning hayot tarzi diyarli bir xil ekanligidan dalolat beruvchi
 maqol va iboralar turli sohalarda uchrashini biz yana hayvon nomlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan
 quyidagi frazeologik birikmalar misolida ko'rib chiqishimiz mumkin:

it-mushukday yashamoq = wie Hund und Katze leben [1. 135];
 pashshadan fil yasamoq = aus einer Mücke einen Elefanten machen [1. 146];
 tulkiday ayyor = ein schlauer Fuchs; (schlau wie ein Fuchs) [2. 34];
 quyonjurak brlmoq = hasenfüßig sein [1. 131];
 Yaxshi ot ham qoqiladi = Auch der beste Gaul stolpert einmal [5. 133];
 Oxirgini it qopadi = Den letzten beißen die Hunde [5. 41];

Hurgan it tishlamaydi = Hunde, die viel bellen, beißen nicht [5. 41];
 Qari tulki tuzoqqa tushmaydi = Ein alter Fuchs ist schwer zu fangen [5. 93];
 Qarǵa qarǵaning ko'zini cho'qimaydi = Eine Krähe hackt der anderen kein Auge aus [5. 95];
 Sovǵa qilingan otning oǵziga (tishiga) qaralmaydi = Dem Geschenkten Gaul schaut man nicht ins Maul [2. 14];

Olmaning pishganiga qurt tushadi = Im schönsten Apfel ist der Wurm [5. 179];

Ammo tuyu, ilon, chayon kabi hayvonlar asosan cho'l va chala cho'llarda yashashini, shuningdek tung'iz, tulki, ayyiq kabi hayvonlar Yevrova mamlakatlari bilan bog'liqligini inobatga olsak, xalq orasida keng iste'molda bo'lgan bunday frazeologiyalarda ko'proqmamlakshunoslikka oid belgilar ko'zga tashlanadi, ya'ni bunday iboralardagi dominant so'zlar -hayvon, qush nomlari boshqa hayvon, qush nomlari bilan almashadi. Masalan:

a) itday och qolmoq

(so'zma-so'z tarjimasi: Hunger wie ein Hund haben) = Bärenhunger haben /Wolfshunger haben [1. 18];

b) ola qarg'a (so'zma-so'z tarjimasi: bunter Rabe) = schwarzes Schaf [2. 49];

c) ilonning yoǵını yalagan (so'zma-so'z tarjimasi: der Mensch, der Schlangenfett geleckt hat) = ein schlauer Fuchs [2. 34];

d) eshakday ishlamoq (so'zma-so'z tarjimasi: wie ein Esel arbeiten) = wie ein Pferd arbeiten [5.151];

e) bir o'q bilan ikki quyonni ovlamоq (so'zma-so'z tarjimasi: mit einem Schuss zwei Hasen jagen) = Zwei Fliegen mit einer Klappe schlagen [1.124];

f) bir qarg'a bilan qish kelmas (so'zma-so'z tarjimasi: Mit einem Rabe kommt kein Winter) = Ein Nachtigall macht keinen Frühling bzw. eine Schwalbe macht noch keinen Sommer;

Shuningdek, har ikkala hududda yashovchi ayrim hayvonlarning nomlari bilan bog'liq iboralarda dominant so'zlar o'ziga yaqin ma'noli so'zlar bilan almashishining han guvohi bo'lish mumkin. Misol uchun:

o'zbek tilida dominant so'z "mushuk", nemis tilida - "sichqon"

bekorga mushuk oftoba chiqmaydi (so'zma-so'z tarjimasi: ohne Grund geht die Katze nicht in die Sonne) = In eine leere Scheune kommt keine Maus [5. 179].

o'zbek tilida dominant so'z "buzoq", nemis tilida - "qo'y"

bir tirraqi buzoq butun podani buzadi (so'zma-so'z tarjimasi: Ein räudiges Kalb steckt die ganze Herde an) = Ein räudiges Schaf steckt die ganze Herde an [5. 278].

o'zbek tilida dominant so'z "sichqon", nemis tilida - "qush"

Sichqonning tlgisi kelsa mushuk bilan tynashadi (so'zma-so'z tarjimasi: Wenn die Maus sterben will, da beginnt sie mit der Katze zu spielen) = Vögel, die früh singen, fängt am Abend die Katze [5. 186].

Shunisi e'tiborga molikki, iboralar o'zaro ma'nodoshlik yoki shakldoshlik xususiyatiga, shuningdek o'z zid ma'nosiga ham ega bo'la oladi. Masalan, nemis tilidagi "in Ordnung bringen" va "in Ordnung machen" iboralari o'zaro ma'nodoshlik hosil qilsa, o'z navbatida "im Stich lassen" iborasining olti xil ma'noda qo'llanilishini quyidagi misollar orqali kuzatsak bo'ladi:

j-m seinem Schicksal überlassen, j-n verlassen auch im abstrakten Sinn -kimnidir o'z taqdirida qoldirmoq

Sie las ein zweites, ein drittes Mal; dann erkannte sie, dass also auch dieser alte Messerschmidt, der ausschaute wie ein Monument der Biederkeit, sie im Stich gelassen hatte. Auch er hatte sie angeschmiert mit schönen Reden. (L.Feuchtwanger)

Wenn ein Gedächtnis ihm im Stiche ließ, so half er sich damit, dass... (Th. Mann)

irgeneine Sache aufgeben, die Hand von etwas lassen

Er war nicht der Mann, eine Sache im Stich zu lassen, zu der er einmal ja gesagt hat (L.Feuchtwanger) [3. 199-200]

Yana shunisi e'tiborliki, og'zaki so'zlashuv nutqida bir so'zning detonativ va kommativ ma'nolari ostida turli xil frazemalarni ham hosil qilish mumkin. Masalan, "Fuß" so'zi bilan yuzaga keladigan quyidagi iboralarning semantik ma'nolariga e'tibor qaratayllik:

zu Fuß gehen - piyoda yurmoq;

mit beiden Füßen fest auf der Erde stehen = kein Träumer sein - o'zining qat'iy fikriga ega bo'lmoq;
 auf eigenen Füßen stehen - mustaqil bo'lmoq, ota-onasiga qaram bo'lmaslik;

(irgendwo) (festen) Fuß fassen = einen festen Platz in einem System, einer neuen Umgebung bekommen - biror bir tizimda yoki tevarak-atrofda ishonchli o'ringa ega bo'lmoq; [4, 321]

Xulosa sifatida shuni qayd etib o'tishimiz mumkinki, boshqa tillardagi so'zlashuv nutqlari kabi nemis so'zlashuv nutqi ham adabiy tildan keskin farq qilar ekan. Ya'ni, bu nutq asosan og'zaki tarzda ijtimoiy-maishiy sohalarda ishlatilishi, so'z qo'llashdagi erkinlik tamoyili, gap bo'laklarining o'rmini

istagancha almashtirish, unutilgan so'z yoki birikmalarini gap oxirida keltirish yoki alohida gap sifatida ifoda etish, asosan so'zlarni qisqartirish hamda sodda gaplar yordamida fikrni bayon etishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanar ekan.

Nemis va fransuz so'zlashuv nutqida keng qo'llaniladigan so'z va iboralar tahlili shuni ko'rsatadi, aynan og'zaki so'zlashuv nutqida so'zlovchi va tinglovchi shaxsning tez va oson muloqotga kirishishi asosiy omil vazifasini bajaradi. Shu sababli ham nemis so'zlashuv nutqining asosiy lug'at boyligi sifatida lug'aviy birliliklarning ko'pincha ko'chma ma'noda ishlatalishi yoki noadabiy qatlama doirasidagi so'zlardan tarkib topishini keltirishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Graf A.E. Idiomatische Redewendungen und Redensarten der russischen und der deutschen Sprache. VEB Deutscher Verlag der Wissenschaften. –Berlin, 1956.
2. Hans Bahmer. Dem geschenkten Gaul schaut man nicht ins Maul / Neue tierische Redewendungen –wahrhaftig erklärt. Verlag GmbH, –München, 2007.
3. Iskos A., Lenkova A. Deutsche Lexikologie, -Moskau, 1970, S.296.
4. Langenscheidt. Power Wörterbuch Deutsch. –München, 2009. S.1122.
5. Lexikon der schönsten Sprichwörter und Zitate. Herausgegeben von Kristian S.Weidenfeld. Bassermann Verlag. – München, 2002. S. 400.
6. Bayram Balci, Remi Dory,.Français-ouzbek dictionnaire, IFECA 2008

УДК: 891

ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА НАВОИ В ТВОРЧЕСТВЕ Е.Э.БЕРТЕЛЬСА

М.Н.Меликова

Самаркандинский государственный институт иностранных языков

Аннотация. Данная статья посвящена изучению духовного наследия Алишера Навои, которое нашло свое отражение в творчестве великого востоковеда академика Е.Э.Бертельса, который всю жизнь свою посвятил изучению восточной поэзии, литературы, философии, считая, что восточная культура внесла в развитие мировой литературы огромный вклад. Бертельс представил Навои как великого гуманиста, оригинального поэта, доказав, что поэт не является переводчиком с персидского языка, а сам писал свои поэмы, которые самодостаточны по своей сути. Показано влияние Фариддина Аттара, Джами, Низами на творческий путь Алишера Навои.

Ключевые слова: литература, духовное наследие, творческий путь, Джами, Аттар, Низами, поэмы, гуманизм, философия, воспитание, традиции, духовные ценности, оригинальность

E.E. Bertels ijodida Alisher Navoiyning ma'naviy merosi

Annotatsia. Ushbu maqola butun umrini sharq she'riyati, adabiyoti, falsafasini o'rganishga bag'ishlagan buyuk sharqshunos akademik E.E. Bertelsning Alisher Navoiyning ma'naviy merosi taddiqiga bag'ishlangan. Bertels Navoiyni buyuk gumanist, o'ziga xos shoir sifatida e'tirof etadi, uning original ijodkor ekanini asoslab beradi. Fariddin Attar, Jomiy, Nizomiyning Alisher Navoiy ijodiy yo'lidagi ta'siri ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, ma'naviy meros, ijodiy yo'l, Jomiy, Attar, Nizomiy, she'rlar, gumanizm, falsafa, ta'lim, an'analar, ma'naviy qadriyatlar, o'ziga xoslik

The spiritual heritage of Alisher Navoi in the work of E.E. Bertels

Abstract. This article is devoted to the study of the spiritual heritage of Alisher Navoi, which was reflected in the work of the great orientalist academician E.E. Bertels, who devoted his whole life to the study of oriental poetry, literature, philosophy, believing that oriental culture made a huge contribution to the development of world literature. Bertels introduced Navoi as a great humanist, an original poet, proving that the poet is not a translator from the Persian language, but himself wrote his poems, which are self-sufficient in essence. The influence of Fariddin Attar, Jami, Nizami on the creative path of Alisher Navoi is shown.

Keywords: literature, spiritual heritage, creative path, Jami, Attar, Nizami, poems, humanism, philosophy, education, traditions, spiritual values, originality

Основоположник узбекского языка и литературы, выдающийся ученый и политик Алишер Навои является образцом для подражания для многих поколений, существовавших после него и которые будут жить в будущем, так как он оставил после себя великое духовное наследие, выразившееся в его необычайно огромном литературном творчестве, глубоком гуманизме, политическом, этическом и культурном величии. Все его творчество проникнуто необычайно ярким проявлением любви к народу, интересу к его чаяниям и невзгодам. Многие его произведения имеют воспитательное значение. Алишер Навои в своих работах создавал образы, близкие простому народу, понятные всем.

Творческое наследие Алишера Навои, его передовые идеи становились целью исследования многих ученых, среди которых необходимо особо отметить русского востоковеда Е.Э.Бертельса. Всю свою жизнь Бертельс посвятил изучению великого наследия восточных мыслителей. Особое место в творчестве ученого занимало духовное наследие Алишера Навои.

Сравнительный анализ взаимосвязи и взаимовлияния персидской и тюркской литературы, правильная оценка эстетической сущности поэзии Востока позволили Бертельсу подчеркнуть оригинальность и своеобразность узбекского языка.

Необходимо отметить, что исследование творчества Навои ученый вел параллельно изучая наследие Низами, что непременно сказалось на выводах автора, вылившихся по его собственному определению «опытом творческой биографии» поэта. Хотя в своем исследовании Бертельс шагнул далеко за границы изучения биографии Навои, он анализирует литературную жизнь Хорасана и Средней Азии в целом в период, который предшествовал творчеству Навои.

Изучая творческое наследие Е.Э.Бертельса, необходимо указать, что в его работах дается скрупулезное исследование творчества Алишера Навои. Ученый, следуя своему методу сравнительного анализа первоисточников, приходит к выводу о том, что узбекский поэт не является подражателем других поэтов, но и сам является «большим художником, автором слова, способного из данного материала создать оригинальное произведение, но помимо этого художественного дарования мы видим еще человека с широким образованием, огромным житейским опытом и, что для нас еще ценнее, большим сердцем, полным любви к окружающим его людям и во имя этой любви способным забыть и простить все их недостатки» [2, с. 83]. Е. Э. Бертельс, подвергнув анализу «Лисан ун-тайр» Алишера Навои и «Мантик ат-тайр» Фариддадина Аттара, где указывает на факт того, что Навои ввел в свою работу 63 рассказа, в то время как у Аттара их намного больше, причем только двенадцать рассказов соответствуют рассказам персидской поэмы, а оставшиеся являются авторскими. Отсюда следует, что больше двух третей рассказов оригинальные, и можно констатировать факт отсутствия тождества между персидским и тюркским источниками.

Наиболее важным в сравнительном анализе двух мыслителей по мнению Бертельса было то, что Навои в своей поэме несколько смягчил крайние философские идеи Аттара, которые носили подчас религиозно-политический характер, который были сформированы у Аттара под влиянием шиизма. Навои же соотносит концепцию Аттара с теми взглядами, которые присутствовали при дворе, к которому он имел отношение.

Картина, описанная в поэме Навои ведет нас в другой мир мышления, который в корне отличается от мировоззрения Аттара. Навои с реалистической позиции подходит к своему произведению, чего не скажешь о мистическом восприятии Аттара. Действие птиц в поэме Алишер Навои обосновывает мотивами местничества, которые были характерны для окружения Хусейна Байкары, его вельможи часто спорили по поводу своего положения, места при правителе. Это доказывает большую разницу в мировоззрении Аттара и Навои.

Е.Э.Бертельс указывает, что Навои в своем труде использует теорию эманации, из чего можно заключить, что помимо изучения наследия Аттара, мыслитель был знаком с теоретическими трудами по суфизму. Поэма Навои интересна тем, что в ней часто используются философские термины, которые, по всей вероятности, суфии заимствовали у философов, которые в свою очередь были переняты из древнегреческой философской мысли. Причем востоковед Бертельс указывает, что философские идеи начинают проявляться у суфиев лишь с XIII века, и потому они нашли свое отражение в трудах Навои, который скорее всего был знаком с научными трудами, не ограничиваясь лишь суфийской поэзией и литературой. К источникам, из которых Навои черпал свои темы для повествований в поэме, можно отнести сведения из священного Корана, хадисов, житий святых людей, арабской любовной лирики, персидской поэзии, с коими поэт был очень хорошо знаком.

Анализ «Языка птиц» приводит нас к мнению, что Алишер Навои хорошо знал учение суфиев, ведь не зная их идей, очень трудно было бы заменять сюжеты Аттара на свои. Для

выполнения задач, который перед собой поставил Навои, необходимо было знание не только художественной суфийской литературы, но и теоретических трудов суфизма, которых в то время было очень много. То, что Навои был знаком с ними, свидетельствуют те идеи, о которых говорилось выше. С какими именно работами был знаком поэт точно сказать невозможно, как и утверждать, что Навои был чистым суфием. Бертельс исходит из того, что раз Навои не отрекся от всего мирского, то значит дервишским шейхом он не был, ведь биография мыслителя показывает, что он до последнего исполнял государственную службу и постоянно находился при дворе султана. У Навои пристрастие к суфизму было основано на его природной склонности к уединенному образу жизни, к чему прибавилось и его знакомство с Джами, который тесно примыкал своими взглядами к ордену Накшбандия. Навои не становится суфием в полном смысле этого слова, но он очень близко воспринимает нравственную сторону этого учения, поставив его идеалы своей конечной целью, хотя на практике он оставался обычным человеком. Быть может поэтому он страшится крайних взглядов Аттара и потому он их смягчает и делает умеренными.

Навои мечтал о конечной цели суфия, стремился к отрешению и умиротворенности, к которым призывала его фана – прекращение индивидуального бытия. Но поэт осознавал, что достигнуть этой цели вряд ли сможет он, ибо вся окружающая действительность не давала возможности уверенно пойти в данном направлении, от чего его часто отвращал сам Джами, уверяя Навои, что без него в этом мире будет больше страданий и горести:

Всем, кому ты в судьбу единенье назначил,
Им ты благостный рок отрешенья назначил.
И кого ты из пут своелюбия спас,
Тем закон единенья нарек ты внаказ.
А кого ты от благ единенья избавил, -
Тех ты тъмою безверья навек обесславил.
И кому к единенью путь указал ты, -
Уберег ты от зла, им суть указал ты.
Ты от уз себялюбья меня огради,
К единенью с тобой, о творец, приведи!
Не оставь свою любя во мне даже малость,
Чтоб преград к единенью с тобой не осталось! [1, с.312]

Е.Э.Бертельс описывая суть «Языка птиц» Навои, говорит, что это была «поэма о поэме Аттара».

Важное значение для изучения наследия Алишера Навои имеет работа Бертельса «Навои и Джами», где в лице Алишера Навои и его учителя Абдурахмана Джами видел выдающихся представителей культуры двух братских народов Средней Азии — узбекского и таджикского. Он с большой любовью и необычайной энергией продолжал изучать гениальные творения Алишера Навои в тяжелые дни Отечественной войны, находясь в кольце вражеского окружения — в осажденном Ленинграде. Вспоминая прошедшие дни трудного военного времени, Е. Э. Бертельс писал в своей монографии «Навои»: «Пишущему эти строки пришлось выступать в декабре 1941 г. на заседании, посвященном творчеству Навои и протекавшем под жестокой бомбкой и артиллерийским обстрелом. И хотя заседание шло в верхнем этаже здания, качавшегося под тяжелыми ударами с воздуха, никто из участников не покинул зала, и заседание было доведено до конца» [5, с.69].

Предметом исследования Е.Э.Бертельса стала поэма Алишера Навои «Лейли Меджнун», которая послужила ученому для его компаративистского анализа с одноименной поэмой Низами и Дехлеви, где он называет Навои «блестящим знатоком всей старой традиции» [5, с. 430], хотя временами поэт блистательно порывает с традициями и вступает на новый путь. Бертельс подчеркивает, что ориенталисты Европы, не будучи хорошо осведомлены о тонкостях восточной поэзии, считают поэмы Навои лишь ответом-назире, и потому не могут оценить великого вклада поэта, ограничившись тем, что называют его переводчиком великих поэм.

Сравнивая три варианта поэмы «Лейли и Меджнун» ученый пришел к выводу о том, что Навои, претендовавший на «городок» и «сад», на самом деле создал произведение, которое было достаточно оригинальным и не уступало в чем-либо Низами. Кроме того, Бертельс, исследуя историю создания поэм отмечает, что Низами основывается на мистической концепции суфизма, а Алишер Навои исходит из того, что лишь реальными сюжетами можно добиться доверия читателя, тем самым поставив на повестку дня актуальные вопросы современности. Бертельс указывает на то, что в своих произведениях Навои большое внимание уделяет вопросам духовного развития и

самосовершенствования личности. Западные исследователи творчества Навои неправомерно недооценивали значение его творческой деятельности, считая его лишь переводчиком текстов, и потому не уделяли должного внимания изучению его наследия.

Bundan ko'rindiki, har bir diskurs o'z pragmatik xususiyatlariga ega va bu xususiyatlar turli tillarda har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. R. Shmidtning ta'biri, "o'rganilayotgan tilning pragmatik qonuniyatlarini o'zlashtirish uchun ifodaning lisoniy shakliga e'tibor qaratish bilan birlgilikda, ular moslashadigan ijtimoiy va kontekstual vaziyatlarni nazaridan qochirmaslik lozim" [Schmidt 1980:143]. Psixolingvist A. A. Zalevskaya kontekstdan leksik, metaforik, vaziyatli ma'nolarni ijtimoiy va diskursiv muhitga mos holda ajratishni "pragmatik qobiliyat", deb ataydi [Zalevskaya 2009:52].

O'tgan asrning 80- yillaridan rivojlana boshlagan madaniyatlararo pragmatika yo'naliishida chet tilini o'rganuvchi shaxs o'zga tilga oid pragmatik bilimdan qanday foydalanishi mumkinligi vazifasi ilgari surildi [Rose, Kasper 1999:81]. G. Kasper va M. Dahl madaniyatlararo pragmatikani "chet tilini o'rganuvchi nutqiy aktlarni qanday bajarish va shu aktlar bilan bog'liq bilimdan qay usulda foydalanishini" tahlil qiluvchi yo'naliish, deb hisoblaydi [Kasper, Dahl 1991:215].

Boshqa tadqiqotchilar ham ushbu yo'naliishning maqsadi ikki va undan ortiq tilning muloqot jarayoniga ishtirokini o'rganish ekanligini ta'kidlaydilar. Chunki, chog'ishtirma tilshunoslikning yangi sohasi bo'lgan madaniyatlararo pragmatika yo'naliishi istiqbolida pragmatik universaliyalar va idioetnik hodisalarни aniqlash maqsadi turibdi. Zero, har bir tilda "nimani ifodalash va qanday ifodalash mumkinligini belgilovchi omillarning o'rni alohidadir" [House-Edmondson 1986:282].

Ushbu yo'naliish vakillarining fikricha, turli madaniyat vakillari muloqot paytida turli ko'rinishdagi uslublarni ma'qul ko'radilar va nutqiy aktlarni turlicha hatti-harakatlar qamrovida bajarishga harakat qiladilar [Blum-Kulka, Kasper 1989:11].

M. Bayermning qaydicha, "chet tili borasidagi bilimga ega bo'lish va undan foydalanish yangi hayot yo'liga kirish demakdir. Chunki yangi hatti-harakat modelini shakllantirish oson kechmaydi" [Byram, Fleming 1998:17].

Chog'ishtirma pragmalingvistika sohasi bilan mashg'ul tilshunoslar asosan illokutiv ma'noni ifodalash strategiyasi va insoniy ifoda shakllarini ajratish va ularning hurmat kategoriysi bilan bog'liq xususiyatlarini o'rganib kelmoqdalar [Bardovi-Harlig 1999:707; Kasper 1995:201; Yakovleva 2005; Muminova 2018; Shomahmudova 2019 va boshq.].

Pragmalingvistik yondashuv rivoji jarayonida diskurs "lisoniy muloqot kontekstiga singdirilgan matn" sifatida talqin qilina boshlandi [Susov 1990:2]. Diskurs, pragmalingvistika nuqtai nazaridan qaraganda, muloqot ishtirokchilarining interaktiv faoliyati, emotsiyonal va axborot almashinuv harakati, bir-biriga ta'sir ko'rsatish. Turli muloqot strategiyalarini amaliyotga tatbiq etish harakatlaridan tashkil topadi. M. T. Kasavin "diskurs" tushunchasining mazmunini uning pragmatik mo'ljalga ega matn ekanligida" ko'radi [Kasavin 2008:361]. Diskursning bu xildagi pragmatik tavsifi belgiyalik tilshunos keltirgan sxemada o'z aksini topgan" langue – tizim, mavhum tuzilma, discourse – til kodidan foydalangan holda voqeletiriladigan birikuvlар, parole – ushbu birikuvlarning faollashuvini ta'minlovchi mexanizm [qarang: Makarov 2003:90].

Shunday qilib, G'arb tilshunosligida pragmatik vazifalar nazariyasi shakllandi va ushbu nazariya asosida "nutqiy aktlar" tushunchasi turadi [Searle 1969; Ostin 1986]. Ma'lum paytdan so'ng "kontekstdagi mazmun", implikaturalar (lisoniy shaklda aks topmagan ma'no) o'rganila boshlandi [Levinson 1983]. Zamonaliv pragmalingvistika til birliklarining funksional imkoniyatlarini, ularning nutqda faollashuv shart-sharoitlari kabi holatlarni tadqiq qilishda davom etmoqda.

Pragmatikaning asosiy tadqiq ob'ekti – diskursdir va pragmatik tahlil diskursning tarkibiy qismlari bo'lgan kontekst, vaziyat, deyksis, presuppozitsiya, muloqot ishtirokchilarining etiket me'yorlaridan xabardorligi hamda axborotning noverbal, paralingvistik uzatilishi kabilarni qamrab oladi.

Diskurs tarkibida lisoniy, pragmatik va ijtimoiy-madaniy kategoriylar o'zaro munosabatga kirishadi, shu bois pragmalingvistik usullar diskursning leksik-struktur xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilish uchun qo'l keladi. Masalan, ushbu metodlarni quyidagi holatlarda tatbiq etish mumkin: a) nutqiy

tuzilmalar mazmunini aniqlash uchun (tuzilma kommunikativ-modal belgisining muloqot maqsadiga mos kelishi); b) referentsiyani o'rganishda (diskursning voqelikka munosabati); v) nutqiy aktlar nazariyasini rivojlantirish uchun (jumladan, nutqiy faoliyat birliklarini ajratish) va boshqalar.

Nutqiy akt – nutqiy faoliyat birligi sifatida diskurs shakllanishining ikki yoqlama xususiyatini, ya'ni gapirish/yozish va eshitish/o'qish harakatlarini aks ettiradi. K. Byuler nutqiy aktini uch tarkibli (uzatuvchi, qabul qiluvchi, vaziyat) deb hisoblab, ularni til uchta asosiy vazifasi (ifoda, murojaat va referentsiya) bilan bog'laydi [Byuler 1993; Arzikulov 1994]. R. Yakobson ushbu uchta tarkibiy qismni "adresat", "adresant" va "kontekst"ga almashtirdi hamda ular qatoriga "aloqa", "kod", "xabarni" qo'shib, til bajaradigan vazifalar – fatik (aloqa o'rnatish), poetik va metatil kabilardan iborat bo'lishi mumkinligini qayd etdi [Yakobson 1985].

Aniq muloqot muhitida nutqiy aktlar o'zaro bog'liq va kontekstga singdirilgan bo'ladi, chunki kommunikatsiya nutqiy tuzilmalarning bog'lanishlari asosida bajariladi. Bunday bog'liqlik propozitsiyalar va illokutsiyalar voqelanishining muhim talabidir. Nutqiy aktlar ketma-ketligida asosiy illokutiv mazmun va ikilamchi ma'no ifodasi aks topadi. Bu hodisani T. van Deyk "makro nutqiy akti" (macro speech act) deb nomlaydi [Dijk 1995]. Bir nutqiy aktga tegishli illokutsiya boshqa shakldagi nutqiy akt vositasida ham bajarilishi mumkin. Adresant tomonidan bevosita yoki bilvosita ifoda usulining tanlanishi turli omillar bilan bog'liq. Bular qatoriga kommunikantlarning o'zaro munosabati, ijtimoiy mavqesi, jamoa oldidagi majburiyatlar, harakatning bajarishga qay darajada undalishi kabilar kiradi [Thomas 1995]. Bilvosita ifodalananadigan nutqiy aktlar ko'proq undash shaklida bo'ladi.

Diskursning ma'lum vaziyat kontekstiga singdirilishi haqida yuqorida gapirildi. Bu holat ko'pincha deyksis vositasida amalga oshiriladi. Vaziyat konteksti muloqotning bevosita ishtirokchilari – adresant va adresatdan tashqari, muloqotga qatnashmayotgan shaxs hamda zamon va makonni ham qamrab oladi (shunga nisbatan shaxs, zamon va makon deyksislari farqlanadi). Ijtimoiy kontekst esa kommunikantlarning o'zaro munosabati va ularning voqelikka munosabatini aks ettiradi (bunda ijtimoiy deyksis faollandashi). Deyksis kategoriyasiga olmosh, ravish, zamon shakkari bilan bir qatorda, kommunikativ vaziyat ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi lug'aviy birliklar ham kiritiladi [qarang: Shermatov, Rahimov 1990].

Xullas, diskursning pragmatik tahlili muloqot muhitida bajariladigan va ma'lum kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan har qanday nutqiy harakat tadqiqini nazarda tutadi. Diskursiv faoliyat, o'z navbatida, nutqiy illokutiv aktlarning ketma-ketligi va o'zaro bog'lanishi orqali amalga oshiriladi. Shunga binoan, diskursning pragmatik tahlilidan ko'zlanayotgan maqsad kontekst bilan bog'li ma'no shakllanishiga ta'sir o'tkazadigan omillarni aniqlash hamda ushbu ko'rsatkich va omillarning muloqot ishtirokchilari intentsiyasi shakllanishidagi o'mini belgilashdan iborat bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь./ Гл. ред. В.Н. Ярцева, – М.: Сов. Энциклопедия, 1990. – С. 136-137.
2. Ashurova D. U., Galieva M. R. Text linguistics. – Т.: Turon Iqbol, 2016.-324 b.
3. Бондарко А.В. О стратификации семантики // Общее языкознание и теория грамматики. – СПб., 1998. – 58 с.
4. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981.-138c.
5. Залевская А.А. Вопросы теории двуязычия. Монография. – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2009.–52 c.
6. Звегинцев В. А. Предложение и его отношение к языку и речи. М.: МГУ, 1976.- 309 с.
7. Касавин И. Т. Текст. Дискурс. Контекст. Введение в социальную эпистемологию языка. М.: Реабилитация, 2008.-544 с.
8. Muminova A. A. Frantsuz, o'zbek va rus tillarida undashni ifodalovchi til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari. Filol. Fani bo'yicha falsafa dokt. (PhD)...diss. avtoreferati. – Т., 2018.-22 b.
9. Safarov Sh. Lingvistika diskursa. – Chelyabinsk: ChDIK, 2018.
10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Т.:O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, - 2008. – 300 b.
11. Серно П. Как читают тексты во Франции // Квадратура смысла: Французская школа анализа дискурса. – М.: Прогресс, 1999.- 416 с.
12. Сусов И.П. Семиотика и лингвистическая прагматика / И.П. Сусов // Язык, личность и дискурс. – Тверь, 1990б. – 43 с.
13. Формановская Н.И. Речевое общение: коммуникативно-прагматический подход. М.: Русский язык, 2002. – 5 с.
14. Shomaxmudova A. F. Bilvosita nutqiy aktlarning muloqot matnida voqelantiruvchi etnopragmatik omillar (ispan tili misolida). Filol. Fani bo'yicha falsafa dokt. (PhD)...diss. – Samarqand, 2019. - 164 b.

15. Яковлева Г. Г. Директивный дискурс в диалогическом пространстве разных языков: строевые и функциональные описания. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Тверь, 2005.-22 с.
16. Barron A. Acquisition in Interlanguage Pragmatics. Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing, 2001. – 34 p.
17. Brown G., Yule G. Discourse analysis. – Cambridge: CUP, 1983.
18. Byram M., Fleming M. Language Learning in intercultural perspective. Approaches through drama and ethnography. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 17 p.
19. Crystal D. English as a global language. –Cambridge: Cambridge University Press, 1997.–301p.
20. Leech G.N. Principles of Pragmatics. – London, New York: Longman, 1983.– 14 p.
21. Levinson S. Pragmatics . – Cambridge University Press, 1983. – 22 p.
22. Mey J.L. Context and (dis)ambiguity: a pragmatic view // Journal of Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – №35. – 328 p.
23. Остин Дж. Л. Слово как действие //Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. Теория речевых актов. – М.: Прогресс, 1986.- С. 22-130.
24. Дейк Т. А. ван. К определению дискурса (элект. ресурс): <http://www.nsu.ru/psych/internet/bits/vandijk2.htm>.
25. Кибрик А.А., Паршин П.В. (элект. ресурс): <http://www.krugosvet.ru/articles/82/1008254/print.htm>.2007.

UDK: 81-139

NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

I. M. Tuxtasinov¹, B. H. Xoliyorov²

¹*Samarqand davlat chet tillar instituti, ²Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
tuhtasinov@edu.uz, buniyodkholiyorov@yahoo.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada nofilologik oliy ta'lif muassasalarida, xususan texnikaga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishdagi masalalar o'rganilgan. Maxsus maqsadlarda ingliz tili o'qitish jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etishdagi maqsad va vazifalar yetakchi olimlarning izlanishlarini tahlil qilgan holda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maxsus maqsadlarda ingliz tili o'qitish, yondashuv, kompetentlik, o'qitish, kommunikativ, qobiliyat, vositalar, extiyojlar, o'quv dasturi, strategiya, uslub, til tavsifi, model.

Особенности преподавания английского языка в нефилологических вузах

Аннотация. В данной статье изучены вопросы обучения английскому языку в нефилологических высших учебных заведениях, в частности, в технических вузах. С этой целью изучены проблемы, возникающие в учебном процессе, и пути из решения, а также проведён анализ научных исследований ведущих ученых в данной отрасли.

Ключевые слова: целевое обучение английскому языку, подход, компетентность, обучение, коммуникативность, способности, средства, потребности, учебная программа, стратегия, метод, характеристика языка, модель

Characteristics of teaching english in non-philological universities

Abstract. This article explores the issues of teaching English in non-philological higher educational institutions, in particular, in technical universities. Moreover, the problems arising in the educational process, and ways out of the solution were studied, as well as an analysis of scientific research by leading scientists in this industry.

Keywords: English for specific purposes, approach, competence, training, communication, abilities, means, needs, curriculum, strategy, method, language characteristics, model

Mutaxassislar texnika oliy ta'lif muassasalarida ingliz tilini o'qitish muammolarini hal qilishda turli yondashuvlarni ilgari surib kelmoqdalar. Ushbu uslublardan biri shaxsiy sotsial-madaniy shakllanishing kasbiy yo'naltirilgan modeliga asoslangan o'quv dasturini yaratishdir. Ingliz tili o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari sifatida kommunikativ, madaniyatlararo yetuklik, kasbiy malakasi, professional muloqot, ish joyidagi muloqot va professional til haqida so'z yuritiladi. Talabalarga axborotni tahlil qilish, ijodiy qarirlarni qabul qilish va madaniy yetuklikni yuqori darajada shakllantirish uchun

modulli o‘qitish dasturlari ishlab chiqilgan. Maxsus maqsadlar uchun tilni o‘rganish uchun universal multimedia darsliklarini yaratish va ulardan foydalanish bo‘yicha say-harakatlar mavjud. Ommaviy axborot vositalari, xususan, Internet orqali chet tillarini o‘qitish sifatini oshirishga qaratilgan ta’lim dasturlari ham ko‘rib chiqiladi. Shunga qaramasdan, chet tilni o‘rganishning asosiy maqsadi kommunikativ qobiliyatdir.

Aloqa ko‘nikmalarining tuzilmasi keng miqqyosli nashrlar bilan tavsiflangan. Masalan, L. V Suxova nashrlaridan quyidagi tarkibiy qismlar o‘rin olgan:

- 1) Til ko‘nikmasi, shu jumladan so‘zlar, talaffuz va grammatika qoidalarini bilish;
- 2) Ijtimoiy-tilshunoslik qobiliyati, ya’ni turli xil madaniy va ijtimoiy sharoitlarga munosib javob berish qobiliyati. Aloqa maqsadiga qarab, tegishli til shakllari va vositalarini tanlash va qo‘llash kommunikativ vaziyatlar va ishtirokchilarining ijtimoiy roli;
- 3) Turli xil kommunikativ turdagи so‘zlarni tushunish qobiliyati bo‘lgan nutq vakolati, turli funksional uslublarda bog‘langan va mantiqiy jumlalarni yaratish;
- 4) Strategik vakolatlar, shu jumladan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan og‘zaki usullar yoki strategiyalar haqida xabardor bo‘lish, agar aloqa vazifasi bajarilmasa;
- 5) Ijtimoiy-madaniy yetuklik ona tilidagi ma‘ruzachilarining madaniy xususiyatlarini, ularning urfdotlarini va xulq-atvor normalari va ularni amalga oshirish jarayonida munosib foydalanishi mumkin bo‘lgan boshqa madaniyat vakilining aloqasi;
- 6) Ijtimoiy qobiliyat - odamlar bilan muloqot qilish va muloqotga bo‘lgan ishonchni qobiliyat va istak. (Suxova, 2007).

Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili, jumladan, texnik sohaga ixtisoslashgan talabalar uchun ingliz tili o‘qitish so‘nggi yillarda tobora o‘z ahamiyatini oshirib bormoqda. Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitish kurslari talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatlarini uchun yaxshi tayyorlaydigan qilib, butun dunyo bo‘ylab tan olingen kadrlar sifatida yetishishlarini ko‘zda tutadi.

Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitish yoki ESP(English for specific purposes) ingliz tilini ikkinchi yoki chet til sifatida o‘qitish va o‘rganishni anglatadi, bu yerda talabalarning maqsadi ma‘lum bir akademik, kasbiy yoki kasbiy sohada ingliz tilidan foydalanishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u EOP (Ingliz tili uchun Kasbiy Maqsadlar) va EAP (ingliz tili uchun akademik maqsadlar uchun) kabilardan ajralib turadi.

Xatchinston va Vaters tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, ESP ingliz tili o‘qitishning muhim turlaridan biri hisoblanadi. Ular ESPni mutaxassislik fanlarini, aniqsa texnikaga yo‘naltirilgan ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘rgatish, shuningdek, olimlar uchun fan so‘zlarini va grammatikasi masalalariga urg‘u beriladi. Tez va samarali o‘rganish tamoyillari asosida birinchi navbatda tilni o‘rganishning boshqa shakllaridan farq qilmaydi. Bu talabaning ehtiyojlariga asoslangan va tilni o‘rganishning o‘ziga xos va aniq sabablari bilan yo‘naltirilgan tilni o‘rganishga nisbatan yondashuvdir. Uning kitobida ingliz tilida muayyan maqsadlar uchun kurslarni ishlab chiqishda Basturkmenneing ta’kidlashicha, "ESP da talaba akademik, kasbiy yoki kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan va inglizchadan bu ishlarni amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanadigan til o‘rganuvchi sifatida ko‘rildi. Tashqi maqsadlar tilni o‘rganish va lingvistik maqsadlar uchun o‘rgаниладиган tilning instrumental ko‘rinishini taklif qiladi. Umumiyl ingliz tilini o‘qitish holatida maqsadlar odatda lingvistik hisoblanadi (masalan, og‘zaki yoki keng lug‘atning rivojlanishi, yoki grammatik tuzilmalarning keng doirasidan foydalanish imkoniyati). Maxsus maqsadlarda ingliz tili o‘qitish sharoitida esa talabaning o‘ziga xos lisoniy vakolatlarni talab qiladigan maqsadlar "haqiqiy dunyo" maqsadlariga erishish istagi borligi tushuniladi. Ushbu fikrni Mohammad Kaosar Ahmad o‘zining «ESP o‘qituvchisi: muammolar, vazifalar va qiyinchiliklar» nomli kitobida ilgari suradi.


Dudley-Evans va Seyn-Johnlarning ESPning mutlaq belgilariga ko‘ra, kurs talabalarning o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak va kursning muayyan mazmuniga mos keladigan tilga asoslangan bo‘lishi kerak. Shuning uchun, ehtiyojlarni tahlil qilish, kurs provayderini kursga nima kiritish kerakligini tanlash va qaror qabul qilish imkoniyatini taqdim etishi bilan, albatta, uning ahamiyatini shakllantirdi.

Basturkmen, maxsus maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishdagi ehtiyoj tahlil qilish bir kurs rivojlantirish jarayonini ifoda etadi deb hisoblaydi. Ushbu jarayonda talabalar maqsadli kasb-hunar yoki kasbiy ish joylarida yoki o‘quv yurtlarida foydalanadigan til va ko‘nikmalar talabalarning hozirgi holatiga, ularning ehtiyojlarini va amaliy imkoniyatlari va cheklowlariga qarab belgilanadi va ko‘rib chiqiladi. Ushbu jarayondan olingen ma‘lumotlar maxsus maqsadlardagi ingliz tili kursining mazmuni va usulini aniqlash va takomillashtirishda qo‘llaniladi.

Xatchinston va Vatersning fikriga ko‘ra, ESP o‘qituvchilari tomonidan olib borilgan ishlar ko‘pchiligi turli xil talabalar guruhlari uchun tegishli kurslarni yaratish bilan bog‘liq. Shunday qilib, kurs dizayni, umumiyl ingliz tili o‘qituvchisi hayotida nisbatan odatdagidan farq qiladi, bu yerda odatda

an'anaviy tarzda, darslik yoki vazirlik qarori bilan aniqlanadi - ESP o'qituvchisi uchun o'quv yuklama ham dizayniga odatdagidan farq qilishi nazarda tutiladi.

Xatchinston va Vaters, ESP kurslarini loyihalash "ta'lim dasturlari, materiallar yozish, guruhlarni o'qitish va baholashning keyingi jarayonlari uchun asosli asos yaratish uchun asosan mavjud muammolarga yechim topish lozim" deb hisoblaydi. ESP o'qituvchisi bir necha narsalar haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak, masalan, talabaning nima uchun tilni o'rganishi kerakligi, jarayonda ishtirok etishi kerakligi, tilning qaysi jihatlari kerakligi va boshqalar. ESP o'qituvchisi o'zidan so'rashi kerak bo'lgan savollarni o'rganib chiqib, Xatchinston va Vaters ularni uchta toifaga ajratdi: Til tavsiflari, Ta'lim nazariyasi va ehtiyoj tahlillari. Ushbu uchta element alohida holatlarga qaramasdan, ularning o'quv rejalarida o'zaro bog'liqligi katta ahamiyatga ega. Ular o'zaro munosabatini quydagicha ko'rsatadi:



1-Chizma: *ESP kurs dizayniga ta'sir qiluvchi omillar (Xatchinston va Vaters 1987, 22-bet)*

Ushbu omillarni hisobga oladigan bo'lsak, ESP provayderlari kurs loyihalarini diqqat bilan o'rganishlariga yordam beradi. Shunday qilib, ESP kursini ishlab chiqishda, kurs maqsadlarini va ularning "maqsadga erishishi" ni aniq belgilash juda muhimdir. Ma'lumki, aniq maqsadlar va vazifalar o'qituvchilar va talabalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi, chunki ular o'qituvchilarning o'zları o'rgatayotgan narsalar uchun mas'ulligini izohlaydi. Maqsadlar "faollashishi", ta'lim, xatti-harakat, o'quv-tarbiyaviy yoki ishslash deb nomlangan bo'ladimi, yoki ular haqida bilib olish uchun ishlatiladigan xususiyatlar tavsiflarini belgilaydi.


O'zining "Til kurslarini loyihalash" deb nomlangan o'qituvchilar uchun qo'llanmasida Ketlin Kreyvs shuni alohida ta'kidlab o'tadiki, "Niyatlaringiz bu kurs rejasiga ko'ra erishilgan natijalar hamda maqsadlaringizning so'zlardagi ifodasi bo'lsa, intilishlar esa niyatlarga erishish yo'lida qo'yiladigan vazifalardir".

Kreyvsning fikriga ko'ra, maqsadlar, o'qituvchilarni kursni davom ettirishi va kursni o'rgatishiga yordam berishi mumkin, shuningdek, o'qituvchining kursga e'tiborini va ustuvorligini oshiradi.

U maqsadlar umumiyl so'zlar bo'lishi mumkin, ammo noaniq bo'lmasligi lozimligini ta'kidlaydi. Shuning uchun, agar biz ularga erishmoqchi bo'lsak, maqsadlarni yanada aniqroq qilishga moyil bo'lishimiz kerak. Maqsadlar kursning chegaralari va resurslari, ya'ni talabalar, ularning darajasi, mavjud bo'lgan vaqt, mavjud materiallar va boshqalar ichida aniq amalga oshirilishi mumkin bo'lgan narsalar bilan bog'liq bo'lishi kerak. Biz katta maqsadlardan boshlashimiz mumkin, lekin ularning barchasiga erisha olmaymiz, chunki vaqt yetarli emas, talabaning qobiliyati dastlab kutilganidan kamroq, yoki maqsadga erishish uchun kerakli ko'nikmalarga ega bo'lmasligi mumkin.

Vazifalar bir tomonidan, o'zlashtirilishi hamda o'qitilishi oson qismlarni o'zida jamlab birgalikda maqsadlarni tashkil qiladi. Ular natijalar, o'qitish hamda baholash o'rtasidagi bog'liqliknini ta'minlab beradi.

Shu sababli o‘quv maqsadlar talabaning muayyan ishtiroki bilan aloqada bo‘lishi hamda o‘qituvchining talabaga nimani bajartirishi lozimligini aniqlab berishi lozim. Harqalay, vazifalar o‘lchanadigan hamda amalga oshirilishi imkonи bo‘lgan narsalardan tarkib topishi lozim, sababi faqat aynan shu yo‘l bilan niyatlar, maqsadlar amalga oshishi mumkin. (2-chizmaga qarang)




Ushbu vazifalar amalga oshirilsagina

Maqsad amalga oshishi mumkin

2-chizma. *Vazifa va maqsadlar o‘rtasidagi sabab va ogibat munosabatlari (Kreyvc 2000 yil, 77-bet)*

Keyingi qadam, Kreyvc ning fikriga ko‘ra, maqsadlarni o‘rganish yoki "faollashtirish" ni o‘z ichiga olgan "o‘rganiladigan va o‘rgatiladigan bo‘linmalar" ni aniqlash uchun bajariladigan maqsadlarni ularning tarkibiy qismlariga tushirishdir.

Maqsad qanchalik aniq bo‘lsa, maqsadga erishish uchun yaxshi imkoniyat bo‘ladi. Ushbu iyerarxik munosabatlar, har bir maqsadga erishish uchun bir nechta maqsadlarga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Agar biz ushbu haqiqatni tan olsak, biz ko‘zlayotgan maqsadlarimizga erishish mumkinligini va ta’lim maqsadlarini o‘lchash mumkinligini kafolatlay olamiz.



3-chizma: *Har bir umumiy maqsad uchun ko‘p tarmoqli vazifalar majmui mayjud bo‘ladi (Kreyvc 2000 yil, 77-bet)*

ESP o‘qituvchilariga tegishli maqsadlar va maqsadlarni yozishga yordam beradigan ikkita foydali nazariy ramka mavjud. Birinchisi - aloqa va kommunikativ kompetentlikdir, bu o‘z navbatida batafsil bayon etilgan kommunikatsiya maqsadlariga erishish uchun tilni to‘g‘ri va aniq ishlatalish qobiliyatini nazarda tutadi. Ikkinci tilni o‘rganish va testdan o‘tkazish bo‘yicha *Kommunikativ yondashuvlarning nazariy asoslari va shunga qarab, Kommunikativ til o‘qitish: ijodiy holat*. Ikkinci ramka ESP ehtiyojlarini baholash bo‘yicha o‘ziga xos qobiliyat va layoqat sohalariga ajratilgan kommunikatsiya vazifasini buzish uchun kommunikativ kompetentlik tizimini ishlataladigan Aloqa / Tilni tahlil qilish hisoblanadi. Ushbu ma’lumot bilan ESP o‘qituvchisi har bir maqsadga erishish uchun aniq maqsadlarni yaratishi mumkin.

Adabiyotlar

- Алешчанова. И. В, Фролова Н.А, Организация самостоятельной работы по иностранному языку, ВолГТУ, Волгоград. 2013, 9-12-бетлар;
- Дулепова. Н. А, Основы методики преподавания английского языка, Москва. 2013, 28-35-бетлар;
- Ketlin Kreyvs “Til kurslarini loyihalash”. Kebrij. 2000 yil, 77-bet;
- Mohammad Kaosar Ahmad, « ESP o‘qituvchisi: muammolar, vazifalar va qiyinchiliklar». Tehron. 2005, 3-5-betlar.
- Сухова. Л. В, “Факторы формирования языковых навыков”, Москва. 2007, 17-29-бетлар;
- Hutchinson T. English for Specific Purposes: A learner-centred approach / T. Hutchinson, A. Waters. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987, 22-бет;
- H. L. Basturkmen, ESP teacher education needs. *Language Teaching*. 2017. URL: <http://hdl.handle.net/2292/41798>.

UDK 372.881.111.1

**CHEZ TILLARNI O'RGANISH TIZIMIDA YEVROPA TIL PORTFOLIOSINI TADBIQ ETISH
IMKONIYATLARINING EMPIRIK TADQIQI**

H. I. Urazbayev

Toshkent xalqaro Vestminster universiteti

Annotatsiya. Tadqiqot mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan chet tili o`qituvchilarining umumevropa kompetensiyalari (CEFR)ga oid hujjatlar va o`quv materiallari, xususan, Yevropa til portfoliosida nazarda tutilgan ta`lim texnologiyalaridan foydalanish darajasini aniqlash maqsadida olib borildi. Tadqiqotda anketa so`rovnomaga va matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalaniqilgan. Tadqiqot natijalariga ko`ra Umumevropa kompetensiyalari tamoyillarini manfaatdor tomonlarga yanada samarali yetkazib berish uchun Yevropa til portfoliosi modelini taklif etish zarurati aniqlangan va asoslangan. Maqolada shuningdek, chet tillarni o`qitish va o`rganishda Yevropa til portfoliosi texnologiyasining imkoniyatlari yoritilib, O`zbekiston sharoitida ushbu texnologiyani qo`llashga bo`lgan ehtiyoj empirik tadqiqot yordamida o`rganilgan.

Kalit so`zlar: Yevropa til portfoliosi, Umumevropa kompetensiyalari, mustaqil ta`lim, o`z-o`zini baholash, CEFR.

**Эмпирическое исследование возможностей Европейского языкового портфолио в системе
обучения иностранным языкам**

Аннотация. Целью данного исследования является изучение уровня ознакомления преподавателей иностранных языков с документами и материалами, относящимися к CEFR, а именно с Европейским языковым портфолио, а также степени применения преподавателями в своей педагогической практике технологий преподавания и обучения языкам, отражающимися в языковом портфолио. В исследовании использовались методы анкетирования и статистического анализа данных. Результаты исследования указывают на необходимость и целесообразность создания модели Европейского языкового портфолио и его дальнейшего внедрения в систему обучения иностранным языкам. В статье также рассмотрены возможности, предоставляемые Европейским языковым портфолио в распространении философии CEFR среди более широкого круга заинтересованных сторон.

Ключевые слова: Европейский языковой портфель, CEFR, самостоятельная деятельность обучающегося, самооценка

**Empirical exploration of the feasibility of employing European language portfolio in the foreign
languages learning system**

Abstract. The aim of the research is to investigate the familiarization level of practicing foreign language teachers with the CEFR related documents and materials, namely, European language portfolio and the extent to which the teachers apply teaching and learning technologies presented in ELP in their teaching practice. Survey method and statistical data analysis methods were employed in the study. The article presents the findings of the research conducted in order to justify the feasibility of introducing European Language Portfolio to foreign languages teaching and learning system in Uzbekistan. The author also discusses the opportunities offered by European Language Portfolio in communicating the philosophy of the CEFR to wider population of stakeholders.

Keywords: European language portfolio, CEFR, learner autonomy, self-assessment

Kirish. Ushbu tadqiqot mamlakatimiz ta`lim tizimida faoliyat yuritayotgan chet tili o`qituvchilarining Umumevropa kompetensiyalari (CEFR) mazmun mohiyatini foydalanuvchilar, til o`rganuvchilarga yetkazib berishda samarali vositalardan biri hisoblanmish Yevropa til portfoliosi [4] texnologiyasi bilan tanishligi, unining asosiy tamoyillari (mustaqil til o`rganish, til o`rganish jarayonida maqsadlar qo`ya bilish va o`z-o`zini baholash), tarkibiy qismlarini (o`z-o`zini baholash, CEFR can-do mezonlari) chet tilini o`qitish jarayonida qo`llash holatini o`rganishga hamda natijalardan kelib chiqqan holda chet tili o`qituvchilarini tayyorlash jarayonida Yevropa til portfoliosi modelini kiritishga ehtiyoj mavjud yoki mavjud emasligini o`rganish maqsadida amalga oshirildi.

Adabiyotlar sharhi. Til bilishning umumevropa kompetensiyalari yoki CEFR Yevropa Kengashi tomonidan 2001 yilda rasman qabul qilingan hujjat bo`lib, undan kutilgan asosiy maqsad Yevropa

mamlakatlari ta`lim tizimida tillarni o`qitish, o`rganish va baholashni standartlashtirish hamda til o`rganishdan kutilgan natijalarning manfaatdor tomonlar uchun transparentligini va tushunarligini ta`minlash hisoblanadi [2]. Shu vaqtga qadar CEFR 46 ta mamlakat, xususan, G`arb, Janubiy-Sharqiy Osiyo hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari ta`lim tizimida qabul qilingan. O`zbekistonda Umumevropa kompetensiyaları asosida 2013 yil “Uzluksiz ta`lim tizimining chet tillar bo`yicha davlat ta`lim standarti - Chet tillari bo`yicha ta`limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan talablar” [1] qabul qilinib, amaliyotga tadbiq qilindi.

CEFRni amaliyotga tadbiq qilish muammolari bilan shug`ullangan olimlar fikricha, Umumevropa kompetensiyasining ta`siri til siyosatlaridan tortib, til bilishni baholash, va ta`lim standartlarini isloh qilishgacha bo`lgan jahhalarni qamrab oladi [10]. Ushbu mualliflar, shuningdek. CEFR xorijiy tillar o`qituvchilarining ham faoliyatiga bo`lgan ta`sirini bat afsil yoritmagan bo`lsada, ularning e`tirof etishicha, CEFR o`qituvchilardan chet til o`qitishning an`anaviy usullaridan kommunikativ yondashuv asosidagi usullarga o`tishini nazarda tutadi [6, 7]. Bu jarayonda ko`pchilik kontekstlarda Yevropa til portfoliosi texnologiyasidan unumli foydalanilgan. Xususan, CEFRni o`z chet tillarni o`qitish tizimida tadbiq qilgan mamlakatlar, jumladan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Irlandiya, Finlandiya, Shvetsiya, Norvegiya, shuningdek, Turkiyada CEFRga asoslangan ta`lim standartlarini tadbiq qilish Yevropa til portfoliosini tanishtirish bilan hamohang amalga oshirilgan.

Yevropa til portfoliosi turli kontekstlarda tadqiqot ob`ekti sifatida o`rganilgan bo`lib, uning til o`rganish jarayonida samarali vosita ekanligi o`z isbotini topgan. Glover, Mirichi va Aksuning [9] Turkiyada olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko`ra, til portfoliosi refleksiv vosita sifatida o`quvchilarda mustaqil ta`lim olish va ta`lim olish jarayoniga mas`uliyat bilan yondashish ko`nikmalarini shakllantiradi. Bir qator tadqiqotlar orqali til portfoliosining o`z-o`zini baholashdagi o`rnini ham o`rganilgan bo`lib, Yevropa til portfoliosi Umumevropa kompetensiyaları mezonzarini asosida yaratilgan “I can” cheklisti orqali o`quvchilarga til bilish darajalarini mustaqil baholash imkonini beradi [5, 8].

Tadqiqotchilar, shuningdek, turli ta`lim kontekstlarida Yevropa til portfoliosining pedagogik funksiyalarini ham tadqiq qilishgan. Chexiya kontekstida Littl va Perklova [5] tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishda Yevropa til portfoliosi o`qituvchilarga til o`qitishda refleksiya qilishga yordam bergenligini qayd etishgan bo`lsa, Finlyandiya kontekstida Koxonen va Vesthoffnung e`tirof etishicha, Yevropa til portfoliosi o`qituvchilarga chet tilini o`rganish jarayonida o`quvchilarda mustaqil ta`lim olish ko`nikmalarini shakllantirishga yordam bergan [4].

Yevropa kontekstida ham Umumevropa kompetensiyalarini ta`lim tizimida qo`llash bilan bog`liq muammolarga duch kelingan bo`lib, ushbu muammolarni bartaraf etishda, xususan, Oskarson va Oskarson tomonidan Shvetsiyada o`tkazilgan tadqiqotda, chet tili o`qituvchilarining CEFR mezonzarini yaxshiroq anglashida Yevropa til portfoliosining o`rni sezilarli bo`lganligini qayd etilgan [8].

Yevropa til portfoliosi asoschilaridan biri hisoblangan Devid Littl fikricha, til portfoliosi chet tilini o`rganuvchilarga o`z-o`zini baholash, chet tilini o`rganish jarayonida maqsadlar qo`ya olish imkonini beradi [6]. Bu jarayonda asosiy vosita sifatida til portfoliosi “Til biografiyasi” bo`limidagi “O`z-o`zini baholash nazorat ro`yxati”dan foydalaniladi.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda so`rovnomada (son va sifatli ma`lumotlarni yig`ish imkonini beruvchi) va matematik-statistik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida foydalanilgan so`rovnomada Google Forms platformasida tayyorlanib, jami 16 ta savolni o`z ichiga oldi. Savolnomada bir nechta alternativ javobli yopiq va respondentlardan batafsil javob berishni talab qiluvchi ochiq turdagı savollarni o`z ichiga oldi.

Savollar respondentlardan demografik ma`lumot (yosh, ish staji), respondentlarning Umumevropa kompetensiyalaridan xabardorligi, Umumevropa kompetensiyaları haqida ma`lumot olish kontekstlari va eng asosiysi, Umumevropa kompetensiyalarida e`tirof etilgan masalalar, tamoyillar va mezonzarini bilan qanchalik tanish ekanligi, Yevropa til portfoliosining asosiy tamoyillari, o`z-o`zini baholash, mustaqil til o`rganish va chet til o`rganishda maqsadlar qo`ya olish va ulardan ta`lim jarayonida foydalanish holatini aniqlshga qaratildi.

So`rovnomada jami 80 nafar oliy ta`lim, o`rta-maxsus ta`lim, umumiy o`rta va boshlang`ich ta`lim tizimida faoliyat yuritayotgan chet tili o`qituvchilarini ishtiroy etishdi. Savolnomada, yuqorida ta`kidlanganidek Google Forms platformasida yaratilib, javoblar 2019 yil 10-28 noyabr kunlari ingliz tili o`qituvchilarining ijtimoiy tarmoqlardagi kanallari va guruhlari orqali qabul qilib olindi.

Natijalar Google Forms platformasidan Excel faylda ko`chirib olingandan so`ng, IBM SPSS (Statistical Package for Social Sciences) dasturining 17 versiyasida matematik-statistik tahlil qilindi.

So`rovnomada, respondentlarga yuborishdan oldin, Guliston davlat universiteti “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Fakultetlararo chet tillar” kafedrasini ingliz tili o`qituvchilarida sinab ko`rildi.

Savolnomada mayjud noaniqlik, mavhum tushunchalar va atamalar qayta ko`rib chiqilib, kerakli tuzatishlar kiritilgach, anketaning yakuniy varianti tayyorlandi.

So`rovnoma natijalari ishonchliligi Kronbax Alfa testi yordamida tekshirib ko`rildi ($\alpha=0,72$).

Natijalar va ularning muhokamasi. So`rovda qatnashganlarning aksariyatini 25-30 (36,3%) va 31-35 (28,8%) yosh oralig`idagi chet tili o`qituvchilar tashkil qildi (1-jadval).

1-jadval

So`rovnoma ishtirok etganlar yoshi

Yosh kesimi	Javob bergenlar	Foiz	Haqiqiy foiz	Kumulativ foiz
20-24	2	2,5	2,5	2,5
25-30	29	36,3	36,3	38,8
31-35	23	28,8	28,8	67,5
36-40	15	18,8	18,8	86,3
41-50	11	13,8	13,8	100,0
Jami	80	100,0	100,0	

Keyingi savolda o`qituvchilarning ish stoji haqida ma`lumot so`ralganda quyidagilar aniq bo`ldi. So`rovda qatnashganlarning asosiy qismini 1-5 (25%) va 6-10 (33,8) yillik ish stajiga ega bo`lganlar tashkil qildi (2 jadval).

2-jadval

So`rov qatnashchilarining umumiyligini pedagogik stoji

Yillar kesimi	Javob bergenlar	Foiz	Haqiqiy foiz	Kumulativ foiz
1-5	20	25,0	25,0	25,0
6-10	27	33,8	33,8	58,8
11-15	17	21,3	21,3	80,0
16-20	8	10,0	10,0	90,0
21-30	8	10,0	10,0	100,0
Jami	80	100,0	100,0	

So`rovnoma da birinchi savolga, “Umumevropa kompetensiyalari bilan tanishmisiz?” degan savolga, 91% respondent “Ha” degan javob berishdi. Ikkinci, “Umumevropa kompetensiyalari bilan qayerda tanishgansiz?” degan savolga jami 67 nafar respondent batafsil javob berdi. Ushbu savol natijalariga ko`ra o`qituvchilarning CEFR bilan tanishtirilishida eng asosiy vositalar oliy ta`limda chet tili o`qituvchilar tayyorlash kurslari, malaka oshirish kurslari, ommaviy axborot vositalari va bevosita ish jarayoni hisoblanadi. 43% so`rov ishtirokchilarning e`tirof etishicha, ular birinchi marta Umumevropa kompetensiyalari bilan oliy ta`limda, ya`ni chet tili o`qituvchilarini tayyorlash kurslarida tanishishgan. Respondentlarning 11,9% Umumevropa kompetensiyalari bilan bevosita ish jarayonida tanishishganliklarini e`tirof etgan bo`lsa, 29,8% so`rov ishtirokchilari Umumevropa kompetensiyalari haqida dastlabki va batafsil ma`lumotni internet manbalari orqali olishganini aytib o`tishdi. 9 nafar respondent, ya`ni jami javob bergenlarning 13,4 foizi Umumevropa kompetensiyalari bilan O`zbekiston ingliz tili o`qituvchilarini uyushmasi (UzTEA) tomonidan tashkil qilingan konferensiya va treninglar orqali tanishishganliklarini e`tirof etishdi (3-jadval).

3-jadval

Umumevropa kompetensiyalari bilan tanishtirish vositalari

OTM chet tili o`qituvchilarini tayoorlash va malaka oshirish kurslari	Bevosita ish jarayonida	OAV va internet	Hamkasblar	Koferensiya va treninglar
29	8	20	1	9

So`rovnoma da keyingi savol, chet tili o`qituvchilarning Umumevropa kompetensiyalarini chet tili o`qitish jarayonida qo`llay olish uchun yetarli ma`lumotga ega yoki ega emasliklarini aniqlashga qaratilgan bo`lib, ushbu savolga javob bergenlarning 66,2% (standart og`ish = 0,901) Umumevropa kompetensiyalari haqida, unda e`tirof etilgan masalalarni chet tili o`qitish jarayonida qo`llay olish

darajasida, ma`lumotga ega ekanliklarini e`tirof etishdi. Huddi shunga o`xhash savolga, ya`ni "Umumevropa kompetensiyalarida e`tirof etilgan masalalarni chet tili o`qitishda qo`llaysizmi?" degan savolga 62% (standart og`ish = 0,930) respondent "ha" degan javob berishdi. Ushbu savolga "ha" degan javobni bergen respondentlardan dars jarayonida Umumevropa kompetensiyalarida e`tirof etilgan masalalarni qanday qo`llashiga oydinlik kiritish so`ralganida, so`rov ishtirokchilarining asosiy qismi dars jarayonida 4 ta til ko`nikmalari, gapirish, yozish, o`qib tushunish va tinglab tushunishni rivojlantirishga e`tibor qaratishini qayd etishdi. Shu bilan birga "ha" deb javob bergenlarning faqat 1 nafari "can do statement"lardan foydalanaman degen javob berdi.

So`rovnoramadagi keyingi ikkita savol chet tili o`qituvchilarining Umumevropa kompetensiyalari haqida, xususan, Umumevropa kompetensiyalaridan ta`lim jarayonida qo`llash, ular asosida o`quv materiallarini tanlash, yaratish, o`quvchilar bilim va ko`nikmalarini baholash yo`llari haqida yanada batafsilroq ma`lumotga ehtiyoji bor yoki yo`qligi so`ralganida respondentlarning 76% "ha ehtiyoj bor" (standart og`ish = 0,527) degan javobni tanlashdi. Qatnashchilardan chet tili o`qituvchilarini tayyorlash, malakasini oshirish kurslarida Umumevropa kompetensiyalariga bag`ishlangan maxsus fan, trening va workshoplar tashkil qilinishi kerakmi yoki yo`qmi deb so`ralganda, so`rov ishtirokchilarining 86% "ha" (standart og`ish = 0,333) degan javobni berishdi.

So`rovnoramadagi keyingi 2 ta savol chet tili o`qituvchilarining Yevropa til portfoliosi texnologiyasining asosiy tamoyillari hisoblanmish, mustaqil til o`rganish, til o`rganishda maqsadlar qo`ya olish, o`z-o`zini baholash kabilarni qay darajada ta`lim jarayonida qo`llashini aniqlashga qaratildi.

Qatnashchilardan "Umumevropa kompetensiyalari mezonlari asosida o`quvchilaringizga chet tili bo`yicha ko`nikma va malakalarini o`z-o`zini baholashga o`rgata olasizmi?" deb so`ralganda 59,7% (SO=0,725) qatnashchi "Ha" degan javobni berishgan bo`lsa, 10,4% "yo`q" va 29,9% ishtirokchi "Javob berishga qiynalaman" degan variantni tanlashdi.

Keyingi savolda o`qituvchilardan Umumevropa kompetensiyalari mezonlari asosida o`quvchilaringizga chet tili bo`yicha ko`nikma va malakalarini o`z-o`zini baholashda qanday usullardan foydalanishi so`raldi. Ushbu savolga so`rovnoma ishtirokchilarining yarmi, ya`ni 41 nafari javob berdi. Ushbu 41 nafar respondentlardan atigi 17% Umumevropa kompetensiyalarida berilgan "can do" mezonlaridan va o`z-o`zini baholash mezonlaridan foydalanishi aytib o`tgan, 17% ishtirokchi o`z-o`zini baholashga umuman teskari bo`lgan "peer-assessment" dan foydalanishini aytib o`tgan bo`lsa, 10 nafar (24,3%) o`qituvchi diagnostik testlardan foydalanishini, 7,3% ishtirokchi turli hil topshiriqlardan foydalanishini va qolgan 34% ishtirokchi boshqa turli vositalardan foydalanishi aytib o`tishdi.

Keyingi savol orqali chet tili o`qituvchilarining til o`rganuvchilarga chet tilini o`rganishda maqsadlar qo`ya bilishni o`rgatishini va bu jarayonda o`qituvchilar foydalanadigan asosiy vositalar haqida ma`lumot olish nazarda tutilgan edi.

"O`quvchilaringizga chet tilini o`rganishda CEFR darajalariga erishishda maqsadlar qo`yishga o`rgata olasizmi?" degan savolga 70,7% (SO=0,921) respondentlar "Ha" degan javob berishdi. 29,3% respondentlar bu savolga "yo`q" degan javob berishdi.

Keyingi savol respondentlardan chet tilini o`rganishda til o`rganuvchilarga CEFR darajalariga erishish uchun maqsadlar qo`yishga o`rgatuvchi usullarga doir ma`lumot olish uchun so`raldi. Ushbu savolga 80 nafar respondentlarning 46 nafari batafsil javob berdi. Natijalarga ko`ra, 8,6% respondent, ya`ni 46 nafardan atigi 4 nafari o`quvchilarga maqsadlar qo`yishda Umumevropa kompetensiyalarida berilgan Self-Assessment Checklist va "Can do" mezonlaridan foydalanishlarini e`tirof etgan bo`lsa, qolgan 73% respondent bergen javobga ko`ra, ular til o`qitishda o`quvchilarga maqsadlar qo`yishni o`rgatishda muayyan bir usuldan foydalanmaydi yoki o`quvchilariga til o`rganishda maqsadlar qo`yishni o`rgata olmaydi.

So`rovnoma shuningdek o`qituvchilarining o`zlarining chet tilini bilish darajalarini bilishi va o`z darajalarini aniqlashda qo`llaydigan usullari haqida ham savol berilganda quyidagi natijalar olindi. So`rovda qatnashganlarning aksariyat qismi o`z til bilish darajasini B1 (26,7%) va V2 (46,7%) deb ko`rsatishdi. So`ng ulardan o`z chet tili bilish darajasini qaysi vosita asosida aniqlaganliklari so`ralganda, aksariyat respondentlar DTM ustama testlari, IELTS imtihonini ko`rsatishgan bo`lsa, atigi 2 nafar respondent "CEFR mezonlari" degan javob berishdi.

Xulosalar. O`tkazilgan so`rovnoma natijalariga ko`ra mamlakatimiz chet tili o`qituvchilarini Umumevropa kompetensiyalari tamoyillarini o`zida aks ettiruvchi, kompetensiyalarni ta`lim jarayonida qo`llash imkonini beruvchi Yevropa til portfoliosi texnologiyasi bilan yaqindan tanishtirishga ehtiyoji mavjud. Buning uchun O`zbekiston ta`lim standartlari talablari va xususiyatlarini o`zida mujassam etgan, chet tillarni o`rganish maqsadlari va kontekstlaridan kelib chiqqan holda Yevropa til portfoliosi modellarini yaratish va amaliyotga tadbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Til portfoliosi texnologiyasi bilan o`qituvchilarini tanishtirish maqsadida til portfoliosi texnologiyasini chet tili o`qituvchilarini tayyorlovchi oliy

ta`lim muassasalari tegishli ta`lim yo`nalishlarida til o`rganishning qo`shimcha vositasida sifatida tadbiq qilish joiz.

Adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Chet tillari bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar. – Toshkent, 2013.
2. Council of Europe. Council for Cultural Co-operation. Education Committee. Modern Languages Division. Common European Framework of Reference for Languages: learning, teaching, assessment. – Cambridge University Press, 2001. – C. 273.
3. Figueras N. The impact of the CEFR //ELT journal. – 2012. – T. 66. – №. 4. – C. 477-485.
4. Kohonen V., Westhoff G. Enhancing the pedagogical aspects of the European Language Portfolio (ELP) //Strasbourg: Council of Europe. – 2001. – C. 54.
5. Little D., Perclová R., de l'Europe C. The European Language Portfolio: a guide for teachers and teacher trainers. – Council of Europe, 2001. – C. 109.
6. Little, D. (2016). The European Language Portfolio: time for a fresh start?. International Online Journal of Education and Teaching (IOJET), 3(3). 162-172. Retrieved from <http://iojet.org/index.php/IOJET/article/view/146/139>
7. Mirici I. H. Development And Validation Process Of A European Language Portfolio Model For Young Learners //Turkish Online Journal of Distance Education. – 2008. – T. 9. – №. 2. – C. 26-34.
8. Oscarson A., Oscarson M. Using the CEFR in the foreign language classroom //IATEFL/EALTA Conference "Putting the CEFR to good use". Barcelona, Spain, 29-30 Oct. – 2010. – C. 15.
9. Şentürk B., Mirici İ. H. Does the ELP promote learning English as a foreign language at tertiary level? //Dil ve Dilbilimi Çalışmaları Dergisi. – 2019. – T. 15. – №. 2. – C. 695-718.
10. Westhoff G. Challenges and opportunities of the CEFR for reimagining foreign language pedagogy //The Modern Language Journal. – 2007. – T. 91. – №. 4. – C. 676-679.

UDK: 891.709

SHAVKAT RAHMON IJODIDA ANIQLOVCHI-ANIQLANMISH MUNOSABATIDAGI SINTAKTIK BIRLIKALARINING METAFORA HOSIL QILISH IMKONIYATLARI

D. Yunusova

*Samarqand viloyati xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi
durdon3004@mail.ru*

Annotatsiya. Shavkat Rahmon ijodida aniqlovchi-aniqlanmish, xususan, sifatlovchi-sifatlanmish munosabatidagi metaforalar son jihatidan nihoyatda ko`p ekanligi e'tirof etilgan. Sho'r she'rlerida boshqa ijodkorlarda deyarli uchramaydigan original metaforalar borligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: metafora, sifatlovchi-sifatlanmish, aniqlovchi-aniqlanmish, denotativ ma'no, semema, ko'chma ma'no, nomema, omonimik munosabat, uslubiy ma'no, bitishuvli birikma.

Возможности метафорообразования синтаксических единиц в отношении определения-определяемого в творчестве Шавката Рахмона

Аннотация. Признано, что в творчестве Шавката Рахмона есть большое количество метафор в определенном-определенном, в частности, в прилагательном-прилагаемом отношении. Стихи поэта анализируются на предмет наличия оригинальных метафор, которые почти не слышны у других художников.

Ключевые слова: метафора, прилагательное-прилагаемое, определенное-определенное, денотативное значение, семема, переносное значение, номема, омонимическое отношение, методологическое значение, связное сочетание.

The possibilities of making metaphors from syntactic units towards the attributive attribute in Shavkat Rahmon's work

Abstract. It is said that the metaphors in the attributive- attribute identifying parts of speech, in particular, adjectival-adjective identifying parts of speech relations existing numerically much in the works of Shavkat Rahmon. The poet's poems are analyzed to contain original metaphors that are almost rare in other poets.

Keywords: metaphor, adjectival-adjective identifying parts of speech, attributive-attribute identifying parts of speech, denotative meaning, semema, figurative meaning, nomema, homonymous relation, methodological meaning, connective compound.

Metaforalarning eng sermahsul turi – bu sifatlovchi-sifatlanmish munosabatidagi so‘z birikmalaridir. Metaforik ma’no hosil bo‘lishi uchun quyidagidan biri sabab bo‘ladi:

1) bir so‘z boshqa so‘zga nisbatan so‘zlovchining ifoda maqsadiga ko‘proq mos va muvofiq bo‘ladi va shuning uchun birinchisi o‘rnida ikkinchisi qo‘llaniladi;

2) biror denotatning ifodalovchisi bo‘lmaydi va ma’lum bir so‘z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo‘llanadi.

Demak, birinchi holda ko‘chirilayotgan so‘z denotatning ikkinchi atamasi bo‘lsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Masalan, (*quyi*) so‘zi anglatadigan ma’noni (*etak*) so‘zi qulayroq va to‘laroq ifodalaganligi bois tog‘ning quyi tomoniga nisbatan (*etak*) so‘zi ishlataligan. O‘zbek tilida dengizdagi o‘ziga xos jo‘g‘rofifi o‘rinning nomi bo‘lmaganligi bois (*qo‘ltiq*) so‘zi unga nisbatan ham qo‘llanadi.

Metafora hodisasi asosan, ot turkumi doirasida, qisman fe’lda uchraydi: *Qush uchdi. Samolyot uchdi* qurilmalarining ikkinchisida (*uchmoq*) fe’li ifodalagan harakat qushning havodagi qanotlarini silkitib qilgan parvoziga o‘xshaydi. Shu boisdan (*uchmoq*) fe’li ifodalagan keyingi ma’no metaforik ma’no.

Metafora hosila ma’no hosil qilishning keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutqning eng muhim vositasidan hisoblanadi.

Metaforik hosila ma’no nutqda juda ko‘p uchraydi. Ammo ularning lisoniyashgani - sememaga aylangani nisbatan kam. [*Qanon*] (samolyot), [*uchmoq*], [*og‘iz*] (qop) kabi leksemalarning ushbu hosila ma’noi metaforik semema.

Metaforik yo‘l bilan hosil bo‘lgan semema davrlar o‘tishi bilan o‘ziga xos atash semalari kasb etishi natijasida bosh sememasidan uzoqlashib, mustaqil xolga kelishi, omonimik tabiatga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, adabiyotshunoslik termini sifatidagi (*fobia*) umumiste’mol qo‘llanishdagi (*fobia*) so‘zidan ma’noviy jihatdan uzilib, ularning nomemalari omonimik munosabatga ega bo‘lgan. Shuningdek, jo‘g‘rofifi termin bo‘lgan [*qo‘ltiq*] umumiste’moldagi [*qo‘ltiq*] leksemasining omonimiga aylangan [1].

She’r – qiyoslash o‘xshatishlar hosilasi o‘laroq metaforasiz jozibali bo‘lmaydi. Olimlar tomonidan bu hodisa, chuqur va atroficha o‘rganilgan. Biroq, har bir ijodkor metaforadan o‘ziga xos tarzda foydalanadi. Mazkur hodisa jahon tilshunos va adabiyotshunoslari tomonidan turli kontekstlarda, asosan, prozaik asarlar misolida o‘rganilgan [2], badiiy tasvir vositalari lingvostilistik [3], lingvopoetik [4] nuqtai nazardan atroficha tadqiqi qilingan. Ammo Shavkat Rahmon she’riyati misolida metaforani hosil qiluvchi leksik-grammatik vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari alohida tadqiq etilmagan. Metaforaning zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi grammatik birliliklar maxsus o‘rganilmagan. Shuning uchun ham metaforalarni Shavkat Rahmon she’riyati asosida tahlil qilishga harakat qildik.

Masalan, shoirning “VIDOLASHUV” she’rida quyidagi aniqlovchi-aniqlanmish munosabatidagi metaforani uchratish mumkin:

Xayr, Bahor! Alvido, Bahor!

Rahmat, oppoq gullaring uchun,
shoxlarimga **zumrad g‘o‘ralar**

qadab qo‘yan qo‘llaring uchun [5].

Zumrad aslida ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib, she’riy nutqda boshqa bir ot bilan sintaktik munosabatga kirishib, metaforik ma’no kasb etmoqda. Tillo so‘zi ham aslida rang ma’nosida qo‘llanib kelinadi:

Ko‘tarilar zamindan qudrat
shabbalarning uchiga qadar,
birdan yashil shoxlarda **tillo**
g‘o‘ralar ham toyvanib ketar.

Fe'l mavzusiga bag‘ishlangan qator asar va grammatikaga doir ishlarni (grammatik nazariyalar) tahlil qilish natijasida bir qancha munozarali fikrlar aniqlandi. Xususan, AQSh va ingliz tilshunos olimlari R.Quirk, R.A.Close, J.E.Warriner, R.Nordquist kabilarning ingliz tilida fe'l turlari bo‘yicha keltirilgan tasniflarini tahlil qilish natijasida turlar o‘rtasidagi son jihatdan mavjud bo‘lgan keskin farqni kuzatish mumkin. Shuningdek, rus tilshunoslari [5] ham ingliz hamda o‘zbek tillarida mavjud fe'l turlarini atroflicha tahlil qilishga harakat qilganlar, lekin ularni tasnif qilishda grammatika va leksika o‘rtasidagi bog‘liqlik e’tiborga olinmagan. Ayniqsa, tilshunos olimlar orasida M.Blox [7] tomonidan ishlab chiqilgan tasnifda fe'l turlari juda ko‘p miqdorga ajratilganligini alohida ta’kidlash joiz. Uning tasnifida fe'lning 30 taga yaqin turlari sanab o‘tilgan bo‘lib, keltirilgan turlarning xilma- xilligi M.Ya.Blox ularni yuqorida sanab o‘tilgan belgilarni inobatga olmagan holda tasniflaganidan dalolat beradi.

Grammatika bilan leksika o‘rtasidagi bog‘liqliknini hisobga olgan holda, ingliz va o‘zbek tillaridagi fe'l turlarining yangicha ilmiy tasnifi ishlab chiqildi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillarida quyidagi grammatik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan fe'l turlari aniqlandi: mustaqil ma’no anglatishi; shakl yasashi; ob’ektga munosabati; valentligi; fe’llarning predlogli to‘ldiruvchi olishi; o‘timsiz fe’llarning passiv nisbat formasida kela olishi; harakatning vaqtida chegaralanganligiga ko‘ra tasniflari hamda formal egani talab qiluvchi va yarim predikativ sintaktik qurilmalar bilan ishlatiladigan fe’llar.

Shunga muvofiq, ingliz va o‘zbek tillarida fe’llarning mustaqil ma’no anglatishiga ko‘ra mustaqil va nomustaqlil fe'l turlari belgilandi.

I. Mustaqil fe’llarning leksik ma’nolari to‘liq bo‘ladi va ular mustaqil ravishda ifodalananadi. Mustaqil ma’noli fe’llar, odatda, gap bo‘lagi vazifasida keladi, ular ikkala tildagi lug‘atlarda markersiz (ajratib ko‘rsatmasdan, belgisiz) beriladi. Mustaqil ma’noli fe’llar ochiq sistemani hosil qiladi va ob’ektiv borliqdagi konkret harakatlar, holatlar, jarayonlarni atab gap nominasiyasining (ifodalangan voqeani) eng kerakli qismini hosil qiladi. Misollar: The order was done before expiry date. – Buyurtma muddatidan oldin bajarildi.

II. Nomustaqlil fe’llar mustaqil ma’no anglatmaydi, gap bo‘lagi vazifasida kela olmaydi hamda mustaqil fe’llarga xizmat qiladi. Ular turli grammatik ma’no ifodalash uchun qo‘llanadi, ko‘pincha asosiy fe’lga modal, tus davomiylik, zamon, nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, taksis va boshqa grammatik ma’nolarni qo‘sishga xizmat qiladi. Nomustaqlil fe’llarning muhim grammatik ahamiyati ham shunda bo‘lib, ularning soni juda ozchilikni tashkil qiladi, shuning uchun fe’llarning ushbu turi yopiq sistema sanaladi.

Nomustaqlil fe’larni qiyoslab o‘rganish orqali ular har ikkala tilda o‘ziga xos tarzda bir-biridan butunlay farq qilishi aniqlandi. Ingliz tilida: bog‘lama, yordamchi va modal fe’llar; O‘zbek tilida: bog‘lama, yordamchi (to‘liqsiz) va ko‘makchi fe’llar.

1. Bog‘lama fe’ller asosan ot (I am a teacher), sifat (She is beautiful), son (It is 9 o’clock), olmosh (It is me) so‘z turkumlari va holat ma’nosini ifodalaydigan so‘zlar (statives, adlinks) bilan birgalikda ot kesimni hosil qiladi. Bog‘lama fe’llarning tahlili natijalariga ko‘ra quyidagi turlari belgilandi: sof (to be); maxsus (sezgini ifodalaydigan: look, seem, appear, feel, taste; sezgini ifodalamaydigan: become, get, grow, remain, keep, turn, go, run). Shuningdek, bog‘lama fe’ller mustaqil ma’no ham ifodalay oladi, bunday bog‘lama fe’ller hozirgi vaqtgacha iste’molda bo‘lib, ular mustaqil fe’llardan hosil bo‘lgan. Masalan: To be or not to be, that’s the question. (Shakespeare) – To be mustaqil fe’l sifatida qo‘llanilgan.

1. O'zbek tilida ayrim tilshunoslar tomonidan bu ikki terminni (bog'lama va yordamchi fe'llar) bir atamaga birlashtirib, «to'liqsiz fe'l» deb ham qo'llaydilar. Shunga muvofiq o'zbek tilida to'liqsiz fe'llarni edi, emish, ekan tashkil qiladi. Shuningdek, o'zbek tilida bir nomustaql fe'l kontekstga qarab bog'lama va yordamchi fe'l bo'lib kelishi mumkinligi ham kuzatildi. Masalan, edi nomustaql fe'l quyidagi gaplarning birinchisida bog'lama fe'l vazifasida, ikinchisida yordamchi fe'l vazifasida kelgan [9]: U yosh edi (bog'lama fe'l); 2. U biznikiga kelib turar edi (yordamchi fe'l).

2. Yordamchi fe'llar mustaql fe'llarga qo'shilib, ularning kategorial formalarini yasaydi. Bunday formalar analitik formalar hisoblanib, ularda bitta mustaql va birdan to'rttagacha (ingliz tilida) yordamchi fe'llar bo'ladi. Yordamchi fe'llar leksik ma'nosini yo'qotib, grammatic ma'nio ifodalaydi va ular asosan fe'lning grammatic formalarini yasash uchun xizmat qiladi. Ingliz tilida ular quyidagilarni tashkil etadi: to do, to have, to be, shall, will, should, would. O'zbek tilshunosligida yordamchi fe'llarni ba'zan to'liqsiz fe'l deb ham ataydilar.

3. Modal fe'llar hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud emas, ingliz tilida esa mavjud. Modal fe'llar shakllari, grammatic belgilari, ma'nolari, ishlatalishi va yana qator xususiyatlari bilan boshqa nomustaql fe'llardan ajralib turadi. Ular kerak, imkoniyat, ehtimollik, mumkinlik, noreallik, guman, ishonchszilik, xohish-istik, ruxsat, taqiq kabi modal ma'nolar, shuningdek emosiya, ajablanish, ikkilanish kabi qator ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. «San va may»dan tashqari hamma modal fe'llar hech kanday grammatic kategoriylar, ya'ni zamon, mayl, nisbat, tarz, shaxs-son morfologik kategoriylariga ega emas. ularning hech biri infinitiv, sifatdosh va gerundiy shakllarida kela olmaydi, bo'lishsiz formasini yasashda yordamchi fe'llar qatnashmaydi, aksincha, not inkor yuklamasi qo'shiladi. Shu boisdan ular defektiv (kamchiligi bor) fe'llar sanaladi. Modal fe'llarning mavjudligi barcha grammatica mutaxassislar tomonidan tan olinadi, ammo ularning soni va ayrim ma'nolari haqida turli fikrlar mavjud. O'.Q.Yusupov modal fe'llar ifodalaydigan ma'nolar murakkab ekanligini hisobga olib, ularni o'zbek tiliga tarjimalari orqali tushuntirishga harakat qilgan va modal fe'llarning o'zbek tilidagi muqobillarini keltirib o'tgan. Tadqiqot ishining ushbu qismida O'.Q.Yusupovning modal fe'llar semantikasi haqidagi fikrlaridan foydalanildi. Modal fe'llarning quyidagi turlari ajratildi: (can (sould) may (might), must, ought to, shall (should), will (would)). Tahlil natijalari o'zbek tilida modal fe'llar mavjud emasligini ko'rsatdi. Ko'p hollarda o'zbek tilida ular o'rniga modal so'zlar (shart, zarur, mumkin, ehtimol, kerak) to'g'ri kelib, xuddi ingliz tilidagi modal fe'llar bajargana vazifada qo'llanilishi kuzatildi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi o'timli va o'timsiz fe'llarni chog'ishtirish natijasida umumiy o'xshashlik va farqlar aniqlandi, ya'ni o'zbek tilida fe'llar o'timli va o'timsiz, ingliz tilida esa o'timli, o'timsiz va qorishiq (fe'llarning ushbu turini biz qorishiq 'llar – double function verbs deb nomladik) fe'l turlariga ajratildi. Ingliz tili uchun xos bo'lgan qorishiq fe'llar konteksga (distribusiyaga) ko'ra o'timli yoki o'timsiz bo'la olishi mumkin. Masalan: to sell fe'l qo'yidagi gaplarning birinchisida o'timli, ikkinchisida o'timsiz tarzda qo'llanilgan: 1. We sell books. (o'timli) – Biz kitob sotamiz; 2. The books sell well. (o'timsiz) – Kitoblar yaxshi sotilyapti. Qorishiq fe'llarning ro'yxati xuddi noto'g'ri fe'llar jadvali kabi grammaticaga oid darslik va qo'llanmalarda berilishi tavsiya etildi.

Fe'llarning valentlikka ko'ra tasnifi tahlili, fe'llarni bir valentli (bir aktantli), ikki valentli (ikki aktantli) va uch valentli (uch aktantli) fe'l turlariga ajratish imkonini berdi. Bunda gapdag'i ega va to'ldiruvchilarining mavjud bo'lishi kesimni ifodalab keluvchi fe'lga bog'liq. Fe'l o'zining valentligi (birikishi) bilan ega va to'ldiruvchilarga o'rinn beradi.

Tilshunoslikda fe'lning ega va to'ldiruvchilarini talab qilishi uning zaruriy (obligator) valentligi deb ataladi. Mana shu o'rinn ochishi, ya'ni zaruriy valentligiga ko'ra fe'llar yuqoridagi turlarga taqsimlandi.

Tildagi valentlik bilan nutqdagi valentlikni farqlash lozim. Tilda fe'l valentligi ega va to'ldiruvchilarga potensial o'rinn ochishi bilan birga, bu o'rinnlarni otning qanday semantik turlari to'ldirishi mumkinligi haqida ham ma'lumot bildiradi. Nutqda esa bu valentlik reallahadi, ya'ni aktantlar konkret so'zlar (otlar) bilan to'ldiriladi, bunda kesim ega vazifasidagi agens bilan shaxs-sonda moslashadi, to'ldiruvchi vazifasida kelgan pasiens va adresatlarni ma'lum kelishikda kelishini yoki ma'lum predloglar bilan ishlatalishini talab qiladi. Demak, tilda fe'l valentligi asosida leksik semantika yotsa, nutqda uning asosida ham leksik semantika, ham grammatic semantika yotadi.

Fe'llarning predlogli to'ldiruvchi olishiga ko'ra turlari, formal egani talab qiluvchi va yarimpredikativ sintaktik qurilmalar bilan ishlataladigan fe'llarni o'rganish natijasida bu tasniflar faqat ingliz tilida mavjudligi aniqlandi.

Yarimpredikativ sintaktik qurilmalar bilan qo'llaniladigan fe'llarning tahlili ko'rsatishicha, fe'lning ayrim semantik turlari ingliz tilida grammatic jihatdan ahamiyat kasb etishi kuzatildi. Masalan, The Objective – with – the – Infinitive Construction, The Objective Participial Construction, The

Subjective Infinitive Construction, The Subjective Participial Construction deb atalmish yarimpredikativ sintaktik qurilmalar ko'rish, sezish, eshitish va aqliy fe'lllar bilan qo'llanilishi aniqlandi. To get, to have, to make kabi kauzativ fe'lllar ham ma'lum yarimpredikativ sintaktik qurilmalarni talab qilishini ham ta'kidlash joizdir.

O'timsiz fe'llarning passiv nisbat formasida kela olishiga ko'ra turlarini tadqiq qilinishi, bu borada ham farqlar mavjudligini ko'rsatdi. O'zbek tilida o'timsiz fe'lllar ingliz tilidagi o'timsiz fe'lllardan farqli ravishda passiv nisbatda kela olmaydigan (yiqilmoq) va passiv nisbatda kela oladigan (bormoq-borilmoq) turlarga bo'linadi.

Harakatning vaqtida chegaralanganligiga ko'ra fe'l turlarining tahlili natijasi, bu belgiga ko'ra fe'lllar terminativ va noterminativ turlarga bo'linishidan dalolat beradi. Terminativ fe'lllar ifodalagan harakat qisqa vaqt ichida tugaydi: to break – sinmoq, to close – yopmoq va hokazo. Noterminativ fe'lllar ifodalagan harakat vaqt jihatdan chegaralanmagan bo'ladi: to think – o'yamoq, to know – bilmoq, to play – o'ynamoq. Shunga muvofiq, har ikkala tilda ushbu fe'llarning qo'llanilishi va yasalishida bir qancha farqlar ko'zga tashlandi. Ingliz tilida fe'lning bu turlari o'zbek tilidagilardan farqli ravishda grammatic jihatdan ahamiyatga ega, chunki noterminativ fe'llarning ayrimlari (to know, to consist, to love, to live) «The Present Continuous Tense»da deyarli qo'llanilmaydi. Lekin bu fe'llarning grammatic ahamiyati alohida tadqiqotni talab qiladi. O'zbek tilida esa ular grammatic jihatdan ahamiyatli hisoblanmaydi, chunki bu tilda ushbu fe'lllar grammaticaning ma'lum formalarini talab qilmaydi.

Xulosa

1. O'zbek tilida fe'lllar o'timli va o'timsiz, ingliz tilida esa o'timli, o'timsiz va qorishiq (ikki vazifali) fe'llarga ajratiladi. Qorishiq fe'lllar shunday fe'llarki, ular kontekstga (distribusiyaga) bog'liq holda o'timli yoki o'timsiz bo'la olish xususiyatiga ega. Tadqiqotlar natijasida 1600 ga yaqin qorishiq fe'llarni aniqlashga muvofiq bo'lindi. Qorishiq fe'llarning ro'yxati hech bir grammaticaga oid ishlar, darslik va qo'llanmalarda ko'rsatilmagan. Ushbu fe'llarning shakllantirilgan ro'yxatini ingliz tili grammaticasiga doir manbalarga kiritilishi tavsiya etiladi.

2. Ingliz va o'zbek tillarida fe'l o'zining individual ma'nosidan tashqari mavhum kategorial harakat ma'nosiga ega bo'lib, inson ongi bir-biridan semantik jihatdan farqli bo'lgan leksemalarni harakat ifodalovchi so'zlar, ya'ni 'llar deb qabul qiladi.

3. Leksik va grammatic ma'noning ishtirokiga ko'ra fe'llarning tasnifi uch xil bo'ladi: leksik-semantik, leksik-grammatik va grammatic. Leksik-semantik tasnif sinonomik qator, antonomik juftlik, semantik maydon, leksik maydon, tematik guruh, leksik-semantik guruh, tushuncha maydonlari kabi guruhlashtirishlardan iborat bo'lib, asosan leksikologiyada qo'llaniladi. Leksika va grammaticani e'tiborga oлган holda tilning ma'noli birliklarini guruhlashtirish leksik-grammatik tasnif sanaladi. So'z turkumlari tildagi eng katta va keng qamrovli leksik-grammatik tasnif hisoblanadi. Grammatic tasnif asosida faqat grammatic belgi yotadi.

4. Ingliz va o'zbek grammaticasiga oid qator adabiyotlarning chog'ishtirma tahlili natijasida fe'l turlarining tasnifi haqidagi fikr-mulohazalar bir-biridan keskin farq qilishi kuzatildi. Mazkur nazariy qarashlar o'rtasidagi tafovutlarning asosiy sababi quyidagilar bilan izohlanadi: fe'l turlarini tasniflashda leksika va grammatica o'rtasidagi bog'liqlik e'tiborga olinmagan; ilmiy tasnif asosida fe'l turlari belgilanmagan; ingliz va o'zbek tillarida fe'l turlari chog'ishtirma planda o'rganilmagan; o'zbek tiliga doir grammatic manbalarning deyarli barchasi faqat ona tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan. Bu jihatlar fe'l turlarining grammatic jihatdan ahamiyatli bo'lgan ilmiy tasnifini ishlab chiqishga asos bo'ldi. Fe'l tasnifiga leksik-grammatik tasnif nuqtai nazaridan yondashish taklif qilindi.

Adabiyotlar

- Kononov A.N. Grammatika sovremennoogo uzbekskogo literaturnogo yazika. – M. – L.: Izd-vo AN SSSR, 1960. – S. 187;
- Sherbak A.M. Grammatika starouzbekskogo yazika. – M. – L.: Izd-vo AN SSSR, 1962. – S. 151–180; G'ulomov A.G. Fe'l. – T.: Fan, 1954. – 88 b.; Hojiev A.P. Fe'l. – T.: Fan, 1973. – 192 b.
- Kuchkartaev I.K. Semantika glagolov rechi v uzbekskom yazike (komponentniy i valentniy analiz). Diss. ... d-ra. filol. nauk. – T.: Fan, 1977. – 168 s.; Rasulov R. Glagoli sostoyaniya v uzbekskom yazike i ix valentnost'. Avtoref. diss. ...d-ra. filol. nauk. – T., 1989. – 34 s.; Muhamedova S.X. O'zbek tilida harakat fe'llarin semantikasi va valentligi. Filol. fan. dok. ...diss. – T., 2007. – 325 b.; Abuzalova M.K. Substansial morfologiya, valentlik va sintaktik qurilma. Filol. fan. dok diss. avtoref. – Samarqand, 2018. – 32 b.
- Karaulov Yu.N. Obshaya i russkaya ideografiya. – M., 1976. – 354 s.; Shur O. Teoriya polya v lingvistike. – M., 1974. – 256 c.; Trier J. Der deutsche Wortschatz im Sinnbezlrik des Verstandes.

Heidelberg, 1931; Ipsen G. Der Alte Orient und die Indogermanen «Festschrift für W. Streitberg». Heidelberg, 1924 ва бошқалар.

5. Ganshina M.A., Vasilevskaya N.M. English Grammar. – M.: Foreign Languages Publishing House, 1953. – 465 p.; Смирницкий А.И. Морфология английского языка. – М.: Изд. Литературы на иностранных языках. 1959. – 440 с.

6. B.I. A Course of English Grammar. – M.: Vissaya shkola, 1967. – 298 p.

7. Ilysh B.A. The Structure of Modern English. Leningrad: Prosvesheniye, 1971. – 366 p.; Бархударов Л.С., Штейнинг Д.А. Грамматика английского языка. – М.: Высшая школа, 1973. – 423 с.; Gordon E.M. Krilova I.P. A Grammar of Present-day English. – M.: Higher School Publishing House, 1974. – 333 p.; Ivanova I.P. i dr. Teoreticheskaya grammatika sovremennoy angliyskogo yazika. – M.: Vissaya shkola, 1981. – 285 s.;

8. Blokh M.Y. A Course in Theoretical English Grammar. – M.: Vissaya shkola, 1983. – 383 p.

9. Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992. – 294 b.

10. Hojiev A.P. To'liqsiz fe'l. – T.: Fan, 1970. – B. 8.

UDK: 494.3

QARLUQ ETNONIMI VA UNING MANBALARDAGI TALQINI

U.S.Sanaqulov, F.X.Nurmonov

Samarqand davlat universiteti

furqatnxt@gmail.com

Annotatsiya. Ma'lumki, Respublikamizning toponimik xaritasida qarluq nomi bilan juda ko'p joy nomlari o'rinni olgan. Qarluq nomi bilan atalgan joy nomlari o'ziga xos etnogenezi va etnik tarix bilan aloqadorlikka ega. Bu haqda ko'plab taniqli olimlarning asarlarida muhim ma'lumotlar mavjud. Ushbu maqolada bu masalada tarixiy manbalardagi va zamondosh olimlarimizning asarlaridagi fikr-mulohazalarini talqin etish lozim topildi.

Kalit so'zlar: qarluq, o'g'uz, barlos, jalayir, mo'g'ul, kenagas, qiyon, nerun, sulduz, qiyot, qo'ng'irot, boyovut, turk.

Этноним карлук и его интерпретация в источниках

Аннотация. Как известно, в топонимической карте страны имеется много названий с компонентом «карлук». Местные названия, с компонентом «карлук», имеют связь с этногенезом и этнической историей народа. В исторических источниках и в трудах многих известных ученых содержат важные информации об этом. В этой статье сделана попытка толковать исторические источники и мнения наших современников по этому вопросу

Ключевые слова: карлук, огуз, барлас, джалайир, могул, кенагас, киян, нерун, сулдуз, кият, кунгират, баявут, турк.

Ethnonym of karluk and its interpretation in the sources

Abstract. It is known that, in the toponymic map of the country there are many names with the component "Karluk". Local names, with the Karluk component, have a connection with ethnogenesis and ethnic history of the people. In historical sources and in the works of many famous scientists contain important information about this. This article attempts to interpret the historical sources and opinions of our contemporaries on this issue.

Keywords: karluk, oguz, barlos, jalayir, mongolian, kenagas, kiyan, nerun, sulduz, kiyat, kungurat, bayavut, turkish.

Tarixiy manbalarida, jumladan, hozirgi olimlarimizning tadqiqotlarida "qarluq etnonimi" etnogenezi qadimgi yirik turkiy qabilalardan biri sifatida qaraladi. Bu etnonim haqida o'tmish mabalaridan XI asr olimi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida muhim ma'lumot mavjud. Asarda qarluqlar turkiy qavmlar orasida ancha katta va qadimiy qabila-urug'lardan deb izohlanadi.

Shuni ham qayd etish lozimki, Mahmud Koshg'ariy davrida (XII asrda) qarluqlarning mavqeyi nisbatan pasaygan bo'lsa kerak, bu hol uning devoniadagi ma'lumotlardan seziladi. To'g'ri, Mahmud Koshg'ariy qabilalarni bayon qilgan maxsus faslida qarluqlar haqida fikr bildirmasa-da, devonning to'qqiz yerida (1-tom, 370, 381, 390, 393-betlar; 2-tom, 7, 220-betlar; 3-tom, 80, 259, 264-betlarda) ularni tilga

olgan. Bu o‘rinlarda qarluqlarni yetakchi qabila tariqasida emas, aksincha, boshqa qabilalar tarkibida ko‘rsatadi.

Lekin “Devonu lug‘otit turk” da qisqacha bo‘lsa-da, qarluqlarning o‘ziga xos birlashmasi va Cho‘g‘ulon nomli sardorlari ham bo‘lganligi hamda til jihatdan ularning bir qismi o‘g‘uzlarga, bir qismi yag‘mo, chigillarga o‘xshashligi haqidagi muhim ma’lumotlar uchraydi. Lekin nimagadir ularning mavqeyi haqida va o‘sha davrdagi nufuzli qabilalar singari maxsus izoh bermagan. Devonda asosan qarluqlar “turklarning bir guruhi, o‘g‘uz-turkmanlarning birlashmasi tarkibidagi qabila” sifatida izohlangan, xolos. [4, 498].

Aslida qarluq qabilasi ham miloddan avvalgi davrlardan ma’lum. Ular ko‘p hollarda o‘g‘uz va qipchoqlar birlashmalarida birga bo‘lishgan. Bu qabila turkiy birlashmalarida o‘ziga xas mavqega ega bo‘lib kelgan. Masalan, miloddan avvalgi VII-IV asrlarda, Zarafshon vohasida yuzaga kelgan Qangaras (kenagas qabilasining) davlati tarkibida qarluqlar ham mavjud edi. Bu davlatda qarluqlar nufuzli qabilalardan biri sifatida, yuqori mavqega ega bo‘lgan [5, 11]. Qarluqlar etimologiyasini belgilash borasida muarrix Rashididdin fikri ham bor. U qorluq (qorli) degan so‘zdan kelib chiqqan, deb hisoblaydi. XIV asrda yashagan mashhur Sharq tarixchisi Rashididdin-Fayzulloh Kazviniy (Hamadoniy)ning «Jome’-at tavorix» [7,118] degan asari O‘zbek xalqining qabila va urug‘lari to‘g‘risidagi muhim tarixiy manbadir.

Rashididdinning bu asari o‘zbeklarning 92 elatini va shu 92 elatga bo‘linuvchi o‘zbeklarning urug‘ va qabilalarini o‘rganishga taaluqlidir. Rashididdinning kitobi ana shu jihatdan ham ahamiyatlici, u katta olim, tabib va davlat boshlig‘i sifatida XIV asrdagi tarixiy voqealar, xususan o‘sha davrdagi turkiy xalqlarning qabila va urug‘larga bo‘linishlarini juda yaxshi bilganlidir.

Rashididdinning bu asari shu vaqtgacha G‘arb va Sharq olimlari mo‘g‘ullar deb atab kelgan o‘zbek (turkiy) qabila va urug‘larining kim ekanilgini aniqlash uchun bevosita kalit bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek xalqining tarkibidagi barlos, jalayir, mo‘g‘ul, kenagas, qiyon, nerun, sulduz, qiyot, qo‘ng‘iroq, boyovut kabi ayrim qabila va urug‘larning tarixi shu qadar chigallashib ketgan ediki, agar Rashididdinning shu kitobi saqlanib qolmaganda edi, ularning tarixini, qaysi xalqdan chiqqanligini yechib berish amri mahol bo‘lardi, chunki bu urug‘larning o‘zlarining ayrim vakillaridan tortib, G‘arb va Sharq olimlarigacha mo‘g‘ullardan kelib chiqqan, deb hisoblar edi.

Kitobning kirish qismidan tortib oxirgi bobigacha urug‘larning tarixi, ularning kelib chiqishlari, nomlarining tarixi ularning bo‘linish va qayerga borib qo‘silishlari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berilgan. Darhaqiqat, bundan 662 yil avval o‘z davrining mashhur olimi va tarixchisi tomonidan yozilgan bu asar turkiy xalqlarning, birinchi navbatda o‘zbek xalqining tarixini, etnografiyasini, urf-odatlarini, tili va madaniyat tarixini, xususan ularning urug‘ va qabilalariga bo‘linishlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham Rashididdinning «Jome’-at tavorix» degan asarining ruscha tarjimasiga kirish so‘zi yozgan rus olimi I.P.Petrushevskiy bu kitobni «Rashididdinning asari o‘zbek xalqlari tarixi uchun eng muhim manbadir», deb baholagan edi [3, 36].

Kitob ko‘rsatgichida avtor turkiy xalqlarning tarixini Nuh payg‘ambardan boshlaydi. Keyin Qoraxon va O‘g‘izzon haqida, O‘g‘izzonning o‘g‘illari, ulardan kelib chiqqan 24 urug‘ haqida gapiradi. Shuningdek, uyg‘ur, qangli, qipchoq, qarluq, qalach va og‘och yeri singari qabilalarining o‘sha davrda O‘g‘izzonga qo‘silganligini qayd qilib o‘tadi.

Shunisi xarakterlikni, ko‘rsatgichida mundarijaga nisbatan ba’zi bir tarixiy aniqliklar uchun xizmat qiluvchi sharhlar ham qo‘sib yozilgan. Masalan, avtor mo‘g‘ul deb ataluvchilar haqida gapirganda «hozirgi vaqtida mo‘g‘ul deb ataluvchi» bu xalqlarning nomi ilgari bunday emas edi» deb aniq aytib ketgan....

Ba’zi bir manbalarda turkiy qabilalarining kelib chiqishini qadimiylar rivoyatlar bilan izohlanadi. Masalan, Abulg‘oz Bahodirxon o‘zining 1664-yilda yozgan «Shajarayi turk» nomli tarixiy asarida barcha turkiy qabilalar va ular tilining ildizi bir bo‘lgan deb qayd etadi hamda yashash va tarqalish hududlarini ham ko‘rsatadi. Bunga quyidagi rivoyatni ham ana keltirgan:

«Turklarning eng qadimiylarini ildizi, Tavrot va Qur’onda aytishicha, Nuh payg‘ambar avlodni hisoblanib, uning o‘g‘li Yofas otasining hukmi bilan Judi (Ararat) tovidan ketib, Atil (Itil, ya’ni Volga) va Yoyiq suvining yoqasiga kelib joylashgan. Unda ikki yuz ellik yil turgan. Yofasning avlodni bisyor bo‘lib, undan sakkiz o‘g‘il qolgan. Ota o‘limidan oldin ulug‘ o‘g‘li Turkni o‘rnida qoldirib, o‘zga o‘g‘lonlariga Turkni o‘zlariningga podshoh bilib, aning so‘zidan chiqmang degan. Turkka Yofas o‘g‘loni deb laqab qo‘ydilar»....

Ko‘pgina ishonchli tarixiy manbalar asosida zamonamizning yetakchi qarluqshunos olimlaridan akademik K.Shoniyozenovning yozishicha, milodiy asrimizning boshlaridan o‘zbek xalqi va tilining asosiy tarkibi sanalgan qarluqlarning maqeyi ko‘tarilib, qudratli Qarluq (VI-VII asrlarda) davlati shakllangan. Bu davlatda ham o‘zbek elatiga xos etnogenetik ko‘rsatkichlar, ya’ni hudud, davlatchilik, madaniyat, til

umumiyligi kabilar hosil bo‘lgan. Umuman, qarluqlar va Qarluq davlati haqida akademik K.Shoniyozovning tadqiqotlarida keng ma’lumotlar berilgan [6, 49]. Har holda, bu qabila qadimdan nufuzli qabilalardan biri sanalgan.

Turkiy xalqlarning eng qadimiy davrlaridan boshlab Markaziy Osiyo hududlarida ularning juda ko‘p sonli urug‘ilari tarqalgan bo‘lib, ular ilgari katta-katta maydonlarni ishg‘ol qilib kelganlar. Qarluqlar ilgarilari qadimgi Buxoroga qarashli yerlarda ko‘p yashagan. Shuning uchun ham bu joylarda qarluq Qallukon (qarluqon), Qallukxona (qarluqxona) kabi qishloqlar paydo bo‘lgan. Buxoroning taxminan 20 kilometr shimalida ham Qarliq qishlog‘i bor. Bahovuddin, Chechon, Karshi atrofidagi yerlarda ham qarluqlarning qishloqlari bo‘lgan.

Qashqadaryo viloyatining bir qator qishloqlarida qarluq nomi bilan aholi hamon yashab kelmoqda. Sho‘rchi, Sariosiyo atroflarida ham qarluq nomli aholi ko‘p uchraydi. Karluklar juda serurug‘ bo‘lgan. Ularning lolake, qora-yasoq, qorabayin, sultonmah mudi, mozorchopdi, adarg‘oni (Sariosiyo atroflari), pashkash, lo‘liavlod, bang‘iavlod, bolaxo‘ri, kosovli (Sho‘rchi atroflarida), xasvoy qarmoq, churchul qarliq, ashak qarluq (Oloy atroflarida), shixlar, ko‘kishton, qirqyigit, olti uyli, qarangilik, gadoylar, habashlar, bo‘lak ovul, kalto‘par, qullar (do‘g‘ma), hayonlar (Koson atroflarida) singari urug‘lari bo‘lgan. Bu kabi ma’lumotlar ham K.Shoniyozovning fikrini to‘liq tasdiqlaydi. Umuman, qarluqlar va Qarluq davlati haqida akademik K.Shoniyozovning tadqiqotlarida keng ma’lumotlar berilgan, hatto maxsus asar nashr etilgan [6, 98].

Akademik A.Asqarovning yozishicha, qarluqlar ikki etnik qatlardan iborat bo‘lib, birinchi qatlami milodiy VI asrdan boshlab Farg‘ona vodiysi, Toshkent vohasi va Toharistonda yashab, mahalliy aholi bilan qorishib, o‘troqlashib ketgan. Ular VI-VII asrlardayoq O‘rtta Osiyoning shimoliy va shimoliy-sharqi hududlarini katta qismini egallagan edilar. Arab tarixchisi Tabariyga ko‘ra, VII-VIII asrlarda Balx, Tohariston, Badxiz, Ko‘histon, Seraks, Chag‘aniyon, Buxoro, Choch va Farg‘ona aholisining asosini turkiy qavmlar tashkil etardi. Ularning orasida qarluqlarning o‘rnini katta edi. Xuddi shu davrlarda qarluqlar davlati shakllanib, uning ta’sir doirasi Yettisuvdan to qadimgi Farg‘onaning sharqiy hududlarigacha, undan Sirdaryoning o‘rtta havzalarigacha cho‘zilgan hududlarga yoyilgan edi. Shu kabi Janubiy Qozog‘iston, Toshkent vohasi Zarafshon, Tohariston ham to‘liq ularning ta’sirida bo‘lgan. Keyinchalik o‘zbek nomini olgan xalqning siyosiy jihatdan uyushishi uchun IX-X asrlarda bu etnosiyosiy asos mustahkam poydevor bo‘ldi. Bu davrlarda Movarounnahrning markaziy va janubiy hududlari ham qarluqlar ta’siriga o‘tishdi. Zero, X asrning o‘rtalarida bu hududlarda Qarluqlar davlatining davomi sifatida Qoraxoniylar sulolasi hokimiyat tepasiga kelib, XI asrdan Movarounnahrning barcha hududlarida ularning hukmronligi o‘rnataldi. Endilikda, Qarluqlar davlati negizida Qashg‘ardan Amudaryogacha, Sharqiy Turkistonning bir qismi, Yettisuv, Toshkent vohasi, Qadimgi Farg‘ona, Qadimgi Sug‘d va Baqrtya-Toharistonni o‘z ichiga olgan hududiy kenglikda Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi o‘zbeklarning xalq sifatida uzil-kesil shakllanganligini ko‘rsatuvchi etnik belgi yuzaga kelgan edi.

Ikkinci qatlam qarluqlar mo‘g‘ullar davrida tashkil topgan. Ular Ili daryosi havzasini va Yettisuvdan Toshkent hamda Zarafshon vohalariga, Shimoliy Toharistonga kelib o‘rnashib, bu yerlarda oldindan kelib qolgan urug‘-aymoqlari bilan qo‘silib ketdilar. Qarluqlarning bir guruhi XV asrda Dashtiqipchoqdan Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelgan. Boshqa bir guruhi XVI asrda Shaybonixon bilan Movarounnahrga kirib kelgan (Boburnoma, 395-b) [2, 395]. Qarluqlarga qardosh xalach va chigil qabilalari XIV-XV asrlarda Zarafshon vohasida, Toharistonda yashar edilar. Ular Movarounnahrning siyosiy hayotida muhim rol o‘ynaganlar. Dashtiqipchoqda qolib ketgan qarluqlar guruhi Shayboniy qo‘silnulari bilan birga XVI asr boshlarida Movarounnahrga kirib keladilar va shakllangan o‘zbek xalqi davlati tarkibiga qo‘shiladilar [1, 261].

Xullas, qarluqlar juda qadimgi va nuauzli turkiy qabilalardan bo‘lgan. Ular miloddan oldindi VII asrdan to milodiy XII asrgacha turkiy qabilalar birlashmalarida yetakch o‘ringa ega bo‘lganlar ularning quadratli davlatlari ham bo‘lgan. Hozirgi olimlarning fikricha qarluqlar o‘zbek xalqi tarkibining asosiy komponentlaridan biri sanaladi.

Adabiyotlar

1. Асқаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихи.-Т: Университет, 2007, 250/ 261-бетлар.
2. Бобур Бобурнома Т.: 1960, 166, 395-бетлар.
3. Х.Дониёров. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари.-Т. Фан, 1968. -98 б.
4. Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк.-Т.: Фан, 1960, 1-том, 498-бет. (Leypsig va Istanbul nusxasi asosida nashrga tayyorlovchi S. Muttallibov.) Uch tomlik. -Т.: Fan, 1-t. 1960.-499 б., 2-t. 1961.-427 б., 3-t. 1963.-480 б.
5. Насимхон Раҳмон. Турк ҳоқонлиги. - Т.: “Абдулла Қодирий”. 1993,-142 б.

6. Шониёзов К. Қарлук давлати ва қарлуклар. -Т.: “Шарқ”, 1999.-191 б.
 7. Петрушевский И.А. Рашид-ад-дин и его исторический труд, Сборник летописей, том 1, кн. 1, М.-л., 1952. ст.118.

UDK: 81'366.581; 02 (038)

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MELIORATIV TERMINLNARNING AFFIKSATSİYA USULI
BILAN YASALISHI**

M.Omonova

Qarshi davlat universiteti

maxfurat.omonova@mail.ru

Annotasiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida meliorativ terminlarning affiksatsiya usuli bilan yasalishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, termin yasalishida ishtirok etadigan affikslar vositasida kasb-kor, jarayon, obyekt va hududga xos hususiyat, belgi va harakatni bildiruvchi so'zlardan ot, sifat, fe'l so'z turkumiga oid so'zlar yasay olishi o'rganilgan. Affiksatsiya usuli bilan hosil bo'lgan meliorativ terminlar har ikkala tilda qiyoslangan va affikslarning so'z yasalishidagi o'rni belgilanib tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: drenajchi, kollektorchi, sho'rlash, melioratsiyalash, meliorativlik, botqoqlik, qorlik, do'nglik, soylik, chuqurlik, loyqalik, namlik, yemirilganlik, cho'kmalik, bug'lanuvchanlik, cho'kuvchanlik, o'pqonlik.

Ingliz va o'zbek tillarida meliorativ terminlarning affiksatsiya usuli bilan yasalishi

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование мелиоративных терминов на английском и узбекском языках по аффиксации. Также было изучено, что аффиксы, участвующие в образовании термина, могут образовывать слова для существительных, прилагательных и глаголов из слов, обозначающих профессию, процесс, объект и регион, характер и действие. Мелиоративные термины, образованные методом аффиксации, сравниваются в обоих языках, а также определяется и анализируется роль аффиксов в словообразовании.

Ключевые слова: дренажер, коллектор, засоление, омелиорация, мелиорация, болото, снежный покров, утес, течение, глубина, мутность, влажность, эрозия, отложение, испарение, седиментация, водоворот.

Ingliz va o'zbek tillarida meliorativ terminlarning affiksatsiya usuli bilan yasalishi

Abstract. This article deals with the formation of meliorative terms in English and Uzbek by affixation. It has also been studied that the affixes involved in the formation of a term can form words for nouns, adjectives and verbs from words denoting a profession, process, object and region, character and action. Meliorative terms formed by the affixation method are compared in both languages, and the role of affixes in word formation is determined and analyzed.

Keywords: a drainager, a collector, salinization, melioration, reclamation, swamp, snow cover, cliff, current, depth, turbidity, moisture, erosion, deposition, evaporation, sedimentation, whirlpool.

Jahon, turkiyshunoslik, xususan, o'zbek tilshunosligida so'z yasalishi chuqur va atroficha tadqiq etilgan masalalardan hisoblanadi. Mazkur muammoga oid bir qancha dissertatsiyalar himoya qilingan, talaygina monografiya hamda maqolalar e'lon qilingan [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9]. Terminlar yasalishi ham tilshunoslarning diqqat markazidan o'rın olgan sohalardan birdir.

Ingliz va o'zbek tillarida yangi terminlar yasalishida affiksatsiya (affikslar yordamida so'z yasalishi), sintaktik hamda semantik usullar o'ta mahsuldar va faol bo'lib, bularning ko'magida leksik tarkib muttasil boyib, taraqqiy etmoqda.

Tilshunos H. Dadaboevning ta'kidlashicha, o'zbek tilida terminlarining aksariyatini motivlangan, ya'ni so'z-terminlar (qo'shimchalar qo'shishi bilan yasalgan), termin-qo'shma so'zlar hamda semantik (asosan metaforik) ko'chim asosida hosil qilingan terminlar tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda terminlarning salmoqli qismi motivlanmagan, ya'ni o'zbek tilining o'z sodda so'zlari, o'zlashmalar, termin-kal'kalar va antroponomislardan metonimik ko'chim vositasida vogelangan istilohlardan tashkil topgan [10, 65].

Jahon til ilmida har bir terminologik sistemaning boyishida affikslar vositasida yangi terminlar yasalishi keng tarqalgan usullardan hisoblanadi. Bu jihatdan ingliz va o'zbek tillari terminologiyasida melioratsiya sohasi terminologiyasi ham mustasno emas.

Ingliz va o'zbek tillarida affiksatsiya usuli bilan termin yasalishi umumadabiy til leksik birliklarini hosil qiluvchi ayni so'z yasovchi qo'shimchalar hamda so'z yasovchi qoliplar yordamida amalga oshiriladi. Ingliz va o'zbek tillarida affikslar qo'shilish o'miga ko'ra prefiks hamda suffiks xarakterida bo'ladi. Ushbu tillarda yasama so'zlar prefiksatsiya va suffiksatsiya usullari bilan hosil qilinadi va bular so'z yasalishining faol usullari hisoblanadi. Chunki o'zbek tilida yasama so'z mustaqil ma'noli tub so'zdan yasaladi. Huddi shu usul orqali so'z yasalishi ingliz tilida ham amalga oshadi. Masalan: *work+er, teach+er, collect+or, engine+er, ish-chi, bos+liq, san'at+kor* kabi.

Ingliz va o'zbek tillari melioratsiya terminologiyasida affiksatsiya usuli bilan termin yasalishida quyidagi affikslar qatnashishi kuzatildi:

1. **-chi** affiksi, ingliz tilida **-er, -or**.

Mazkur affiks turdosh otlar yasovchi modellar qatorida eng mahsuldarligi va faolligi bilan ajralib turadi [11]. Ilmiy-texnikaviy inqilob hamda globallashuv va kompyuterlashtirish asrida **-chi** affiksining so'z yasash imkoniyatlari va doirasi bir necha barobar oshib ketdi.

Ammo bunday sermahsul va faol qo'llanishga ega bo'lgan **-chi** affiksi ingliz va o'zbek tillari melioratsiya terminologiyasi tizimida unchalik katta miqdordagi terminlar yasalishida ishtirok etmaydi. **-chi** affiksidan ingliz va o'zbek tillarining melioratsiya terminologiyasi ot so'z turkumidan aksariyat shaxs oti, ish-harakatni bajaruvchi,biror kasb bilan shug'ullanuvchi kabi ma'nolarni ifodalovchi otlarni hosil qiladi.

-chi affiksi vositasida quyidagi yasama terminlar yasalishi kuzatildi:

1. Biror bir kasb-hunar, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi sub'ekt va muayyan kasb-hunar, mutaxassislikning aniq sohasida band bo'lgan shaxsni anglatuvchi terminlarni hosil qiladi. Ingliz tilida **-er, -or, -ian, -ant** affikslari yordamida yasalib, aynan kasbkor ma'nosini anglatgani uchun ingliz tilidagi noaniq artikli ham ishtirok etishi kuzatiladi: *akvedukchi – a conductor, quduqchi – a weller, drenajchi – a drainager, kollektorchi- a collector, vositachi – a mediator, suvoqchi – a plasterer, elektrchi - electrician, ekskavatorchi – a shovel operator* va h.k.

2. Biror ishni bajarish yoki xizmat ko'rsatish majburiyatini oladigan shaxsni anglatuvchi terminlar yasaydi: *pudratchi - a farmer, ijarachi – a leaseholder, xizmatchi – a servant* kabi.

3. **-chi** affiksi kasb-hunar, mutaxassisliklarning umumiy ma'nosini bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, ushbu kasb-hunar va mutaxassisliklarga taalluqli ot-terminlarni yasaydi: *betonchi – a concrete worker, montajchi – a cutter, payvandchi – a welder umumiyy quruvchi – a builder* kabi.

4. Muayyan kasb-hunar sohasida qo'llanuvchi asbob-uskuna, jihoz, buyum, texnika vositalari nomlaridan ushbu texnika vositalarini boshqaruvchi shaxslar otini yasaydi: *bul'dozerchi – a bulldozer, greyderchi – a grader man, ekskavatorchi – a shovel operator* va h.k.

-lik. O'zbek tilida **-lik** affiksi yordamida yasalgan so'zlar ingliz tilida **-ity, -ness, -ture, -ion, -tion, -ment** affikslari yoki tub so'z qo'shilishi bilan orqali ifodalananadi. Ko'plab tilshunoslikka doir adabiyotlarda ta'kidlanganidek, bu qo'shimcha vositasida predmet va belgi bildiruvchi so'zlardan ot yasaydi. Bu affiksning bu xususiyati terminlar yasashda ancha qo'l keladi. Ushbu qo'shimcha o'zbek tilidagi o'ta sermahsul so'z yasovchi modellardan biri bo'lib, uning ko'magida nafaqat sof o'zbekcha (turkiycha), balki o'zlashma so'zlardan ham quyidagi turdag'i ot-terminlar hosil qilinadi:

1. Predmet ma'nosiga ega so'zlarga qo'shilib, shu predmet yasalgan joyni, hududni anglatadi: *muzlik – ice-crusted ground, botqoqlik – swamp, qorlik-snow coverage, do'nglik- hillock, soylik – stream, gully, chuqurlik - depth, jarlik – ravine, gulf* kabi.

2. Suv va suv oqimining ta'sirida vujudga keladigan holat va hususiyatni ifodalab keladi: *loyqalik - turbid, namlik - humidity, moisture yemirilganlik – erosion, corrosion, cho'kmalik - sediment, bug'lanuvchanlik - evaporation, cho'kuvchanlik - deposition, chuqurlik - depth, o'pqonlik – whirlpool* kabi.

3. Suvga oid belgi va hususiyatni ifodalaydi: *qattiqlik - hardness, sho'rlik - saltiness, tuzlik - saltiness , quyqalik - thickness, loyqalik - muddy, ishqorlik - alkalinity, zichlik, suyuqlik* kabi.

4. Suv harakat qiladigan ob'ekt va hududga xos, hususiyat nomini anglatadi: *botqoqlik – swamp, qiyalik - slope, soylik - stream, sayozlik - shallowness, nishablik - slope, pastdamlik - lowland, oquvchanlik – currency* kabi.

5. Suvning ma'lum hudud va ob'ektdagi miqdoriy ishtirokini ifodalaydi: *kamsuvlik - aridness, sersuvlik – abounding in water , ozsuvlik - shoal, ko'psuvlik – abounding in water* kabi.

6. Sel hodisasining takrorlanish darajasining mo'lligi hamda kamligini ifodalaydi: *seldorlik - torrential, sayozlik - shallowness, selsizlik – less torrential* kabi.

7. Melioratsiyaning biror sohasiga aloqadorlikni anglatadi va ingliz tilida

-shunos+lik affikslari *study* – o'rganmoq tub so'zi ishtirokida ifodalananadi: *drenajshunoslik – drainage study, kollektorshunoslik – collector study, botqoqshunoslik – science of swamp, muzshunoslik – glacier studies, akvedukshunoslik – conduit study* kabi.

-garchilik. Mazkur qo'shimcha orqali asosan melioratsiya terminologiyasida *yog'ingarchilik* - *rainfall, isrofgarchilik* - *consumption* terminlari yasalgan. Misollardan ko'rindiki, ingliz tilida *-garchilik* affiksi +*fall* tub so'zi va *-tion* affiksi yordamida yasaladi.

-kash. Kelib chiqishi forscha-tojikcha hisoblanuvchi *-kash* affiksi ishtirokida yasalgan terminlar melioratsiya jarayonidagi ma'lum kasb-hunar bilan mashg'ul shaxsni ifodalaydi: *chizmakash* – *a designer, a draftsman, arrakash* – *sawyer*.

- ma. Bu affiks bilan yasalgan terminlar fe'lidan yasalgan bo'lib, ularning fe'lning tub va yasama terminlardan ham hosil bo'laveradi. Ushbu so'zлarni ingliz tilidagi tarjimasiga e'tibor bersak, yuqorida ta'kidlaganimizdek *-ment, -age, -d(t)le, -er, -ing, -ion, -ence* kabi so'z yasovchi affikslar ishtirok etgan: *cho'kma* (*daryo suvi tarkibidagi turli qo'shimchalar*) – *sediment (various substance in the river water)*, *cho'kma* (*okean tubinig 6000 metrdan chuqurroq qismi* – *bottom of the ocean more than 6000meters*), *drenajlama* – *drainage, bog'lama* – *bundle, yoyirma* – *overflow, o'rama* – *wind, qoplama* – *coverage, tashlama* – *mantle (a penstock for a water wheel)* va boshqalar.

Mazkur qo'shimcha orqali yasalgan terminlar o'zi ifodolagan tushuncha e'tibori bilan quyidagicha:

1. Suvning yemirishi ta'sirida paydo bo'lgan predmetlar uyumi va rel'efiy hududini anglatadi: *surilma* – *slider, yemirilma* – *erosion, corrosion, sochilma* – *granular, yoyirma* – *bulky, qoplama* – *coverage, tashlama* – *mantle, burtma* – *drawing, o'pirilma* – *shift, qaynama* – *ebullience kabi*.

2. Suvni boshqarish, uning isrof bo'lishiga qarshi kurash bilan bog'liq tushunchalar bilan ifodalanadi: *isroflama* – *sonsumption, qurilma* – *facility, tashlama* – *mantle, qoplama* – *sheeting, ko'tarma* – *drawbridge, aylanma* – *whirlpool, qo'shilma* – *combination kabi*.

-sh (-ish). Mazkur affiks ham fe'lning o'zak va negizlaridan meliorativ jaraenlarning nomlarini yasaydi: *to'yinish* – *absorption, yumshatish* – *moderation, pasayish* – *reducing, tindirish* – *settle, cho'kish* – *settle, sug'orish* – *irrigation, kuzatish* – *observing, o'lchash* – *measure, qidirish* – *searching kabi*. Bu affiks yordamida harakat nomi yasalishi terminn yasashda juda qo'll kelmoqda. Aytish mumkinki, terminologiyada bu affiks eng unumdar affiksga aylandi:

1. **-sh (-ish).** Bu affiks yordamida suvni tozalash va uni ichishga tayerlash prosesslarini ifodalovchi terminlar yasaladi: *tindirish* – *settle, yumshatish* – *moderation, xlorlash* – *chlorine treatable, fil'trlash* – *filtering, tozalash* – *cleaning, temirsizlantirish* – *deferrizing, sho'rsizlantirish* – *unsaltedness, cho'ktirish* – *settling kabi*.

2. Suvning yemiruvchanligi va erituvchanlik hususiyati ta'sirida vujudga keladigan jaraenlarni ifodalovchi terminlar: *yemirilish* – *destruction, o'pirilish* – *fall rumble, o'yilish* – *hollowed out, yuvilish* – *washed, nurash* – *falling kabi*.

3. Suvning ta'sirida tuproq tarkibida ro'y beradigan o'zgarishlarni ifodalovchi terminlar: *yuvish* – *washing, sho'rlanish* – *salinity, balchiqlanish* – *accumulation of mud, botqoqlanish* – *swamp formation, suffoziyalanish* – *erosive leakage, namlanish* – *damping kabi*.

4. Suvning o'zida ro'y beradigan jaraenlarni ifodalovchi terminlar: *bug'lanish* – *evaporation, loyqalanish* – *turbid, pasayish* – *reducing, ko'tarilish* – *rising, fontanlashish* – *flowing kabi*.

5. Suv chiqarish, boshqarish jaraenlarini ifodalovchi terminlar yasaydi: *burg'ilash* (*parmashash*) – *drilling, rostlash* – *erecting, taqsimlash* – *distribution, kuzatish* – *observation, qidirish* (*razvedka*) – *exploring, so'rish* – *absorbing, tortish* – *drawing-out kabi*.

-lash. Jarayon, xatti-harakat nomini ifodalovchi terminlar yasaydi: *kurtaklash* – *budding, payvandlash* – *grafting, standartlash* – *standardizing, parmalash* – *drilling, toplash* – *hardening, presslash* – *pressing, mexanizasiyalash* – *mechanizing va h.k.*

- lashtirish. *-lash* affikslari so'z yasovchi model singari asosan ruscha-baynalmilal o'zlashmalardan hosil qiluvchi asosning nomi bilan atalgan ta'minot, asbob-uskuna, jihoz umumiy ma'nosini ifodalovchi terminlar yasaydi. Ingliz tilida asosan *-ize+ing* affikslari yordamida ifodalanadi: *avtomatlashtirish* – *automatizing, kompyuterlashtirish* – *computerization, telefonlashtirish* – *telephonizing, elektrlashtirish* – *electrization, pasportlashtirish* – *passportizing, gazlashtirish* – *aerating va h.k.*

- g'ich. Bu affiks yordamida so'z yasalishi o'zbek va ingliz tillarida keng tarqalgan.

Bu affiks **-r** bilan tugagan fe'l negizlariga qo'shilganda **-g'ich** ko'rinishini oladi: *so'rg'ich* – *soother, qirg'ich* – *scraper, o'chirg'ich* – *eraser* terminologiyada esa **-r** bilan tugagan fe'l negizlariga **-gich** tarzida qo'llanilganda: *tinitgich* – *settle, so'ndirgich* – *extinguish, ko'targich* – *heaver, aralashtirgich* – *mixer kabi* terminlar yasaydi. Buni shunday izohlash mumkin. Ma'lumki, *qirg'ich*, *so'rg'ich*, *o'chirg'ich* kabilar o'zbek tilining singarmonizmi ta'sirida bo'lgan paytlarida yasalgan so'zlardir. Keyinchalik tilning singarmonizmdan uzoqlashuvi natijasida yangidan yasalayotgan so'zlar **-r** bilan tugagan negizlarga ham qo'shilishi odat tusiga kirib qoldi.

Hozirda kuldirgich da -*gich* tarzida qo'shilishining sababi ham singarmonizmning yaqinlashuvi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Umuman olganda, qaysi o'rinda - *g'ich*, qaysi o'rinda -*kich*, -*gich* qo'shilishining aniq qonuniyatlar o'zbek tilshunosligida to'liq aniqlanmagan ko'rindi. Shu o'rinda shuni ham aytish kerakki, mazkur affiks variantlarining bir variantlik tomonga siljishi, ixchamlashuvi ro'y berayotganini terminologiyasi sohasida -*gich* suffiksli terminlarda ko'rish mumkin.

-im. Ma'lumki, bu affiks undosh fe'l o'zaklariga qo'shib ot yasaydi. Melioratsiya terminosistemasiagi *oqim* - stream, *bosim* - pressure, *chiqim* - weir, *kirim* - flow terminlari shu suffiks yordamida yasalgan. Aslida bu yasalish terminologiyada emas, umumiste'molda yasalgan bo'lib, terminologiyaning shakllana borishi bilan terminologiyaga o'tgan.

-in. Bu affiks vositasida yasalgan termin melioratsiyada faqatgina *yog 'in* - falling tarzida uchraydi. Juft terminlardan *yog 'in-sochin* - downfall mavjud.

-iq. Undosh bilan tugagan negiziga qo'shib, *oqiziq* - pouring, *yotqiziq* - laying terminlari yasalgan.

-kin, -qin. Bu suffiks bilan yasalgan *toshqin* - flood termini uchraydi.

-kin orqali esa *ko 'chkin* - avalanche termini yasalgan.

-indi. Bu suffiks negizdan anglashilgan harakat natijasida hosil bo'lgan predmet nomlarini yasaydi. Melioratsiyada bunday terminlarga quyidagilarni sanash mumkin: *cho 'kindi* - sediment, *oqindi* (*oqizindi*) - weir, *suzindi* - filter, *o'tirindi* - desperation kabilar.

-gi, -ki. Melioratsiya terminologiyasida ko'chki - avalanche shu suffiks yordamida yasalgan. -gi. Tushurgi. To'g'onlarda suvning tushishiga xizmat qiladigan to'g'on bo'g' inlaridan biri *tushirgi* - weir yasalgan.

-uv. Mazkur suffiks yordamida *qidiruv* - searching va *kuzatuv* - observing terminlari yasalgan.

-cha. *Orolcha* - isle, *shoxobcha* - branch, *zarracha* - grain, *qo'shimcha* - addition kabilar mavjud.

-a. Melioratsiya terminologiyasida bu suffiks yordamida yasalgan sharshara - waterfall umumiste'moldan o'zlashgandir.

-vuch (-vich). Bu qo'shimcha vositasida *suzlovich* (*ugri*), *tirgovuch* so'zлari yasalgan. Melioratsiyadagi qalqovuch termini ayni shu model' asosida yasalgan: *qalqi-v-qalqov* - *qalqov+uch-qalqovuch* - lug. Boshqacha aytganda, -*vuch* yoki -*vich* tarkibli qo'shimcha bo'lib, keyinchalik -vuch shaklini olgan. Mazkur o'rinda aytish mumkinki, bu affiks orqali juda ham o'rinni termin yasalgan. Uni sof terminologik yasalish sifatida baholash mumkin.

-m. Fe'l negizidan natija oti *qatlam* - layer, *bosim* - pressure kabi terminlari yasalgan.

-xona: *selxona* - downpour reservoir, *tuzxona* - salty place, *drenajxona* - drainage place, *kollektorkxona* - collector place terminlari yasalgan.

-chan+lik: eruvchanlik - melting, cho'ziluvchanlik - elastic, oquvchanlik -current, o'zgaruvchanlik - shaping va h.k.;

-noma. Forscha-tojikcha ushbu affiks melioratsiya terminologiyasida asosan hujjat, yozuv, xat, hujjat nomi namunasi ma'nosini anglatadigan terminlarni yasaydi: *bayonnomma* - log sheet, *ahdnoma* - contract, *shartnoma* - contract, *ma'lumotnoma* - manual, *axborotnoma* - messenger kabi.

Xullas, ingliz-o'zbek tillari melioratsiya terminologiyasida affiksasiya usuli bilan termin yasalishi shuni ko'rsatadi, bu terminosistemada -lik, -chi, ma, - sh(-ish), -gich orqali termin yasalishi juda keng tarqalgan -im, -in, -iq, -ik, -indi, -ni, - gi, -ga, -a, -vich kabi so'z yasovchi qo'shimchalar vositasida faoliy kuzatilmadi.

Adabiyotlar

1. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tili so'z yasalishiga doir // O'zbek tili va adabiyoti – Toshkent, 1987. – №3. – B. 36-37.
2. Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili lug'at tarkibini rivojlanish asoslari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1994. – № 1–2. – B. 18–19.
3. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiysi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – 135 b.
4. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. –Toshkent: O'qituvchi, 1989. – 110 b.
5. Hojiyev A. O'zbek tilida so'z yasash usuli masalasiga doir. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1999. – № 4. – B. 35- 42.
6. Tursunov U.T. Terminologiyaning boyish yo'llari//Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti asarlari. 102. – Samarqand: 1960. – B.12-18.
7. Qo'idoshev M. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sifat yasovchi mahsuldar affikslar: filol. Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1994, 21 s.
8. O'zbek tilida so'z yasalish ma'nosi va paradigmasi: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1995, 20 s.

9. Doniyorov R. O'zbek tili ilmiy-texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 160.
10. Dadaboyev H.O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Aktiv Print, 2020. – B. 65.
11. Гулямов А. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. 1. Аффиксация. Ч.1. Словообразующие аффиксы имен. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. Ташкент, 1955; Begmatov E. O'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: 1985. - B.132-133.

UDK: 494.3

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ALISHER NAVOIY IJODI NAMUNALARINI O'RGATISHDA
"DIDAKTIK TAHLIL METODI"NING AFZALLIKLARI**

G.Rahimova, N. Xo'jamqulova

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar orqali o'quvchilarda fanga oid bilimlarni shakllantirish jihatlari tahlil qilingan. Tanlangan metodni qo'llash orqali o'quvchilarning tarixga, milliy qadriyatlariga bo'lgan qiziqishlari ortadi. O'quvchilar mavzuga ijodiy yondashadi, o'z fikrlarini erkin bildirishga harakat qildilar. Bu bilan ularning mustaqil fikri teranlashadi, dunyoqarashi o'sadi, darsga qiziqishi ortadi, topqirligi, zukkoligi, tezkorligi, faoliyatlari oshib boradi.

Kalit so'zlar: innovatsion metod, boshlang'ich ta'lif, Alisher Navoiy.

Преимущества “метода дидактического анализа” в обучении творчества Алишера Навои в начальных школах

Аннотация. В данной статье анализируются аспекты формирования науки у учеников с помощью современных технологий. Использование выбранного метода повысит интерес учеников к истории и национальным ценностям. Ученики креативны и стараются свободно выражать свое мнение. Это углубит их независимое мышление, увеличит их мировоззрение, повысит их интерес к урокам, повысит их изобретательность, интеллект, скорость и активность.

Ключевые слова: инновационный метод, начальное образование, Алишер Навои.

Advantages of the “method of didactig analysis” in teaching the works of Alisher Navoi in elementary schools

Abstract. The article analyzes aspects of the formation of science in students using modern technology. Using the chosen method will increase students' interest in history and national values. Students are creative and try to freely express their opinions. This will deepen their independent thinking, increase their worldview, increase their interest in lessons, increase their ingenuity, intelligence, speed and activity.

Keywords: innovative method, primay education, Alisher Navoi.

Boshlang'ich sinf tarbiyalanuvchilarida shaxslik sifatlarini shakllantirish o'rta va yuqori sinflardagiga nisbatan ancha farqli kechadi. Bu yoshdagagi bolaning hayotiy tajribasi kam va u xulosa chiqarishni bilmaydi. U ko'proq taqlid qiladi. Boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan ta'lif va tarbiya jarayoni bolalarning yoshi, intellektual imkoniyatlariga mos holda xulosa chiqarishga emas, fikr aytishga, munosabat bildirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Shu sabab boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi darsda masalani to'g'ri qo'ya bilish, o'quvchilarni mavzuga qiziqtira olish, ularning tafakkurini shakllantirishdan iboratdir.

Bola o'z bilimi va tajribasida ko'rilmagan vaziyat bilan to'qnashganda hamda bu vaziyat uni qiziqtirib qolganda g'ayriixtiyoriy ravishda mustaqil fikrlay boshlaydi, erkin faoliyatga kirishadi. Ma'lumki, qiziqqan bola har bir masalaning mohiyatiga yetishmay, o'z istaklarini, bilish ehtiyojini qondirmay qo'ymaydi. Bolani bunday holatga tushishidan avval uni asta-sekinlik bilan taqqoslay olish, tahlil qilish, umumlashtirish, masalaga aniqlik kiritish tizimga sola bilish kabi ko'nikmalarni egallashiga erishish lozim. Shundagina uning bilish faoliyati muayyan samara keltirib, shaxsi to'g'ri shakllana boradi.

Kichik o'quvchilar ma'naviyatini sog'lomlashtirishda o'qish darslarining, ya'ni boshlang'ich adabiy ta'llimning o'mi beqiyos. O'qituvchi tomonidan o'qish kitobidagi asarlarni to'g'ri idrok etishga yo'naltirilgan o'quvchi mustaqil ishlashga, uqib o'qishga, o'zgalarning fikrlarini ilg'ashga, o'zi va boshqalarning tuyg'ular olamini kuzatishga, o'zgani tuyishga o'rgana boradi. Olamni, Odamni va O'zligini asta-sekinlik bilan kashf qila boradi. O'z ichki "men"ining shakllanishida o'zi bevosita ishtirok etadi.

Darsliklar bunday pedagogik vazifalarning bajarilishida eng katta ko'makchi sanaladi. Darsliklarda taqdim etilgan o'quv materiallari mazmunan ta'lum-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadlarga mutanosib bo'lishi kerak. Kuzatishlar asnosida ma'lum bo'ldiki, boshlang'ich sinflar "Odobnama" darsliklarining ko'pchiligidagi buyuk allomalarimizning hikmatli so'zлari kiritilgan. Biz boshlang'ch ta'lum darsliklaridagi ulug' shoir, so'z mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiyning hikmatli so'zлari kiritilgan namunalarni kichik yoshdagagi o'quvchilarga qanday yetkazish haqida fikr yuritmoqchimiz. Avvalo boshlang'ich ta'limgagi faoliyatimiz va tajribalarimizdan kelib chiqib, shuni ta'kidlashni istardikki, bu darsliklarni tuzishdan oldin o'quvchilarning ruhiyati, intellektual saviyasi bizning nazarimizda, yetarli darajada o'rganilmagan. Aytish mumkinki, bugungi boshlang'ich sinf o'quvchilari darsliklar mualliflari tasavvur qilganlaridan, ularning bu yoshdagagi darajasidan ko'ra bilimliroq va aqlliroy.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, matn yuzasidan tuzilgan mantiqli, o'ylantiradigan, mustaqil fikr talab qiladigan savollarga sinfdagi o'quvchilarning barchasi javob berishi shart emas. Har bir bola o'z intellektual imkoniyatida darajasida fikr yuritadi, rivojlanadi. Muhimi – bolalarning har birini savol yoki topshiriq bilan chalg'ita olish, ruhiy muvozanatidan chiqarish. O'qituvchilar boshlang'ich sinflardanoq bolalarning ruhiyatini uyg'otish maqsadida ularni badiiyatning yuksak namunalari bilan tanishtirib borsalar, tarbiyalanuvchilarning asarlardagi shaxs shakllanishi uchun ham ma'nан, ham aqlan, ham axloqan muhim bo'lgan jihatlariga diqqatini qarata bilsalar, boridan yuqoriga ko'tarilishlariga, barkamollik sari yuz burishlariga sharoit yaratgan bo'ladilar.

Ma'lumki, har qanday badiiy asar, u qaysi janrda bo'lishidan qat'i nazar, tahlilga, muhokamaga tortilmas ekan, matnning mohiyatiga kirilmas ekan, u tarbiyalanuvchining ma'naviyatiga hech narsa bermaydi. Shu ma'noda mazkur she'r matni ustida ishslash uchun ta'limga **didaktik tahlil metodidan** foydalanish maqsadga muvofiqdir. [4]

Buning uchun avval "didaktik tahlil" tushunchasining mohiyatini anglab olish o'rinli bo'ladi. Prof. Q.Yo'ldoshev o'zining "Badiiy tahlil asoslari" nomli monografik tadqiqotida asarlar tahlili turlari haqida so'z yuritar ekan, didaktik tahlilga shunday ta'rif beradi: "O'quv (didaktik) tahlili *jamoа shaklida amalgа oshirilib, badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik o'ziga xosligini anglash orgali o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan estetik-pedagogik faoliyatadir"*

Olim adabiy asarlarni didaktik tahlil etishda o'qituvchi-o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini quyidagi uch usulda uyushtirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

- muallifga ergashib yoki matn doirasidagi tahlil;
- badiiy obrazlar asosidagi tahlil;
- muammoli o'quv tahlili.

Didaktik tahlilning *birinchi* usulida o'qituvchi badiiy matnning estetik mohiyatigagina emas, balki uning qurilish tartibiga ham amal qilishi va matn mantig'ini, uning ichki tartibini aslo o'zgartirmagan holda asar zaminidagi ma'noni, badiiy jozibani o'quvchilar bilan birgalikda kashf eta borishini ta'kidlaydi. Buni **tekstual tahlil**, ya'ni asar matniga tayanib tashkil etiladigan tahlil usuli deyish ham mumkinligini va bunday tahlil kechimida o'qituvchi yo'naltiruvchi faoliyat ko'rsatishini aytadi.

Ikkinci yo'naliш, ya'ni obrazlarga tayanib tahlil qilishda o'qituvchining e'tibori asardagi timsollarga qaratilishi va asarning badiiy ma'nosи, jozibasi obrazlar ruhiyatini anglab borish asnosida ochilishini ma'lum qildi. Bu usuldagagi tahlilni muallif **timsoli tahlil** deb atashni ma'qul ko'radi va bu yo'naliшda amalga oshiriladigan tahlilda o'quvchilarning ancha faol ishtirot etishlariga imkoniyat tug'ilshini aytadi.

Asarlar didaktik tahlilining *uchinchi* usuli – **muammoli tahlil** asosan o'quvchilar tomonidan olib borilishi ko'zda tutilishi ta'kidlanadi. O'qituvchi tarbiyalanuvchilari oldiga badiiy asar matnidan kelib chiqqan holda badiiy yoki hayotiy muammo qo'yishini va ularga bu muammoni yechish yo'llarini ko'rsatib, bu kechimda foydalanish mumkin bo'lgan qo'shimcha ababiyotlar bilan ta'minlashi kerakligi aytildi. Asar tahlili jarayonida o'quvchilar faqat o'zлari bilgan tushunchalaridangina foydalanib qolmay, bir qator yangi estetik-mantiqiy bilimlarni mustaqil o'zlashtirib olishga ham majbur bo'lishlari ma'lum qilinadi. Jamoaviy muammoli tahlil kechimida o'quvchilarning ma'naviy olamida ham, aqliy dunyosida ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'lishi, muammoli tahlil faqat jamoaviy shaklda emas, balki individual yo'sinda ham amalga oshirilishi mumkinligi, biror asar yuzasidan qo'yilgan hayotiy-estetik muammoni yechish uyga vazifa qilib berilganda, individual muammoli o'quv tahlili yuzaga kelishi aytildi.

Ushbu metodlardan kelib chiqib, 3-sinf odobnama darsligidagi Alisher Navoiyning hikmatli so'zларини tahlili namunasini o'rganamiz:[3]

Badiiy matn tahlili namunasi:

Hazrat Navoiyning hikmatli so'zлари bolalarda odamiylikka xos, tarbiyaviy jihatlarni shakllantiradigan, bir qator ijobji sifatlarni kamol toptiradigan, buyuklikka undovchi asardir.

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim,
Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

Bayt o‘qituvchi tomonidan ehtiros bilan aytib berilgach, bolalarning tuyg‘ulari sovimasdan uning muhokamasiga o‘tilib, o‘quvchilarining e‘tibori asarning dastlabki qatoriga qaratiladi va yana qaytadan o‘qib beriladi: “*Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim*”. O‘quvchilardan shu qatorda ilgari surilgan fikrning mazmuni, unda nima deyilayotgani so‘raladi. Inson hayoti davomida ko‘plab yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Yangi bilimlarni o‘rganish uchun bevosita, ustozlaridan, ota-onasidan, bobo-buvilaridan, do‘stlaridan so‘rashi kerak ekanligi aytildi. Bilim yillar davomida so‘rab, o‘rganib, yig‘ilib borilishi natijasida inson shaxs sifatida kamol topishi tushuntiriladi, ya’ni misraning mazmuni ochib beriladi. “*Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim*” bu misrada esa inson doimo kamtar, sabrli, intiluvchan, izlanuvchan bo‘lishi zarurligi, bilmagan narsasini so‘rash uchun heych itsehzo qilmasligi, bilgandan tortinmay so‘rab olishi lozimligi, aks holda ushbu o‘ziga kerakli ma‘lumotdan mahrum bo‘lib qolishi oqibatda masalaning mohiyatiga umr bo‘yi tushunmay o‘tishi mumkinligi uqtiriladi. Manmanlik qilib kibrga berilishning natijasida inson bilimsizligicha qolib ketishi, insonning kamol topishida, yumshoq fe’llilik, hilm va tavozening o‘rnini beqiyosligi haqida Navoiyning ushbu hikmatlari orqali o‘quvchilarga saboq beriladi.

Mabodo o‘quvchilar, hayotiy tajribasizliklari tufayli bu masalalarni birdan anglab etmasalar-da nazariy jihatdan ilg‘ab olishga harakat qiladilar. Ularning ma’nан tafakkuri ana shunday tarzda yo‘naltirilganligi adabiy ta’limning katta yutug‘idir. Bu keyinchalik o‘z samarasini berishi aniq.

Alisher Navoiyning 3-sinf odobnomaga kitobiga kiritilgan quyidagi yana bir hikmatini **didaktik tahlil metodi** asosida o‘rgatish mumkin:

Nodon do‘stni do‘st soniga kiritma...

Nodon do‘stdan zarar imkonini ko‘proq.

Bayt o‘qib berilgach, bolalarning diqqati hikmatning mazmuniga qaratiladi va zavq bilan qaytadan aytildi: O‘quvchilarga avvalo hikmatda ishlatalgan “Nodon” so‘zining ma’nosini tushintirilishi zarur. Chunki ular bu so‘zni umuman eshitishmagan yoki shunchaki be’tibor eshitishgan bo‘ishlari mumkin. Biroq ular “dono” so‘zini ancha-muncha anglab yetishgan. O‘qituvchilaridan darsdagi ishtiroki sababli rag‘bat sifatida eshitishgan. Shu bois “nodon” so‘zini bolalarga “dono” so‘zi bilan birgalikda parallel ravishda o‘rgatilsa ularning anglashlari ancha oson bo‘ladi. Aqli, farosatli, bilimli kishilar dono, aksincha, yaxshini yomonidan, yomonni yaxshidan ajrata olmaydigan imsiz, fahmsiz kishilar esa nodon deb baholanadi. Navoiy bobomiz ana shunday nodonlar bilan do‘stlashishning oqibati yaxshilik olib kelmasligi to‘g‘risida nasihat qilganlar. Bundaylar do‘stlikning ham, odamgarchilikning ham qadrini bilmaydilar. Nodonliklari bois har lahzada pand berishlari mumkinligini ta’kidlaganlar. Bobomiz doimo odamiylik fazilatlarini o‘zida mujassam etgan kishilarni ulug‘laganlar, fe'l-atvoridagi chaqimchilik, dangasalik, ochko‘zlik kabi yomon illatli kishilardan ehtiyyot bo‘lish kerakligini uqtirganlar.

4-sinf odobnomaga darsligidagi Navoiyning hikmatlari bolalarda odamiylikka xos, tarbiyaviy jihatlarni shakllantiradigan, bir qator ijobji sifatlarni kamol toptiradigan, ulug‘vorlikka undovchi asarlardir. Bunday hikmatlar yoshlar tarbiyasi, ularda insoniylik va oliyjanoblik kabi fazilatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega:

Har kim ayon etsa yaxshi qiliq,

Yetar yaxshilikdin anga yaxshilik.

Bayt o‘qib berilgach, bolalarga odob va yaxshi xulq haqida soddagina tushuncha beriladi. “Odob” so‘zining lug‘aviy ma’nosini hadislda aslida yaxshi xulq, yaxshilik degan ma’nolarni anglatar ekan. Odob shunday bir gavhardirki, u har qanday o‘rinda kattaga ham, kichikka ham birday yarashadi, o‘zgalarga yoqimli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bobomiz odoblilikni go‘zal xulqda deb bilganlar. Chunki insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etongan kishidangina boshqa insonlarga ham yaxshilik yetadi, kun kelib o‘sha yaxshiligi o‘ziga qaytadi, jamiyat rivojlanadi, deydi. O‘quvchilarga inson hayoti davomida ko‘plab ezgu amallarni bajarishi kerak ekanligi, natijada oliy mukofotlarga erishishi mumkinligi aytildi. Yaxshilikni barcha atrofdagilarga bevosita, ustozlariga, ota-onasiga, bobo-buvilariga, do‘stlariga qilish mumkinligi uqtiriladi.

Alisher Navoiy asarlarining ma’nosini to‘g‘ridan to‘g‘ri tushunish qiyin ekanligi uchun ham, o‘quvchilarni shoirning purma’no hikmatlarini anglashlarida usbu **didaktik tahlil metodi** muhim o‘rinni egallaydi.

Natijaviyligi:

- o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmasi rivojlantiriladi;
- matnni tahlil qila olish malakasi sinaladi;
- mustaqil fikrlashlariga yordam beradi;
- qiyosiy o‘rganishga yo‘naltiriladi.

Bunday darslar o'quvchilarda she'riy asarlarni tushunish, ularni ifodali o'qiy bilish ko'nikmalarini shakllantirish, badiiy so'zga, she'riyatga muhabbat uyg'otish maqsadida tashkil etiladi. Nazm darslarida ham o'quvchilar she'riy asarlar tahlili ustida u yoki bu darajada ish olib boradilar. She'riyatning sir-sinoatlari bilan tanishadilar. Badiiy so'zga moyilligi bor o'quvchilar o'zlarining ijod namunalaridan o'qib berishadi.

Muhimi shundaki, ushbu dars shakllarining barchasi zamirida asarlarning didaktik tahlili yotadi. O'quvchiga o'rganish uchun taqdim etilgan badiiy asarlar tahlilga tortilmas ekan, ular hech qanday samara bermaydi. Shu ma'noda o'quvchining e'tibori badiiy asarlarga yondashishning o'ziga xos xususiyatlari, ulardagi muhimni nomuhimdan farqlashga, matn mohiyatiga qaratilsa, uning ma'naviyatida, albatta, ijobiy iz qoldiradi.

Xullas, ma'naviy yetuk insonni tarbiyalab voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan hozirgi davrda buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodidagi ma'rifiy g'oyalari, pand-o'git va yo'riqnomalar biz uchun mukammal dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonida bunga alohida e'tibor qaratish pedagoglarning muhim vazifalalaridan biri hisoblanadi. Buni bevosita badiiy adabiyot orqali amalga oshirish mumkin. Chunki badiiy asarlar o'quvchi ongiga yetarli darajada o'z ta'sirini ko'rsata oladi. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimiz, xususan, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy asarlarini o'rganish, ularda aks ettirilgan umuminsoniy g'oyalari komil insonni tarbiyalashni tashkil etadi. Bu bugungi kunimiz uchun ham dolzarb masala sanaladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari. –T.: 2017.
2. Йўлдош К., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: “Камалак”, 2016. –264 б.
3. Xoliqova M., Ergasheva Sh. Odobnama. 3-sinf uchun darslik. –Т.: “Yangi yul Poligraph Service”, 2019.– 95 б.
4. Husanboeva Q., Shodiev F., Hazratqulov M. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Oliy o'quv yurtlarining pedagogika fakultetlari (boshlang'ich sind o'qituvchilari) talabalari uchun darslik. – Т.: “SamDU”, 2019.–473 b.
5. Quronov M. Milliy tarbiya yo'riqnomasi. G'arb va Sharq tarbiyaviy tajribalari namunalari tahlili // Xalq ta'limi. 1993. 8сон, 6-10-b.
6. G'ulomov A. Ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish. –T.: “O'qituvchi”, 1987. – 124 b.
7. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish kitobi (1-sinf uchun darslik). – Т.: “Sharq”, 2009. – 127 b.
8. G'afforova T., G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari. –T.: “Sharq”, 2013. – 126 b.

UDK: 891

HOTAMITOY OBRAZI BILAN BOG'LIQ HIKOYATLARNING TARIXIY ASOSI

N.A.Abdumannatova

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada islom davrining dastlabki asrlardagi arab mualliflari asarlarida Hotamtoy obrazi va uning oti bilan bog'liq hikoyatlar o'zbek va qozoq xalq og'zaki ijodidagi ertak va rivoyatga tarixiy asos bo'lib xizmat qilishi asoslangan. Shuningdek, Hotamitoy obrazini o'rta asr adabiyot namoyondalarining asarlarida ham uchratish mumkinligiga diqqat qilingan.

Kalit so'zlar: Hotamitoy, tarixiy-genetik asos, epik sujet, xalq og'zaki ijodi, saxiyilik, rivoyat, ertak, hikoyat, tarixiy shaxs, ot.

Историческая основа рассказов, связанных с образом Хотамтоя

Аннотация. Статья основана на том, что образ Хотамтого и рассказы о его коне в творчестве арабских авторов первых веков исламского периода служат исторической основой сказок и легенд в устных традициях узбекского и казахского народов. Также отмечается, что образ Хотамитоя можно встретить в произведениях средневековых литераторов.

Ключевые слова: Хотамитой, историко-генетическая основа, эпический сюжет, фольклор, щедрость, легенда, сказка, рассказ, исторический персонаж, лошадь.

Historical basis of stories about Hotamitoy's image

Abstract. The article is based on the fact that the image of Hotamtoy and the stories about his horse in the works of Arab authors of the first centuries of the Islamic period serve as a historical basis for fairy tales and legends in the oral traditions of the Uzbek and Kazakh peoples. It is also noted that the image of Hotamitoy can be found in the works of medieval literary figures.

Keywords: Hotamitoy, historical-genetic basis, epic plot, folklore, generosity, legend, fairy tale, story, historical figure, horse.

Hozirgi zamon jahon adabiyotshunosligida badiiy obrazlarning tarixiy-genetik asoslari, epik sujetlarning manbalari, shakllanish bosqichlari va taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Keyingi davrlarda adabiy ta'sir va badiiy tarjima amaliyoti natijasida xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdagi an'anaviy epik sujetlarning shakllanishiga asos bo'lgan yozma manbalarini aniqlash va ularni qiyosiy tahlilga tortish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon adabiyotshunosligining epik obraz va sujetlar migratsiyasini tadqiq etishga doir ilmiy-nazariy konsepsiyalari arab, fors-tojik va boshqa xalqlar adabiyoti hamda folkloridagi an'anaviy sujetlarning o'zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rmini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishni taqozo etadi. Xususan, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning o'rganish obyekti bo'lgan Hotamitoy obrazini ham adabiy aloqalar va adabiy ta'sir natijasida o'zbek adabiyotiga kirib kelgan obraz sifatida tadqiq etish u bilan bog'liq sujetlarni qiyosiy o'rganish alohida yondashuvni talab qiladi.

Hotamitoy xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot tarixida saxiylik timsoli sifatida tasvirlanadi. Hatto, uning nomi hozirgi o'zbek tilida "hotam", "hotamtoy" kabi sifat vazifasida qo'llanilib "saxiy, qo'li ochiq" kabi ma'nolarni ifodalaydi, keyingi so'z esa (ya'ni, Hotam ibn Tay) atoqli otlardan hosil bo'lgan qo'shma sifatdir [7; 3]. Hotamitoy (to'liq nomi Abu Safona Hotam ibni Abdulloh ibni Sa'di Toyi, taxm.VI asr oxiri va Yaman VII asr boshi) – saxiyligi va olivjanobligi bilan sharq mamlakatlarida dong taratgan shaxs. Yamandagi Toy qabilasining boshlig'i, mashhur lashkarboshi va shoir bo'lgan. Adl-u insofi, saxiyligi va yaxshiligi bilan dastlab atrofdagi qabilalar, keyin butun Arabiston va Sharq xalqlari orasida Hotami Toy – Toy qabilasidan bo'lgan Hotam nomi bilan shuhrat qozongan. Uning sahovat va himmatiga qoyil qolgan Muhammad payg'ambar (sav) ham Toy sharofatidan uning avlodini e'zozda tutishini buyurgan [5; 905].

Hotami Toy nafaqat saxiylik timsolini o'zida aks ettirgan obraz, balki tarixiy shaxs ekanligidan guvohlik beruvchi bir qator manbalar mavjud. Uning shaxsiyati haqida ko'plab arab manbalarida turlicha ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Zubayr ibn Bakkorning "Axbor al-muvaffaqiyat", Abulfaraj Al-Isfaxoniyning "Kitob al-Agani", Ibn-Qutaybaning "Ash-she'r va shuar" kabi asarlarida Hotam at-Toyining shaxsiyati, u bilan bog'liq tarixiy voqealar, shuningdek, uning shoirligi, Navvar va Muoviya ismli ayollarga uylanganligi, Saffona va Adiy ismli farzandlari bo'lganligi, saxiylik unga onameros ekanligi uning bu xislati keyinchalik qizi Saffonaga o'tganligi to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Xatam at-Tayiyning shaxsiyati va tarjimayi holi to'g'risida ma'lumot bergan birinchi arab mualliflari orasida "Al-Axbor-al-muvaffaqiyat" kitobining muallifi Zubayr ibn Bakkor va "Kitob al-Aganiy" muallifi Abulfaraj al-Isfaxoniylar bo'lgan. Hotamning tarjimayi holi va hayotining ba'zi tafsilotlarini tasvirlashda ko'plab yillar davomida yozilgan adabiy va tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlarning mualliflari Abulfaraj al-Isfaxoniyning "Kitob-al-Agani" ma'lumotlariga asoslangan.

Arab adabiy va tarixiy manbalarida va zamonaviy rus, arab va evropalik sharqshunoslarning ilmiy tadqiqotlarida Hotamning haqiqiy ismi "Hotam" deb qayd etilgan. Islom davri manbalarining ko'plab mualliflari, shuningdek, bir qator tadqiqotchilar Abulfaraj Isfaxaniyga suyanib, Hotamning to'liq ismini "Hotam ibn Abdalloh ibn Sa'd ibn al-Xashraj ibn Imrulkays ibn Adiy ibn Ahzam", deb yozadilar [2; 75].

Lug'atlarda, xususan, arab tilining izohli lug'atlarda "Hotam" so'zi "qarorlarida qat'iyatl, mas'uliyatl, va o'z so'ziga sodiq" deb izohlanadi (8, 192). Bundan tashqari, ko'plab izohli lug'atlarda Hotam at-Tayining ramziy shaxsiga asoslangan "Hotam" so'zi "saxiylik va olivjanoblik" deb talqin qilinadi [2; 86].

Islom davrining dastlabki asrlariga oid arab manbalarida muhim o'rinn egallagan Hotami Toy haqidagi ma'lumotlar keyingi davr mualliflarining tarixiy, axloqiy, so'fiylik, geografik va adabiy asarlarida bu obraz haqidagi afsonalar va hikoyalarning paydo bo'lishi va keng tarqalishiga zamin yaratdi. Chunonchi XV asrda temuriylar hukmronligi davrida yashab ijod etgan ijodkor Husain Voiz Koshifiy Hotamitoy shaxsiyatiga bag'ishlangan "Risolaiy Hotamiya" asarini yozdi. Shuningdek, uning qalamiga mansub "Axloqi Muhsiniy" asarida ham bu obrazga atroflicha to'xtalingan. Muallif "Axloqi Muhsiniy" asarining "Judu sahovat va ehson bobida" deb nomlangan 21-bobida Hotamitoyning sahovati to'g'risida quyidagi baytni keltiradi:

Hotam Toiy jahondan ketti, lekin to abad,
Yaxshi avsofi saho ahli aro qoldi sanad.
Abru dil aning judidin erdi sharmsor,
Himmati olida olam molig'a yo'q e'tibor (3; 376).

Mazkur asarda keltirilishicha, Hotamning javonmardligi ovozasi Arabistondan Yaman mamlakatigacha yetib boradi. Sahovatining shuhrati Shom mamlakati, Rum viloyatigacha yetadi. Har biri o'zicha sahovat da'vosini qilib yurgan Yaman maliki, Shom podshohi va Rum qaysarining unga adovati paydo bo'ladi. Ularning har biri saxiylik yo'lida Hotam bilan bahslashmoqchi bo'ladi.

Birinchi bo'lib Shom podshohi Hotamni sinash maqsadida yuz bosh qizil yungli qora ko'z tuyu so'rab kishi yuboradi. Bu paytda shunday rangli tuya Hotam mollari ichida yo'q edi. Hotam mulozimlarini yig'ib: "Arab qabilalariga boringlar, kimda-kim bunday tuyani Hotam huzuriga olib kelsa, ikki barobar bahosiga oladi, yana u kishiga yo'l qiyinchiliklari uchun in'om hadya qiladi deb aytinlar", – deya buyruq beradi. Shu yo'l bilan so'ralgan yuz bosh tuyani qarzga olib Shom podshohiga yuboradi. Bu holatdan hayratga tushgan podsho tuyalarga Misr va Shomning qimmatbaho matolaridan yuklab, Hotamga yuboradi. Bularni olib borganda, "Kimki menga tuya sotgan bo'lsa, o'z tuyalarini tanib ustidagi yuklari bilan olsinlar", – deb buyuradi Hotam. Tuya egalari ularni olib ketadi. Bu xabar Shom mamlakatiga yetgach, podsho Hotamning sahovat va himmatiga qoyil qoladi.

Saxoye Hotamkim shuhrat olmish,
Degondek rostdur behuda ermas.

Xiraql otli Rum qaysari Hotamning saxiyligini tekshirib ko'rmoqchi bo'lib, uchqurlikda shamoldan tez, oppoqlikda yashin unga o'zini o'xshatishdan ibo qiladigan, chaqqonlikda sabo nasimi uning gardini ko'ziga to'tiyo qiladigan otini so'raydi. Husain Voiz Koshifiy bu holatni quyidagi qit'a orqali sharhlaydi:

Tilay andin bu yanglig' bodponi,
Saxovatpesh etib gar bersa oni.
Solaykim, jud ishida himmati nag'z,
Va gar, na shuhratidir, po'sti bemag'z (3; 377).

Shunday qilib, Rum qaysari o'z elchisini yuboradi. Hotam xodimlariga mehmonlar uchun ot so'yishni buyuradi. Mulozimlar otlarning hammasi yaylovida ekanligini, uyda faqatgina o'sha uchqur ot borligini aytadi. "Shu otni so'yinglar", – deb yuboradi Hotam. Ertasi kuni elchilar Rum qaysarining nomasini berishadi. Hotam nomaning mazmunidan xabardor bo'lib xomush tortadi. Buni ko'rgan elchilar "Ey Hotam, agar tulporni berishga shunchlaik parishon bo'lsang, biz sizni majburlamaymiz", – deydi.

"Agar bu nomaning mazmunidan ertaroq ogoh bo'lganimda, u tulporni sizlarga bergen bo'lardim", – deydi Hotam afsus bilan.

Ul ot dersiz oni bod sur'at
Tunu kun ayladim sizga ziyofat.
Havo behad sovuq erdi yog'ib qor
Ki yilqi sori bormoq erdi dushvor.
Yo'q o'lg'och o'zga ot eshigimda bog'liq
Oni ko'rdim ziyofatga yarog'liq.
Muruvvatdin emaskim bir zamone,
Gurusna bo'lg'ay uyda mehmone.
Ming ot andog' agar yo'q bo'lsa bo'lg'ay,
Ki olam yaxshi otim bilan to'lg'ay (3; 378).

Garchi Rum qaysariga bu ot nasib bo'lmasa-da, Hotam unga shunga o'xshash boshqa otni hadya qiladi.

"Axloqi Muhsiniy"da Yaman podshosining Hotamning xayirli ishlariga g'ayirligi kelib, uni o'ldirishni buyurgani va bunga javoban Hotam boshini elchingining oyoqlari ostiga qo'yanligi, uning Hotam ekanligini bilgan elchi poyiga tiz cho'kib uzr so'raganligi haqidagi rivoyat ham keltirilgan.

Chu ayyor ul zamon Hotamni bildi,
Hurush aylab oyog'ig'a yiqildi.
Ayo ey oliyhimmat so'zi totlig'
Kechurgilkim sanga bo'ldim uyotlig'.
Seningdek yaxshig'a bo'lg'och badandesh,
Hijolatdan uribman man jonimg'a nish.
Agarchi tig'dek erdim bir ofat,
Ki holi qiling'ong'a yo'q menda toqat.
Sening sorig'a hargiz tig' otmam,

Ki hosh, tig‘kim gul birla otmam.
 Bu yanglig‘ uzrdan behad dam urdi,
 Yo‘lin tutib Yaman sorig‘a burdi (3; 379).

Ayni shu sujetning badiiy talqinini Hotamitoy obrazini badiiy adabiyotga birinchi bo‘lib olib kirgan Shayx Sa‘diy Sheroyi “Bo‘ston” asarida g‘oyatda mahorat bilan tasvirlagan. Bu asar forschanan o‘zbekcha Chustiy tomonidan tarjima qilinib 2019-yilda chop etilgan [4; 68-72].

Hotamitoy obrazini o‘rtas asr adabiyot namoyondalarining asarlari bilan bir qatorda xalq og‘zaki ijodining ertak janrida ham uchratish mumkinligi ahamiyatga molik hodisadir. “Axloqi Muhsiniy” va “Bo‘ston” asarlarida keltirilgan rivoyatning sujeti o‘zbek xalq ertaklari tarkibidagi “Muqbil toshotar” ertagida mavjud ekanligi bu fikrimizni dalillaydi. Ertak sujetiga ko‘ra, Podsho Muqbilga qizini bermaslik uchun bahona qilib, Hotamning boshini kesib, minib yurgan otini olib kelishini buyuradi. Muqbil uning shartini bajarish uchun safarga otlanadi. Bir shaharda bir odam bilan do‘splashib unikida mehmon bo‘ladi. Safardan muddaosini so‘ragan mezbonga Hotamning boshini va otini keltirish uchun yo‘lga chiqqanligini aytadi. Shunda mezbon “Hotam men bo‘lamon, boshim kerak bo‘lsa kesib oling, ammo otni endi berolmayman, chunki sizni mehmon qilish uchun uni so‘yan edim”, – deb javob beradi. Bundan ta’sirlangan Muqbil Hotamning oyog‘iga yiqilib, uzr so‘raydi [6; 457].

Yuqoridagi sujetini qardosh qozoq xalq og‘zaki ijodida ham ko‘rish mumkin. Chunonchi, Hotamitoy obrazning qozoq xalq ertaklaridagi epik talqini masalasi bilan shug‘ullangan S.Qasqabasov ishtirotida nashrga tayyorlangan qozoq xalq og‘zaki ijodi (“Babalar so‘zi”)da Hotam obraqi gavdalantirilgan “Киша Хатымтай жомарт” nomli asar mavjud [1; 1-2]. Mazkur qissa she’riy shaklda bo‘lib, unda Hotam obrazining tasviri bilan birgalikda uning mashhur oti bilan bog‘liq hikoya ham keltirilgan:

Дуняда Хатымтай болган экен,
 Турған жери Арабстан болған экен.
 Бу дағы Пайғанбар Расул Алладан
 Аз бурын жомарттық қилған экен.
 Хатымнинг заманында болған экен,
 Қара арғимак бир аты болған экен.
 Бул аттынг айтайын сипаттарын,
 Рағаддай ауазы болған экан (1; 1).

Qissa sujetiga ko‘ra, mamlakat podshosi otning dovrug‘imi eshitib vaziriga uni olib kelishini buyuradi. “Agar Hotam haqiqatdan ham saxiy bo‘lsa, otni beradi aksinchalik bo‘lsa, uning saxiyligi to‘g‘risidagi gap yolg‘on bo‘lib chiqadi”, – mazmunidagi fikrlarni aytib vazirini elchi qilib jo‘natadi. Hotamning uyida qo‘noq bo‘lgan vazir podshoning niyatini ma‘lum qildi. Bu so‘rovga Hotam shunday javob beradi:

Уай, дариғо аялды бул жорғамды,
 Қебап күлдим сиз ушин бу дулдулди.
 Қазанға асарга сиз конокка,
 Кеше кеш сойып едим ол дулдулди.

Bu so‘zlarni eshitgan vazir: “Otni so‘ymaslik kerak edi” – deganida, “Ол жорғам канча қимат болса дагы, артик кўрдим қоногим бир тойғанин”, – deb javob beradi Hotam.

Hotamitoy obrazining kelib chiqish tarixi va bu obrazning fors-tojik adabiyotidagi o‘ziga xos talqinlari masalasi bilan shug‘ullangan tojikistonlik tadqiqotchi N.Tumanov (Davlatzoda) islom davridagi arab manbalari mualliflariga tayanib Hotam, uning shaxsi va fe'l-atvori to‘g‘risidagi hikoyatlarni ikki guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qiladi:

1-guruhi. Hotamning tarjimayi holi va tarixiy shaxsiga yaqin bo‘lgan va uning haqiqiy hayotiga mos keladigan hikoyatlar kiradi.

2-guruhi. Hotamning asl shaxsi bilan hech qanday aloqasi bo‘lmagan, shunday bo‘lsada, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan afsonalar kiradi.

Hotamning tarjimayi holi va tarixiy shaxsiga yaqin bo‘lgan hikoyatlar ichida Abulfaraj al-Isfaxoniy tomonidan keltirilgan quyidagi voqealari diqqatga sazovor.

“Asad va Qays qabilasidan odamlar No‘monni ziyorat qilish uchun kelishdi va Hotam bilan uchrashib, unga: Sizning sharafingiz uchun o‘z hududimizni tark etdik. Sizga xat bilan xabarchi yuborildi. Said so‘radi: “Bu xatda nima bor?” Bani Asad, Ubayd va Bishr nomani o‘qidilar. Nomani o‘qib bo‘lgach, ular: “Sizdan bitta iltimosimiz bor”, – dedilar. U so‘radi: “Qanday iltimos?” Ular javob berishdi: “Bizning safdoshlarimizdan biri piyoda. Hotam otini ko‘rsatib: “Do’stingizning minishi uchun olib boring”, – dedi. Hotam ularning xizmatkori uning ayg‘iriga yaqinlashganini ko‘rgach, dedi: “Hijolat bo‘lmang, u ham sizniki”. Ular ayg‘irni olib ketdilar.

Yana bir arab muallifi Ibn Qutaybaning "Ash-She'r va-shuar" asarida Hotamning saxiylik bobidagi shon-sharafiga g'ayirlik qilgan va mashhur otini so'rab elchi yuborgan Rum qaysari, uning elchilar va Hotamning ularga ko'rsatgan sahovati to'g'risidagi voqealiga keltilradil.

Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqorida tahlil qilingan o'rta asrlarda yaratilgan asarlar tarkibidagi Hotam obrazni va uning oti bilan bog'liq hikoyatlar, bu hikoyatning turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi talqini o'z tarixiy asosiga ega. Islom davrining dastlabki asrlardagi arab mualliflari hisoblangan Ibn Qutaybaning "Ash-she'r va-shuar" hamda Abulfaraj Isfaxoniying "Kitob al-Aganiy" asarlarida keltirilgan tarixiy voqealar Husain Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Sa'diy Sheraziyning "Bo'ston" asarlarida keltirilgan Hotami Toy bilan bog'liq hikoyatlarga, shuningdek, o'zbek va qozoq xalq og'zaki ijodidagi ertak va rivoyatga tarixiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Бабалар сўзи. Ҳикаялъық дастандар. 4 том. – Астана: Медени Мура, 2004. – 329 б.
2. Давлатзода Н.Д. Формирование и эволюция художественного образа Хатама в персидско-таджикской литературе (классический период). дисс....канд. филол. наук. – Душанбе, 2019. – 196 с.
3. Кошифий Ҳусайн Воиз. Ахлоқи Мұхсиний // нашрға тайёрловчилар: М.Аминов Ф. Ҳасанов. – Тошкент: Ўзбекистон илмий нашириёти, 2011. – 376 б.
4. Sa'diy Sherziy. Bo'ston. Forsiyidan Chustiy tarjimasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. – 143 b.
5. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 томлик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашириёти, 2002-2006. – 926 б.
6. O'zbek xalq ertaklari. 3-jild. – Toshkent: O`qituvchi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2014. –457 b.
7. Ҳотамнома. Нашрға тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: А.Матгозиев. – Тошкент: Фоур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашириёти, 1988. – 223 б.

UDK: 417.709

БЕССОЮЗНОЕ СЛОЖНОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В КОНЦЕПЦИИ УЧЕНЫХ СОВРЕМЕННОЙ СИНТАКСИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ

С. Ф. Ким

Самаркандинский государственный университет
Svetka.kim. 1955@mail.ru

Аннотация. Статья посвящена истории вопроса относительно семантической структуры бессоюзного сложного предложения. В центре внимания – концепции ученых-синтаксистов современной синтаксической теории (50 – 90 г. г. XX века), каждый из которых внес огромный вклад в развитие теории вопроса относительно структуры и семантики бессоюзного сложного предложения.

Ключевые слова: подчинение, сочинение, БСП, эксплицитно выраженные средства связи, дифференцированность семантики, грамматикализированные средства связи, мотивированность / немотивированность частей БСП, динамическая структура, союзная и бессоюзная структура сложного предложения.

Complex sentence in the conception of scientists of modern syntactic theory

Abstract. There is the background of semantic structure of asyndetic complex sentences. In the center of attention there is a conception of scientists of modern syntactic theory (50-90 years of XX century), all of them made a contribution to the development of the theory relativity to the structure and semantics of asyndetic complex sentences.

Keywords: dependent, follow, complex, compound sentences without conjunction, clear expressed means of communication, semantic differences, grammaticalized communication, nonconformity of complex compound sentences without conjunction, dynamic structure, the structure of complex, sentences with conjunction and without conjunction

Zamonaviy sintaksis nazariyasining olimlari konseptsiyasidagi bog'lovchisiz murakkab gaplar

Annotatsiya. Maqolada bog'lovchisiz murakkab gaplarning semantik strukturasi tanishtirilmoqda. E'tibor markazida zamonaviy sintaksis nazariyasining (XX asrning 50-90y.) olimlar konseptsiyasi berilgan; ulardan har biri bog'lovchisiz murakkab gaplarning strukturasi va semantikasi to'g'risidagi nazariyasining rivojlanishiga o'z hissasini kiritган.

Kalit so'zlar: tobe, ergash, bog'lovchisiz murakkab qo'shma gaplar, aniq ifoda etilgan aloqa vositalari, semantik farqlar, grammatikalashtirilgan aloqa, bog'lovchisiz murakkab qo'shma gaplarda qismlarning nomuvofiqligi, dinamik tuzilishi, qoshma gaplarning bog'lovchili va bog'lovchisiz tuzilishi.

При квалификации бессоюзного сложного предложения (далее БСП), в первую очередь встает вопрос: существует ли БСП как самостоятельная грамматическая категория (как тип, противопоставленный сочинению и подчинению) или это разновидность СП?

До 50-х годов XX в. бессоюзные сложные предложения не выделялись в особый тип сложного предложения. Их рассматривали как разновидность союзных сложных предложений. В 50-е годы XX в. вышла статья Н.С. Поспелова «О грамматической природе бессоюзного сложного предложения» [1], где автор аргументировал необходимость выделения бессоюзного сложного предложения в особый тип сложного предложения следующими положениями: 1) в древних памятниках письменности преобладают бессоюзные сложные предложения, таким образом, они первичны; 2) в языке функционируют такие бессоюзные сложные предложения, которые не соотносятся с союзовыми конструкциями, поэтому эти БСП не имеют синтаксических синонимов среди союзных конструкций.

Традиционная точка зрения относительно БСП представлена в работах Ф. Ф. Фортунатова, А. М. Пешковского, А. Н. Гвоздева, Е. П. Васильевой, Г. Л. Алексеенко, А. Г. Руднева, М. С. Буниной, которые рассматривают явление бессоюзия в рамках подчинения и сочинения.

Теоретическое осмысление БСП в русской лингвистике первым дал А. М. Пешковский. Сложное предложение ученый определяет как "сочетание предложений, соединенных союзами, союзовыми словами или союзовыми синтаксическими паузами" [2, 459]. В БСП интонация может принимать на себя функции, которые в союзном предложении выполняют союзы и союзные слова. В языке, по мнению А. М. Пешковского, несколько типов "соединительных союзных пауз" [2, 472]. (интонаций), совершенно тождественных со значением отдельных групп союзов. Характер интонации он определяет методом предположительной вставки союза. Таким образом, А. М. Пешковский приходит к выводу о наличии в грамматическом строе русского языка бессоюзного сочинения и бессоюзного подчинения.

Вторая точка зрения была последовательно представлена Н. С. Поспеловым, что явилось импульсом к созданию принципиально новой теории бессоюзного сложного предложения. Н.С. Поспелов рассматривает БСП как особый структурно-семантический тип сложных предложений: "Бессоюзовыми сложными предложениями оказываются такие предложения, части которых, оформленные грамматически как предложения, объединяются в одно целое не при помощи союзов или относительных слов, а непосредственно взаимосвязанностью содержания входящих в их состав предложений, что и выражается теми или иными морфологическими и ритмико-интонационными средствами" [1, 343]. Ученый, таким образом, вывел БСП из парадигмы с союзовым типом в отдельную самостоятельную синтаксическую единицу.

Идеи Н. С. Поспелова нашли дальнейшее развитие в трудах лингвистов Р. В. Болдырева, И. А. Василенко, Н. В. Орловой, В. К. Покусаенко, П. Ф. Иванушкиной, А.Н. Луганской, Н. В. Кирпичниковой, В. А. Белошапковой, Е. Н. Ширяева и мн. др. учёных. Квалифицируя БСП как самостоятельный тип сложного предложения, они указывают на некоторые отличительные особенности этих конструкций:

1. отсутствие «эксплицитно выраженных средств связи» [3, 89] (союзов и союзных слов) между предикативными единицами БСП;
2. наличие специфических особенностей в строении компонентов некоторых бессоюзных конструкций по сравнению с союзовыми;
3. недостаточную дифференцированность семантики в отдельных типах бессоюзных предложений;
4. невозможность установления соответствия и параллели семантического плана между некоторыми разновидностями бессоюзных предложений и теми или иными видами союзных предложений.

Третья точка зрения на БСП – как факт собственно текста – последовательно проводится в работах И. Н. Кручининой, Т. В. Малащенко др. ученых. Сторонники данной концепций исходят из того, что БСП далеко не всегда располагает грамматикализированными средствами, включая интонацию, способными дифференцировать смысловые отношения в них. "Язык не располагает таким количеством интонаций, чтобы посредством их можно было бы выразить все многообразные отношения, возникающие между частями в бессоюзных конструкциях. Даже основное разграничение бессоюзных конструкций на сочинительные и подчинительные связано с затруднениями, если оно проводится только по интонационному признаку. Всё это говорит о том, что интонация может служить не основным, а только вспомогательным средством для разграничения бессоюзных конструкций» [4, 64].

Другие грамматикализированные средства (взаиморасположение компонентов, отношение видо-временных форм наклонений глаголов-сказуемых, различные лексические элементы) тоже не всегда дифференцируют смысловые отношения в БСП. И. Н. Кручинина отказывает бессоюзным конструкциям в статусе предложения (отрицает наличие у них синтаксической формы) на том основании, что «смысловые отношения в них, при отсутствии синтаксических средств связи, формируются по законам имплицитного (лексического) синтаксиса» [5, 115].

В «Русской грамматике» 1980 года БСП были названы бессоюзными соединениями предложений: "Бессоюзные соединения (сочетания) предложений – это особые синтаксические образования, в большей или меньшей степени соотносительные со сложными предложениями, но отличающиеся от них отсутствием союзной или местоименной связи между частями" [6, 634]. Бессоюзное сложное предложение выделено в особый раздел, который рассматривается как очевидный аналог традиционного БСП: никаких принципиально новых бессоюзных соединений предложений по сравнению с известными типами БСП не выделено.

Против исключения БСП из состава сложных предложений выступает С.Г.Ильенко. Данная точка зрения "опирается на одностороннее понимание формы сложного предложения: отсутствие лексико-грамматических скреп при бессоюзии не переводит его в факт "лексического синтаксиса", ибо лексико-грамматические скрепы должны рассматриваться не как единственные показатели связи, а как элементы иерархической системы формализаторов связи, существующей в сложном предложении. Общее понимание сложного предложения как структурно-семантического целого, единство которого обеспечивается собственно грамматическими и лексико-грамматическими средствами, препятствует попытке ликвидировать целый класс сложного предложения из-за отсутствия в его структурной организации лишь одного показателя связи" [7, 30].

Е.Н.Ширяев считает, что для выведения бессоюзных конструкций за пределы сложного предложения нет достаточных оснований, он доказывает, что БСП имеет синтаксическую форму. "В синтаксической форме бессоюзного сложного предложения осуществляется активизация смысловых отношений, заложенных в лексико-семантическом содержании предикативных конструкций. В качестве синтаксического средства, активизирующего имплицитные смысловые отношения в БСП, выступает интонация незавершенности непоследней предикативной единицы, которая может быть яркой и неяркой" [8, 43]. В первом случае Е.Н.Ширяев говорит о собственно БСП, а во втором – о БСП, близких к тексту.

Как самостоятельный тип сложного предложения рассматривает БСП Д. И. Изаренков. По его мнению, бессоюзные конструкции представляют собой не сочетание предложений, а сложное предложение, состоящее из предикативных частей. В качестве доказательства Д. И. Изаренков отмечает, что «предикативные части в составе БСП отличает от самостоятельных простых предложений следующее: возможная семантическая незавершённость первого или второго компонента БСП: *Теперь последнее: мне нужно, комбат, отлучиться на три минуты* (Ю.Бондарев); формальная и семантическая незавершённость первой предикативной единицы БСП: *Вижу отчётливо: врёт* (Ю.Трифонов); коммуникативная немотивированность предикативных единиц БСП в том случае, если они являются структурно и семантически завершёнными и не отличаются в этом плане от самостоятельных простых предложений» [9, 452].

В последние десятилетия XX века предпринимались попытки подойти к анализу БСП с более гибких позиций оценки соотношения бессоюзных и союзных структур. Такие исследователи, как В.И.Борковский, С.П.Балашова, Д.Я.Вальтер, З.И.Клычникова, Б.А.Зильберт, А.Ф.Кулагин, А.А.Бронская, М.С.Бунина, В.В.Щеулин, З.К.Тарланов, Г.Д.Фигуровская, считают БСП самостоятельным типом предложений, обладающим специфическими чертами в отличие от ССП и СПП, и в то же время они рассматривают БСП в сопоставлении с союзными предложениями. "Разумеется, БСП обладают особенностями, каких может не быть у предложений с союзной связью. Но это ещё не является и не может явиться достаточным основанием для утверждения, что бессоюзные предложения должны быть изъяты из сфер сложносочинённых, сложноподчинённых и промежуточных (переходных) типов предложений, на которые делят все союзные конструкции" [10, 15].

Различая в БСП «нейтральную, двустороннюю и одностороннюю синтаксические связи» [11, 74 – 82], А.А.Бронская сравнивает их соответственно с перечислительной, сочинительной и подчинительной связью в союзном сложном предложении.

Об определённом соотношении бессоюзных и союзных сложных предложений упоминает Е.Н.Ширяев: "Бессоюзные сложные предложения с дифференцированными отношениями, допускающие выражение этих отношений только сочинительным или подчинительным союзом, и

соответствующее союзное сложное предложение отличаются только невыраженностью / выраженностью сочинения или подчинения" [12, 110].

Последнее двадцатилетие характеризуется не только продолжением развития ранее начатых изысканий, их углублением, но и решением новых проблем: изучением сложных предложений в сопоставительном плане, их описанием в функционально-коммуникативном аспекте, выявлением переходных структур, особенностей функционирования предикативных единиц в составе предложений. Возрос интерес к коммуникативному аспекту предложения. Понимая сложное предложение как коммуникативную единицу, В.А. Белошапкова назвала его динамической структурой и выдвинула в качестве объекта изучения динамического аспекта синтаксиса [13, 62]. Придерживаясь данного направления, известны фундаментальные исследования таких современных ученых-лингвистов, как И.А. Шаркова [14], Е.П. Марченко [15], В.В. Бабайцева [16] и др., посвященные разностороннему описанию бессоюзных предложений и их разновидностей. Однако в решении проблемы о коммуникативно-прагматической природе бессоюзных структур остается многое неясного, возникают все новые и новые спорные вопросы.

Мы рассматриваем БСП как самостоятельную грамматическую категорию, обладающую своими специфическими чертами, в то же время анализируя системные семантические взаимоотношения союзных и бессоюзных предложений.

Литература

1. Поспелов Н.С. О грамматической природе и принципах классификации бессоюзных сложных предложений// Вопросы синтаксиса современного русского языка / Под ред. В.В. Виноградова. – М., 1950; С. 343.
2. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М., 1956. - С. 459; 472.
3. Акимова Г.Н. Различные формы проявления аналитизма в современном русском грамматическом строе // Русистика: Лингвистическая парадигма конца XX века. СПб.: СПбГУ, 1998. – С. 89.
4. Кубик М. Условные конструкции и система сложного предложения. – М., 1967. – С. 64.
5. Кручинина И.Н. Структура и функции сочинительной связи в русском языке. – М., 1973. – С. 115.
6. Русская грамматика. Т. 2: Синтаксис / Н. Ю. Шведова (главный редактор). – 1980. – С. 634.
7. Ильенко С.Г. Бессоюзие в системе сложного предложения современного русского литературного языка // Системный анализ значимых единиц языка. Межвуз. сб. научн. тр., Красноярск, 1984. – С. 30.
8. Ширяев Е.Н. Бессоюзное сложное предложение в современном русском языке. – М., 1986. – С. 43.
9. Изаренков Д.И. Бессоюзные сложные предложения в теоретическом и практическом курсах русского языка на филологических факультетах вузов союзных республик. – М., 1987. – С. 452.
10. Щеулин В.В. Бессоюзное предложение в системе сложных конструкций и особенности его грамматико-семантической организации. – Воронеж: ВГПИ, 1987. – С. 15.
11. Бронская А.А. Синтаксические связи в бессоюзных сложных предложениях // НДВШ. Филол. науки. 1975.- № 1. – С.74-82.
12. Ширяев Е.Н. Бессоюзное сложное предложение в современном русском языке. М. 1986. – С. 110.
13. Белошапкова В.А. Сложное предложение в современном русском языке (некоторые вопросы теории). – М., 1967. – С. 62.
14. См.: Шаркова И.А. Бессоюзные сложные предложения с повторяющимися словами в компонентах. – Липецк, 2000.
15. См.: Марченко Е.П. Полипредикативные сложные предложения в современном русском языке // Русский язык в школе. 2004, № 3; он же: Полипредикативные сложные предложения в современном русском языке: структурно-семантические, коммуникативные и текстообразующие потенции: Монография. Краснодар: Кубанский гос. ун-т, 2003; он же: Полипредикативные сложные предложения в современном русском языке: структурно-семантические, коммуникативные и текстообразующие потенции. Краснодар, 2004; он же: Полипредикативные сложные предложения как единицы текста // Филологические науки. – 2003, № 5.
16. См.: Линия учебно-методических комплексов по русскому языку для 5–9 классов под редакцией В. В. Бабайцевой, Л. Д. Чесноковой, А. Ю. Купаловой, Е. И. Никитиной и др.; Линия учебно-методических комплексов по русскому языку для 5–11 классов (для углубленного изучения русского языка) под редакцией В. В. Бабайцевой.

UDK: 891:550

**SHAMSIDDIN SHOHINNING "TO`HFAI DO`STON" ASARI VA UNING
MA'RIFATPRAVRALIK ADABIYOTIDAGI MUNDARIJAVIY HAMDA G'OYAVIY
AHAMIYATI**

S.X.Xo`jaqulov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Shamsiddin Shohinning "To`hfa do`ston" masanviysi va uning janriy xususiyatlari, asarning o`rganilish tarixi, masanviy qo`lyozma nusxalari hamda ushbu manzumaning intiqodiy matnining yaratilish jarayoni o`rgnalgan. "To`hfa do`ston" ma'rifatparvarlik adabiyotida ilk yangi qolipdagi masnaviyalar sirasiga kiradi. Muallif tomonidan mazkur masnaviyning eng muhim mundarijaviy va g`oyaviy xususiyatlari, asardagi mazmunning ana'anaviylik va yangilanish tamoyillari atroflicha tahqiq etilgan.

Kalid so`zlar: masanviy, janr, mazmun, g`oya, mundarija, adl, sabr, ishq, an'ana, novatorlik, tamoyil, tuzilish, tamsil, hikoyat.

Произведение Шамсиддина Шахина "Тухфай дустон" и его идеально-содержательное значение

Аннотация. В статье рассматривается маснави «Тухфай дустон» Шамсиддина Шахина, это жанровые особенности, история исследования, рукопись и критический текст этого маснави, написанного во второй половине XIX века. «Тухфай дустон» - одна из первых новых форм маснави в просветительской литературе. Автор подробно изучил важнейшие содержание и идеологические особенности этого маснави, принципы традиционализма и новизна идеально-тематическое содержания произведения.

Ключевые слова: масанви, жанр, содержание, идея, справедливост, терпение, любов, традиция, новизн, тренд, структура, притча, рассказ.

Shamsiddin Shahin's composition "Tuhfai duston" and its ideological and content significance

Abstract. The article examines the masnavi "Tukhfai Duston" by Shamsiddin Shahin, its genre features, the history of research, the manuscript and the critical text of this poem, written in the second half of the XIX th century. "Tukhfai Duston" is one of the first new forms of masnavi in educational literature. The author studied in detail the most important content and ideological features of this masnavi, the principles of traditionalism and updating the content of the work.

Keywords: masanvi, genre, content, idea, justice, patience, love, tradition, innovation, trend, structure, parable, story.

Birinchi marta 1937 yilda Firdavsiy nomidagi kutubxona taddiqotchisi Mirzo Qobil tashabbusi bilan Shohinning birinchi divoni tuzildi. Ammo "To`hfa do`ston" masnaviysi qatorida Shoiring boshqa bir qancha she`rlari ushbu to`plamga kiritilmagan. Tojik adabiyotshunoslik ilmida XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan bu sohirqalam va iste`dodli Shoiring haqida turli taddiqotlar yaratildi. Tojik adabiyotshunosligida Shamsiddin Shohinning hayoti va ijodiy fa`oliyatini o`rganish o`tgan asrning 50-yillarida boshlangan. "Adib" nashriyoti 2006 yilda Shoiring barcha asarlarini qamrab olgan Rasulxon Hodizoda va Abdujabbor Rahmonov musannifligidagi "Kulliyot"ini qayta nashr etdi. Ushbu maqolada bayon etiladigan va muhokama qilingan satrlarda asosan o`sha manbalarga tayanilgan.

Biroq, Shamsiddin Shohin ijodining eng muhim xususiyatlari va uning "To`hfa do`ston" manzumasining tarkibiy qismlari va Shoiring ushbu asarining janriy va uslubiy xususiyatlari, masnaviy janrining bu davr adabiyotida tadrijiy takomili va, aynan, Shohinning mazkur asari timsolida mazkur janrning qayta jonlanishi va tiklanishi haqida tojik adabiyotshunosligi tarixida yaqin kunlargacha alohida taddiqotlar yuzaga kelmagan. Faqatgina S.Amirqulovning "Nigohe ba inkishofi ta`rxi adabiyoti tojik dar movarounnahr (qarni XIX)" nomli ilmiy maqolalar to`plamiga kiritilgan "Firdavsiy va Shohin" unvonida keltirilgan maqola bundan mustasno.

Darhaqiqat "To`hfa do`ston" – Firdavsiy "Shohnoma"si tarkibidagi ayrim dostonlar tamoyili va Sa`diyning "Bo`ston" asariga taqlid qilib yozilgan masnaviy. Ushbu masnaviy matni bitilgan sana taddiqotchilar tomonidan 1890 yil deb belgilab qo`yilgan. 2006 yilda Rasulxon Hodizoda va Abdujabbor Rahmonov tahriri ostida intiqodiy matn sifatida ko`rib chiqilagan va Muzaffar Muhammadiy tomonidan tuzilgan Shamsiddin Shohin to`plamining hoshiyasida quyidagi misralar keltirilgan: "Tugallanmagan "To`hfa do`ston" masnaviysining musavvara nusxasi asosida, uning asl nusxasi hozirda O`zbekiston

Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti qo`lyozmalar fondida № 2343 raqami ostida saqlanib qolgan" [9:24]. Xuddi shu manbadas "Ushbu masnaviy endi bizga bir nuxsada etib keldi. Ushbu tugallanmagan qo`lyozma Sharifjon Maxdumi Sadri Ziyon tomonidan maxsus shaxsiy kutubxonasi uchun ko`chirma qilingan. Ushbu nusxa ayni paytda O`zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida qo`lyozma tariqasida saqlanmoqda. Uning tartib raqami 2343 va qo`lyozmadagi asarning tartibi o`ninch. Masnaviy Sadri Ziyoning do`stlaridan biri, Lutfiy taxallusli Qozi Mullo Nazrullo O`roq tomonidan yozilgan bo`lib, mazkur ilovalar va tavzehotlar masnaviyini o`qib xatm qilgach Sadri Ziyoning o`zi bitgan. [9:17] Bularning barchasidan ko`rinib turibdiki, Sadri Ziyoning xizmatlari ushbu asarning saqlanib qolishida beqiyos bo`lgan. Ushbu kitobning kirish qismi tabiatan tanqidiy ahamiyatga ega bo`lgan bir qator hikoyalar, masallar va "tamsil"lardan iborat. Ushbu bo`limda hukumatni aldash, mahkamada xizmat ko`rsatishning foydasizligi, mahalliy xalqqa nisbatan befarqliq, ularning bilimsizligi, xalq ahvoldan xabarsizlik, jamiyatdagi shaxs erkinligi muammolari va so`zning qadrsizlanishlari kabi masalalar muhokama qilinadi.

Ushbu matnning mantiqiy va mazmunli davomi deb hisoblangan baytlardan biri "Tugallanmagan kunlar va maxsus shikoyatlar hisobotida" manzumasi bo`lib, bu she`riy parcha Shohinning "Kulliyot"ini tuzishda foydalanilgan qo`lyozmalarning birortasida ham uchratilmadi. Rasulxon Hodizoda uni Hashmatning "Tazkirat-ush-shuar" sida topganligini va "Sadoi Sharq" jurnalining 1972 yil 7-sonida va Shohin asarlarining boshqa bir qancha namunalari bilan qayta nashr etganligini ta'kidlaydi. Olimning ushbu she`r nashr etilish tarixi va tafsilotiga bag`ishlangan muqaddimasida ta'kidlaganidek, «...bu she`r Shoир ijodining ijtimoiy mavqeい, g`oyaviy mazmunini oydinlashtirish uchun katta ahamiyatga ega» [Sadoi Sharq. 1972 y. № 7., 75].

Bizningcha, bu she`r Shoир hayotining so`nggi yillarda yozilgan. Unda Shoир o`hzining yoshlik damlarining go`zal onlarini, ammo saroyda majburan o`tkazgan tashvishli kunlarini eslaydi va bundan afsuslanadi. U amir va uning atrofidagilar haqida barcha madhiyalari va she`rlarini yozishga majbur bo`lganligini tan oladi. SHundan so`ng u dadil va g`azab bilan saroyning kasofatlari va razolatlarini fosh qiladi, o`quvchiga amirlik va uning boshida o`tirgan davlat arboblari, amldorlar va vazirlarning asl qiyofasini ochib beradi. Shohin ushbu she`rni biron bir do`stiga ko`rsatmaganligi ehtimoli katta. Uzoq vaqt davomida uy qamog`ida bo`lgan va ko`p odamlar bilan amir va amirlikka qarshi yashirin aloqada bo`lgan Mirsiddiq Hashmat bizga noma'lum bo`lgan yo`llar vositasida ushbu she`rini qo`lga kiritdi va uni o`zining tazkirasida e`lon qildi. Shohin mazkur masnaviy muqaddimasida, hatto mazkur masnaviyning tuzilishi, uning kompozitsiyasi va tarkibiy qismlarini, bob va fasllari tizimini ham Sa'diyning mashhur asari asosida ishlab chiqqanligini ta'kidlaydi:

*Chu «Buston» ba dah bob piroya deh,
Zi har bobash ahbobro moya deh.
Naxustin dari adlro boz kun,
Zi ehson ba duvvum dar og'oz kun.
Ba seyum dar az ishq binmo suxan,
Ba chorum raqam az tavozo'' bizan.
Bineh panjumin bob bahri rizo,
Bayoni qanoat ba shashshum namo.
Pai tarbiyat bobi haftum guzor,
Rahi shukr dar bobi hashtum sipor.
Chu az sabr forig' shudi dar nuhum,
Bikun dar munojot xatmi dahum.
Rason bar falak go`shai bomi o',
Bineh «To`hfai do`ston» nomi o`.*

Mazmuni; ya`ni "Bo`ston" yanglig` asarni 10 bob; adl, ehson, ishq, tavozu', rizo, qanoat, tarbiyat, shukr, sabr va munojot" larga bo`ldim.

Ushbu qism va asarning boshqa bizgacha etib kelgan qismlaridan ma'lum bo`lishicha, ushbu asarning yozilishida Shohinga g`aybdan, alohida ma`naviy pir rahnamolik qilgan. Bu odam Shohin va uning intelektual dunyosi uchun begona emas. Bizning fikrimizcha, Shoир ijod yo`lida buxorolik Zariridan yoki otasining buyuk ruhidan ma`naviy yordam so`ragan. Birinchi marta Sadriddin Ayniying "Namunai adabiyoti tojik" tazkirasida "To`hfai do`ston" masnaviyidan parchalar zikr etildi va shu orqali Shohinning mazkur nom ila alohida asar yozganligini ommaga taqdim etdi. Bundan tashqari, taniqli tojik adabiyotshunosi Xoliq Mirzozodaning "Shamsiddin Shohin" nomli dissertatsiyasida adibning hayoti va ijodi bo`yicha olib borgan ilmiy izlanishlarida ushbu masnaviy haqida qisqacha ma'lumotlar bayon qilindi. Milliy adabiyotshunoslikda mazkur asarning yaratilishi va uning intiqodiy matni bo`yicha ilmiy

qarashlarini yanada mukammalroq bildirgan olim Rasulxon Hodizodadir. Olim asarni o'rganar ekan, uning tuzilishiga, janrining tabiatiga ko'proq e'tibor bergan. Olimning so'zlariga ko'ra, "To`hfai do`ston" aynan masnaviy janrida yaratilgan. Bundan tashqari, Rasulxon Hodizoda "Shamsiddin Shohin" to'plamining muqaddimasida uning Sa'diyning "Bo`ston" asariga o'xshashligi va asarning to'liq emasligi sabablarini, qisqa va qimmatli satrlarda qayd etgan.

Qayd etish lozimkim, mmilliy adabiyotshunoslik ilmida Shamsiddin Shohin ma'rifatparvar Shoир sifatida bot-bot tilga olinsada, uning ushbu ijtimoiy va adabiy jarayonga bog'liq fikr-mulohazalari yig'indisi mukammal va mushaxxa emas. Shohin aslida an'anaviy tamoyillarga mos tarzda yirik asarlar bitgan. Ammo davr voqe'ligidan kelib chiqqan holda o'zining siyosi, ijtimoiy va axloqiy qarashlarini aynan "To`hfai do`ston" masanviysida badiiy, tizimli va ravon tarzda ifoda etgan. Masnaviyning mazmunidan ko'rinish turibdiki, muallif amir saroyi bilan yaqinligi va saroya tegishliligiuchun ham bu muhitni teran anglay bilgan, amir va uning atrofidagi amaldorlarga qarata oddiy xalqining ijtimoiy ahvoli, jam'iyatning ma'naviy qiyofasini o'zgartirishga chorlagan va shu orqali o'zining yangicha dunyoqarashi va siyosi aqidalarini ularga singdirishga harakat qilgan. U o'z asarlari bilan amir va saroy mulozimlarini adolat va haqiat yo'liga hidoyat etishga chorlagan. Asar mazmuni va g'oyalaridan ko'rinish turibdiki, muallif o'zining islohotparvarlik qarashlari va takliflarini maslahat, ba'zan esa ijtimoiy shikoyatlar va tanqidlar orqali ifoda etgan. Shoир o'z maqsad va muddaosini hamda fuqarolik mavqeini aniq ifodalash uchun o'z fikrlarini ramziy va ba'zan ularni tarbiyaviy va axloqiy hikoyalar va masallar orqali etkazishga uringan. Masnaviyda Buxoro amirligining XIX asrning ikkinchi yarmidagi siyosi va ijtimoiy holat, hukumatning chirigan va tanazzulga yuz tutgan siyosi tizimi aniq ko'rsatilgan. Shu bilan birga, Shoир fikricha, amirlik inqirozi va tanazzulining sabablarini amir va davlat amaldorlarining johilligi va adolatsizligi bilan bog'lash mumkin.

"To`hfai do`ston" - masnaviy janrida yaratilgan to'liq nazmiy asar bo'lib, asarning janr tabiatini Sadreddin Ayniy, Xoliq Mirzozoda, Rasul Hodizoda va Subhon Amirquklarining ilmiy izlanishlarida to'g'ri belgilangan. Mazkur masnaviy o'zining g'oyaviy mundarijasi va mazmunga ko'ra, "axloqiy va ijtimoiy masnaviy" tipiga mansub [7: 374]. Dastlab muallif Sa'diyning "Buston" asari kabi katta asar yaratmoqchiligi, ammo u umrning bevafoligi yoki davr voqe'ligidan kelib chiqqan holda Shoир mafkurasidagi evrilish, ijtimoiy shuurning yuksalishi sabab Shamsiddin Shohin davr hukumatiga pand va nasihatga asoslangan asarning mutlaqo lozim emasligini tushunib etgan va yoki tashqi va ichki ma'naviy tazyiqlar ta'siri ostida u faqat masnaviyning kirish qismi va birinchi bobini yozib tugatdi xolos. Asar tuzilishi jihatidan mukammal va tugal ham emas. Uning kompozitsiyasida har xil nomdag'i alohida mazmunga ega she'rlar ham mavjud. Ushbu parchalarning har biri o'z-o'zidan mustaqil bo'lib, hikoyalar va tamsillardan iborat. Ayro qismlardan tashkil topgan masnaviyda, tabiiyki Shoирning turli mavzular va g'oyalarga oid ifodalari va mutlaqo mustaqil bayonlari mavjud. Masalan, asarning kirish qismida Shohin bir necha baytlar orqali o'zining axloqiy, tarbiyaviy va nasihatga moil fikr mulohazalarini juda donolik va mohirlik bilan ifoda etgan. U olamning xorligi, sezgir va ma'rifatli odamlarning xo'rliги haqida shikoyat qiladi. Shoир kishilarning bunday kuya tushib qolish sababini eng avvalo charx va falakning, zamon adolatsizliklarining natijasi sifatida tilga olinadi. Ya'ni bu o'rinda Shamsiddin Shohin mutlaqo mumtoz adabiyot mezonlari, mumtoz poetika normalari asosida fikr yuritadi. U donishmandlar, shu jumladan o'zini qayg'u va qashshoqligini beshafqat falak va taqdiri azaldan ko`radi.

*Maro dil ba g'am bar safile chunon,
Ki dono hamon astu nodon hamon.
Nadonad tafovut safeh az faqeh,
Kadom az punba, chi son ast meh. [9:463]*

Shoirning so'zları, albatta, haqiqqat. Chunki Shoир ilm va inoyatning qadri ahamiyatsiz bo'lgan davrda yashagan va bu zamonda shaxsnинг qadrsizligi eng katta qayg'u sifatida baholanadi. Bu jam'iyatda "sof va johil" va "paxta va meh" o'rtasida farq yo'q bo'lganligidan Shoирning g'amgin va sezgir yuragi motam tutgan. Shoирning ichki tuyg'ulari va his-tuyg'ularining bunday boshlanishi, bir tomonidan, uning hayotiy yo'lini ko'rsatsa, boshqa tomonidan, Shoирning bu so'zları ijtimoiy ma'no kasb etgan holda, jam'iyatdagi tubanlik nechog'li insoniyatni halokat yoqasiga tortayotganligidan dalolat beradi.

Hikoyalar va masallarda Shoир boshqa muhim tarbiyaviy masalalar, jumladan, inson ongi, donoligi, odob-axloqi, yaxshi xulq-atvori, nutqi va boshqa olijanob insoniy fazilatlari haqida gapiradi. Shuning uchun "To`hfai do`ston" ning kirish qismi yuksak tarbiyaviy va axloqiy ahamiyatga ega.

Masnaviyning ichki tizilmasida asarning kirish qismi juda muhim rol o'ynaydi. Asar kirish qismining hajman kattaligiga qaramay, Shoир tomonidan mazmun va g'oyalarni bayon qilish darajasi, masalalarning qo'yilishi va muhokama etilish miqyosi ham kengdir. Ta'kidlanganidek, asarning umumiy tuzilishi haqida batafsil gapirish qiyin, chunki uning faqat birinchi bobni saqlanib qolgan. Ushbu bob "Dar

adlu insof va tadbiri jahondori” (Aldu insof va jahondorlik tadbiri haqida) deb nomlangan. Ushbu bobning sarlavhasidan ko‘rinib turibdiki, Shohin uniadolat, davlatchilik va mang‘itlar sulolasining boshqaruvini isloh qilish mavzulariga bag‘ishlamoqchi bo`lgan, shu asosda u davlat arboblarining qing‘ir-qiyshiq amalari va noto‘g‘ri yo`lda ekanligini tanqid qilgan va fosh qilmoqchi bo`lgan. Shoир bobning boshida shohning fe'l-atvori va harakatlari haqida gapiradi, davlat mulkining tolon - taroj bo`lishi va taxtning emirilishi omilini amirlarning takabburligi va mag‘rurligida deb biladi. Keyingi baytlarda Shoир bu haqda gapiradi:

*Maoroy zohir ba libosi harir,
Bipardoz az hashvu g‘aflat zamir!
Mashav g‘arra bo mulk, k-on az Xudost,
Juz o` quadrati mulkdori kirost?
Agar toji zarrin guzori zi farq,
Turo az gadoi mahallat chi farq? [9;526-527]*

Mazmuni; zohir va zohirparastlikka e’tibor qaratma, qalbingni hashv va g‘aflatdan pok et, mulkingla mag‘rur bo`lma, u Xudodan, Xudodan boshqa hej kimda mulkdorlik quadrati mayjud emas, agar boshingdagagi tojni olib qo`ysalar, sening mahallangdagagi gadoydan farging qolmaydi.

Baytlarning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, Shoир egallab turgan dunyo shohligi faqat Xudoga tegishliligi, shohning oddiy odamlardan faqat bitta oltin tojda farq qilishi va agar toj olib qo`yilsa shoh va gado o`rtasida farq yo`qolishi pand va nasihat tariqasida aytildi. Bu orqali davr amaldorlariga xos bo`lgan takabburlik illati tanqid qilgandan so‘ng, yanada o‘z fikrini isbotlash uchun bir hikoyat keltiradi.

*Shunidam yake xoni fir‘avn did,
Furo` mond, k-on farru on avn did.
Furo` shud ba hayrat, ki in nosipos,
Chi dorad chunin ne‘mate beqiyos? [9;527]*

Hikoya baytlarining mazmunidan, Shoир qadimgi Misr zolim podshohi uyi, mulki va hashamatini tasvirlab bergen. Ushbu hikoya davomida Shoир o‘z mavqeい va taxi bilan faxrlanib, Xudoga shak keltirish gunohligini eslatadi va shu bilan birga fir‘avn singariadolatsiz va johil podshohlarning taqdiri oqibatlarini misol keltirdi:

*Vale, dar azal raft qismat bar on,
Ki in bandaro do`zax ast oshyon. [9;527]*

Shohin, shohlikning amallari va boyligini Xudo o‘z xizmatchisiga sinov sifatida beradi va natijada johil va kamtar odamlar bu sharaf va kuchdan mahrum bo`ladi degan fikrda. Demak Shohin ham o‘z zamonning ziyoli kishisi va ma’rifatparvarlar qatorida fikr va mulohazalarini isbotlash uchun “Qur’oni karim” oyatlari va hadislarga tayanadi. Sho`rolar davrida yaratilgan tadqiqotlar ideologiyasiga zid ravishda, dinni e’tirof etadi, asl shariat qonunlarini qo’llab quvvatlaydi va ular bilan himoyalanadi.

*Az on dodash in qadru in iqtidor,
Ki gardad sirishti bodash oshkor.
Baso kas, ki doroi in barzax ast,
Chu bigzasht, hezumkashi do`zax ast.
Bishav xok varna ba bode xushat,
Barand az rahi ob dar otashat. [9;528]*

Hikoyaning oxirida Shoир mag‘rur va takabbur shohlarniadolat va kamtarlikka chaqirgani aniq fakt. Shoирning bunday nasihatlari u yashab ijod etgan davrda favqulodda muhim va dolzarb bo`lgan va bu dono fikrlarning barchasi Shoир tomonidan bevosita o‘z davrining tajribasiz va johil amirlariga yo‘naltirilgan. CHunki mang‘it amirlari, shu qatorda Amir Muzaffar va Amir Abdullah hukmronligi davrida Buxoro amirligi aholisining turmush tarzi, ijtimoiy ahvoli va yashash sharoiti buadolatsiz va shafqatsiz amirlarning qo‘lida nechog‘lik qiyin bo`lganligi tarixiy bitiklarda isbotlangan. Odillik va insonparvarlik tamoyillariga moyil bo`lgan Shoир Buxoro aholisining xo‘rлиgi va zulmiga chidab turaolmasdi va amaldorlarga nafratini shikoyat ohangida bildirdi:

*Kafi xushki eshon, k-az on narext,
V-agar rext, juz xuni mardum narext. [9;529]*

Ushbu baytda Shoир o‘z davrining amirlariga murojaat qiladi va ularning shafqatsizligi va qon to‘kishlarini jasorat bilan ochib beradi. Fikrlari davomida u amirning yovuzliklarini birma-bir fosh qiladi va nafrat va adovat tuyg‘ularini ularga qarata sochadi:

*Dareg‘o, ki in ablalon behisand,
Tavongar ba zar, dar hunar muflisand.
Buyad korashon ganj anboshtan,*

Dar on moh asal ranj bardoshtan. [9;533]

Shoirning bu tariqa ochiqchasiga bayon etilgan so‘zлari asli haqiqatdir. Darhaqiqat, tarix bunday johil va ochko‘z hukmdorlar amallaridan guvohlik beradi. Buxoro amirligining tanazzulga uchrashiga davlat amaldorlarining johilligi va axloqsizligi ham sabab bo‘lgan. Ilm va adabiyotdan bexbar, zavqu lazzat va nafsga moyil bo‘lgan amir va davlat amaldorlari atroflariga barcha johil va ilmsiz odamlarni jalb qildilar. Ilm-fan va adabiyotning qiymati asta-sekin pasayib borardi. Amaldorlar ularga behisob azob-uqubat va tuhmat ko‘rsatdilar. Masalan, quyidagi misralarda Shoir bu holatni afsus bilan ta’kidlaydi:

*Kulahdorro zeri jul dar kashand,
Namatpo shro xil’ati zar kashand.
Xarero ba minbar xitobat dihand,
Ba xuni Maseho xitobat dihand.
Nadonad z-ablahi xiradmand kist?
Kadom ast chu na va yo qand chist?
Chu donishvare sho ‘la dar fan girift,
Charog i hunar zeri doman girift. [9;534]*

Shohin o‘z davrining amirlariniadolatli va dono shohlar hayotidan misollar keltirish va ularning o‘ukumatdagani amallarini qiyosiy tahlil qilish orqali fosh etadi:

*Hamin ast rasmi jahon xusravon,
Ki dono sitoyandy dushmaniton.
Xilofi amironi in marzu bum,
Humoro nadonad farqe zi bum. [9;535]*

Shamsiddin Shohin ham Ahmadiy Donishning izdoshi sifatida ma’rifiy g‘oyalari bilan ma’rifatparvarlik adabiy jarayoniga ulkan hissa qo‘shgan. Ushbu adabiy maktabdan u o‘zining ta’limiy g‘oyalaring manbasini kuchaytirdi va "To`hfai do`ston" tipidagi yangiyaa g‘oyalarga boy bo‘lgan, masnaviy janrining yangi mazmun kasb etishida, yangi davr adabiyoti uchun birnchi ulkan qadam hisoblangan qimmatli asar yaratdi. Shuni ta’kidlash kerakki, mazmun va mundarijaviy g‘oyasi bilan davr adabiyotida alohida o‘rin ttgan "To`hfai do`ston" masnavisi Shoir siyosi, ijtimoiy, tanqidiy qarashlarini o‘zida mujassam etishdan tashqari, Shoirning boshqa bir asari, muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan "Badoe'-us-sanoe" asariga o‘xshashdir. Har holda mazkur masnaviy Shoirning ijodiy maydonida alohida maqomga ega. Bu asar aslida ijodkorning ijodiy pozitsiyasini aniqlashtirish uchun qimmatlidir va unda mumtoz va ma’rifatparvarlik adabiyotining uyg‘unligi va ma’naviy aloqasini kuzatishimiz mumkin. Zero bu asar orqali keyinchalik jadid adabiyotida masnaviy janrida yangi mazmundagi asarlar yozish an’analari rivojlandi.

Adabiyotlar

1. Adashev M. Chand mulohiza doir ba tanosubi shaklu mazmun dar adabiyoti maorifparvarii tojik. //Mas’alai filologiyai tojik. Maqola va guzorishoti ilmi.– Samarqand, SamDU, 1997. – S. 83 –100.
2. Adabiy turlar va janrlar. (Tarixi va nazariyasiga oid.) 3 jiddlik, 1 jild. Epika. Mas’ul muharrirlar: filologiya fanlari doktorlari E.Karimov, B.Sarimsoqov. – Toshkent: Fan, 1991. – 247 b.
3. Ayni S. Namunai adabiyoti tojik. – Dushanbe: Adib. – 2010, – 656 s.
4. Dodoboev M. Masnavii «Timsol» va mavqei on dar ejodiyoti Toshxoja Asirii Xo‘jandi. //Mas’alai filologiyai tojik. Maqola va guzorishoti ilmi. – Samarqand: SamDU, 1997. – S. 119– 127 .
5. Musulmoniyon R. Nazariyai adabiyot. – Dushanbe: Maorif, 1990. – 334 s.
6. Hodizoda R. Adabiyoti tojik dar nimai duvvumi asri XIX. – Dushanbe: Donish, 1968. – 294 s.
7. Hodizoda R. Karimov U. Sa’diev S. Adabiyoti tojik. Asrhoi XU1 – XIX va ibtidoi asri XX. – Dushanbe: Maorif, 1988. – 416 s.
8. Shohin. Ash’ori muntaxab. – Stalinobod: Nashriyoti Davlatii Tojikiston, 1960. – 366 s.
9. Shohin. Kulliyot. –Dushanbe: Adib, 2006. 637 sah.
10. Amirqulov S. Nigohe ba inkishofi tarixi adabiyoti tojik dar Movarounnahr (qarni XIX). – Dushanbe: Irfon, 2010. - 230 s.

UDK: 371

TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH USULLARI

Aripov M.M., Tillayev A.I.
O'zbekiston milliy universiteti

Annotasiya. Ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash usullari olib beriladi, jumladan: ta'limga boshqarish tizimi (LMS), ijtimoiy media, bulutli texnologiyalar, mobil ta'lim, smart-darslik, ommaviy ochiq onlayn kurslar (OOOK-MOOC).

Kalit so'zlar: ijtimoiy media, bulutli texnologiyalar, mobil ta'lim, smart-darslik, ommaviy ochiq onlayn kurslar.

Способы использования современных информационных технологий в образовании

Аннотация. Рассматриваются современные информационные технологии в образовании: система управления обучением (LMS), социальные медиа, облачные технологии, мобильное обучение, смарт-учебник, массовые открытые онлайн-курсы (MOOC).

Ключевые слова: социальные сети, облачные технологии, мобильное образование, умные учебники, публичные открытые онлайн-курсы.

Ways to use modern information technologies in education

Abstract. Modern information technologies in education are considered: learning management system (LMS), social media, cloud technologies, mobile learning, smart textbook, massive open online course (MOOC).

Keywords: social media, cloud technologies, mobile education, smart textbooks, massive open online courses.

Kirish

Zamonaviy axborot texnologiyalari iqtisodiyot, fan-texnika va ijtimoiy hayotning barcha yo'naliishlari singari ta'limga sohasiga ham jadal sur'atlar bilan kirib borishi ta'limga tizimida, xususan, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, o'quv-uslubiy ta'minotini rivojlantirish, mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish borasida bir qator o'zgarish va islohotlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Kundalik o'quv amaliyotiga AKTni joriy etishning yangi tendensiyalari va strategiyalari – bu ta'limga tizimini modernizasiya qilishning zaruriy shartidir.

Bugungi kunda AKT ta'limga muhitining tobora kuchayib borayotgan globallashuvining muvofiqlashtiruvchi va harakatlantiruvchi kuchidir. Raqamli texnologiyalar va ularning qator imkoniyatlari an'anaviy ta'limga texnologiyalariga qaraganda ta'limga va o'qitish sifatini oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarni yaratadi. Raqamli o'quv materiallari an'anaviy materiallardan ularni boshqarish va foydalanish imkoniyatlari bilan farq qiladi.

Zamonaviy AKT qator qulayliklari bilan ta'limga samaradorligini oshiradi. Jumladan, internet o'quv materiallarni keng va arzon tarqatish uchun qulay vositasidir. Internet o'zaro ta'sir o'tkazish vositasiga aylanganligi sababli uning o'qitish va o'rgatish imkoniyatlari oshdi. Eng muhimmi, ta'limga barcha bosqichlarida AKTni joriy etishga ta'sir ko'rsatadigan imkoniyatlarni paydo bo'ldi.

Ta'limga jarayonida kompyuter va axborot texnologiyalaridan mukammal foydalanish uchun asosiy e'tibor eng avvalo o'qituvchi va talabaga zarur bo'lgan sharoitni yaratishga va AKTni o'quv jarayonlarida samarali qo'llashiga qaratilishi lozim. Respublikamizda o'quv jarayoniga AKTni joriy etish bo'yicha talabalar uchun tegishli vositalardan foydalanish bo'yicha mos me'yor va standartlar ishlab chiqilib bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism

Ta'limga jarayonini boshqaruvchi tizimlar (LMS- Learning management system). Eng ommabop LMS tizimlari (Moodle, Blackboard, Claroline, Sakai va boshq.) o'quv materiallari va kurslarning konsentratsiyasini ta'minlaydi, shuningdek kurslarni boshqarish, ro'yxatdan o'tish, kurslarni rejalashtirish, munozara forumlari, blog saytlari va baholarni qamrab oladi. LMS-ning asosiy xususiyati, bu - tanlangan kurslarga foydalanuvchi boshqariladigan parollar bilan kirib uning resurslaridan bemalol foydalanish mumkin. LMS talaba qanday materiallardan foydalanishi va ularga qancha vaqt sarflashini hisobga oladi. Bu talabalar faoliyati to'g'risida LMSga ma'lumot to'plash uchun o'quv faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. LMS ro'yxatga olishni hisobga olish tizimlari talabalar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, masalan, ro'yxatdan o'tish ma'lumotlari, kursni tanlash, kurs rejasi, malaka

maqsadlari, mashg‘ulot vaqtini va ma'lumotni kuzatish. LMSlar, shuningdek, o'qitish, manbalar va materiallar uchun ma'lumotlar ombori sifatida ishlataladi. Masalan, kursni ishlab chiquvchisi tijorat materiallari yoki aksincha, erkin mavjud bo'lgan ochiq ta'lrim manbalarini taqdim etishi mumkin. Materiallar turli xil formatlarda - oddiy matndan interfaol multimediya qadar taqdim etilishi mumkin.

LMS aloqa vositalarining uchta asosiy turini ajratib ko'rsatish mumkin: elektron pochta, forumlar/veb-forumlar va chat(onlayn suxbat)lar. Ulardan talabalar tomonidan tayyorlangan uy vazifalari yoki o'rganadigan materiallarni almashish uchun ham foydalanish mumkin. Shuningdek bloglar yoki vikilar orqali yuklash mexanizmlari sifatida boshqa veb-manbalarga, masalan, elektron kutubxonalarga murojaat ko'rinishda manbalar dan foydalanish mumkin.

Masalan, Moodle – veb muhitida o'qitish va onlayn rejimdag i darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Tizimda mavjud o'qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work , Student tracking va shu kabi boshqa modullari mavjud. Boshqa LMSlar singari IMS, SCORM va boshqa standartlarni qo'llab quvvatlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadi, boshqa LMS tizimlarga qaraganda eng ko'p qo'shimcha pligin va modullari mavjud bo'lgan dasturiy majmua aynan, Moodle tizimi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida dunyoning ko'p davlatlarining o'quv muassasalarida masofaviy ta'limgarayonini aynan Moodle tizimidan foydalangan holda tashkillashtirilmoqda. O'zbekistondagi ko'plab ta'limgarayonini aynan Moodle tizimi foydalani bilan kelinmoqda.

Ijtimoiy media. Ijtimoiy media insonlarga AKTdan foydalangan holda muloqot qilish imkoniyatini beradi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy media ijtimoiy munosabatlarning o'zaro aloqa vositasidir.

Turli mamlakatlarda ijtimoiy tarmoqlarning ta'limgarayonini ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, xususiy, elita, individual ta'limgarayonini ahamiyoti tobora kengayib bormoqda, bu an'anaviy ta'limgarayonini pasayishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy media yoshlarga umumiylar manfaatlarga asoslangan (masalan, sport yoki ijod, tarmoqdagi kollektiv ma'rifiy faoliyat, bilim almashish) tengdoshlari bilan ko'plab aloqalarni o'rnatish imkoniyatini beradi.

Virtual mavjud bo'lish imkoniyatini yaratadigan tizimlarning paydo bo'lishi natijasida ijtimoiy media tez tarqalishni boshladidi. "Virtual mavjudlik" atamasi yuzma-yuz muloqotni o'rnini bosadigan media aloqa kanallaridan foydalananidan kishilarning vositachilik o'zaro ta'sirini anglatadi (masalan, Telegram, Twitter, Facebook tarmoq platformalari, videokonferensiyalar va boshqalar). Shu nuqtai nazardan, Veb 2.0 - bu ijtimoiy klasterlash, bulutli texnologiyalar va nihoyat tarmoq hamjamiyati kabi yangi ijtimoiy hodisalar uchun platformadir.

Ijtimoiy media uzoq masofadagi foydaluvchilarning ijtimoiy o'zaro aloqa ta'sirini kuchaytirib, ularga keng miqyosda, katta ta'sir doirasida xizmat ko'rsatdi. An'anaviy ta'limgarayonini bilan birga yoki imkoniyat bo'lmaganda ijtimoiy yo'naltirilgan ushbu tendensiylar ta'limgarayonini kafolatlaydi va kuchaytiradi.

O'quv jarayonida yangi axborot vositalaridan foydalanan shuning eng mashhur usuli - bu o'quv rejasiga va dasturida ko'zda tutilgan ko'nikmalar ro'yxatiga eng yaqin bog'liq bo'lgan kompetensiyalarni kiritishdir. "Media ta'limgarayon" konsepsiysi allaqachon ishlab chiqilgan bo'lib, u talabalar uchun global media makoniga, tarmoq etikasi va axborot xavfsizligiga kirish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini beradi. Shunday qilib, yoshlarni ijtimoiy axborot vositalaridan to'g'ri foydalanan qoidalari xaqida ko'proq xabardor qilish va ta'limgarayonida ijodiy salohiyatni qo'llab-quvvatlash uchun muntazam ravishda yo'l-yo'riq berib borish zarur.

Ijtimoiy media talabalarga berkitilgan mavzu haqida tanqidiy fikr yuritishga va fikr bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy tarmoqlardagi munozaralar talabalarga hodisalarni tushunish va tasavvurlarini namoyish etish imkoniyatini beradi. Natijada, keyingi avlod ma'lum bir mavzuni egallash imkoniyati ancha yaxshi bo'ladi va talabalar uni ishlab chiqishda ko'proq ishtiroy etishadi.

Shu bilan birga, ta'limgarayonida ijtimoiy tarmoqlar bir-biriga mos kelmaydi. Ammo tajriba shuni ko'rsatadi, ijtimoiy media o'quv yurtidan tashqarida o'qish imkoniyatlarini kengaytiradi, talabalarning birgalikdagi ishini, qiziquvchanligi va muloqotini rag'batlantiradi.

Garchi ta'limgarayonida ijtimoiy media hali ham an'anaviy ta'limgarayonini hal qilishning to'liq vositasi bo'lmadasa, ammo ular ta'limgarayonini amaliyotida o'zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratmoqda. Masalan, butun kasbiy faoliyat davomida umr bo'yi o'rganish sharoitida ular mutaxassislarini amaliy yechimlar, yangi kasb yo'naliishlari va mavzulari bilan tanishtirish jarayonini soddalashtiradi.

Bulutli (Cloud) texnologiyalar. Bugungi dunyoda, ta'limgarayonida ijtimoiy media o'qituvchilar uchun turli xizmatlari ko'payib bormoqda.

Turli xil kompyuter uskunalarini va dasturiy ta'minotni sotib olish va ularga xizmat ko'rsatish doimo katta moliyaviy mablag'lar va malakali mutaxassislarini jalg qilishni talab qiladi, shuning uchun ta'lim muassasalarini bulutli texnologiyalar xizmatlaridan tobora ko'proq yoki oz haq evaziga foydalanmoqdalar. Ko'pincha bunday xizmatlar ta'lim muassasasida joylashtirilishidan yoki hamrohlikda foydalanishdan ko'ra qulayroq va ishonchli.

Ba'zi foydalanuvchilar noto'g'ri fikrda - bulutli texnologiyalar internet orqali taqdim etiladigan har qanday xizmatni o'z tashkilotida rivojlanmagan yoki imkoniyat yo'q deb hisoblashadi. Shuningdek, ko'pincha, "Veb 2.0" atamasi "bulutli texnologiyalar" atamasi bilan adashtirishadi. Veb 2.0 bu ma'lum bir dasturiy ta'minot turi, bulutli texnologiyalar esa ma'lumotlarni saqlash va dasturiy ta'minotni oxirgi foydalanuvchiga yetkazish usulidir.

Bulutli texnologiyalar quyidagi imkoniyat va xususiyatlarga ega:

- Masofaviy ma'lumotlar markazlari. Bulutli xizmatlar internet orqali barcha foydalanuvchilarga va ular a'zo bo'lgan tashkilotdan uzoq bo'lgan yuqori texnologiyali ma'lumotlar markazlaridan taqdim etiladi;
- Qo'shma manbalar. Axborotlarni saqlash moslamalari, prosessorlar, RAM va tarmoq o'tkazish qobiliyati kabi resurslar barcha foydalanuvchilar o'rtaida taqsimlanadi;
- "egiluvchanlik" - "cheksiz" kengayish. Tizimga kirish so'rovlarning kutilmagan "chegarasi" bo'lsa ham, foydalanuvchi resurslarini cheksiz ravishda oshirish mumkin. Agar ta'lim muassasasi to'satdan katta xajmdagi axborotlar bilan ishslash yoki hisoblash yukini ko'paytirishi kerak bo'lsa, keyinchalik foydalanimaydigan qo'shimcha jihozzlarni sotib olish shart bo'lmaydi.

Mobil ta'lim. Mobil aloqa xizmatlarining keng rivojlanishi va ommalashganligi sababli, mobil ta'lim usuli bugungi kunda aloqa va hamkorlikning yangi vositalarini taqdim etadi. Biroq, bu ma'lum moliyaviy sarmoya va soha o'qituvchilarda ma'lum ko'nikmalarni shakillantirishni talab qiladi. Shu sababli, mobil ta'limni rivojlantirish uchun bir qator vazifalarni bajarish lozim, xususan:

- Noan'anaviy, norasmiy yoki kundalik sharoitda ta'limning ahamiyatini tan olish, talabalarni mobil o'quv vositalaridan foydalangan holda mustaqil amalga oshirishga intilish;
- Geografik tarqoq xolda va uzoqda yashaydigan ehtiyojmand talabalarga bilim va tajriba almashish uchun mobil texnologiyalar bilan ta'minlash;
- Ta'lim muassasalarini bilan birgalikda mobil o'qitishning ma'muriy va huquqiy standartlarini yaratish;
- O'qituvchilarning malakasini oshirish, shaxsiy mobil qurilmalardan foydalangan holda doimiy ravishda o'qitadigan o'qituvchilarni rag'batlanirish, ularining o'qitish usullarini takomillashtirish;
- Telekommunikasiya kompaniyalari bilan mobil o'qitish uchun internetga mobil ularish narxini pasaytirish imkoniyatlarini muhokama qilish.

Bu yerda muhim jihat bu o'quv resurslarining bazasini oshirish va rivojlantirishdir. Ta'lim sohasida "foydalanish imkoniyati" tushunchasini talabalarga va ta'lim manbalariga nisbatan izohlash mumkin. Ushbu sohada standartlarni ishlab chiqish 1990 yillarning oxirida boshlangan. Global Ta'lim Konsorsium (IMS GLS). Bu bo'yicha xalqaro standartlar "Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Organization for Standardization – ISO)" tomonidan 2008 yilda tasdiqlangan.

Foydalanish standartlari konsepsiysi talabalarning xohishlariga mos keladigan manbalar metama'lumotlariga bo'lgan ehtiyojni tan olishga asoslangan. Masalan, manbalar meta-ma'lumotlarida talabalarni media-manbaning muayyan turini tanlashlari uchun alternativ audio va matn formatlariga ishora qilishlari mumkin. Keyin o'quv platformasi ma'lum bir foydalanuvchi uchun tegishli turdag'i manbani yetkazib berish uchun mediaresurslar va talabalarning imtiyozlarini tahlil qiladi. Ushbu turdag'i o'qitish maxsus ehtiyojlari bo'lgan talabalar uchun foydalidir. Innovasion ta'lim platformasining eng muhim xususiyati o'qituvchilar va talabalar uchun turli xil qurilmalar va o'quv muhitini qo'llab-quvvatlash bo'lgani sababli, foydalanish platformasi xususiyatlariga qarab, muammolarni hal qilish kerak.

Smart(smart-aqli) darsliklar. Hozirgi talabalar ta'limning an'anaviy modelini yaxshi qabul qilmaydilar. Shu munosabat bilan mobillikka, amaliyotga yo'naltirilganlikka, kontentning o'zini to'ldiruvchanligiga, kontentni taqrizlashga ega bo'lgan ta'lim modelini ishlab chiqish zarur. Bunday masalani smart-ta'lim konsepsiysi hal qilishga qodir.

Zamonaviy smart-jamiyat va uning "umr bo'yil ta'lim olish" yondashuvi "tinglovchiga qulay joyda ta'lim" tamoyili bo'yicha hamma joyda o'qitish zarurligini, ya'ni yangi konsepsiyaning muhim tamoyili kontent iste'molining mobilligi bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Mayjud kitob yoki darsliklar bu vazifani bajara olmaydi, chunki ularni sotib olish vaqtidayoq eskirib bo'lgan kontentni taqdim qiladi. SCORM (bu masofaviy o'qitish tizimlari uchun ishlab chiqilgan texnik xususiyatlar va standartlar to'plami. O'quv materialini tashkil etishga va butun masofadan o'qitish tizimiga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi) standarti bo'yicha tayyorlangan elektron kurslarni ham eskirgan deb hisoblash mumkin, chunki ular tinglovchini internetga doimiy ulangan stasionar kompyuterga bog'lab qo'yadi, bu esa, hozirgi hayotning

jadal sur'atlari va yuqori mobilligida juda noqulay. Shu munosabat bilan o'quv kontentini tarqatishda ijtimoiy tarmoqlar alohida o'ringa ega bo'lib, bu esa, smart-darslik bilan ijtimoiy medianing integratsiyalashuvini ta'minlash zaruratinini keltirib chiqaradi.

Smart-darsliklar smart-o'quv jarayoni uchun asos bo'lishi, qog'oz darslikning afzalliklarini, elektron kurslarning (birinchi galda SCORM ning) texnik imkoniyatlarini o'ziga qamrab olishi hamda shu yuqorida aytiganlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo'lishi lozim.

Bunday darsliklar - barchasi bitta ilovada joylashgan matnlar, rasmlar, audio, video, rasm elementlarining kombinasiyasi. Bundan tashqari, ko'plab aqli media (smart media) foydalanuvchilari ijtimoiy tarmoqlar xizmatlaridan, Internet-ofis dasturlaridan, masalan Google docs-hujjatlari va mobil qurilmalar yordamida elektron pochtalarni tekshirishadi. Ko'pgina aloqa va kompyuter qurilmalari bilan foydalanuvchilar xizmatlardan doimiy ravishda foydalanishni afzal ko'rishadi.

Bugungi kunda ta'limgan asosiy tendensiysi shundan iboratki, AKTdan foydalanishning eng muhim potensial afzalliklari bu qulaylik va samaradorlik, ya'ni vaqtini tejashdir. Shu sababli o'quv platformalarida o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan resurslardan integratsiyalashgan holda foydalanish talabalar uchun ayniqsa muhimdir.

Bu ko'rinishdagi vositalardan foydalanish orqali, kitob va bosma materiallardan butunlay voz kechilmaydi, balki ularning o'rmini to'ldirib, talabalar uchun xarajatlarni qisqartirish maqsadida qog'oz darsliklarni raqamli analoglarga almashtirish orqali bulutli hisoblash muhitiga joylashtirilgan holda ularni ishlab chiqarishni sezilarli darajada optimallashtirish mumkin.

Ommaviy ochiq onlaysiz kurslar. So'nggi ikki yil ichida ommaviy ochiq onlaysiz kurslarning ommaviyligi ortishi ta'limgan olamida yangi inqilobni boshlandi va tez orada butunlay o'zgaradi degan fikrlarni keltirib chiqardi. Darhaqiqat, texnologiyalarning rivojlanishi natijasida uch yil oldin muhokama qilinmagan yangi ta'limgan imkoniyatlari paydo bo'ldi, ammo hozir ular rivojlanishning dastlabki bosqichida. Ko'p savollar, muammolar, shuningdek, kam o'rganilgan sohalar mavjud.

Ommaviy ochiq onlaysiz kurslar (OOOK-MOOC(Massive open online course)) - bu internetda ommaviylashtirilgan masofaviy o'qitish shaklidir. Bu ochiq kurslarning qulayligi, ulardan foydalanish uchun pul to'lashning shart emas. Bu ommaviy ochiq kurslar bo'lib, unda xohlagan kishi ro'yxatdan o'tib, uning resurslaridan foydalanishi mumkin. Ushbu tizimlar puxta o'yangan dastur, oraliq topshiriqlar, testlar va yakuniy sertifikatlash bilan tashkil etilgan kurslardan tarkib topgan. Kurslarda odatda ta'limgan olish muddatlari ko'rsatiladi.

Ommaviy ochiq onlaysiz kurslarga misol qilib Khan Academy, Coursera, EdX, Udacity larni keltirish mumkin. Odatda OOOKlarning pullik o'qitish shakllaridan, shuningdek vaqt bilan cheklanmaydigan bepul va masofaviy o'qitish shakllaridan foydalanish mumkin.

Birinchi navbatda matematika, informatika va dasturlash bo'yicha birinchi kurslar paydo bo'la boshladi va ular eng ko'p sonli hisoblanadi. Biroq, xozirgi kunda kurslar soni sezilarli darajada kengaydi.

Muayyan kursni o'rganish uchun saytdan ro'yxatdan o'tish va unga obuna bo'lish kerak. Kurs tugagandan so'ng, u arxiv shaklida saytda qoladi. Arxiv - bu barcha materiallardan keyinchalik ham foydalanish mumkinligini anglatadi, ammo vazifalar endi baholanmaydi va sertifikatlash mavjud emas. Kurs odatda haftalik asosda quriladi. Har hafta yangi video-ma'ruzalar va ularga tegishli viktorina-testlar, topshiriqlar paydo bo'ldi, ular belgilangan muddatda yakunlanishi kerak. Sozlamalar o'qituvchiga bog'liq. Odatda, har bir sinov bir necha marta o'tkazilishi mumkin, chunki sertifikatlash paytida hisobga olinadigan yakuniy natija (avtomatik tekshirish)da maksimal natijaga erishish mumkin. Vazifalar har safar tasodifiy ravishda tuziladi, shuning uchun istisno usuli yordamida to'g'ri javobni aniqlash deyarli mumkin emas.

Haftalik bilimlarni tekshirish (va mustahkamlash) uchun testlardan tashqari, o'qituvchilar vaqtiga vaqt bilan olgan bilimlarini qo'llash uchun amaliy topshiriqlar yoki mini-loyihalar taklif qilinishi mumkin. Shuningdek, tizimda kursdagi tengdoshlarini, boshqa tinglovchilarni baholash qoidasi ham qo'llaniladi. Bu shuni anglatadiki, har bir ishtiroychi barcha ish tugagandan so'ng boshqa ishtiroychilarning ishlarning ma'lum bir sonini (4, 5) tekshirishlari va ularni belgilangan parametrlar bo'yicha baholashlari mumkin.

Har bir kursda muloqot uchun - forum bo'limi bo'lishi mumkin, unda tinglovchi-ishtiroychilar tanishishlari, kurs haqida savollar berishlari va boshqa talabalar va o'qituvchilar tomonidan javob olishlari mumkin. Shu tarzda, o'ziga xos o'quv guruhi tuziladi.

OOOK platformasining inqilobi g'oyasi shundan iboratki, yuqori sifatli oliy ta'limgan bepul va ommaviy bo'ldi. Ko'p OOOK ingliz tilida tuzilganligini hisobga olsak, to'siqlardan biri til to'sig'i ekanligi aniq. Bundan tashqari, bunday kurslarda ishtiroy etish uchun kompyuter, internetga ularish va yetarli internet savodxonligi talab etiladi.

OOOKlarning yana bir e'tiborli jihatni, ya'ni ko'rsatkichi bu kursni bitirgan talabalar soni. O'rtacha hisobda, taxminan 50000-100000 kishi OOOGa yozilgan bo'lsa, ularning 10 foizga yaqini oxiriga yetib,

yakunlaydi. Kurs yakuniga yetkanlarning soni kursning tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, agar kurs ishning avtomatik bahosiga tayanadigan bo‘lsa, kurs tinglovchilarining o‘zaro asosida baholanish (foydaluvchilar bir-birlarini baholaydilar) kurs baholangandan ko‘ra ko‘proq talabalar o‘z maqsadlariga erishadilar. Kursni tugatish uchun yana qo‘srimcha motivasiya - bu bitiruv sertifikatini olish umididir.

Ba’zi OOOK platformalarda bitiruv sertifikatini olishda turli xil yondashuvlar mavjud. Ko‘pgina OOOK platformalari sertifikatlar uchun ma'lum miqdorda to‘lovlarni oladilar, ya’ni mashg‘ulotlar bepul o‘tkaziladi, yakuniy sertifikatlash ham bepul, ammo sizga to‘liq umumiy kurs vaqtini ko‘rsatilganini tasdiqlovchi original sertifikat kerak bo‘lsa, unda siz to‘lashningiz kerak bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Ko‘rib chiqilgan zamonaviy yondashuvlar ta’limning turli sohalarida yangi axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlariga mos keladi. Bu yangi AKT shakllanishidagi yutuqlarning natijasi bo‘lgan yangi, alternativ ta’lim texnologiyalaridir. Raqamli asrda ta’lim olishning muqobil modellarini tahlil qilish ta’lim shakllari qanday o‘zgarayotganligini va buning uchun qanday yangi manbalar kerakligini ko‘rsatmoqda (o‘quv platformalari, mobil ta’lim va ta’lim uchun bulutli texnologiyalar, ijtimoiy media).

AKTdan foydalinish bo‘yicha zarur amaliy ko‘nikmalar “Xalqaro ta’lim axborot texnologiyalari jamiyati (ISTE)” tomonidan belgilab berilgan. Bugungi bilim oluvchi talabalar o‘zgarganligini hisobga olish muhim, ammo ta’lim amaliyoti o‘zgargani yo‘q.

Bularning barchasi o‘qituvchilarning yangi vakolatlarini, yoshlarni ijtimoiylashtirish usullarini, o‘quv jarayonini boshqarishning zamonaviy vositalardan foydalangan holda o‘qitishni yangi ko‘rinishda tashkil qilishni, AKTdan foydalinishga asoslangan o‘quv dasturlari va baholash usullarini shakllantirishga yangicha yondashuvlarni belgilaydi.

Ayniqsa xozirgi kunda pandemiya sharoitida vujudga kelgan ta’limning barcha bosqichlaridagi muammolarni hal qilishda ham yuqorida ko‘rilgan o‘qitish usullari va vositalardan unumli foydalinish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. M. Aripov, A.Tillaev. Oliy o‘quv yurtlarida informatika va axborot texnologiyalari fanini veb-texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi. O‘zMU Xabarlari. Toshkent. 2010. №3. 29-32 b.
2. A.Tillaev, S.Sheraliev, H.Mavlyanov. Animasion dasturlarning vazifalari va imkoniyatlari. “Fizika, matematika va informatika” ilmiy-uslubiy journal № 2/2011. Toshkent, 2011 y. 83-89 b.
3. A.I. Tillaev, Videoma’ruzalarini tayyorlash va ular asosida dars jarayonini tashkil qilishning umumiy qoidalari, O‘zMU Xabarlari. Toshkent. 2013. 165-167 b.
4. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. Toshkent. O‘zR FA “Fan” 2011 y. 208 b. // Sharipov Sh.S., Aripov M.M., U.Sh.Begimqulov, A.I. Tillaev va boshq.)
5. A.I. Tillaev Multimediali elektron darslik orqali web-sahifalar yaratishni o‘rgatish va undan foydalinish. “Amaliy matematika va informacion texnologiyalarning dolzarb muammolari – Al-Xorazmiy 2014” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislari to‘plami. Samarkand. 2014 y. 144-145 b.
6. Информационные и коммуникационные технологии в образовании / под ред. Д. Бадарча. М.: ИИТО ЮНЕСКО, 2013. 320 с.
7. Абламейко С. В., Воротницкий Ю. И., Листопад Н. И. «Облачные» технологии в образовании // Электроника. 2013. № 9. С.30–34.
8. О.В. Зимина. Печатные и электронные учебные издания в современном высшем образовании: Теория, методика, практика. М.: Изд-во МЭИ, 2003.
9. Tillaev A.I. Creation and use of the pedagogical software with the use of information technologies. Abstracts of the International conference "Modern problems of applied mathematics and information technologies - al-Khorezmi 2018", 2018. Tashkent, p. 208.
- 10.F.Zakirova, V.Karimova, “Elektron ta’lim muhitini rivojlantirish” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. 2019 y. 77 b.
- 11.A.I.Tillaev. Improving the teaching of "Information Technology" in higher education on the basis of multimedia technologies. JCR. 2020; 7(11): 1488-1491. doi:10.31838/jcr.07.11.244.
- 12.A.I.Tillaev. General rules for creating electronic textbooks on the topic of information technology. JCR. 2020; 7(11): 1492-1495. doi:10.31838/jcr.07.11.245.

UDK: 372. 851

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING
XUSUSIYATLARI**

K. Suvonova

*Samarqand viloyat xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy
markazi*

kamola.suvanoma@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik yoshdagi o'quvchilarining tafakkurini boyitish orqali ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalari yoritib berilgan. Shuningdek, tasviriy san'at predmetining bugungi kundagi dolzarb vazifalari, ta'lim-tarbiyaning muhim bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at bo'yicha borliqni idrok etish mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Muallif ijodiy rivojlanish jarayonlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan keng ohib berishda bola psixologiyasi hamda pedagogik innovatsiyalarga alohida e'tibor qaratgan.

Kalit so'zlar: idrok etish, tasviriy faoliyat, mozaika, vitraj, yorug'-soya, perspektiva, interfaol usullar, manzara janri.

Характеристики развития творческого мышления у учащихся начальной школы

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития навыков творческого мышления путем обогащения мышления подрастающего поколения. Также рассматриваются актуальные задачи предмета изобразительное искусство, особенности уроков по восприятию бытия в изобразительном искусстве в начальных классах, что является важной частью обучения. Автор уделяет особое внимание детской психологии и педагогическим новациям в широком описании процессов творческого развития как теоретически, так и практически.

Ключевые слова: восприятие, зрительная деятельность, мозаика, витраж, светотень, перспектива, интерактивные приемы, пейзажный жанр.

Characteristics of the development of creative thinking in primary school students

Abstract. The article discusses the development of creative thinking skills by enriching the thinking of the younger generation. We also consider the current problems of the subject of fine arts, the features of lessons on the perception of being in the visual arts in primary classes, which is an important part of training. The author pays special attention to child psychology and pedagogical innovations in a broad description of the processes of creative development, both theoretically and practically.

Keywords: perception, visual activity, mosaic, stained glass, chiaroscuro, perspective, interactive techniques, landscape genre.

Insoniyat paydo bo'lgandan boshlab, odamlar farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanganlar. Ibtidoi jamoa tuzumi davrida bu jarayon ba'zan ongli, gohida esa ongsiz ravishda kechgan bo'lishi mumkin. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, tarbiya usullari muttasil rivojlanib borgan. Ta'lim va tarbiya davrlar o'tishi, hayot va turmushning murakkablashishi natijasida tobora chuqurroq va keng ma'no kasb eta borgan.

Inson asosan, ikki yo'l bilan ta'lim olishi va tarbiyalanishi mumkin: birovning bevosita ta'siri, ya'ni o'rgatishi, shuningdek, donolar fikrlari, o'gitlari va asarlarini o'qish orqali. Inson o'zining fikrlashi, odamlar hatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlardan tegishli xulosalar chiqarib olishi mumkin, lekin eng qudratlisi – tafakkur vositasida amalga oshadi [4].

Tafakkur vositasida insonni rivojlantirish tizimini san'atsiz tasavvur etib bo'lmaydi. San'at jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlandi va kishilar turmush davrining ajralmas bir qismi bo'lib qoldi. Qadimdan olimu-fuzalolar inson barkamolligi va baxtga erishuvida san'atning muhim vosita ekanligini isbotlashga uringanlar. Jumladan yunon faylasufi Aflatun "atrofdagi narsalarni bilish, anglashga yordam beradigan san'at va qobiliyatlar hamda yana tadqiqot, o'qish va chuqr o'rganish insonni barkamollikka erishtiruvchi bilimga etishish vositasi ekanligi, qanday san'at bunday bilimni berishi mumkinligi va bunday bilimga nimaning yordamida erishilishini tekshirib ko'rishni o'ziga maqsad qilib qo'yadi" [1].

Antik davr va o'rta asrlardagi empirik rivojlanish davrida ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi tahsil oluvchilarining ongiga tabiiy, falsafiy, shuningdek, diniy mazmundagi bilimlarni etkazish sanalgan. Asosiy e'tibor jamiyatni barqarorlashtirish, jamiyat a'zolari tomonidan diniy savodxonlikni egallashlariga

qaratilgan. O'sha davrda oliy ta'lim muassasalarining shakllanish jarayoni boshlanishiga to'g'ri kelib, ta'lim muassasalarida ixtiyoriy ravishda san'at yo'naliшини о'рганиш yo'lga qo'yilgan.

Mazkur san'at yo'naliшини о'рганиш jamiyat a'zolarining ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy rivojlanishi, estetik did, ekologik qarashlarning vujudga kelishiga zamin tayyorlagan [11].

Keyingi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish sohasida bo'layotgan islohotlar ta'lim tizimini hayot bilan bog'lashni, ta'lim samaradorligiga erishishni, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qila oladigan, har tomonlama etuk, barkamol insonlarni tarbiyalabni taqozo etadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda tasviriy san'at darslarining ham o'ziga xos o'rni bor. Shuning uchun ushbu predmetga maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab e'tibor berish lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha bolalardagi shakllantirilgan ilk tushunchalar boshlang'ich sinflarda takomillashtiriladi.

Umuman olganda pedagogika – o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga optimal tayyorlash va yig'ilgan tajribalarni samarali etkazib berishdan iborat bo'lib, ta'lim va tarbiyaga oid bilim va ko'nikmalar yig'indisidir [3]. Bunday tajribalarni avloddan-ajdodlarga etkazish ehtiyoji insonning boshqa ehtiyojlari qatori jamiyat paydo bo'lishining ilk bosqichlarida shakllangan.

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qtishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik mактаб yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagи mayjud bilim va qobiliyati hamda layoqatlariga qarab belgilanadi.

Ma'lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Shunisi xarakterlik, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo'ladi, 1–2 minut, ko'pi bilan 4–5 minutda har qanday rasmni tugallab qo'yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo'lmasa-da, biroq mazmunan biron-bir ko'rinishni, voqeani yoki buyumni o'z iqtidorlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarini tasvirlay oladilar [7]. Bo'yoqlar bilan ishslash ularga ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi sababli ulardan foydalanishni aytarlik xush ko'rmaydilar. Lekin turli yorqin ranglar bilan bo'yagan buyumlar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Rasmlari yaxshi chiqmagan holda o'z ishlaridan qoniqmaydilar. Bunday sharoitda o'qtuvchining bolalarga tezda yordam ko'rsatishi va kayfiyatini ko'tarishga harakat qilishi foydadan holi bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tasviriy faoliyatlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ular chizadigan rasmlarini soddallashtirishga bo'lgan harakatlaridir [2]. Ular ayrim narsalarning oldi ko'rinishini (uy, odam, kitob, soat, portfel) ayrimlarini yon tomonidan (mashina, hayvonlar, qushlar, baliqlar, bayroqcha v.b.), yana boshqalarini ustki tomonidan (kapalak, barg, ninachi, qo'ng'iz v.b.) tasvirlaydilar. Bunga asosiy sabab bu yoshdagi bolalar hali narsalarni yorug'-soya, perspektiv qisqarishi va ularning qoidalarini uncha tushunib etmaganliklaridir. Bolalar ijodiga xos yana bir jihat bor, u ham bo'lsa tasvirlarni (buyumlarni) bir-birlarini to'sib turgan (yoki qisman) holda tasvirlanmaslidir. Chunki bolalar narsalarni doimo butun holda idrok etadilar.

Yuqorida qayd qilingan tasviriy san'atning bu xususiyatlari bolalar tafakkurining konkrekt, obrazli va emotsiонал tarzda bo'lishligi bilan bog'lanadi.

Borliqni idrok etish mashg'ulotlari 1–4 sinf dasturida aks etgan bo'lib, uning maqsadi bolalarni o'rab olgan borliq haqida, ulardagи narsa va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'chovlari, o'chov nisbatlari haqida tasavvur hosil qilishdir. Chunki, bolalar tevarak-atrofni, ya'ni tabiat, hayvonlar va qushlar olami, hashoratlar va baliqlar, odamlar, tabiat o'zgarishi, predmet va buyumlar, qurilish va transport vositalari haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lgan taqdirdagina ularning rasmlarini aniq-ravshan tasvirlaydilar [14]. Borliqni idrok etish mashg'ulotlarining mazmunidan kelib chiqqan holda amaliyotda ularni o'rganishning quyidagi yo'llari qo'llaniladi:

1. *Buyumni, tabiatni o'ziga qarab kuzatish orqali o'rganish.*
2. *Borliq haqida o'qtuvchining suhbati orqali o'rganish.*
3. *Savol-javob orqali o'rganish.*
4. *Borliqni chizish orqali o'rganish.*
5. *Ko'rgazma asosida o'rganish.*

O'quvchilar uchun namoyish etiladigan narsalar va tasvirlar, reproduksiyaлar avvalo mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq holda bo'lib, ular o'z tuzilishi, shakli, rangi, o'chovlari bilan soda, tushunarli, bolalarda his-hayajon uyg'otadigan bo'lishi lozim. Eng muhimmi, bunday materiallar o'quvchilarni o'ylashga majbur etadigan, ularni mushohadaga chorlaydigan, yangi tushunchalar bilan boyitadigan bo'lishi maqsadga muvofiqidir.

Shunday qilib, o'quv jarayonining mohiyati o'quvchi bilish faoliyatining mantiqi bo'lib, u birinchidan, bilish bizdagи bilimlarning yagona manbai bo'lmish amaliyotni o'rganishdan boshlanishi va mavhum fikrlar asosida nazariy umumlashtirish kerakligidan; ikkinchidan, bilish olingan bilimlarni,

nazariy umumlashtirishni, insondagi bilimlar haqiqiyligini yagona ob'ektiv mezonlari sifatida ham xizmat qiladigan amaliyatga taqqoslash zarurligidan kelib chiqadi. Bilish murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrak tafakkurga va undan amaliyatga o'tish yo'lidir [6].

Demak boshlang'ich ta'lif bola shaxsining ilk shakllanishini ta'minlashi, uning qobiliyatlarini aniqlash, o'quvchilarda bilim olish ko'nikmasi va istagini tarkib toptirishi kerak. Bunday matabda o'quv faoliyatining zarur ko'nikma va malakalarini egallaydilar, o'qish, yozish, hisoblashni o'rganadilar, ijodiy fikrlash elementlarini, madaniy nutq va xulqni, shaxsiy gigiena hamda sog'lom turush asoslarini o'rganadilar [8]. Mana shu umumiyo vazifalarni amalga oshirish uchun maqsadlarning ustunligini jiddiy, tubdan o'zgartirish, avvalo, predmetlarga doir bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning an'anaviy maqsadi o'rniga bola shaxsini, o'quv faoliyatini shakllantirish asosida tarbiyalash maqsadi egallaydi, lekin bunda an'anaviy predmetlarga doir ko'nikma va malakalarning shakllanish darajasiga e'tibor sustlashmasligi lozim [6].

Quyida 2-sinfda o'tiladigan "Oltin kuz" mavzusidagi borliqni idrok etish mashg'ulotining dars ishlchanmasini ko'rib chiqamiz:

1.Darsning mavzusi: "Oltin kuz" mavzusida rasm chizish.

2.Dars turi: Ta'limming interfaol usullarini qo'llagan holda umumlashtiruvchi dars.

3. Darsning maqsadi.

3.1.*Ta'limiyl maqsad*: o'quvchilarda tabiatga muhabbat uyg'otish, ularni tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilishga va qadrlashga o'rgatish.

3.2.*Tarbiyaviy maqsad*: o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish, tabiatga va tasviriy san'atga qiziqishlarini uyg'otish.

3.3.*Rivojlantiruvchi maqsad*: o'quvchilarni kuz manzarasini idrok etish va uni tasvirlay olishga o'rgatish.

4.*Darsning boshqa fanlar bilan bog'lanishi*: tabiatshunoslik, ona tili darslari.

5.*Darsning jihozlanishi*: O'zbekiston musavvirlarining kuz mavzusidagi asarlari reproduksiyalari, jumladan, R.Ahmedovning "Oqtoshda kuz", O'.Tansiqboevning "Tog'da kuz", N.Karaxanning "Oltin kuz", I.Haydarovning "Oltin kuz" asarlari reproduksiyalari, kuz manzarasining bosqichma-bosqich ishlangan plakati, texnik vositalar, kuzgi tabiatga bag'ishlangan musiqa asarlari.

Darsning borishi va mazmuni: Tashkiliy qismda o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadilar (asosan 4 ta). Yangi dars mavzusi va muammoli vaziyatlar haqida o'quvchilar boxabar qilinadi, bunda:

- guruhralar belgilanadi, o'qituvchi guruohni o'zi belgilaydi;

- guruhlarga sardor tayinlanadi va aniq ko'rsatmalar beriladi;

- guruhlarga nom tanlanadi, nomlar ham tasviriy san'atga xos bo'lishi lozim, masalan: "Nafosat", "Musavvir", "San'at", "Kamalak" va h.k.;

- har bir guruh doira shaklida o'tirishi, har bir ishtirokchi barcha guruh a'zolarini ko'rib turishi lozim;

- o'qituvchi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlab, yo'naltirib turadi;

- topshiriqlar va ularning bajarilishi muhokama qilinadi.

O'qituvchi bugungi mavzu oltin kuz haqida ekanligini eslatib, kuz haqida, kuz faslidagi tabiat o'zgarishi, kuz mavzusida musavvirlarning ishlagan asarlari va ularda nimalar tasvirlanganligi haqida savollar beradi, yaxshi javob bergan o'quvchilarga "Ofarin", "Balli" kartochkalarni tarqatadi.

Shundan so'ng birinchi shart e'lon qilinadi – "Mozaika" mashg'uloti.

Ushbu shart bo'yicha guruhralar bilan qisqacha suhbat uyuşhtiriladi.

-Bolalar, siz mozaika, vitraj san'atini bilasizmi? Albatta, tanishsiz, applikatsiya usulida shunga o'xshash tasvirlarni rangli qog'oz va mato parchalaridan yasagansiz. Demak, sizda tushuncha bor.

Ushbu shartni bajarishda amal qilinishi lozim bo'lgan ayrim qoidalarni eslatib o'tamiz:

- ushbu musobaqada guruhnning barcha a'zolari birdek ishtirok etadilar;

- fikrlarning bir joydan chiqishi-muvaffaqiyat garovidir;

- diqqat bilan fikrlash, o'zgalar fikri bilan o'rtoqlashish, topshiriqni tezkor bajarishga kirishish lozim;

- esda tuting, "mozaika" musobaqa o'yini mayda bo'laklangan rangli qog'ozlarni o'z o'rniga qo'yib, butun tasvir chiqara olish mahoratini sinash uchun berilgan topshiriqdir;

- qaysi guruh birinchi bo'lib shartni bajarsa, o'qituvchiga xabar beradi, agar ish muvaffaqiyatlari bajarilsa, tantanali mukofatlanadi.

Har bir tasvir musavvirlarning kuz haqidagi asarlardan iborat bo'lishi lozim. Har bir guruh bu suratlari qaysi musavvir ishi ekanligi, unda nimalar tasvirlanganligi, kuzning o'ziga xos xususiyatlari haqida

gapiradi. Tahlil jarayonida o‘qituvchi savollar berib, o‘quvchilarning kuz haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi:

- kuzda tabiatda qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi?
- suratdagi ocmom, undagi bulutlar, suv rangi qanday?
- manzarada qanday daraxtlarni ko‘ryapsiz, ularning rangi qanday?
- daraxtlarning shakli bir-biridan qanday farq qiladi?
- ushbu asar sizda qanday taassurot qoldirdi?

Shundan so‘ng o‘quvchilarga kuzgi daraxtlarni chizish topshiriladi, o‘quvchilar ishlayotgan paytda Motsart, Bax, Betxoven musiqalaridan past ovozda foydalangan ma’qul.O‘qituvchi bajarilgan ishlarni o‘quvchilar bilan tahlil qiladi [13]. O‘qituvchi doskadagi plakatga flomaster bilan o‘quvchilar aytgan tasviriy san’at, oltin kuz, tabiatning kuzgi ko‘rinishi, kuz manzaralarini ishlagan musavvirlar haqidagi tayanch iboralarni tartib raqami bilan yozib chiqib, o‘quvchilarning kuz haqidagi bilimlarini umumlashtiradi va oltin kuz manzarasini akvarelda ishlab kelishni uygaz qilib belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, borliqni idrok etish darslari bolalar hissiyotiga har tomonlama ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni go‘zallikni his etish, tabiat va san’at asarlaridan zavq ola bilish tuyg‘ularini shakkantiradi.

Pedagogik jarayonlarda innovatsiyalar o‘zaro ta’sir madaniyatining eng muhim va asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, ular innovatsion jarayonlarda nafaqat o‘zining tavsifi va xususiyatlari bilan, balki pedagogik jarayonlarni takomillashtirishning eng muhim omillari sifatida ham belgilanadi [10].

Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo‘laklari hisoblanadi [5]. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi-rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog‘liqdir. Bola rangni, shaklini, uning xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo‘ladi.

Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba’zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishni rivojlanadir [12]. Tasviriy faoliyat bolalarning ijodiy o‘sishida muhim o‘rin egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o‘sishi – bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo‘lgan malaka, ko‘nikmalarni egallash hisoblanadi [9]. Masalan, tabiat qo‘yniga yoki istirohat bog‘iga sayr, kuz fasilda ekskursiya uyushtirish ularning ijodga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak atrofni kuzatishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg‘u orqali tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to‘g‘ri baho berish, Vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarini tarbiyalashi mumkin. Bolalarning o‘z ishini yana ham chiroqli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ular ko‘rganda quvonadigan qilib yaratish-bu badiiy, axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Demak, bolalarda estetik didni tarbiyalashda, ularda tabiatga, go‘zallikka mehr uyg‘otishda, eng muhimi ularni ijodkorlikka, erkin fikrlashga o‘rgatishda tasviriy faoliyatning o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ta’lim muassasalaridan boshlab ushbu predmetga jiddiy e’tibor berish, san’atga oshuftalik hissini tarbiyalash, ta’lim-tarbiya jarayoniga rivojlangan mamlakatlarning texnologiyalarini olib kirish, ushbu tizimni jahon andozalari miqyosiga olib chiqish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Abu Nasr al-Forobi. Aflatun falsafasi //“Jahon adabiyoti”. 2009 yil, iyun soni, 143-bet.
2. Boymetov B., Tolipov N. Maktabda tasviriy san’at to‘garagi. –Toshkent, 1995.
3. Bordovskaya V.N., Rean A.A. Pedagogika. – Sanktpeterburg: Piter, 2008. – 11 s.
4. Djuraev R.H., Turg‘unov S.T., Nazirova G.M. Pedagogika. Toshkent: 2013. – 3 b.
5. Yo‘ldosheva N. Darslarda interfaol metodlardan foydalanish afzalliklari // Xalq ta’limi. 2009, №3. – B. 34
6. Mavlyanova Raxima. Raxmankulova Nargiz. Boshlangich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – Toshkent: Voris-nashriyoti, 2013. – 240 b.
7. Nurmatova M. SH., Hasanova SH.T. ”Rasm, buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi”. Toshkent, “Musiqa” nashriyoti, 2010 yil.
8. Oydinov N. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
9. “Ta’lim innovatsiyalari va o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlanadirish masalalari” // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2012 yil, 26 iyun.
10. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M., Umaraliyeva M.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va smaradorligini oshirish texnologiyalari. Toshkent: 2014. – 120 b.
11. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2017 y

12. Uralov S. Mo‘jiza yaratish san’ati. – Toshkent: Mehnat, 1996. – B. 85.
13. Hasanov R. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Fan, 2004. – B. 78.
14. Hasanov R. Tasviriy san’at asoslari. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2009. – B. 62

UDK: 372. 851

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHDA UZVIYLIK MASALALARI

G.N.Eshqobilova

*Samarqand davlat universiteti
geshqobilova@bk.ru*

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarning boshlang‘ich sinflarda matematika fanini yaxshi o‘zlashtirishini yoki bilish darajasini yuqori darajaga ko‘tarish uchun, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlaydigan, har bir narsaga ijodiy yondashadigan ko‘nikmalarni o‘stirishda, boshlang‘ich ta’lim matematikasini o‘qitishda uzviylikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘nlik, yuzlik, minglik, yig‘indi, ayirma, kamayuvchi, ayriluvchi, uzviylik, qo‘siluvchi, ko‘paytirish, teng bo‘laklarga bo‘lish

Проблемы непрерывности преподавания математики в начальных классах

Аннотация. В статье рассматривается способность учащихся начальной школы развивать логическое мышление и творческий подход ко всему. Важность последовательности в обучении элементарной математики важна.

Ключевые фразы: десятичные, сотые, тысячные, суммированные, убывающие, делимые, целые, смежные, умножение, деление на равные.

The problems of incessancy of teaching mathematics in primary schools

Abstract. The article examines elementary students` ability to develop logical thinking, independent thinking and creative approach to everything. The importance of consistency in teaching in elementary school mathematics is important.

Keywords: decimals , hundredths, thousandths, summarized, declining, divisible, integral , adjacent, multiplication, divide by equal.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishda asosli va tizimli yondashuv, o‘quvchilarda bilish darajasini ta’minlashda bosh omil hisoblanadi. Bu esa boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishda uzviylikni ta’minlash demakdir.

Respublikamizning ijtimoiy - iqtisodiy, ma’nnaviy - axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar boshlang‘ich ta’limda ham jiddiy yangilanishlarni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘qitishning samaradorligini oshirishda uzviylikni ta’minlash va o‘quvchilar kompetensiyasini ko‘tarish alohida o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning matematikadan bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashlarida quyidagi uzviylikni ta’minlash lozim:

- O‘n ichida sonlarni o‘rganish, bir o‘nlikdan o‘n o‘nlikgacha sonlarni o‘rganish, bir yuzlikdan o‘n yuzlikgacha sonlarni o‘rganish va bir minglikdan o‘n minglikgacha va hokazo sonlar uzviy ravishda o‘rganiladi. Bularning hammasi bir birlikdan o‘n birligacha sanalgani kabi sanaladi. Shunday qilib birdan o‘ngacha sanoq keyingi barcha sanoqlarning asosi hisoblanadi.

O‘ngacha sonlarni o‘rganish deganda:

- a) Birinchi o‘nta sonning nomini bilish;
- b) Ularning ketma-ketligini bilish;

d) Birinchi o‘nta sonning qaysi o‘rindaligini yoki nechanchi o‘rindaligini so‘z bilan bilish yoki berilgan to‘plamda hammasi bo‘lib qancha elementdan iborat ekanligini bilib olish tushuniladi.

So‘ngra sonlarni xona qo‘siluvchilarining yig‘indisi ko‘rinishdagi va ayirma ko‘rinishdagi ifodalaniishi, sonlarning tarkiblari va nihoyat o‘n ichida sonlarni bittalab, ikkitalab, uchtalab, to‘rttalab, beshtalab qo‘sish va ayirish o‘rgatiladi. Bu yerda shuni ta’kidlash kerakki, beshtadan boshlab qo‘sish va

ayirishda o‘rin almashtirish xossasidan foydalanish lozim bo‘ladi. Bu tushunchalardan foydalangan holda qo‘shish va ayirish jadvallari tuzib olinadi.

Jadvallarni tuzib olishda quyidagilarni e’tiborga olish kerak.

Birinchidan, birinchi o‘nlik ichida sonlarni qo‘shishda ikkinchi qo‘shiluvchining katta bo‘lishligi hisoblanadi. Chunki uning birliklarini bittadan orttirib qo‘shib sanash uzoqqa suriladi. Gruppalar bilan orttirib qo‘shib sanash yanada murakkablashadi. Ayirishda ham ayriluvchi shu rolni o‘ynaydi. Shuning uchun amallarning jadvalini tuzishda bir xildagi qo‘shiluvchi va bir xildagi ayriluvchi bo‘lishi lozim.

Ayirishni bajarishda alohida (maxsus) hisoblash usullaridan foydalanish mumkin. Ammo qo‘shish bilan ayirish orasidagi bog‘lanishni qo‘shish amaliga nisbatan teskari amal sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun jadval shunday tuzilishi kerakki qo‘shishning har bir qatoriga ayirishning mos holi to‘g‘ri kelish kerak. Masalan,

1	2	3
1+1=2 2-1=1 2+1=3 3-1=2 3+1=4 4-1=3 4+1=5 5-1=4 5+1=6 6-1=5 7+1=8 8-1=7 8+1=9 9-1=8 9+1=10 10-1=9	1+2=3 3-2=1 2+2=4 4-2=2 3+2=5 5-2=3 4+2=6 6-2=4 5+2=7 7-2=5 6+2=8 8-2=6 7+2=9 9-2=7 8+2=10 10-2=8	1+3=4 4-3=1 2+3=5 5-3=2 3+3=6 6-3=3 4+3=7 7-3=4 5+3=8 8-3=5 6+3=9 9-3=6 7+3=10 10-3=7
4	5	6
1+4=5 5-4=1 2+4=6 6-4=2 3+4=7 7-4=3 4+4=8 8-4=4 5+4=9 9-4=5 6+4=10 10-4=6	1+5=6 6-5=1 2+5=7 7-5=2 3+5=8 8-5=3 4+5=9 9-5=4 5+5=10 10-5=5	1+6=7 7-6=1 2+6=8 8-6=2 3+6=9 9-6=3 4+6=10 10-6=4
7	8	9
1+7=8 8-7=1 2+7=9 9-7=2 3+7=10 10-7=3	1+8=9 9-8=1 2+8=10 10-8=2	1+9=10 10-9=1

O‘quvchilar jadvallarni yod olishlari shart. So‘ngra esa jadvaldan har bir sonning mos qo‘shiluvchilar yig‘indisini va unga mos ayirmalarini ajratib olish o‘quvchilarga o‘rgatilishi lozim. Masalan, jadvalda:

2 soniga mos yig‘indi va ayirma:

$$1+1=2, 2-1=1$$

3 soniga mos yig‘indi va ayirma:

$$2+1=3 3-1=2; 1+2=3 3-2=1$$

4 soniga mos yig‘indi va ayirma:

$$3+1=4, 4-1=3; 2+2=4, 4-2=2; 1+3=4, 4-3=1.$$

5 soniga mos yig‘indi va ayirma:

$$4+1=5, 5-1=4; 3+2=5, 5-2=3; 2+3=5, 5-3=2; 1+4=5, 5-4=1.$$

6 soniga mos yig‘indi va ayirma:

$$5+1=6, 6-1=5; 4+2=6, 6-2=4; 3+3=6, 6-3=3; 2+4=6, 6-4=2; 1+5=6, 6-5=1.$$

Va hokazo.

Bu yig‘indi va unga mos ayirmalar har bir xonali sonlarning tartiblari hisoblanadi.

Sonlarni teng qo‘shiluvchilardan iborat tartiblari esa quyidagilardan iborat:

2+2	3+3	4+4,	5+5.
2+2+2	3+3+3,		
2+2+2+2			
2+2+2+2+2			

Ikki xonali, uch xonali va ko‘p xonali sonlar ustida nomerlash va ular ustida amallar bajarish, o‘n ichida sonlar ustida bajarilgan sistemasidan foydalaniladi va barcha hisoblashlar qo‘shish va ayirish

jadvaliga asoslangan hisoblashlarga keltirib bajariladi. Bu jadvallarni yod bilish kerak. Chunki har gal hisoblashlarda amallarni bittadan orttirib, ikkitadan orttirib, uchtadan orttirib va hokazo, yoki kamaytirib hisoblashlarda yangidan boshlashga to‘g‘ri kelar edi. O‘quvchilar qo‘sish va ayirish jadvallarini mukammal o‘zlashtirmasdan yoki uzviylikni ta’minlamasdan, keyingi 20 ichida sonlarni qo‘sish va ayirishni o‘zlashtirish qiyin. Chunki 20 ichida sonlarni qo‘sish va ayirish 10 ichida sonlarni qo‘sish va ayirishga asoslaniladi.

Ikkinchchi o‘nlik sonlarini o‘rganishda uzviylik va uning ahamiyati masalalari quyidagi mulohazalarga muvofiq ikkinchi o‘nlik ikkinchi konsentr qilib ajratilgan.

Birinchidan: Har qanday sonlarni qo‘sish uchun juftlab olingan bir xonali sonlarning hamma yig‘indilarini yod bilish kerak. Bu yig‘indilar to‘plami qo‘sish jadvali deyiladi. Ikkita bir xonali sonning eng katta yig‘indisi 18ga teng. Ma’lumki, qo‘sish jadvali to‘liq shaklda birinchi va ikkinchi o‘nlikni tashkil etadi. Bu ikkinchi o‘nlik sonlarini o‘rganishning uzviyligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ikkinchidan: Qo‘sish jadvali ko‘paytirish jadvalining asosiyo poydevori hisoblanadi. Ko‘paytirish jadvalini ham o‘quvchilar yoddan bilib olishlari kerak. Ko‘paytirish jadvalidan foydalanib har qanday sonni ham ko‘paytira olamiz. To‘g‘ri amallarning jadvallarini bilish jadval chegarasida ayirish va bo‘lishga asos bo‘ladi, bu o‘z navbatida har qanday sonlarni ayirishga va bo‘lishga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib hamma hisoblash amallarining mexanizmlari qo‘sish jadvali bilan uzviy bog‘langandir.

Uchinchidan; Sanashda ikkinchi o‘nlik ichida birliklarni o‘nlik xona birliklariga ajratishga va shu xona birliklariga asoslangan sanash usullaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Boshlang‘ich sinf matematika kursining keyingi bo‘limlari ikkinchi o‘nlikni xarakterlovchi barcha boshlang‘ich bilimlarni o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchchi o‘nlikda uzviylikni ta’minlash uchun quyidagi bilimlar o‘rganiladi.

- Og‘zaki va yozma nomerlash;
- Qo‘sish va ayirish;
- Ko‘paytirish va teng bo‘laklarga bo‘lish;
- O‘n ichida karralab bo‘lish.
- Ikkinchchi o‘nlikda nomerlash

Ma’lumki, sonlarni og‘zaki nomerlashda o‘n ichida sodda o‘zak so‘zlardan (bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, etti, sakkiz, to‘qqiz , o‘n) foydalanamiz. Ikkinchchi o‘nlik sonlarning nomlari birliklarining gruppalanishiga asoslanib murakkab va yasama so‘zlarning (o‘n bir, o‘n ikki, o‘n uch, o‘n to‘rt, o‘n besh, o‘n olti, o‘n etti, o‘n sakkiz, o‘n to‘qqiz, yigirma) foydalaniladi. O‘quvchilarga yigirma ichiga sonlarni sanashda dastlab birinchi o‘nlik sonlarning nomlari bilan qanday uzviylikda ekani ko‘rsatish uchun qayta sanab chiqish kerak . Sanoqda o‘nta birlikda bog‘- bog‘ qilib boylash oson bo‘lgan cho‘plardan foydalanish mumkin.

Cho‘plardan foydalanib o‘quvchilar o‘ngacha sanaydilar. Ular o‘nta cho‘pni olib bitta bog‘lam qilib bog‘laydilar. O‘qituvchi narsalarni va buyumlarni sanashda birlik tushunchasi bilan va yangi o‘nlik termini bilan tanishganliklarini aytadi. Haqiqatdan ham, o‘nta birlik bitta o‘nlikni tashkil etadi. Odatda, ba‘zi buyumlar , masalan, tuxum, olmalarni o‘ntalab sanash yengil. O‘quvchilar cho‘plarni sanashda davom ettirib o‘n va bir , o‘n va ikki, o‘n va uch, o‘n va to‘rt, o‘n va besh, o‘n va olti, o‘n va etti, o‘n va sakkiz, o‘n va to‘qqiz, o‘n va o‘n deydilar. So‘ngra har bir o‘quvchi chap qo‘lida o‘nta cho‘pni ushlab turib uning ustiga bittalab cho‘p qo‘ya boshlaydi. Ya’ni, o‘n va bir, o‘n va ikki va hokazo. O‘quvchi buni qisqa qilib “o‘n bir” deb aytish qabul qilinganligini aytadi. Yigirma ichida sonlarni nomerlashda: sonlarning aytishini, o‘qilishini va yozilishini quyidagicha ifodalash mumkin:

Aytishi	O‘qilishi	Yozilishi
Bitta o‘nlik bitta birlik	O‘n bir	11
Bitta o‘nlik ikkita birlik	O‘n ikki	12
Bitta o‘nlik uchta birlik	O‘n uch	13
Bitta o‘nlik to‘rtta birlik	O‘n to‘rt	14
Bitta o‘nlik beshta birlik	O‘n besh	15
Bitta o‘nlik oltita birlik	O‘n olti	16
Bitta o‘nlik ettita birlik	O‘n etti	17
Bitta o‘nlik sakkizta birlik	O‘n sakkiz	18
Bitta o‘nlik to‘qqizta birlik	O‘n to‘qqiz	19
Bitta o‘nlik o‘nta birlik	Yigirma	20

Ikkinchchi o‘nlik sonlarning bunday ifodalansishi ikkinchi o‘nlik sonlarning guruhini o‘quvchilarning ongli ravishda o‘zlashtirib olishiga yordam beradi. Yigirma ichida sonlarning uzviyligini

yoki o'quvchilar bilish darajasini rivojlantirish uchun o'qituvchi o'quvchilarga o'nta cho'p olishini va yana uchta cho'p olishini hamda hosil bo'lgan sonni aytishini taklif qiladi. O'quvchilar shunday mashqlarni bir necha marta takrorlab keyin ko'rsatma quroq ishlatsandan ham bitta o'nlik va bir necha birliklardan iborat sonlar tuzadilar.

O'qituvchi quyidagi yo'naltiruvchi savollar berish bilan o'quvchilar bilimini mustahkamlash mumkin.

- 15 sonida nechta o'n va nechta bir bor?
- 17 sonida nechta o'n va bir bor?
- 13 sonida nechta o'nlik va nechta birlik bor?

Bundan tashqari bunday mashqlar o'quvchilarning og'zaki nomerlash bilim, ko'nikma va malakalarini oshiradi.

Ikki xonali sonlarni raqamlar bilan belgilashda to'g'ri to'rtburchak shaklidagi karton tikkasiga ikkiga bo'lingan chap tomoniga o'nliklar, o'ng tomoniga birlklarga joy ajratiladi. Ikkala tomonidan cho'ntag'i bor. Yuqorida cho'ntaklarga cho'plar solinadi, pastdagi cho'ntaklarga esa raqamlar qo'yiladi [1].

O'nlar	Birlar

O'qituvchi dastlab ko'rsatma qurollarining o'ng tomoniga bittalab, o'ntalab cho'p to'plashi kerak. Buni bir bog'lam qilib chap cho'ntakdan o'ng cho'ntakka o'tkazamiz. O'ngdag'i cho'ntak bo'sh qoladi. Endi chap cho'ntak tagiga 1 raqamini qo'yish mumkin. O'ngdag'i bo'sh cho'ntak ostiga nol qo'yiladi. 1 raqami sonning bitta o'nlikdan iborat ekanligini bildiradi, 0 raqami esa birlklarning yo'qligini bildiradi. 10 sonining yozilishi o'quvchilarga shu yo'nalishda tushuntiriladi.

O'quvchilarga birliklar uchun alohida o'rin va o'nliklar uchun alohida o'rin mavjud ekanini, nol uchun alohida o'rin mavjud emas ekanligini ta'kidlab o'tish kerak. Agar sonda birliklar bo'limasa, ularning o'rniiga nol yoziladi. Shunday o'ng cho'ntakka birni, ikkini, uchni va hokazo usul bilan ikkinchi o'nlikning qolgan sonlari yigirmagacha va yigirmaning yozilishini ko'rsatadi.

Yigirma ichida sonlarni qo'shish va ayirish

Ikkinch'i o'nlikda qo'shish jadvali va ayirishning shunga tegishli hollarini o'rganish bilan uziyilik ta'minlanadi. Ikkinch'i o'nlikda qo'shish va ayirishning 72 ta holi mavjud. Bunga o'nlikdan o'tib qo'shish va ayirish ham deb ataladi. O'nlikdan o'tmasdan amallarni bajarishga doir quyidagi misollarni keltirish mumkin:

- 15+3 yig'indini hisoblash uchun 5 bilan 3 ni qo'sha bilish etarli;
- 16+4 yig'indini hisoblash uchun 6 bilan 4 ni qo'sha bilish kifoya.

Ayirishga nisbatan ham xuddi shu mulohazalarni aytish mumkin.

Shunday qilib, biz nomerlashni o'tgandan keyin o'nlikdan o'tmasdan qo'shish va ayirishga o'tish kerak.

Ularga doir guruh misollarini o'rganish maqsadga muvofiq:

1) Misollarda sonlardan biri o'nlik bo'ladiganlari:

10+3	13-3
3+10	13-10
10+5	15-5
5+10	15-10

2) Yig'indi va kamayuvchi 20 dan kichik bo'lgan misollar:

12+6	18-6
6+12	18-9
13+4	18-12
4+13	17-5

3) Yig'indi va kamayuvchi 20 ga teng bo'lgan misollar:

16+4	20-4
4+16	20-16
13+7	20-7
7+13	20-13

Birinchi guruh misollari bevosita ikkinchi o‘nlik sonlarini nomerlashni o‘rganishga kiradi. Bunday misollarni yechish uchun o‘quvchi sonni faqat o‘ndan va bir necha birdan hosil qilsa yoki sonni o‘nga va birliklarga ajratishni bilsa, bo‘ldi. Ya’ni:

$$10+3=10+1+1+1=11+1+1=12+1=13$$

$$3+10=10+3 \text{ ekanligidan foydalanish etarli.}$$

Qolgan hamma materiallar o‘quvchilar bilan ishslash davrida uch bosqichga bo‘linadi:

- O‘nlikdan o‘tmasdan qo‘shish hamma hollar;
- Bir xonali sonlarni o‘nlikdan o‘tmasdan ayirish;
- Ikki xonali sonlarni ayirish.

Qo‘shish va ayirish usullarini tushuntirishda asosiy ko‘rsatma qurollar, cho‘plar va o‘nlik bog‘lamlardan foydalanish mumkin.[3] Masalan, 12+6 misolini tushuntirishda o‘quvchilar o‘z oldilariga chap tomoniga 1 bog‘lam 10 talik cho‘pni va 2 dona cho‘p qo‘yadilar, o‘ng tomoniga esa 6 dona cho‘p qo‘yadilar. O‘quvchilar qo‘shishni cho‘plar bilan bajarib, 6 birlikni bitta o‘nlikka emas, balki ikki birlik cho‘pga qo‘shish kerakligini tushunishlari kerak. Bunday misollardan bir qanchasini yechganlaridan keyin o‘quvchilar ko‘rsatma qurollsiz bajara oladilar, qo‘shiluvchilarining o‘rinlarini almashtirish shu usullardan foydalana oladilar.

16+4 va 4+16 misollarini yyechish usullari oldingi misollarni yechish usulidan shu bilan farq qildidiki, bunda birliklarni qo‘shish natijasida to‘la o‘nlik hosil bo‘ladi, yangi ikkita o‘nlik yoki 20 bo‘ladi.

Bir xonali sonni ikki xonali sondan ayirishda o‘quvchilarga kamayuvchini xona qo‘shiluvchilariga ajratishni va birliklardan birliklarni ayirishni o‘rgatish kerak, bular ham cho‘plar bilan tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

18-12 ayirish uchun ularni o‘nli guruhga ajratish usulidan foydalanish kerak. Ya’ni:

$$18-12=10+8-(10+2)=10-10+8-2=6$$

Jadvalga tegishli qo‘shish va ayirish, ya’ni o‘nlikdan o‘tib qo‘shish va ayirish masalasi quyidagicha hal etiladi. Jadvalga tegishli qo‘shishning hamma hollarini bilish kerak. Bular ikkinchi o‘nlik ichida 36 tani tashkil qiladi.

Bularning hammasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

9+2	9+3	9+4	9+5	9+6	9+7	9+8	9+9
8+3	8+4	8+5	8+6	8+7	8+8	8+9	
7+4	7+5	7+6	7+7	7+8	7+9		
6+5	6+6	6+7	6+8	6+9			
5+6	5+7	5+8	5+9				
4+7	4+8	4+9					
3+8	3+9						
2+9							

Bularning har biriga mos ayirmalari jadval ko‘rinishida quyidagicha bo‘ladi:

11-2 12-3 13-4 14-5 15-6 16-7 17-8 18-9

11-3 12-4 13-5 14-6 15-7 16-8 17-9

11-4 12-5 13-6 14-7 15-8 16-9

11-5 12-6 13-7 14-8 15-9

11-6 12-7 13-8 14-9

11-7 12-8 13-9

11-8 12-9

11-9

20 ichida quyidagicha qo‘shish va ayirish jadvali bunday tartibda o‘qiladi:

9+2; 11-2; 9+3; 12-3; 9+4; 13-4 va hokazo.

O‘quvchilarining boshlang‘ich sinflarda matematika fanini yaxshi o‘zlashtirishini yoki bilish darajasini yuqori darajaga ko‘tarish uchun uzviylikni ta’minlash kerak bo‘ladi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlaydigan, har bir narsaga ijodiy yondashadigan ko‘nikmalarni o‘stirishda, boshlang‘ich ta’lim matematikasini o‘qitishda uzviylikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. L.Sh.Levenberg, I.G‘.Ahmadjanov, Nurmatov A.N. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent “O‘qituvchi” 1985 yil. 116-127 b.
2. M.Axmedov, N. Abdurohmonova, M. Jumaev Matematika umumiylar o‘rta ta’lim maktabalarining 1 - sinf uchun darslik Toshkent - 2019 yil. “Turon - iqbol”. 49-80 b.
3. N. U. Bikbayeva, R.I. Sidelnikova, G. A. Adambekova Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent “O‘qituvchi” 1996-yil 81- 212 b
4. M. A. Bantova, G. V. Beltyukova, A.M. Polevshikova “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi . Toshkent “O‘qituvchi” 1983-yil 53-72 b

UDK: 796.082.1**DZYUDOCHILAR MUSOBAQA FAOLIYATINI BAHOLASH BO‘YICHA ILG‘OR
TAJRIBALAR TAHLILI****F. Sh. Axmedov**

Samarqand davlat universiteti
ahmedovfsh@gmail.com

Annotasiya. Dzyudochilar musobaqa faoliyatini baholash dolzarb vazifalardan biri. Mazkur maqolada eng ilg‘or va ommabop deb hisoblangan maxsus dzyudo testlari tahlil etilgan. Testlarga qo‘yiladigan talablar va musobaqa faoliyatining o‘zaro aloqadorligi inobatga olinib, testlarning muayyan xususiyatlari baholangan va xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar. Dzyudo, musobaqa faoliyati, maxsus dzyudo testlari, talablar.

Анализ ведущих опытов по оценки соревновательной деятельности дзюдоистов

Аннотация. Оценка соревновательной деятельности дзюдоистов является важной научной проблемой. В этой статье анализируются специальные тесты по дзюдо, которые считаются наиболее продвинутыми и популярными. Принимая во внимание требования к тестам и взаимосвязь соревновательной деятельности, были оценены определенные особенности тестов и сделаны выводы.

Ключевые слова. Дзюдо, соревновательной деятельности, специальные тесты по дзюдо, требование.

Analysis of advanced experiences on evaluating of combat activity of judo athletes

Abstract. Evaluation of the combat activity of judo athletes is considered as a crucial scientific problem. The special judo tests were analyzed in this paper which is advanced and popular. Taking into account the requirements for the tests and interrelationship of the competitive activity, certain features of the tests were evaluated and conclusions were developed.

Keywords. Judo, struggle activity, Special Judo Tests, demands.

Dolzarblik. Sport turlarining xususiyatlari ularni turli yondashuv asosida tasniflash zaruratin ko‘rsatadi. Ilg‘or xorijiy adabiyotlar va yetakchi mualliflarning ma’lumotlari shuni tasdiqlaydiki, sport turlarining musobaqa faoliyati ularning xarakterli tomonlari va o‘ziga xos jihatlarini imkon beradi [1]. Dzyudo o‘z mohiyatiga ko‘ra, asiklik sport turi hisoblanadi va musobaqa faoliyati “notejis” harakatlardan tashkil topadi [2]. Musobaqa faoliyatining bunday o‘ziga xosligi ushbu sport turida tadqiqotlar olib borish jarayonini ham alohida yondashuv asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtai-nazardan qaralganda, musobaqa faoliyati tayyorgarlik jarayonida markaziy o‘rinni egallaydi va sportchining tayyorgarlik darajasini aniqlash imkoniyatini oshiradi [3].

Bir qator mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari, dzyudochilar musobaqa faoliyati turli yondashuv asosida tashkil etilganligini ko‘rsatadi (*Piloyan.R.A., 1971, Koblev.Ya.K. va hammualliflar, 1979, Smolyar.S.N., 1982., Paxomov.A.S., 1983, Tumanyan.G.S. va hammualliflar, 1986, Koblev.Ya.K., Ivanov.I.I. va hammualliflar, 2004., A.V.Yeganov, 1998, Putin.V.V. va hammualliflar, 2000, Segedi I., 2014, Franchini E., 2010, 2011, Sterkowicz S., 2012, Miarka B., 2011*). Shunga qaramay, musobaqa faoliyatini baholash bo‘yicha optimal va eng samarali deb hisoblanadigan me’zonlar ishlab chiqilmaganligi mutaxassislar tomonidan ta’kidlanadi [4]. Musobaqa faoliyatini baholash borasidagi ilg‘or tajribalar, xususan, maxsus dzyudo testlari haqidagi ma’lumotlar yetarlicha o‘rganilmagan. Ular haqidagi to‘liq ma’lumotlar, testlarning obyektivligi va informativligi to‘g‘risidagi umumlashtiruvchi xulosalar

shakllantirilmagan. Qisqa qilib aytganda, maqola mavzusi bo'yicha to'laqonli kuzatishlar amalga oshirilmagan. Mazkur jihat bevosita dzyudo murabbiylari va mutaxassislariga sportchining imkoniyatlarini aniqlash jarayonidagi muammolarni yuzaga keltirishi tabiiy, albatta.

Amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan baholash testlari o'zining ilmiy ahamiyati va aniqligi bilan mutaxassislar diqqatini tortishi kuzatiladi. Dzyudochilar musobaqa faoliyatini baholash bo'yicha maxsus testlarning ma'lumotlarni qanchalik yuqori aniqlikda ta'minlab berishi bevosita ushbu testlarning darajasini ham xarakterlaydi. Shunga qaramy, eng ilg'or va yetakchi deb taxmin qilinadigan baholash testlari ham ma'lum chegaraviy imkoniyatlarga egaligi ularning "kamchiligi" sifatida qaraladi. O'z navbatida ushbu "kamchilik" musobaqa faoliyatining eng muhim jihatini tadqiq etish va baholash imkoniyatini bera olmasligi mumkin.

Maqola mavzusi yuzasidan olib borilgan tahlillar va dastlabki xulosalar shuni tasdiqlaydiki, dzyudochilar musobaqa faoliyatini baholash bo'yicha ilg'or tajribalar umumlashtirilmagan va yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu fikrlar, mazkur mavzu yuzasidan tahlillar olib borish va xulosalar ishlab chiqish zaruratinı ko'rsatadi.

MATERIALLAR VA METODLAR. Maqolani tayyorlash jarayoni bir qator yondashuvlar asosida amalga oshirildi.

1. Bulen qidiruv tizimi qo'llanildi (Boolean Search). Ushbu jarayonda ma'lumotlarni umumlashtirish va izlash "Va", "Yoki" me'zonlari asosida olib borildi. Dzyudo bo'yicha musobaqa faoliyatining turli ko'rsatkichlarini baholashga doir ma'lumotlar ushbu me'zon asosida qidirildi. Masalan, musobaqa faoliyatining texnik-taktik ko'rsatkichlari "Yoki", psixologik ko'rsatkichlar, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari "Va" texnik-taktik ko'satkichlar kabi me'zonlar asosida ma'lumotlar qidirildi. Shuningdek, maxsus testlarning ishonchligi "Va" validligi, testlarning ishonchiligi "Yoki" informativligi kabi me'zonlar ham ma'lumot izlash jarayonida qo'llanildi.

2. Mavzuga doir maxsus adapbiyotlar (ilmiy maqolalar, qo'llanmalar, tadqiqot ishlari natijalari, dissertasiya va boshqalar) tahlil etildi. Scopus, Science-Direct, PubMed, Google Scholar xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridagi manbaalardan tadqiqot ishini amalga oshirishda keng foydalanildi.

3. Ma'lumotlarni izlashda ularning nashr muddatiga cheklovlari qo'yilmadi. Shuningdek, o'zbek, rus va inglez tilidagi ma'lumotlar mavzuni o'rganish jarayonida tahlil etildi.


4. Tadqiqotlar (mavjud testlar) sifatini baholash. Mazkur jarayon bevosita 5ta me'zon bo'yicha baholandı: i) namuna hajmi (ishtirokchilar soni); ii) ishtirokchilar xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar (yosh, jins, sport malakasi va antropometrik ko'rsatkichlar); iii) test o'tkazish bo'yicha ichki va tashqi faktorlarning aniqligi; iv) test va re-test oralig'idagi muddat; v) test o'tkazish shart-sharoitlarining stabilligi. Barcha olingan ma'lumotlar, jumladan, mualliflar va nashr yili haqidagi muhim ma'lumotlar jadval shaklida ifodalandi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI. Dzyudo bo'yicha bir qator manbaalarni tahlil qilish asosida amaliyotda eng ko'p qo'llanilgan va mutaxassislar tomonidan eng maqbul deb topilgan 12ta testl jami tahlil etilgan manbaalar orasidan tanlab olindi va baholandı.

Testlarning nomi, mualliflar, nashr yili va baholash me'zonlari bo'yicha ko'rsatkichlar 1-jadvalda tasvirlangan.

Testlar tatbiq etilishi hamda ishlab chiqilish bo'yicha 4ta davrga ajratilgan holda o'rganildi: I-davr-1998-2004-yillar oralig'i; II-davr-2005-2010-yillar oralig'i; III-davr-2011-2015-yillar oralig'i; IV-davr-2016-2020-yillar oralig'i. Ushbu davrlar oralig'ida ishlab chiqilgan testlar va ularning o'zgarish dinamikasi o'rganilganda, asosiy o'sish III davrga to'g'ri kelishi kuzatildi (**1-rasm**).

1-rasm. 1998-2020 yillar oralig'ida dzyudo bo'yicha ishlab chiqilgan maxsus testlar



1-jadval. Maxsus dzyudo testlari to‘g‘risida ma’lumot

Test nomi	Muallif (lar) va nashr yili	Me’zonlar				
		i	ii	iii	iv	v
Santos test	Santos (et.al), 2010	*	+	+	1 hafta	+
Uchikomi shuttle run test	Sogabe (et.al), 2015	*	±	±	?	-
Santos test, Uchi-komi fitness test, Ten station judo ability test, Special Judo Fitness Test (SJFT)	Tarva (et.al), 2016	*	+	+	?	+
Special Judo Fitness Test (SJFT)	Sterkowicz and Franchini, 2001	***	+	-	?	-
Special Judo Fitness Test (SJFT)	Franchini (et.al), 1998	*	±	-	?	-
Judogi grip strength test	Franchini (et.al), 2011	*	+	-	?	-
Judo-specific test	Lidor (et.al), 2005	*	+	±	?	-
Lactate minimum intensities for judo	Azevedo (et.al), 2007	*	+	-	?	-
Randori maximal time to exhaustion	Morales (et.al), 2016	*	+	-	48-72 soat	-
Hikidashi uchi-komi test	Del Vecchio (et.al), 2014	**	+	-	48 soat	±
Judo specific incremental test (JSIT)	Azevedo (et.al), 2014	*	+	-	?	±
Uchikomi Fitness Test (UFT)	Almansba (et.al), 2012	*	+	-	48 soat	+

Izoh: *: 30ta ishtirokchidan kam; **: 30-49ta ishtirokchi atrofida; ***: 50-99ta ishtirokchi atrofida;

****: 100ta ishtirokchidan ko‘p; +: ha, ta’milanadi; -: yo‘q, ta’milanmaydi; ?: o‘rganilmagan; ±: qisman.

1998-2004 yillar oralig‘ida jami tahlil etilgan maxsus testlarning 17%i (2ta), mos ravishda 2005-2010 yillar orlig‘ida 25% (3ta), hamda 2011-2015 yillar mobaynida 41%ni (5ta) tashkil etgan. So‘nggi davr-2016-2020 yillar oralig‘idagi nashrlar soni esa mos ravishda 17%ni tashkil etdi (2ta). 1-rasmdagi ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, dzyudo bo‘yicha maxsus testlarning ishlab chiqilishidagi umumiy tendensiyaning o‘sishi 2011-2015 yillar oralig‘iga to‘g‘ri keladi (III davr).

Birinchi me’zon bo‘yicha baholanganda, SJFT va Hikadashi uchi-komi testlarida ijobi natija qayd etildi (17%). Mos ravishda, ushbu testlarda 50-99 va 30-49ta ishtirokchi qamrab olinganligi yuqorida jadvalda aks ettirilgan. Tahlil etilgan testlarning aksariyat qismida (83%), 30tadan kam ishtirokchi qamrab olinishi qayd etildi.

Individual xususiyatlar jamoaviy va yakkakurash sport turlarida muhim ahamiyat kasb etishi so‘nggi yillardagi ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan [5]. Shu sababdan, maxsus testlarning ahamiyatini baholashda ushbu omil me’zon sifatida kiritildi. Ikkinci me’zon bo‘yicha faqat 2ta testda (Uchikomi shuttle run test, SJFT) mazkur xususiyatlar qisman o‘rganiganligini ko‘rish mumkin (17%). Qolgan barcha testlarda yuqorida me’zon bo‘yicha ijobi baho qayd etilgan.

Testlarni tashkil etish jarayonida ichki va tashqi faktorlarning ta’siri biz tomonimizdan tahlil etilgan testlarning atigi 17%ida (2ta) aniq ishlab chiqilgan. Shuningdek, 17% testlarda mazkur ko‘rsatkich aniq ishlab chiqilmagan. Tahlil etilgan testlarning aksariyat qismida (76%), ichki va tashqi faktorlarning ta’sir darajasi haqida ma’lumot keltirilmagan. Yana shu narsa muhimki, test va re-test tashkil etish shart-sharoitlari olingan natijalarning obyektivligi va ishonarlilikiga yetarlicha ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘rinda test va re-test tashkil etish xususida, ular orasidagi vaqtga alohida talablar qo‘yiladi.

Tahlillar jarayonida, test va re-test o'tkazish me'zoni bo'yicha turlicha ma'lumotlar aniqlandi. O'r ganilgan materiallarning 33%ida yuqoridagi me'zon bo'yicha aniq muddat ko'rsatilgan. Test va re-test oralig'ining minimal davri 48 soatni va maksimal davri 1 haftani tashkil etishi tahlil ntajasida aniqlandi. Testlarning aksariyat qismida (67%), mazkur me'zon talablari bo'yicha o'rganishlar mavjud emas.

Barqarorlik ko'rsatkichi har qanday testga qo'yiladigan muhim talab hisoblanadi. O'tkazilishi nazarda tutilgan test, o'z mohiyatiga ko'ra ma'lum xususiyatni aniq xarakterlashi kerak. Uni tashkil etishning har qanday holatida test stabil natija qayd etish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Test va re-test natijalari o'rtasidagi farq va bog'liqlik maksimal darajada yuqori bo'lishiga erishish kerak. Mazkur talabdan kelib chiqib, testlarni baholashning navbatdagi me'zoni sifatida testlarning stabilligi me'zoni kiritildi. Ushbu me'zon bo'yicha 25% testlarda test stabilligi ko'rsatkichi aniq ishlab chiqilgan. Testlarning 17%ida mazkur talablar qisman tadqiq etilgan. O'r ganilgan materiallarning aksariyat qismi (58%), mazkur me'zon talablari bo'yicha baholanganda stabillik ko'rsatkichi o'rganilmaganligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa. Dzyudo bo'yicha maxsus testlarni tahlil qilish va ularni muayyan me'zonlar bo'yicha baholash testlarning yutuqlari va kamchilagini aniqlash imkonini beradi. Testlarni tashkil etish asnosida olinadigan natija har tomonlama talabga javob beradigan bo'lishiga erishish kerak. Shu sababdan, dzyudo trenerlari va mutaxassislar testlarni tanlash va ularni qo'llash bo'yicha tegishli ma'lumotga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Testlarni qo'llash jarayonida ular sportchining aynan qaysi xususiyatlarini xarakterlashi yoki baholashi mumkinligini emas, balki, ular qay darajada aniq ma'lumot bera olishiga ham ahamiyat qaratish kerak.

Mazkur masala yuzasidan olib borilgan kuzatishlar asosida yana shunday xulosaga kelindiki, amalda qo'llaniladigan testlar dzyudochining muayyan ko'rsatkichlarinigina (funksional, psixologik, jismoniy yoki boshqalar) baholash imkoniyatiga ega. Ma'lum bir test, o'z mohiyati va qo'llanilishiga ko'ra musobaqa faoliyatining to'liq xususiyatlarini o'zida aks ettirish imkoniyatiga ega emas. Har qanday "ilg'or" deb qaralayotgan test musobaqa faoliyatining ma'lum bir qismiga tegishli bo'lgan ko'rsatkichlarni ochib berishi mumkin. Testlarni ishlab chiqish va uni qo'llashda maksimal darajada musobaqa faoliyati xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ayni paytda, bir test natijalari asosida xulosa qilish yetarlicha asosli emas deb hisoblaymiz.

Mazkur maqolani tayyorlashda qimmqqli tavsiyalarini bergan Xalqaro Dzyudo Federatsiyasi Akademiyasi (IJF Academy) ilmiy eksperti professor Attilio Sakripantiga o'z minnadorchiligidizni bildiramiz.

Adabiyotlar

1. Tudor O. Bopma., Carlo A. Buzzichelli. Periodization: theory and methodology of training. Sixth edition. Champaign, IL. Human Kinetics, 2019. P. 5-6.
2. Sacripanti. A. Biomechanical classification of judo throwing techniques (Nage Waza). 5th International Symposium of Biomechanics in Sport. Greece, Athens-1987. p.181-194.
3. Chaabane, H., and Negra, Y. Physical and physiological assessment, in Karate Kumite: How to Optimize Performance, OMICS Group e-Book. Ed H., 2015.
4. Тараканов.Б.И. Комплексная оценка технико-тактического мастерства борцов/Б.И.Тараканов // Спортивная борьба: Ежегодник. – М.: Физкультура и спорт, 1986.-С.44-45.
5. Mahin E., Mohammad A. Comparison of athletes' personality characteristics in individual and team sports. Procedia Social and Behavioral Sciences. 5 (2010) 808–812.

UDK 331.108:378+37.0

INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINING O'RNI

L.Usmonova

Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson intellektual kapitali barcha turdag'i kapitallarning eng qimmatlisi hisoblanishi ko'rsatilgan. Bu atama bilan biz insonning kasbiy tayyorgarligi, tajribasi va umumiyligi va maxsus ta'lim orqali egallaydigan to'plangan bilim, ko'nikma va malakalarini nazarda tutamiz. Ta'limni kapitalning muhim shakli sifatida ko'riliishi kerak. Bundan kelib chiqib ushbu maqolada inson kapitalini yuksaltirishda ta'limning o'rni o'r ganilgan va uni amalga oshirish bo'yicha tegishli xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, intellektual kapital, ta'lim, masofaviy ta'lim, universitet ta'limi.

Роль системы образования в формировании человеческого капитала

Аннотация. В данной статье показано, что человеческий интеллектуальный капитал является наиболее ценным из всех видов капитала. Под этим термином мы подразумеваем накопленные знания, навыки и умения, которые человек приобретает в результате профессиональной подготовки и образования. Образование следует рассматривать как важную форму капитала. Поэтому в данной статье исследуется роль образования в повышении человеческого капитала и даются соответствующие выводы и рекомендации по его развитию.

Ключевые слова: человеческий капитал, интеллектуальный капитал, образование, дистанционное образование, университетское образование.

The role of the education system in the formation of human capital

Abstract. The article shows that human intellectual capital is the most valuable of all types of capital. By this term, we mean the accumulated knowledge, skills and abilities that a person acquires as a result of vocational training and education. Education should be seen as an important form of capital. Therefore, this article examines the role of education in increasing human capital and provides appropriate conclusions and recommendations for its development.

Keywords: human capital, intellectual capital, education, distance education, university education.

Jahon tendensiyalari va mamlakat taraqqiyotidagi ichki to'siqlarni aks ettiruvchi uzoq muddatli muammolar orasida ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omiliga aylanib borayotgan intelektual kapital rolining tezlashib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning raqobatbardoshligi tobora yangi bilimlar, malakali kadrlarning sifati, ularning ijodkorligi va o'zgaruvchan bozor va ijtimoiy rivojlanishning ijtimoiy sharoitlariga yetarli darajada moslashuvi bilan belgilanadi.

Innovatsion iqtisodiyot ilm, malaka, tajriba, ya'ni inson kapitalining transformatsiyalashuvi munosib ish o'rnlari hamda undan foydalanishning yangi shakllarini talab etadi. Shu sababli, ish bilan bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish bugungi kunning talabi hisoblanadi. Mehnat faoliyatining intellektuallashuvi, inson kapitalini rivojlanishi va ish bilan bandlik shakllari trasnformatsiyalashuvi bir biri bilan bog'liqlik va o'zaro ta'sirga egadir, xususan, ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari inson kapitalini shakllantirish va rivojlanirish uchun shart sharoitlarni yaratadi hamda talablarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Nagoya universitetidagi uchrashuvdagi nutqida ta'kidlaganlaridek, «Zamonaviy dunyoda inson kapitali, intellektual salohiyat, innovatsion g'oyalar, yuqori texnologiyalar jadal va barqaror taraqqiyotning fundamental asosini tashkil qilmoqda» [1].

Akademik Q.X.Abduraxmonovning ta'kidlashicha, «Inson kapitali – bu iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oilani rivojlanirish, mehnat resurslarining bilimli qismi, intellektual va boshqaruv mehnati, yashash va ish joyi muhitidir. Ular inson kapitalini rivojlanirishning ishlab chiqarish omili sifatida samarali va oqilona amal qilishini ta'minlashi kerak» [2, 216-b.].

Hozirgi vaqtida jamiyatning ko'pgina sohalariga innovatsiyalar joriy etish zamon talabidir. Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilm-fan, ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanirish uchun resurslarni ko'paytirishga sarmoya kiritayotgan mamlakatlar barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish va aholi uchun yuqori hayot sifatini ta'minlashga qodir. Bunga misol Janubiy-Sharqi Osiyo mamlakatlaridir, ular o'zlarining ilg'or rivojlanishida tez sur'atlar bilan qadam tashladilar va dunyodagi eng yuqori rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirdi. Ta'lim, fan va axborot texnologiyalariga keng ko'lamli investitsiyalar ularning muvaffaqiyatlarining asosiy omili bo'ldi.

Mamlakatning rivojlanishining asosiy omili inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hisobalanadi. "Inson kapitali" atamasini dastlab amerikalik iqtisodchi Teodor Shuls tomonidan ilmiy faoliyatda foydalanilgan. U o'z asarlarida odamlarning farovonligi yer, texnologiya yoki ularning sa'y-harakatlariga emas, balki bilimga bog'liq ekanligini ta'kidladi va iqtisodiyotning ushbu sifat jihatini "inson kapitali" deb atadi. Uning "Odamlarga investitsiya yo'naltirish: aholi sifati iqtisodiyoti" asarida quyidagi ta'rifni beradi: "barcha inson resurslari va qobiliyatları tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi. Har bir inson o'zining tug'ma inson salohiyatini belgilovchi individual genlar to'plami bilan dunyoga keladi. Investitsiyalar orqali kuchaytirilishi mumkin bo'lgan insonning orttirilgan qimmatli fazilatlarini, biz inson kapitali deb ataymiz" [5, 91-b.].

"Inson kapitali" kategoriyasini shakllantirish borasidagi tadqiqotlar olimlarning qarashlari vaqt o'tishi bilan o'zgarib, xilma-xil yondashuvlar yuzaga kelganligini ko'rsatdi.

"Inson kapitali" tushunchasining turli talqin va ta'riflarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu ta'riflarning barchasi yagona asosga egadir – bilim, ko'nikma va qobiliyat shaklidagi ta'lum. Bularsiz ramziy kapitalni

to'plash va tarixiy rivojlanish sifatida hayotni assimilyatsiya qilish hamda daromad keltirishi mumkin emas.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronovning ta'kidlashicha "Inson kapitali bu – odamning o'ziga va mamlakatiga, butun xalqiga foyda keltirish yo'lidagi tayyorgarligidir...tarbiyaga sarflangan sarmoya foydasini 4 barobardan 17 barobargacha ko'tarish bizdan pedagogik tafakkurimizni o'zgartirishni talab qilmoqda" {5}

Biz tadqiqotimizda asosiy e'tiborni nomoddiy inson kapitalini tahlil etdik. Bunga umumiylar ta'lim va maxsus tayyorgarlikka yo'naltirilgan harajatlar kiritildi. Inson kapitalining ushbu komponentini ta'lim kapitali deb atashimiz mumkin. Ta'lim kapitali o'z ichiga uzoq muddatli ijtimoiy va ishlab chiqarish samarasini ta'minlovchi shaxsga investitsiyalar natijasida inson tomonidan to'plangan tajriba, nazariy bilimlar tizimi, amaliy ko'nikmalar, qobiliyatlar, motivatsion soha, moddiy, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarni o'z ichiga oladi.

1. Zamonaviy sharoitda inson kapitali jamiyatning asosiy qadriyati va iqtisodiy o'sishning asosiy omili hisoblanadi.

2. Inson kapitalini shakllantirish shaxs va jamiyatdan yuqori xarajatlarni talab qiladi.

3. Ko'nikma va qobiliyatlar shaklida inson kapitali muayyan zaxira hisoblanadi, ya'ni, to'planishi mumkin.

4. Inson kapitali jismoniy eskirishi, o'z qiymatini iqtisodiy jihatdan o'zgartirishi va amortizatsiya qilinishi mumkin.

5. Inson kapitaliga investitsiyalar odatda uning egasiga kelajakda yuqori daromadni kafolatlaydi.

6. Inson kapitaliga investitsiyalar juda katta hajmda, uzoq muddatli va ajralmas iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirga egadir.

7. Inson kapitalining investitsiya davri jismoniy kapitalga qaraganda ancha uzoqdir. Jismoniy kapitalga 1 yildan 5 yilgacha tashkil etsa, insonga ta'lim shaklidagi investitsiyalar 12-20 yilni tashkil etadi.

8. Inson kapitali jismoniy kapitaldan likvidlik darajasiga ko'ra farq qiladi. Ushbu kapital uning tashuvchisi bilan ajralmasdir.

9. Davlat, oila, xususiy va boshqa shakllanish manbalaridan qat'iy nazar., inson kapitalidan foydalanish va bevosita daromad olish shaxs tomonidan nazorat qilinadi.

10. Inson kapitalining faoliyat ko'rsatishi, undan foydalanish qaytmi darajasi sub'ektning erkin irodasi, shaxsiy imtiyozlari, moddiy va ma'naviy qiziqishi, mas'uliyati, dunyoqarashi va madaniyatning umumiy darajasi bilan belgilanadi [3, 46-b.].

Inson intellektual kapitali insonning barcha ichki boyligi sifatida barcha turdag'i kapitalning eng qimmatlisidir. Bu atama bilan biz insonning kasbiy tayyorgarligi, ish tajribasi va umumiy va maxsus ta'lim orqali egallaydigan to'plangan bilim, ko'nikma va malakalarni nazarda tutamiz. Ta'lim kapitalning muhim shakli sifatida ko'riliши kerak.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya faqat pedagogik jarayon emas, u jamiyatni, ijtimoiy faoliyatni o'zgartirishning tizimli omilidir.

Ta'lim jarayonining natijasi faqatgina bilim berish emas, balki bilimga ega bo'lgan va qo'llay oladigan mukammal inson bo'lishi kerak. Ta'lim nafaqat axborot va ma'lumot uzatish (hattoki eng qimmatli, shaxsni rivojlantirish uchun eng foydal) yoki intellektni yuksaltirish, balki his-tuyg'ularni mukammallashtirish, bir shaxsning individual noyob ichki dunyosini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Zamonaviy bilimli inson, albatta, o'z faoliyati sohasida yaxshi bilimga, muayyan malakaga, ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Lekin bu uning ta'lim darajasini belgilab bermaydi. U rivojlangan ichki dunyoga ega, ma'naviy yetuk, axloqiy, mas'uliyatli shaxs bo'lishi kerak.

Inson kapitali, insonning barcha ichki boyligi sifatida inson va uning borlig'i mohiyatining ma'naviy-axloqiy komponentisiz tasavvur yetib bo'lmaydi. Bu komponent, shaxsning asl mohiyati sifatida, bizning davrimizda qiyin sharoitlarda shakllanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra xulosa qilishimiz mumkinki, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratuvchi mamlakatlar dunyoda yetakchilikka erishmoqda. XXI asrda standart texnologiyalar, barqarorlik, rejalashtirish o'rniga yangi g'oyalarni yaratish, saralash, hayotga tatbiq etishga asoslangan yangicha dunyoqarash shakllanmoqda. Yangilanishlarning yuqori sur'ati ta'lim muassasalarining ham axborot oqimi keskin oshishiga moslashishni talab etmoqda.

Bilimlar yangilanishining yuqori sur'atlari ta'lim muassasalarini bozor sub'ektlari sifatida axborot oqimlarining o'sishiga moslashtirishni talab etadi.

Ta'lim tizimi yangi g'oyalari generatori bo'lishi va yangi xizmatlar va yangi bilimlar asosida o'z ta'sirini oshirishi lozim. Zamonaviy samarali universitetning imkoniyatlari nafaqat o'z resurslarining hajmi,

balki tashqi muhit (qonunchilik tizimi, ilmiy va texnologik taraqqiyot, raqobat va boshqalar) bilan belgilanadi.)ga bog'liqdir.

Olyi ta'lismuassasalarida innovatsionalarni keng joriy etish quyidagi afzallikkarga egadir:

- mijozlarni jalgilab qiluvchi eng yaxshi o'quv dasturlari;
- yangi g'oya va bilimlarning uzluksiz avlodini belgilab beruvchi texnologik rivojlanish;
- moslashuvchan nostandard ta'limgani samarali tashkil etish;
- aqlli talabalar uchun oqilona narxlash siyosati, saralash va chegirmalar asosida iqtidorli talabalarni ta'limga muassasasiga jalgilish.

Ta'limga inson kapitalini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va axborot-texnologik jamiyat sharoitida uning ahamiyati oshadi. XXI asr uchun bilimga asoslangan iqtisodiyot xosdir, ishlab chiqaruvchi kuchlar inson kapitali shaklida amalga oshiriladi va inson kapitali zamonaviy jamiyatning eng qimmatli manbai, hududlar, tabiiy resurslar va to'plangan boyliklardan ko'ra muhimroq degan fikr olimlar orasida tobora ommalashib bormoqda.

Mutaxassislarini tayyorlash sifati va ularning ta'limga darajasi hozirgi kunda insonning shaxsiy muvaffaqiyati va u ishlayotgan korxonaning, tashkilotning davlatda iqtisodiy o'sish va ilmiy-texnologik taraqqiyotning keng tarqalishi bilan birga asosiy omil bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda raqobat afzalliklari mamlakatning yer maydoni, uning boy tabiiy resurslari yoki moliyaviy kapitalning miqdori bilan belgilanmaydi. Endi hamma narsa ta'limga darajasi va jamiyat tomonidan to'plangan bilim miqdoriga bog'liq.

Ta'limga, axborot va tajriba rivojlanishning asosiy omillariga aylandi. "Ishlab chiqarishdan keyingi jamiyatda axborot va bilimlar ishlab chiqarish jarayonida juda muhim rol o'ynaydi.

Inson kapitaliga investitsiya kiritish istiqbolli bo'lib, har yili u ham shaxs, ham butun jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, shaxs ham, jamiyat ham yuqori darajadagi ta'limga manfaatdor – faqat shu shart bilan mamlakat iqtisodiy mavqeini oshirish va ta'limga foydali investitsiya sohasiga aylantirishga umid qilishimiz mumkin. Davlat buning uchun qulay shart-sharoitlar yaratish uchun shunday ijtimoiy siyosatni amalga oshirishi lozim. Shu maqsadda ta'limga dasturlarini shakllantirish va ta'limga jarayonining mazmuni davlatning iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli rejalariga mos kelishi zarur. Mutaxassislariga bo'lgan bozor ehtiyojini va ish o'rinnari sonini doimiy nazorat qilib borish zarur. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida eng muhim omil sifatida inson kapitalidan samarali foydalanish uchun bozor holati va uning rivojlanishi mumkin bo'lgan istiqbollarini hisobga olish muhimdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Nagoya universitetidagi uchrashuvdagagi nutqi. 18.12.2019. <https://president.uz/uz/lists/view/3158>
2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: "FAN", 2019. – 592 b.
3. Dobrinin A.I. Chelovecheskiy kapital v tranzitivnoy ekonomike: formirovaniye, otsenka, effektivnost ispolzovaniya / A.I. Dobrinin, S.A. Dyatlov, Ye.D. Sirenova. SPb.: Nauka, 1999. 309 s.
4. Shuls T. Investitsii v lyudey: ekonomika kachestva naseleniya. –Moskva: INFRA-M, 1999. –232 s.
5. M.Quronov. Baxt uchun kurash dasturi. // Ma'rifat gazetasi – 2019, 16-yanvar, 4-son, {9173}8-9 b

UDK: 372.854

KIMYO FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

D.A.Shayzakova¹, A.M.Nasimov²

¹Chirchiq davlat pedagogika institut, ²Samarcand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada kimyo fanini o'qitishda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanishda interfaol usullardan foydalanan yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, ta'limga sifati, usul, o'qitish uslubi, interfaol usullar, diskussiya, konferensiya, seminar, axborot, maket, model, kasbiy maxorat, namuna, mustaqil, ko'nikma, malaka, ko'rgazmali vositalar, takrorlash, taxlil qilish, vaziyat, tayanch, masala, referat.

Использование интерактивных методов обучения в преподавании химии

Аннотация. В данной статье освещена роль интерактивных методов обучения в формировании знаний, навыков и развитий способности самостоятельного мышления студентов в обучении химии.

Ключевые слова: Педагогическая технология , качество образования, метод, метод обучения, интерактивные методы, дискуссия, конференция, семинар, информация, макет, модель, профессиональное мастерство, самостоятельный, навык, опыт, наглядные пособия, повторение, анализ, состояние, основа, задача, реферат.

The use of interactive teaching methods in the teaching of chemistry

Abstract. In the given, article it is illuminated the role of interactive methods of study in the formation students' knowledge, skills and development of self-thinking ability at teaching chemistry.

Keywords: Pedagogical technology, educational quality, method, teaching method, interactive methods, discussion, conference, seminar, information, layout, model, professional skill, self-sufficient, practice, experience, visual aids , repetition, analysis, state, basis, matter, report.

Pedagogik texnologiya mazmunini aniqlashning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Pedagogik texnologiya tamoyillarini shakllantirish, undan samarali foydalanish, ta'lif sifatini oshirish hamda boshqarishning shunday zamonaviy shakl va usullarini aniqlash imkonini beradiki, buning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyati ham beiqiyosdir.

Faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan kimyo fani mashg'ulotlari (interfaol usullar, diskussiya, konferensiya, seminar kabilalar) fan, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari bo'yicha tayyorlanadi. Talaba kimyo fanini o'rganishda muayyan fan xususiyatlari, o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- kimyo fani nazariy mavzularini qo'shimcha adabiyotlar yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- kimyo fanidan berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- kimyo fanidan seminar va amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
- kimyo fanidan hisob-grafik, kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- kimyo fanidan malakaviy bitiruv ishini tayyorlash;
- kimyo fanidan amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- kimyo faniga oid maket, model, namunalarni yaratish;
- kimyo faniga oid ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash va h. k.

Talabalar kimyo fanidan takrorlash va mashq qilishda mashg'ulotlar paytida olgan bilimlarini takrorlaydi, tahlil qilib, umumlashtirib, fikrlab ko'radi, eslab qoladi, amaliy topshiriqlarni bajarish ko'nikma-lari va malakalarini shakllantiradi. Yangi bilimlarni egallahsha talaba axborot manbalarini izlab topish, ular ustida ishlash, konspektlashtirish, fikrlarni izchil bayon qilish bo'yicha ko'nikmalarni egallaydi, kimyo fanini o'rganish uchun usul va uslublarini o'rganadi.

Kimyo fanidan ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni bajarishda talaba muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish, mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydi, masalani hal qilishga ijodiy yondashishga o'rganadi, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy tavsifdagi, izlanishlarni talab qiladigan topshiriqlarni hal qilish yo'llari bilan tanishadi.

Nazariy va amaliy ta'lif jarayonida talabalar o'zlarining kelajak kasbiy faoliyatlarini uchun kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarini egallab boradi. Bilim, malaka va ko'nikmalarning kelgusida ilmiy bilimlar sistemasini o'zlashtirib olishda baza bo'lib xizmat qilishi uchun ular puxta egallangan, yaxshi mustahkamlangan bo'lishi va talabalar xotirasida uzoq vaqt saqlanishi kerak. Bunga e'tiborsizlik ularning past o'zlashtirishiga, o'qishda orqada qolishiga sabab bo'ladi. Bilim, ko'nikma va malakalarini egallab olishning mustahkam bo'lishi avvalo o'qitish prinsiplari – tushunarllilik, tizimlilik va izchillik, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi, ko'rsatmalilik, talabalarning faolligi kabilarni amalga oshirish bilan bog'liq. Kimyo faniga oid materiallar talabalar bilan suhbat o'tkazish, mashqlar tashkil etish, masalalar yechish va turli amaliy topshiriqlarni bajarish yo'li bilan mustahkamlanadi.

Kimyo fanidan materiallarni esdan chiqarishning oldini olish, esdan chiqqan materialni xotirada tiklash, talabalar bilimini chuqurlashtirish uchun muntazam ravishda turli takrorlashlar o'tkaziladi. Har bir kimyo fani darsida avvalgi dars materiali bilan yangi material o'tasida bog'liklik o'matish maqsadida kundalik takrorlash o'tkaziladi. Takrorlash sust darajada bo'lmashligi kerak. Takrorlash vaqtida qo'shimcha fakt va misollardan foydalanish, o'rganilgan narsa, hodisalarining yangi tomonlarini qarab chiqish, ularni chuqur tahlil qilish, yangi dalillar keltirish, murakkab o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun

bilimlarni qo'llash talab etiladi. Bu talabalarning kimyo fani o'quv materialiga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning fikrlash, ijodiy qobiliyat, kasbiy mahorati hamda mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi.

Talabaning fikrlash rivojiga muhim yo'l ilmiy tushunchalar ustida mustaqil ishlash bo'lib, bu faoliyat kimyo fani darsida boshlanib, quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: kimyo fani haqida nazariy bilimlarni, ma'lumotlarni yig'ib, amaliy jihatdan o'rganish; aniqlangan ob'ektning xususiyatlarini solishtirish, umumiylarini xususiyatlarni ajratib olish va tahlil etish. Shular orqali o'qituvchi talabalarda kimyo fanidan asosiy tushunchalarni shakllantirishga va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga harakat qiladi. Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda:

- kimyo fanidan mavjud materiallarni qismlarga bo'lish;
- kimyoviy kuzatilayotgan hodisalar u umumiy o'xshashliklarni asoslash;
- kimyo fanidan ma'lum bir mavzuning asosiy mazmunini aniqlash;
- kimyodan taqdim etilgan faktlardan xulosa chiqarish;
- xususiyat yoki ketma-ketligiga qarab faktlarni tizimlashtirish;
- kimyo fanidan muammoga yangi, qo'shimcha yechim topish, muammoni yechimiga olib keladigan turli yo'l va usullarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Tajribalar ko'rsatadiki, kimyo fanidan vazifalarga to'g'ri qo'yilgan maqsad talabalarda katta qiziqishni uyg'otadi, qobiliyat, xususiyat, xarakter sifatlarini ijobiylar tomoniga o'zgartiradi, qiyinchiliklarni yengib o'tish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Har bir vazifa u yoki bu maqsadni ko'zda tutadi. Guruhda talabaning maqsadi ko'proq olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan. Bu muhim, ammo bu bilan chegaralanib qolmasligimiz kerak. Talaba kimyo fanidan yangi ma'lumotni egallash jarayonida ularni mustaqil ishlash orqali ma'lum yo'l va usullar bilan tushunishga harakat qiladi hamda amaliyotda qo'llashga intiladi.

Kimyo fanini o'rganishda talabalarning bilimlarni anglash va qabul qilish, ob'ektiv munosabat bildirish, o'rganilayotgan hodisalarini tashqi va ichki ma'nosini yoritish kabi faoliyatlarini amalga oshadi. Daliliy materiallarni o'zlashtirishni turli laboratoriya ishlari, mashqlarni yechish, kimyo fani darsligidagi mavzular ustida ishlash, tevarak atrofdagi hodi-salarni kuzatishda amalga oshirish mumkin. Keyingi faoliyat uchun shunday usullar orqali material to'plash muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyat talabalarda:

- kimyo fanidan mavzular ustida mustaqil ishlashda sxema va chizmalarini tuzish, yangi ma'lumotlar bilan tanishish;
- kimyo faniga oid adabiyotlar va atrof-muhitdan materiallar to'plash, tevarak atrofdagi hodisa va dalillarni o'rganish;
- kimyo fanidan biror bir muammoni manbalar yordamida asoslab berish;
- kimyo fanidan materialning biror bir xususiyatiga qarab guruhlarga ajratib olish va asoslashga tayyorlarlik ko'rish kabi vazifalarni bajarishni talab qiladi.

Kimyo fanidan aniq bilimlarga ega bo'lish, o'rganilayotgan jarayonda turli sabab va munosabatlarni aniqlash, kerakli tushuncha, qonuniyatlarni saralab olish, ket-ma-ketlikni tartibga solishda: ayrim vaziyat va hodisalarining ketma-ketligini anglash; o'qituvchining bergen savollariga mustaqil aniq javob berish; kimyo fanidan oldin o'rganilgan hamda yangi ma'lumotlar o'rtasidagi farqlarni solishtirish; ma'lum vaqt davomida kimyo faniga oid kuzatilgan biror bir hodisaning borishini so'zlab, asoslab berish; kimyo faniga oid hodisa va dalillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash kabilarni bilishi kerak.

Talaba mustaqil ravishda: kimyo fani mavzularidagi asosiy, tayanch va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratib olish; asoslangan ma'lumotlarni mustaqil qayta ko'rib chiqish; kimyo faniga oid yangi ma'lumotlar topish uchun o'tkazilgan amaliy seminar, mashg'ulotlar bo'yicha hisobot tayyorlash, sxema, jadval, grafiklarni tuzish; kimyo fani mavzulariga oid qo'shimcha materiallarni qidirish asosida materialni o'rganish, asosiysini ajratish, xulosa chiqarish kabilarni ham bilish zarur.

Nazariya va amaliyot o'rtasida bog'liqlikni aniqlashda kimyo fanidan amaliy mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega bo'lib, bu talabalardan amaliy ko'nikma, malakalarini talab qiladi. Bular o'z navbatida mustaqil ishlashda tashkil etiladigan: oldingi darsning ma'lumotlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish; kimyo fanidan namunaviy masalalardan farqi bor masalalarni yechish; boshqa fanlardagi ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarni izlab, ularga yechim topish; kimyo fanidan teorema, qoidalarni qo'llab, mustaqil yangi masalalar va ifodalarni tuzish; boshqalardan farqli, yangi hodisalarini tushuntirish, murakkab bo'lmagan ma'lumotlarni mustaqil o'rganish; kimyo faniga oid bir necha hodisalarini solishtirish orqali ularning farqi va o'xshash tomonlarini asoslab berish; xatolarni tuzatish, bartaraf etish ustida ishslash; kimyo fanidan material, sxema, jadvalarni tayyorlash; darslarda referat, ma'ruzalarni yozish kabi mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Kimyo fanidan aniqlashtirilgan o‘quv maqsadlariga o‘zlashtirishning yuqori darajalarida erishilishini ta‘minlash maqsadida Blum hamda boshqa taksonomiya toifalaridan foydalanish, o‘quv maqsadlarini test topshiriq-lariga aylantirishda bularga amal qilish, turli shakllardagi test topshiriqlarini tuzishda O‘zbekistonda yaratilgan invariant testlar texnologiyasidan, shuningdek, muammoli o‘qitish shakl (muammoli savol, topshiriq, vaziyat, masala)lari hamda o‘qitish va yozish tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi interfaol usullari (klaster, sinkveyn, keys stadi, Venn diagrammasi, T-sxema, kubik, va hokazo) dan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratish lozim. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kimyo fanini o‘rganishda mashg‘ulotlar interfaol usullardan foydalanib tashkil etilsa, talabalarning faolligi oshadi, mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, ijodiy tafakkuri kuchayadi, muammolarni yechimini tanlash faoliyati mustahkamlanadi, ayniqsa ilm olishga bo‘lgan intilishi yanada oshadi.

Adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” Farmoni. Toshkent. PF-5847-sonli. 2019 yil 8 oktyabr.
2. Karimov I.A. Yangi fikrlash va ishlash davr talabi–T.O‘zb., 1997.-382 b.
3. O‘z.R. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” – T., 1997.
4. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnye texnologii obucheniya. M., 1995.-240 s.
5. Mirzahmedov B. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usulublari. T., 1994 y.-144 b.
6. Tolipov O’.Q. Talabalarning mustaqil ta’limlarida o‘qitish vosita-lari. T., «Xalq ta’limi», 2000.
7. Golish. S.V. Ta’limning faol usullari: mazmuni, tanlash va amalga oshirish. Ekspress-qo‘llanma. – T.: O‘MKHT rivojlantirish instituti. 2001.
8. Farberman B., Musina R., Djumabayeva F. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari (o‘quv-uslubiy qo‘llanma) T., 2002. 192 b.

UDK: 372. 851

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING GLOBAL JARAYONDAGI BURCH VA VAZIFALARI TEXNOLOGIYASI

F. T. Shodiyev

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini yuksak ma’naviyat va vatanparvarlik ruhida tayyorlash, raqobatbardosh yosh kadrlarning global jarayondagi burch va vazifalari texnologiyasini shakllantirish, shu maqsadda ta’lim tizimini xalqaro talablar darajasida takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: global jarayon, ta’lim texnologiyasi, milliy mafkura, yuksak ma’naviyat, vatanparvarlik ruhi, raqobatbardoshlik, yosh kadr burchi.

Технология обязанностей и ответственности будущего учителя начальных классов в глобальном процессе

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы подготовки инновационных и креативных современных будущих учителей начальных классов в духе высокой духовности и патриотизма, формирования технологии конкурсных заданий и ответственности молодых специалистов в глобальном процессе, а также совершенствования системы образования до международных стандартов.

Ключевые слова: глобальный процесс, образовательные технологии, национальная идеология, высокая духовность, патриотический дух, конкурентоспособность, долг молодого персонала.

Technology of duties and responsibilities of the future primary school teacher in the global process

Abstract. The article discusses the issues of training innovative and creative modern future primary school teachers in the spirit of high spirituality and patriotism, the formation of technology of competitive tasks and responsibilities of young professionals in the global process, and improving the education system to international standards.

Keywords: global process, educational technologies, national ideology, high spirituality, patriotic spirit, competitiveness, duty of young stuff.

Olam ahli va uning tafakkur dunyosi bu kun nafaqat shakl bilan, balki mazmun bilan ham boyib bormoqda. Juhon ta'lim tizimi shuni ko'rsatmoqdaki, har qanday millatning intellektual-ma'naviy qiyofasi milliy hamda global pedagogika orqali shakllanadi. Shu ma'noda, jondan aziz vatanimizda ta'lim tizimi ham mazmun-mohiyati, ham shaklan mantiqiy yangilanayotgani xalqimizning qalbida kelajakka katta umid uyg'otmoqda. Shunga ko'ra jamiyatimizni hozirgi taraqqiyot bosqichida xalqaro standartlar darajasiga mos keladigan oily malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va talab borgan sari oshib bormoqda. Chunki, hozirgi zamon globallashuv jarayonlari ta'sirida bo'lgan hamda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish pallasiga kirgan mamlakatlarning ijtimoiy salohiyati va taraqqiyot potensionali ko'p jihatdan fan va texnologiyani rivojlanganlik darajasi, ilmiy-amaliy innovatsiyalarni jamiyatning turli infrastrukturalarida samarali tatbiq qilinayotganligi bilan begilanishi oydinlashmoqda. Shuning uchun ham jahon hamjamiyatiga tabora moslashib borayotgan O'zbekistonda ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fanni rivojlantirish, o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. "Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta'lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz"(1-448). Shu bilan birga, maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'limni tubdan isloh etish hamda bu sohalarni mazmunini xalqaro miqyosda boyitish uchun jiddiy kirishilmoxda. Bu yo'lida zamonaviy va mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, bilimli hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash, maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim sohasida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyat yo'nalishida zamonaviy bilim va malakaga ega, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini hamda chet tillarini o'zlashtirgan kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlash, bu dargohlarda o'quv-pedagogik va ilmiy-uslubiy, shuningdek, ularda mutaxassislar tayyorlash sifati, ta'lim mazmuni va darajasining davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablariga muvofiqligini ta'minlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitish uslublaridan keng foydalanish asosida o'quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda o'qitishning ilg'or shakllari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va eng muhimi ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni, mustaqillik g'oyalariga sadoqat, milliy qadriyatlariga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbijalash ishlarni tashkil etish talab etilmoqda. Bu g'oyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonida chuqur yoritilgan (2). Shunga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining global jarayondagi burch va vazifalari yanada oshib bormoqda. Chunki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi shuni yaxshi anglab turibdiki, ta'lim tizimida o'qitishni tashkil etish jarayoni, ta'lim berayotgan professor-o'qituvchilar tomonidan fan mazmunini etkazish va ta'lim olayotgan talabalarni o'zlashtirish hamda ularning bilimini to'g'ri baholash tizimi talab darajasida emas, shuningdek, o'quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish borasida ta'lim dasturlari mazmuni va ularni yangilab borish sur'atlari bugungi kunda izchil rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga to'laqonli javob bermaydi. Aslida masala yanada chuqurroq: oliy ta'lim va o'rta maxsus muassasalarini innovatsion va texnologik g'oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmaganligi, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarning tizimli o'rganilmaganligi sohada ilm-fan yo'nalishlarining rivojlanmaganligiga olib keldi. Endi nafaqat pespublika doirasida raqobatbardosh, balki qanchalik balandparvoz eshitilmasin, xalqaro miqyosda o'z o'rniga ega kadrlar tayyorlamas ekanmiz jahon ilm-fani hamda ta'lim-tarbiyasida tomoshabin bo'lib qolaveramiz. Bu ko'rgulikka tushmaslik uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining global jarayondagi burch va vazifalari texnologiyasini qayta ko'rib chiqish shart. Mamlakat taqdirini, Vatan kelajagini xalqaro talablarga javob beradigan yosh kadrlar hal etadi. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir. Bu Vatan oldidagi muqaddas burch va millatni yo yo'q qiladigan, yo bor etadigan kasb egalari haqida gap ketganda jahon tan olgan Singapur tajribasi va Singapur davlatining sobiq bosh vaziri LiKuanning so'zлari eslanadi: «Ko'pchilik mendan Singapurning rivojlangani haqida so'rab, shunday savol berishadi: «Qanday qilib ulkan davlatdan ajralib chiqib, mittigina hudud bilan rivojlangan davlatga aylandinglar? Bu «mo'jiza»ni qanday amalga oshirdingiz?». Ularga javoban shunday deyman: «Men Singapurda mo'jiza yaratmadim. Men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos. Davlat byudjetini ta'limga yo'naltirdim. Muallimni eng quyi

tabaqadan Singapurdag'i eng yuqori martabaga ko'tardim. Davlatdag'i «mo‘jiza»larni amalga oshirgan insonlar — muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan, kamtar avlodni yetishtirib chiqardilar. Buning uchun ulardan minnatdormiz!» - degan edi Li Kuan. Bu ulug'vor g'oyani teran tushungan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o'z raisligida 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi kuyunchalik bilan shunday degan edi: "Keling, o'zimizga savol beraylik: bizning eng katta kamchiligimiz nimada? Kadrlar darajasida, bilmida, dunyoqarashda, vatanparvarlikda. Bularning barchasi unday emas, desak adolatdan bo'lar edi. Maktablarni o'zgartirmasdan biz insonni, jamiyatimizni o'zgartira olmaymiz. Bu aksioma, buni hech kim rad eta olmaydi. Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktab o'qituvchisini moddiy rag'batlantirmasak, uning hayot sifati darajasini oshirmsak, islohot, natija haqida gapira olmaymiz. Maktablar tizimini rivojlantirish uchun bundan buyon ham mablag'ni, imkoniyatni aslo ayamaymiz. Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog'liq". Demakki, taqdir bilan o'ynashib bo'lmaydi. Millat kelajagini hal etishda, olam uzra tenglar ichra teng bo'lishda, qadimgi sharafli o'rnikimizni qayta topishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ham o'z o'rni bor. Shunga ko'ra, ular quyidagi hujjatlar hamda talablarni mukammal egallashlari lozim: bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, Davlat ta'lim standartlarini, o'zi kelajakda o'qitadigan o'quv fanining ilmiy-nazariy asoslarini, uning mazmuni va amalda qo'llanilishi, o'qitadigan fan bo'yicha dars o'tish metodikasi va tashkil qilish tartibini, o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashning ilg'or shakllari va intensiv usullarini, o'quvchilar bilimini baholashning zamonaviy, samarali shakllari, nazorat usullarini, o'quvchilarini faolligini rag'barlantirib borish va o'zlashtirishini baholashning reyting tizimini, pedagogika, yosh psixologiyasi va fiziologiyasini, o'quv jarayoni texnik vositalarini amaliyotda qo'llashni, sanitariya-gigiena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalalarini. Yuqoridaq talablardan jiddiy savol kelib chiqadi: Xo'sh, XXI asr O'zbek o'qituvchisining burch va vazifasi nimadan iborat? Qachon uni fikr qaramligi, tafakkur qulligi tark etadi? Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining maqsadi-chi? Uning zimmasida qanday mas'uliyat bor? Milliy tarbiya sohasining zukko olimlaridan biri, professor M. Quronov bu borada shunday mulohaza bildiradi: "Millat dardiga darmomni boshqalar emas, uning farzandlari izlaydilar, topadilar. 150 yildan ortiq bizga, ya'ni mening va Sizning ajdodlarimizga yetkazilgan ma'naviy jarohatlarni milliy mafkura ila shifolamoq - burchimiz"(3-6). Olim o'z fikr-mulohazalarini davom ettirar ekan: "O'zbek xarakteri mingga yaqin sifatdan iborat. Unda ijobiliyari ham, salbiyari ham bor. Hozir biz qutulishimiz kerak bo'lgan eng muhimlari: 1. Beparvolik. 2. Beg'amlik. 3. Mahalliychilik. 4. Hech kim bilan munosabatni buzmaslikka intilish. 5. Loqaydlik. 6. Islohotlar mohiyatini bilmaslik. 7. Dunyoqarashning torligi. 8. Jur'atsizlik. 9. Eskicha fikrlash. 10. Shaxsiy saoqat ustuvorligi. 11. So'z va ish orasidagi tafovut. 12. Hafsalasizlik va boshqalar. Milliy yuksalishimiz uchun takomillashtirish zarur bo'lgan ijobiy sifatlar esa: 1. Ruhan uyg'oqlik. 2. Bilimdonlik. 3. O'zini millat ishiga tikkunlik. 4. Ona tiliga fidoyiliik. 5. So'z va ish birligi. 6. Vatan uchun o'z farog'atidan kecha olish. 7. Qat'iyatlilik. 8. Uquvlilik. 9. Hushyorlik. 10. Ishbilarmonlik. 11. Vaqt ni qadrlay bily. 12. Intizomliliq. 13. Mas'uliyatlilik. 14. O'z ustida doimo ishlash. 15. Vatanparvarlik. 16. Halollik. 17. Tashabbuskorlik. 18. Burchga sadoqat. 19. Fuqarolik mas'uliyati va boshqalardir. Loyiha bo'lmasa ko'p qavvatli uyni qurib bo'lmaydi. Buyuk xarakterni ham. Masalaga aniq, yani ilmiy yondashuv shuni taqozo qiladi. Demak, XXI asr o'zbek xarakterining modelini yaratish lozim" degan xulosaga keladi(3-22-23). Shuningdek, professor M.Quronov o'zining "Bolam baxtli bo'lsin desangiz" kitobida o'zbek bolasining yuzlab fazilatlariga ham izoh beradi. (4-299-300). Bu fazilatlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zimmasidagi mas'uliyat hamdir. Qomusiy olim Az-Zamaxshariy uqtirganidek: "Zimmangda farz bo'lgan narsani qarz va burch o'rniда qo'y. Bu hol qalbing-u dilingga rohat baxsh etib, shon-u sharafing va obro'yingni saqlash uchun eng to'g'ri yo'ldir"(5-21). Bu o'tlig' fikrlar alloma A. Navoiyning: "Aql ila olam yuzin obod qil, Xulq ila olam elini shod qil" degan hikmatlariga hamohangdir (6-220). Zero, aql va xulq bilan qurollangan avlod jadidchi ma'rifatparvar M. Behbudiy kabi fikrlaydi hamda Vatan uchun borini berishga shay bo'ladi: "Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq saodati uchun qurbanlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz"(7-142). Bu ikki dunyo saodatini ulug'laydigan hikmatlar Vudro Vilsonning mashhur aforizmini yodga soladi: "Millat obro'si millatning boy yashashidan, hatto millatning mavjudligidan ham qadrli"dir(8-329). Bu hikmat yoshlar yodiga sadoqat tushunchasini chorlaydi. A.Avloniy ta'rifiga ko'ra: "Sadoqat bir fayzi ma'naviydirki, u fayzdan hissasini olmak har bir kishining muqaddas vazifasidur"(9-67). Bu muqaddas vazifa mazmunida maqsad mayog'i yog'du sochadi. Shuning uchun ham falsafa fanlari nomzodi M. Sobirova ta'biri bilan aytganda: "Ma'lumki, har qanday kurashdan, u qanday bo'lmasin, ma'lum bir

maqsad ko‘zda tutiladi. G‘oyaviy kurashdan ko‘zlangan asosiy maqsad – insonlarning, avvalambor, yoshlarning qalbi va ongini zabt etish, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi millatlarning an'anaviy tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazish, ularni o‘z ta’siriga tortish va tobe qilishdir”(10-71). Yot ta’sir va tobekka tushib qolmaslik uchun ilm olmoq burch hamda vazifadir. Chunki, alloma Jon Kennedi eslatganidek: “Ilm olmagan farzandlar yo‘qotilgan farzandlardir”(11-10). Bu xavfdan xavotir nechog‘li ulkanligini his etgan olim M. Quronov: “Agar biz bolalarimizni jahondagi tengdoshlari bilan intellektual, ma’naviy raqobatga tayyorlamasak, ular ojiz bo‘lib qoladilar. Shunday bo‘lishini xohlaysizmi? Aslo, dedingiz. Demak, kimning uyida farzand o‘sayotgan bo‘lsa, unga (sport tilida aytganda) “bo‘lajak jahon championi”, deb qarasin. Uning rivojlanishiga barcha sharoitni yaratib, bir soat ham vaqtini bekor sarflamasligiga erishishimiz kerak. Ana shunda haqiqatan ham har bir O‘zbekiston o‘g‘il-qizi o‘z ishini, sohasining championi bo‘ladi. Biz esa ustoz, murabbiy, trener sifatida hurmat-izzatlarga sazovor bo‘lib yashaymiz”(12-227). Buning uchun esa dunyoga mashhur vatandoshimiz M. Norbekov aytganidek: “Sog‘lom bo‘lish, farovon hayot kechirish, baxtli bo‘lish sizning maqsad sari intilish darajangizga, vijdonliligingizga, ichki intizomingizga, saboqni o‘zlashtira olish qobiliyattingizga bog‘liq. Siz o‘zingizdagি hozircha mudroq xislatlarni ishga tushurmoqchi ekansiz, u u holda yaxshigina ter to‘kishingizga to‘g‘ri keladi”(13-10). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘ladigan yoshlar ikki bor ko‘proq ter to‘kishi shart. Shundagina Milliy tarbiyamizning me’morlaridan biri M. Quronov orzulagan yosh o‘qituvchilar elimizning ham yuzi, ham ko‘zi bo‘lgan bolalarni tarbiyalash uchun millat yukini xalqaro maydonda ham ko‘tarishga shay bo‘lajaklar: “Mustaqil O‘zbekistonning ma’naviy sog‘lom yosh avlodni, millatning bo‘lajak vatanparvarlari, milliy g‘urur, odob, vijdoniylig sohiblarini tarbiyalashning eng mushkil yuki pirovard natijada o‘qituvchining zimmasiiga tushadi”(14-190). Komillik yo‘lida O‘zbek bayrog‘ini baland ko‘taradigan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga chin vatanparvar Uztoz shoira Halima Xudoyberdiyevaning o‘tlug‘ da‘vatiidan boshqa tilak yo‘q:

Qon aslan yorug‘lik. Yorug‘lan, tiz cho‘k.
Asl mard Vatanga tiz cho‘kib o‘tar.
Qancha qoning bo‘lsa, Vatan uchun to‘k,
Qancha shoning bo‘lsa – Vatanni ko‘tar! (15-5).

Adabiyotlar

- Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O‘zbekiston, 2018, 448-b.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni. –T.: 2019-yil, 11-iyul.
- Quronov M. O‘zbek xarakteri va milliy g‘oya. –T.: Ma’naviyat, 2005, 6-b.
- Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin desangiz... -T.: Ma’naviyat, 2014. 299-300-b.
- Hikmatlar shodasi. –T.: O‘zbekiston, 2013, 21-b.
- Navoiy A. Hikmatlar.-T.: O‘zbekiston, 2011, 220-b.
- Hikmatlar shodasi. –T.: O‘zbekiston, 2013,142-b.
- Hikmatlar shodasi. –T.: O‘zbekiston, 2013,329-b.
- Avloniy A. Tanlangan asarlar.2-j. –T.: Ma’naviyat,1998, 67-b.
- Globallashuv.Ommaviy madaniyat.Milly g‘oya. –T.: Ma’naviyat,2009, 71-b.
- Hikmatlar shodasi. –T.: O‘zbekiston, 2013,110-b.
- Quronov M. Bizni birlashtirgan g‘oya. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. 227-b.
- Norbekov M. O‘z ustingda ishla. –T.: Adabiyot uchqunlari,2015.10-b.
- M. Quronov. Milliy tarbiya. T.: Ma’naviyat,2007. 190-b.
- H. Xudoyberdiyeva. Saylanma. –T.: Sharq, 2000. 5-b.

UDK: 372

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA AKTdan FOYDALANISH

M.E. Marufova

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’limda AKT vositasida didaktik jarayonlarni tashkil etish haqida fikr bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, faoliyat, bola shaxsi, pedagog kadrlar, ta’lim tizimi, tarbiyaviy ishlar.

Использование ИКТ в дошкольных образовательных организациях

Аннотация. В статье освещены вопросы дидактических занятий на основе ИКТ в дошкольных образовательных учреждениях, которые имеют важное значение в развитии интеллектуальных способностей детей; формированию нравственности и предполагает развитие речи, овладение её культуры.

Ключевые слова: личность ребёнка, коммуникативная направленность дидактические занятия, дошкольные образовательные учреждения, интеллектуальные способности, формирование нравственность, развитие речи.

Use of information and communication technologies in preschool educational organizations

Abstract. The article deals with the communicative orientation of didactic classes in preschool educational institutions, which are important in the development of children's intellectual abilities; the formation of morality, spiritual development; involves the development of speech, the mastery of its culture.

Keywords: personality of a child, communicative orientation, didactic classes, preschool educational institutions, intellectual abilities, morality formation, speech development.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyatini monitoring qilish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, tarbiyalanuvchilarda shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirish, maktabgacha ta'lif sohasida bolalar qamrovini oshirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lif sub'yeqtulari ehtiyojlarining qondirish, har jihatdan maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatları, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish vazifalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha ta'lif mazmuni bolalarda aqliy faoliyat usullari, o'quv jarayoni mazmunini o'zlashtirishda ularning istiqbolga yo'naltirilgan muvaffaqiyatli faoliyatları, o'rganilayotgan mavzuni tushunishlari, ularning samarali faoliyatini nazarda tutgan holda tanlanishiga e'tibor qaratiladi.

O'quv mashg'ulotlari mazmuniga ma'lumotlarning ixchamligi, tushunarli bo'lishi, uni o'zlashtiradigan bolalarning yosh xususiyatlari, mantiqiy fikrlash darajalari bilan sezgilari, so'z hamda ko'rgazmali timsollar, anglangan va anglanmagan holatlar, hodisalar, taxminiy va chuqur o'ylangan farazlar orasidagi mutanosiblik ta'minlanishi lozim.

Maktabgacha ta'lif mazmuni bolalarda aqliy faoliyat usullari, o'quv jarayoni mazmunini o'zlashtirishda ularning istiqbolga yo'naltirilgan muvaffaqiyatli faoliyatları, o'rganilayotgan mavzuni tushunishlari, ularning samarali faoliyatini nazarda tutgan holda tanlanishiga e'tibor qaratiladi.

Maktabgacha ta'lif mazmunining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'lishi kyerak:

- metodologik, metodik, didaktik va psixologik tizimning amal qilishi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari maksimal darajada hisobga olinganligi;

- bolalar ongida bilimlar orqali olamning yaxlit manzarasi shakllantirilishi;
- Ularga didaktik mashg'ulotlarda taqdim qilinayotgan o'quv materialining mazmuni orasida integratsiyaning shakllanganligi, har bir didaktik mashg'ulot uchun xos bo'lgan xususiyatlarning hisobga olinganligi;

- nafaqat metodik va didaktik materiallar, balki AKT vositalaridan foydalangan holda bolalarda tafakkur dinamikasining mo'jassamlashtirilishi;

- mashg'ulotlar shakllarini o'zgartirish uchun imkoniyat yaratilishi: jamoaviy ish shaklidan kichik guruhlarga, undan esa aralash shakllarga o'tishning ta'minlanishi;

- "Ilk qadam" davlat dasturi asosida bolalarda fuqarolik va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirishning yangi konseptsiyalari tatbiq qilinishi;

- "Ilk qadam" davlat dasturiga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarda kompetentsiyalarni shakllantirilishi, ularning intellektual, jismoniy, estetik, axloqiy rivojlanishi uchun qulay sharoitning yaratilishi va boshqalar.

Maktabgacha ta'lifda bilimlarni egallash jarayonida bolalar uchun mo'ljallangan AKT vositalari pedagog tomonidan o'qitishning yangi shakllari, metodlari va usullarini taqdim etish asosida takomillashtiriladi. Bunday vositalar sirasiga tabaqlashtirilgan ishlar uchun mo'ljallangan elektron ta'lifiy topshiriqlar(ETT), mantiqiy xarakterdagı elektron mashqlar (MXEM), bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirishga bag'ishlangan savollar va elektron topshiriqlar, diagnostik baholash tavsifidagi elektron topshiriqlar hamda turkum mashqlarni kiritish mumkin(1-rasm).

1-rasm.

Maktabgacha yoshdagи bolalarda kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan AKT vositalarining turlari

Nо	AKT vositalarining turlari	Kutiladigan natija
1	Elektron ta'limiy topshiriqlar(ETT)	Intellektual, jismoniy, axloqiy, estetik rivojlanishi uchun qulay sharoitning yaratilishi
2	Mantiqiy xaraktyerdagi elyektron mashqlar (MXEM)	Mustaqillik, qarorlar qabul qilish layoqatining shakllantirilishi
3	Atrof-muhit bilan tanishtirishga mo'ljallangan elektron topshiriqlar	Estetik va madaniy yetuklik sifatlarining shakllantirilishi
4	Nazorat qilish xarakteridagi elektron topshiriqlar	Egallangan bilim, ko'nikma, kompetentsiyalarni aniqlash
5	Elyektron ta'limiy trenajyorlar	MTTda o'tilgan mashg'ulotlardagi mavzularni mustahkamlash

1-jadvalda aks ettirilganidiek, maktabgacha ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda AKT vositalariga tayanish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Chunki AKT yordamida maktabgacha ta'lim jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- maktabgacha (3-4; 4-5; 6-7) yoshdagи bolalarga bilim, ko'nikmalarni egallah, kompetentsiyalarni shakllantirish uchun ko'maklashish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qilishiga imkoniyat yaratish;
- maktabgacha yoshdagи bolalarda hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish, zarur bo'lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish;
- har bir bolaning ruhiy hamda hissiy jihatdan rivojlanishini ta'minlash kabilar.

MTTlarda bolalarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda AKT vositalarini tanlash asosida o'quv mazmunining samaradorligi ta'minlanadi. Bolaning tajribasi uning yoshi bilan bir qatorda moddiy borliqni anglash darajasini ham ifodalaydi, o'quv jarayoniga har tomonlama moslashishini ta'minlaydi. Bolalarda olamning yaxlit manzarasini idrok etishlari uchun qulay sharoit vujudga keltiriladi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalari uchun AKT vositalarini tanlash didaktikadagi asosiy holatlarni mujassamlashtiradi:

- 1) dastlabki muammoning qo'yilishi;
- 2) muammolarning tahlili va zarur axborotlar haqida ma'lumotlar berish. Buning uchun ular muayyan tayorgarlikka ham ega bo'lishlari lozim;
- 3) masalalarni yechish imkoniyatlarini aniqlash;
- 4) har bir bola o'z shaxsiy tushunchasi doirasida muammolarni qayta shakllantirishiga erishish;
- 5) qo'yilgan muammo tarkibida "Ilk qadam" davlat dasturida ifodalangan talablarga asoslangan holda yondashuvlar, didaktik shakllarni tanlash kabilar.

Maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanishdagi yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda AKT vositalaridan foydalanish quyidagi didaktik prinsiplarga tayangan holda amalga oshirilishi lozim:

1. AKT vositalarida ta'lim mazmunining bola shaxsiga yo'naltirilganligi, uni o'quv jarayoniga moslashtirish va ruhiy qulaylikni ta'minlash asosida rivojlantirishga qaratilganligi;
2. Mazmunning yaxlitligi, moddiy borliq manzarasini ifodalashga qaratilganligi, tizimlilikka asoslanganligi, olamga nisbatan fikriy munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilishi;
3. Bolalarda bilimlarning yo'naltiruvchilik vazifasiga egaligi, aqliy rivojlanishiga urg'u berilganligi;
4. Faoliyatli yo'naltirilganligi – faoliyatga o'rgatish, faoliyatdan o'quv vaziyatiga, undan hayotiy vaziyatlarga o'tishning muhimligi, bolaning hamkorlikdagi o'quv-biluv faoliyatiga o'tishi, yaqin rivojlanish ko'lamiga egaligi, o'z-o'zicha rivojlanishga tayangan holda ijodiy rivojlanish va ijod qilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi kabilar.

Ushbu printsiplar bilan bir qatorda AKT vositalarini maktabgacha ta'lim tizimiga tatbiq etishda quyidagi holatlarga ham tayaniladi:

- a) sog'likni saqlashga yo'naltirilgan metodikalarni tatbiq etish kabilar.
- v) bolaning istiqboldagi rivojlanishga tayyorlash;
- v) maktabgacha ta'limda bolalarning har tomonlama kamol topishlarining amalga oshirilishi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlanishda va zaruriy kompetentsiyalarini shakllantirishda ta'lim jarayoniga turli axborot-kommunikatsiya tyexnologiyalarini

tatbiq qilish, ushbu jarayon mazmunini boyitish, bolalarda esa kreativlik, ijodkorlik namunalarini rivojlantirishga zamin hozirlash zarur.

Adabiyotlar

1. Zakon Respublik Uzbekistan «Ob obrazovani» - Tashkent, 1997
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lif tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” qarori.-Toshkent, 2016 yil, 29 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 3651-soni qarori.-Toshkent, 2018 yil 5 apryel.
4. Gosudarstvyyennaya uchebnaya programma doshkolnogo obrazovatelnogo uchrejdeniya «Ilk qadam» («Perviy shag») - Tashkent, 2018
5. Asmolova E.V. Igri v doshkolnix uchrejdeniyax.-Minsk:Polots, 2018.-164 s.
6. Rojkova O.V. Ispolzovaniye interaktivníx texnologiy v obrazovatelnom protsesse doshkolnogo obrazovatelnogo uchrejdeniya.-Ekaterinburg: Detstvo, 2018.-128 s.
7. Goziyev E. Psixologiya.-Toshkent:O'qituvchi, 2009.-182 s.
8. <https://WWW.maam.ru/Intyeraktivniye+texnologii+obrazovaniya+v+doshkolnix+uchrejdeniyax&oq=Obrazovaniye+v+doshkolnix+uchrejdyeniyax&aqs=chrome>

UDK: 378:796.8(575.1)

YUQORI MALAKALI KURASHCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATI ISHONCHLILIGINI OSHIRISH

O. E. Toshmurodov

*Samarqand davlat universiteti
otoshmurodov74@mail.ru*

Annotasiya. Maqolada yuqori malakali kurashchilarning musobaqa faoliyati ishonchlilagini oshirish masalalari yoritilgan. Musobaqa bellashuvlarida qo'llaniladigan kurashchilarning texnik-taktik harakatlarni takomillashtirishning turli usullari taqdim etildi. Ushbu maqola turli kurash turlari bo'yicha yuqori malakali sportchilar bilan ishlaydigan murabbiylarga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: kurash, musobaqa, texnik taktik tayyorgarlik (TTT) ko'rsatkich, "Shoh" usul, texnik-taktik harakatlari, hujum, hujumkor taktika, oddiy hujum harakatlari (OHH), murakkab hujum harakatlari (MHN).

Повышение надежности соревновательной деятельности высококвалифицированных борцов

Аннотация. В работе рассматриваются вопросы совершенствования надежности соревновательной деятельности высококвалифицированных борцов. Предложены различные методы совершенствования технико-тактических действий борцов, используемых в соревновательных поединках. Статья предназначена для тренеров работающих с высококвалифицированными спортсменами по различным видам борьбы.

Ключевые слова: кураш, соревнование, показатель технико тактическая подготовка (ТТП), "Коронный" прием, технико-тактические действия, атака, наступательная тактика, простые атакующие действия (ПАД), сложные атакующие действия (САД).

Improving the reliability of competitive activities of highly qualified wrestlers

Annotation. The paper considers the issues of improving the reliability of competitive activities of highly qualified wrestlers. Various methods of improving the technical and tactical actions of wrestlers used in competitive matches are proposed. This article is intended for coaches working with highly qualified athletes in various types of wrestling

Keywords: kurash, competition, indicator technical and tactical training (TTT), The "crown" reception, technical and tactical actions, attack, offensive tactics, a simple offensive action (SOA), complex attacking actions (CAA).

Musobaqa faoliyatini boshqarish kelgusida ana shunday bellashuvlarning rejasini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Murabbiy bo'lajak bellashuv rejasini ishlab chiqishda shogirdining raqib ustidan g'alabaga erishish uchun eng samarali taktik harakatlarni aniqlashi, eng muhimmi, raqib sportchi haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, har bir

mutaxassis u yoki bu sportchini musobaqaga tayyorlayotganda uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi ham zarur. Bu ma'lumotlar mashg'ulot jarayoniga tuzatishlar kiritish uchun o'ta ahamiyatlari. Sport texnikalarini o'rganish yo'llari kinematik va dinamik xarakterdagi jismoniy-ruhiy harakatlarning xususiyatlarini ro'yxatga olishning turli usullarini o'z ichiga oladi, bu esa harakatlar elementlarini analitik aniqlash imkonini beradi.

Agar sportchini tayyorlashdan maqsad uni jahon va Osiyo championatlari kabi yirik musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishi bo'lsa, TTT ko'rsatkichlari aniqlanishi uchun ushbu musobaqalarning bellashuv protokollarini tahlil qilishda asosiy e'tiborni yuqori malakali kurashchilarning bellashuvlariga qaratish lozim. Shunday qilib, dastlab sport tayyorgarligi dasturining vazifalari bashorat qilinayotganda ko'rsatkichlarning xarakteri va darajasini aniqlash lozimligini ta'kidlaymiz.

So'ngi paytlarda kurash sporti amaliyotida va adabiyotida "texnik-taktik mahorat" atamasi keng qo'llanilmoqda. Kurash sporti texnikasi deganda tor ma'noda kurashchiga g'alaba keltiradigan harakatlarni bajarishning eng oqilona usullari tushuniladi. Bunda kurashchilarning alohida xususiyatlaridan qat'i nazar, ularga xos bo'lgan biomexanik va fiziologik qonuniyatlarga tayanadigan harakatlar texnika asosini tashkil qiladi. Sportda taktika deganda yuqori sport natijasiga erishish va raqib ustidan g'alaba qozonishning hamma usullari va shakllari tushuniladi. Taktika bir qator omillar majmuasidan tashkil topadi: tayyorgarlikning kuchli tomonlari va raqib kamchiliklaridan foydalanish, texnikani egallashdagi alohida xususiyatlar, chalg'ituvchi harakatlar bilan raqibni aldash, bellashuvdag'i qulay vaziyatlarda ta'sirli usullarni qo'llash, kuchni tejamkorlik bilan sarflash, qoidalarda belgilangan imkoniyatlarni, gilam maydonini, o'zining morfologik hamda fiziologik qobiliyatlarini aniq yuzaga chiqarish va h.k. (3, 4, 6, 7, 8).

Yakkakurash sport turlarida, ayniqsa, kurash sportida, texnika va taktika bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ba'zi mutaxassislar kurashchi harakatlarini tabaqalashgan holda ko'rib chiqishda qaysi bir harakatlarni texnik, qaysilarini esa taktik harakatga ajratishda bir xil fikrga ega emaslar. Aslida esa ular dinamik butunlikni tashkil etadi (5, 6).

Kurash sporti rivojlanishining boshida kurashchilar tomonidan qo'llaniladigan texnikaga qarab texnik-taktik harakatlarni belgilab beradigan qoidalarni yaratilgan edi. Shu tariqa har xil kurash turlari vujudga kelgan. Qoidalalar keyinchalik xar bir kurash turi uchun o'zgartirilgan. Ular yordamida ma'lum harakatlarni cheklash va boshqalarini rag'bathantirishga urinilgan. Qo'llaniladigan texnik-taktik harakatlarning soni va sifatiga qarab, kurash turiga ta'sir ko'rsatish, uning sport hamda tomoshabop xususiyatini yaxshilash maqsadida qoidalarni o'zgartirishga intilishgan.

Yuqori malakali kurashchilar har doim o'zgaradigan qoidalarga qarab texnik-taktik harakatlardan optimal ravishda foydalanishi mumkin. Yangi qoidalarning ham yetakchi kurashchilar mahoratiga qanday ta'sir etishini taxmin qilish oson, chunki ularda yuqoridagilarning ta'sirida ko'proq hujum harakatlarini qo'llash malakasi oshib boradi.

Yuqori malakali sport ustalarining tayyorgarligi tizimida alohidalash tamoyili bajarilayotgan texnik-taktik harakatlar kurashchining o'ziga xos xususiyatlariga qat'iy mos kelishini taqazo etadi. Texnik-taktik harakatlar tuzilmasi uning morfologik xossalari, jismoniy rivojlanganligi, funksional imkoniyatlari, ruhiy tayyorgarligiga javob berishi lozim.

Sport morfologiyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar shuni aniqladiki, gavdaning ma'lum bir total o'lchamlari va nisbatariga ega bo'lgan kurashchilar ba'zi usullarni muvaffaqiyatliroq bajaradilar (6). Masalan, bilaklar qancha uzunroq bo'lsa, bukuvchi va yozuvchi mushaklarning nisbiy kuchi shuncha kam bo'ladi. Son va oyoq qancha uzun bo'lsa, sonni bukuvchi va yozuvchi mushaklarning mutlaq kuchi shuncha ko'p, nisbiy kuchi shuncha kam bo'ladi. Shu sababli, ehtimol, oyoq-qo'llari kaltaroq bo'lgan kurashchilar ko'tarishlarni osonroq bajaradi, chunki ushbu holda ish samarasi nisbiy kuch hajmiga bog'liq. Oyoq-qo'llari uzun bo'lgan kurashchilarga raqibni gilamdan ko'tarmasdan harakatlanish bilan bog'liq bo'lgan usullarni nomustahkam muvozanat sharoitlaridan (qulay dinamik vaziyatdan) foydalangan holda qo'llash qulayroqdir. Bundan tashqari, uzun oyoq-qo'llar yo'l va tezlikdan yutishga imkon beradi. Shu bilan birga texnik-taktik imkoniyatlari kuch tayyorgarligining alohida xususiyatlari bilan ham bog'liq. Raqibni yerdan ko'tarish bilan bajariladigan texnik harakatlarni belni bukuvchi mushaklari yaxshi rivojlangan va nisbatan baland bo'li sportchilar amalga oshirishi mumkin.

Yuqori malakali kurashchilar egallashi lozim bo'lgan hujum texnik-taktik harakatlari minimumi to'g'risida hozirga qadar yagona fikr yo'q. Shunday davrlar bo'lganki, bunda kurashchilar bitta "shoh" usulni egallaganlar va uni muvaffaqiyat bilan qo'llaganlar. Biroq bunday taktika takomillashib borgan va turli taktik harakatlar bilan boyib kelgan. "Shoh" usul turli dastlabki (start) holatdan turib har xil ushslashlar bilan hamda taktik tayyorgarlikning turli usullaridan so'ng amalga oshirila boshlandi. Ayrim kurashchilar har doim bitta "shoh" usul bilan yakunlanadigan 30 ta taktik harakat usullarini ishlab chiqqanlar. Shu bilan

birga hujumni muvaffaqiyatli yakunlashning bir qancha usullarini egallagan buyuk kurashchilar ham paydo bo'la boshladi. Bunday kurashchilar, odatda, eng yaxshi kurash texnikasi uchun sovrinlar bilan mukofotlangan. Lekin yirik musobaqlarda raqobatning o'sib borishi shunga imkon yaratdiki, yuqori malakali kurashchilar o'z texnik-taktik harakatlari ichida "shoh" usulni saqlab qolgan holda taktik imkoniyatlarini kengaytirib borganlar. Ayrim kurashchilar ikkita, ba'zan esa uchta "shoh" usullarni egallab olishgan.

Zamonaviy kurash texnikasini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, buyuk kurashchilar bitta musobaqa davomida turli hujum texnik-taktik harakatlarning 16-20 ta variantini qo'llaydi. Bundan tashqari, kuchli kurashchilar yetarli darajada samarali va ishonchli hujum qiladilar. Hujum taktik jihatdan yaxshi tayyorlangan paytdagina ular maksimal kuch va tezkorlikni ishlatalardilar. Katta kuchni talab etmaydigan taktik harakatlarni qo'llayotib, kurashchilar kuchni tejaydilar va bellashuv oxirigacha ish qobiliyatini saqlab qoladilar. 50% dan ortiq hujum harakatlарini hakamlar ustunlik sifatida baholaydilar.

Aldamchi haraktalar yordamida hujum havfini solish eng muhim taktik harakat hisoblanadi. Aniq hujum harakatlarning aldamchi hujum harakatlariiga 1:2 nisbati 0,5 koeffisiyenti bilan hujum qilish ehtimolini beradi. Bunday ehtimollikni raqib qiyinchilik bilan tushunib yetadi va aniq hujumga qarshi himoyalanishi qiyin bo'ladi.

Sport amaliyoti texnik-taktik harakatlarning hujum, himoya va qarshi hujum tuzilmalarini ishlab chiqdi. Yirik musobaqlarda kurash sportining 400 ga yaqin usullari qayd qilingan. Kurash sportining hozirgi zamonda rivojlanish darajasi kurashchidan hamma turdag'i texnik-taktik harakatlarni egallashni, ularni qo'llashni va maqsadga muvofiq ravishda o'zar o'zaro uyg'unlashtira bilishni taqazo etadi. Biroq hujum texnik-taktik harakatlarning eng asosiyisi hisoblanadi, chunki ular kurash sporti tabiatini bilan bog'liq.

Hujumkor taktika – g'alabaga bo'lgan eng to'g'ri yo'l, chunki u zamonaviy qoidalar hamda yirik musobaqlardagi hakamlik qilish uslubiga ko'proq mos keladi. Jahonning eng yaxshi kurashchilari yorqin ifodalangan hujumkor uslubdagi sportchilardir.

Hujumkor taktika kurashchidan yuqori faollikni talab qiladi. Bunday faollik a'lo darajadagi funksional va ruhiy tayyorgarlikka, kombinasion usuldag'i texnik-taktik harakatlarning turli variantlarini qo'llash malakasi, to'xtovsiz aldamchi va hujum harakatlarni lahzali sport hujumlari bilan almashtirib turilishiga bog'liq.

Texnik-taktik harakatlarni bo'sh egallagan kurashchilar, odatda, o'z raqibini qarshiligidan yengib o'tishga mo'ljallangan foydasiz, nooqilona usullarni bajaradilar. Bunday harakatlar faqat hujum qilayotgan kurashchi kuch jihatdan ustunlikka ega bo'lgan hollardagina muvaffaqiyat keltirishi mumkin.

Yuqori malakali kurashchilar oqilona texnik-taktik harakatlarni qo'llab (bunday harakatlar ular tuzilmasini "biomexanik andoza"ga yaqinlashtiradi), hattoki jismonan kuchli bo'lgan raqibni yengadilar. Ichki va tashqi kuchlar to'g'ri uyg'unlashtirilganda hamda ishga solinganda hujum texnik-taktik harakatlari tuzilmasi tashkil qilinadi. Ushbu tuzilma kuchdan, yoki vaqtadan yutishni ta'minlaydi.

Kurashchilar hujum harakatlari tuzilmasining tahlili raqibni uning gavdasining turli o'qi atrofida 90° dan 270° gacha burchak ostida 8 ta yo'nalishda orqasi bilan pastga ag'darish uchun kuchlar juftligini keltirib chiqaruvchi harakat mexanizmi birligini ko'rsatdi. Tashlash bilan hujum qilishda turli tomonga yo'naltirilgan va gavdaning umumiyo'g'irlik markazi yuqorisiga hamda pastiga burilgan (shu sababli raqib gavdasi lahzali aylanish markazlari atrofida buriladi) ikkita faol harakatlar bilan kuchlar juftligi tashkil qilinadi. Ag'darish va o'girish bilan hujum qilishda kuchlar juftligi tayanch reaksiyasi va ishqalanish kuchi bilan hosil bo'ladigan bir faol, boshqa sust kuch bilan yaratiladi, raqib gilamga tegib turgan nuqtalarida joylashgan o'qlar atrofida uning gavdasi o'giriladi.

Kuch berish joyi va yo'nalishi (raqib gavdasining yuqori qismini ushlab olish va ushlab turish yoki uning oyog'idan qoqish) katta ahamiyatga ega. Muhimi shundaki, aynan shu joylar aylanish o'qidan uzoq turishi va to'g'ri burchak ostida turishi lozim. Parterdagi o'girishlarni uzunasiga o'q atrofida bajarish maqsadga muvofiqdir. Hujum harakatlari tuzilmasini qurishda maksimal amplitudali harakatlari ajralib turadigan elementlar harakatlar o'rtasida bog'lanishlarni yaratish lozim (biomexanikaviy andoza). Qo'llaniladigan hujum harakatlari tuzilmasining maqsadga muvofiqligi hujum qilingan raqib gavdasining aylanish tezligi bilan aniqlanadi.

Oqilona hujum harakatlari tuzilmasini egallash va takomillashtirish hali kurashchiga yuqori sport mahoratini ta'minlamaydi. Ushbu tuzilmalarni raqib bilan olishuvda qo'llay bilish lozim. Raqib ko'pincha tik turish holatida bo'ladi va ma'lum darajada mustahkamlikka ega bo'ladi. Bundan tashqari, kurash jarayonida raqib ko'p hollarda harakatda bo'ladi. U vaqtiga-vaqtiga bilan muvozanatni yo'qotadi va tiklaydi (turli mustahkamlik darajasida bo'la turib), hujum qilayotgan kurashchini muvozanat holatidan chiqarishga va uning harakatlarini bartaraf etishga intiladi. Hujum qilayotgan kurashchi, u yoki bu usulni qo'llayotib, raqibning faol qarshiligidagi duch keladi. Raqib mushaklarini zo'riqtirib va gavda holatini o'zgartirib, hujum

yo‘nalishiga qarab yengib bo‘lmaydigan mustahkam burchakni hosil qiladi. O‘zaro ushslashda turgan holda kurashchilar ko‘pincha bir-biriga suyanadi va umumiy og‘irlik markazli ikkita gavdaning murakkab tizimini vujudga keltiradi. O‘z gavdasi va raqib gavdasining mustahkamlik darajasini hisobga olmaydigan kurashchida to‘g‘ri harakatlar har doim ham muvaffaqiyatli usulga olib kelmaydi. Yo‘nalishi bo‘yicha raqib mustahkamligining katta burchagi bilan mos keladigan usullarni qo‘llash maqsadga muvofiq emas. Usulni raqib gavdasi mustaxkamligining eng kichik burchagi tomonga bajarish lozim. Raqibning mustahkamlik darajasi amalda uning oyoqlari va gavda holati bilan aniqlanadi. Biroq kurash paytida raqib oyoqlar va gavda holatini juda ko‘p marta va tez o‘zgarib turadi. U yoki bu usulni bajarish uchun qulay bo‘lgan holatlarni raqib juda qisqa vaqt ichida egallab turadi. Bunday holatlardan foydalanish shart, chunki hujum qilayotgan kurashchi oldida shunday vazifa turadi: ma’lum bir usul tuzilmasini (uning asosini) bajarish uchun qulay bo‘lgan ikkita gavda (hujum qilinayotgan - hujum qilayotgan) tizimining harakatlanish paytini tanlash hamda uni bajarishga ulgurish.

Usul tuzilmasining ma’lum bir asosini qo‘llash vaqt omili bilan uzviy bog‘liq. Usul shunday paytda va shunday yo‘nalishda bajarilgan bo‘lishi lozimki, bunda ikkala kurashchi gavdalari ag‘darib tashlash uchun qulay holatda turishi kerak. Kurashchilarning bunday holati qulay dinamik vaziyat deb ataladi. Bellashuv paytida texnik harakatlarning turli tuzilmalari uchun ko‘p shunday vaziyat yaratiladi.

Oqilona texnik-taktik harakatlar tuzilmasini (“biomexanik andoza”) qulay dinamik vaziyat paytlarida qo‘llash malakasi yuqori malakali kurashchilar uchun xosdir.

Yuqori malakali kurashchilar kurashda mustahkamlikni mohirlik bilan saqlab turadilar, shuning uchun usulni bajarish uchun kulay dinamik vaziyat paytini tutib olish qiyin. Ular yo‘qotilgan muvozanatni tez tiklab oladilar va faqat ikkita holdagina: o‘z hujumi boshida, ya’ni tik turish holatidan qandaydir usulni bajarishga o‘tayotgan paytda hamda muvaffaqiyatsiz hujumdan so‘ng, ya’ni dastlabki holatga (tik turishga) qaytayotgan paytda o‘z tashabbuslari bilan nomustahkam holatga tushib qoladilar.

Raqibni qulay dinamik vaziyat paytida tutib olish maqsadida o‘ziga hujum qilish uchun unga imkon berish juda xatarli va bu maqsadga muvofiq emas. Shuningdek, raqibning o‘zi o‘ylagan usul uchun qulay bo‘lgan holatni egallahsha umid qilmaslik lozim. Buning ustiga, mohir va tajribali kurashchi tomonidan xato harakatlarni hamda muvozanat yo‘qotilishini kutish samarasizdir. Demak, yuqori malakali kurashchi tik turib parterda kurash olib borish davomida o‘zining texnik-taktik harakatlari bilan qulay dinamik vaziyat paytini tayyorlay olishi lozim.

Hozirda kurash jarayonida oddiy hujum harakatlari (OHH) emas, balki murakkab hujum harakatlari (MHH) ko‘pincha muvaffaqiyat keltiradi. Zamnaviy kurash texnikasini o‘rganish shuni aniqlashga yordam berdiki, usul tuzilmasidan darhol boshlanadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hujum kamdan-kam maqsadga erishtiradi. Odatta, qulay dinamik vaziyatni tayyorlashda va hujum usuli tuzilmalari bitta harakatga, ya’ni - “harakat ansambliga” birlashtirilgan paytda bunday hujum harakatlari muvaffaqiyat keltiradi.

Hujum harakatlari eng oddiy tuzilma guruhlari kiradi. Bunday harakatlarda kurashchi raqib gavdasiga kuch bilan ta’sir ko‘rsatish orqali uni qulay dinamik vaziyat holatiga tushiradi hamda natijaga erishish maqsadida bitta harakat bilan undan foydalanib qoladi. Ushbu holda MHH tayyorlov kuch ta’siri hamda hujum usuli tuzilmasidan tashkil topadi.

Yanada murakab tuzilma guruhlari hujum qiluvchining ma’lum bir harakatlari javoban qulay dinamik vaziyatni yaratadigan raqib reaksiyasidan foydalanishni ko‘zda tutuvchi hujum harakatlaridan tashkil topadi. Kurashda usullarni, ayniqsa, MHHlarini muvaffaqiyatli qo‘llash uchun kurashchi qulay dinamik vaziyatlarni tayyorlash usullarini egallashi va maxsus hujum hamda “harakatlar ansamblini” yarata olishi lozim. Bellashuv jarayonida qulay dinamik vaziyatlarni tayyorlash uchun manevrlar, aldamchi harakatlar va kombinasiyalar qo‘llaniladi.

Yuqori malakali kurashchilar ma’lum bir tuzilmadan iborat kombinasiyalarni, MHHlarini qo‘llaydilar. Birinchi (aldamchi) harakat shu qadar aniq hujum qilish xavfi bo‘lib ko‘rinadiki, deyarli har doim raqibning ma’lum bir himoyalanish reaksiyasini keltirib chiqaradi, hujum qiluvchi bunday reaksiyadan foydalanadi.

Usullar kombinasiyalariga asoslangan tuzilma guruhlardan tashqari, taktik tayyorgarlikning bitta yoki bir nechta usullari bilan asosiy usulning boshqa murakkab xujum harakatlarini ham qo‘llash mumkin. Shuni nazarda tutish kerakki, tayyorlov harakatlari (aldamchi usullar va boshq.) MHHlar samaradorligida katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich harakatlar va hujum harakatining asosiy tuzilmasi turlicha uyg‘unlashganda harakat malakasining butunlay yangi tuzilmasi harakat ansamblini yaratiladi, bunda eskisi ancha o‘zgaradi. Bunday texnik-taktik harakatning asosiy qiyinchiligi dastlabki harakatdan asosiysiga o‘tish joyida harakatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatishdan va kuch berish yo‘nalishi hamda hajmiga ko‘ra harakatlarni unisidan bunisiga o‘tkazishni bilishdan iborat. Shuning uchun harakat yo‘nalishini tez

o‘zgartirish malakasi, uning qat’iy izchilligi, uzlusizligi hamda aynan harakatning bir turidan ikkinchisiga o‘tish paytida kuchning shunga qaratilishga e’tibor berish lozim.

Tadqiqotlar natijalari shunga asos bo‘la oladiki, MHHni muvaffaqiyatlari bajarishning nazariy asosi shundan iboratki, raqib hujum qiluvchi tomonidan rejalashtirilgan kuch berish yo‘nalishini o‘zgartirgan holda bajariladigan bitta murakkab harakatiga ikki marta reaksiya bilan javob qaytarishga majbur bo‘ladi. Shu orqali javob reaksiyasi vaqtি bo‘yicha unga yutqazib quyadi. Avval MHHning boshlang‘ich harakatiga birinchi, yashirin reaksiya davri, so‘ngra motor reaksiya davri va uning to‘xtashi, ikkinchi, latent, MHHga kuch berishning yangi yo‘nalishini bilib olish davri, va, nihoyat, MHHning yakunlovchi harakatiga reaksiya qilishning ikkinchi motor davri keladi. Shunday qilib, MHHning ikkinchi harakati yoki hujum qiluvchi harakatining birinchi qismiga raqib reaksiyasining motor qismi bilan (yo‘nalishga ko‘ra xujumning ikkinchi qismiga mos keladigan) yoki MHHning ikkinchi qismiga latent reaksiya davri bilan (hal qiluvchi harakat uchun qulay bo‘lgan hujum qilingan kurashchingning gavda holati) mos keladi.

Xulosa. Odatda, yuqori malakali kurashchilar qandaydir gipertrofik rivojlangan tayyorgarlik sifatlariga ega bo‘ladilar va shuning uchun ular g‘alabaga erishib keladilar. Kurashchilarning bunday alohida xususiyatlarini hisobga olish va texnik-taktik hujum harakatlarini ulardan imkonli boricha yaxshi foydalangan holda qurish lozim. Hujum harakati tuzilmasini ishlab chiqayotib hamda takomillashtira turib, hujum tuzilmasida bunday sifatlarga bosh o‘rin ajratish kerak.

Musobaqaning umumiyligi taktik ko‘rinishi, alohida bellashuv, umuman, butun musobaqa taktikasi kurashchingning ustun sifatlarini hisobga olgan holda qurilishi lozim. Ular kurashchingning yetarlicha rivojlanmagan boshqa sifatlarini qoplashi shart.

Yuksak sport mahorati texnik-taktik tayyorgarlikni uzlusiz takomillashtirib borishni taqazo etadi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, ko‘pgina kurashchilar yirik musobaqalarda ko‘pi bilan bir yoki ikki marta muvaffaqiyatlari qatnashadilar, bu ularning texnik-taktik mahoratining o‘sishi to‘xtab qolganligi bilan bog‘liq. Kurashda sport mahorati to‘xtovsiz yangilanib va takomillashtirib borilishi natija uchun juda muhim.

Murabbiylarining bilim zaxirasi qancha bo‘lsa, sportchilar o‘shancha taraqqiy etadilar, shuning uchun murabbiylar ham kurashchingning, ham uning raqibining musobaqa faoliyatini doimiy o‘rganib, tahlil qilib borishi kerak.

Adabiyotlar

1. Kerimov F.A. Sport soxasidagi ilmiy tadqiqotlar. – T.: Zar qalam, 2004. – 336 b.
2. Kerimov F. A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. – T.: UzDJTI, 2001. – 286 b.
3. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – М.: ФиС, 2008. – 544 с.
4. Миндиашвили Д.Г., Подливаев Б.А. Вольная борьба: история, события, люди. – М.: Советский спорт, 2007. – 360 с.
5. Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев: Олимпийская литература, 1997. – 583 с.
6. Туманян Г.С. Спортивная борьба. Учебное пособие. – М.: Советский спорт, 2000. – 384 с.
7. Raiko Petrov. Freestyle and Greco – roman wrestling Published by FILA, 1986. – p.257.
8. Raiko Petrov. The ABC of Wrestling, Published by FILA, 1996. – p.101.

УДК: 37

КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ВТОРОГО ЯЗЫКА

U.Y.Abduvakhanova, T.K.Akramova

Международный университет туризма «Шелковый путь»
umida4080@gmail.com

Аннотация. Технология развития критического мышления предлагает определенные методы, приемы и стратегии, которые объединяют процесс обучения при пошаговом внедрении на каждом этапе урока. Критическое мышление, это не отдельный навык, а комплекс навыков и умений, которые постепенно формируются в процессе развития и обучения обучающегося, которые способны выдвигать новые идеи и видеть новые возможности, что очень важно при решении проблем на профессиональном уровне..

Ключевые слова: критическое мышление, интенсификация учебного процесса, высококвалифицированные кадры, творческий подход

Critical thinking and emotional intelligence as an integral part of professional training of second language learners

Abstract. The technology of development of critical thinking offers certain methods, techniques and strategies that unite the learning process by the types of learning activity in the step-by-step implementation at each stage of the lesson. Critical thinking, is not a separate skill, but a complex of skills and abilities that are gradually formed in the course of development and learning of the learner. Critical thinkers are able to put forward new ideas and see new opportunities, which is very important when solving problems in professional sphere.

Keywords: Critical thinking, intensification of teaching process, highly qualified specialists, creative approach

Tanqid fikrlash va emotsiyal qobiliyat - ikkinchi tilning kasbiy tayyorgarlikdagi muhim qismidir

Annotatsiya. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi o'quv jarayonini darsning har bir bosqichida bosqichma-bosqich amalga oshirish bilan birlashtiradigan ma'lum usullar, uslublar va strategiyalarni taklif qiladi. Tanqidiy fikrlash bu alohida mahorat emas, balki talabalarni rivojlantirish va o'qitish jarayonida asta-sekin shakllanadigan, yangi g'oyalarni ilgari surishga va yangi imkoniyatlarni ko'rishga qodir bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlar to'plamidir, bu muammolarni hal qilishda juda muhimdir.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, o'quv jarayonini chuqurlashtirish, yuqori malakali mutaxassislar, ijodiy yondashuv

Сегодня особое внимание уделяется развитию преподавания иностранных языков в современном Узбекистане. Изменение общественно-политической ситуации, развитие международных отношений, активизация интеграционных процессов, новый взгляд на будущее нашей страны, новые задачи требуют подготовки высококвалифицированных специалистов, практически владеющих одним или несколькими иностранными языками. Знание языков становится необходимым компонентом для каждого человека. Актуальными вопросами образовательной политики Республики Узбекистан являются совершенствование профессиональной подготовки специалистов, кардинальное обновление научно-методической системы образования, совершенствование форм и методов обучения, сокращение разрыва между реальным уровнем подготовки специалистов и потребностями работодателей. Подготовка таких кадров требует интенсификации образовательного процесса, развития новых форм и методов обучения.

Под активизацией образовательного процесса понимается построение такого обучения, которое предполагает организацию образовательного процесса на научной основе, создание условий для творческого мышления и научно-исследовательской работы студентов, а также вызывает интерес к их будущей специализации и т.д. В течение всего времени обучения в школе от учащихся ожидается сравнение, сопоставление, оценка, понимание, организация и классификация информации - иными словами, критическое мышление. Это дает учащимся возможность принимать решения и уверенно решать проблемы, которые являются важнейшими навыками в школе и на протяжении всей их жизни. Однако, как скоро мы сможем начать побуждать наших детей к критическому осмыслению окружающего их мира? Сделав несколько небольших шагов, мы сможем развивать у наших детей навыки критического мышления с раннего возраста, подготавливая их к получению среднего образования, высшего образования и, в конечном счете, к карьере.

Целью данного исследования является изучение психолого-педагогических основ развития критического мышления как средства формирования коммуникативных способностей и выявление методов и приемов, наиболее подходящих для использования в процессе изучения английского языка.

Что касается понятия "критическое мышление", то здесь существует широкий спектр мнений и оценок: с одной стороны, оно ассоциируется с негативным, поскольку предполагает спор, конфликт; с другой стороны, объединяет понятия "критическое мышление", "аналитическое мышление", "логическое мышление", "творческое мышление" и др. Несмотря на то, что термин "критическое мышление" давно известен по работам таких известных психологов, как Ж. Пиаже, Ж. Брюннер, Л. С. Выготский, он относительно недавно был использован в профессиональном языке практических преподавателей.

Сегодня в различных научных исследованиях можно найти определение термина "критическое мышление". Я. Браус и Д. Вуд определяют его как разумное рефлексивное мышление, ориентированное на принятие решений о том, во что верить и что делать. Критики пытаются понять

и осознать свое "я", быть объективными, логичными, пытаются понять другие точки зрения. Критическое мышление, по их мнению, - это поиск здравого смысла и способность отказаться от собственных предрассудков. Критические мыслители способны выдвигать новые идеи и видеть новые возможности, что очень важно при решении проблем. Именно это высказывание вызвало у меня интерес к необходимости проведения исследований в области реализации мероприятий и методик развития критического мышления.

Американские педагоги Чарльз Темпл, Джинни Стиль, Кертис Мередит разработали структуру технологии развития критического мышления, состоящую из трех этапов: постановка задачи, концептуализация и рефлексия, а также методологические приемы (запутанные логические цепочки, обозначающие восприятие текста с помощью "V", "+", "-", "?", заполнение кластеров, таблиц).

Под критическим мышлением американские авторы понимают проявление детской любознательности, развитие собственной точки зрения на тот или иной вопрос, умение отстаивать ее логическими аргументами, использование методов исследования. Изучив различные определения термина "критическое мышление", мы выяснили наиболее точное из них, данное Д. Хальперном, который в своей работе "Психология критического мышления" определяет критическое мышление как направленное, сбалансированное, логическое и целенаправленное, отличающееся использованием таких когнитивных навыков и стратегий, которые повышают вероятность получения желаемого результата [3, 41].

Во-первых, были созданы педагогические технологии для того, чтобы сделать результаты обучения более предсказуемыми и независимыми от опыта отдельного учителя. Следовательно, важной особенностью педагогической технологии является передача опыта, его использование другими людьми. Технология развития критического мышления представляет собой целостную систему, формирующую навыки работы с информацией в процессе чтения, разговора и письма. Она направлена на овладение базовыми навыками открытого информационного пространства, развитие качеств гражданина открытого общества, вовлеченного в межкультурное взаимодействие. Технология открыта для решения широкого круга задач в сфере образования. Критическое мышление - один из видов интеллектуальной деятельности человека, характеризующийся высоким уровнем восприятия, понимания, объективности подхода к окружающему его информационному полю.

Используя технологию "критического мышления" на уроках иностранного языка, преподаватель развивает личность учащегося в первую очередь при непосредственном обучении иностранному языку, в результате чего формируется коммуникативная компетенция, обеспечивающая комфортные условия для познавательной деятельности и самосовершенствования. Преподаватель стимулирует интересы учащегося, развивает его желание использовать практически иностранный язык, а также учиться, тем самым делая реальным достижение успехов в освоении предмета. Дать учащимся критические задачи часто бывает трудно, но жизненно важно подтолкнуть их к более критическому мышлению. Учителя должны искать ответы, которые выходят за рамки повторения информации или выражения симпатий или антипатий, так как мы хотим, чтобы ученики испытывали трудности, думая о том, что будет иметь наибольший смысл, или выбирая между несколькими вариантами. Это также распространяется и на оценку успеваемости. При проведении викторин и тестов учителям необходимо следить за тем, чтобы вопросы были построены таким образом, чтобы показать навыки критического мышления, а не только память.

Таким образом, технология развития критического мышления представляет собой структуру урока, состоящую из трех этапов: этапа вызовов, семантической стадии и этапа рефлексии.

I этап вызова: - включает актуализацию существующих знаний; пробуждение интереса к получению новой информации; информация, полученная на этапе вызова, прослушивается, записывается, обсуждается. Работа выполняется индивидуально, парами или группами.

II этап: - Реализация смысла:- включает в себя получение новой информации. На этапе понимания содержания осуществляется непосредственный контакт с новой информацией (текст, фильм, лекция, абзацный материал). Работа выполняется индивидуально или в парах. В групповой работе должно быть два элемента - индивидуальный поиск и обмен идеями, а личный поиск обязательно предшествует обмену мнениями.

III этап: - рефлексия этапа - мышление, рождение новых знаний; позиция новых целей обучения студента. На этапе рефлексии осуществляется анализ, творческая обработка, интерпретация изучаемой информации. Работа выполняется индивидуально, парами или группами.

В интерактивном обучении каждый студент старается внести свой особый вклад, они обмениваются идеями и знаниями, что осуществляется совместной деятельностью студентов в процессе освоения учебного материала. Следовательно, интерактивные упражнения для развития критического мышления - это не только взаимодействие преподавателя и учащегося, но и взаимодействие студента и учащегося, так как все учащиеся в группе максимально вовлечены в процесс обучения и время разговора учащихся (Student Talking Time). Современная педагогика и методики предлагают широкий спектр интерактивных технологий, которые подходят для обучения навыкам разговорной речи. К таким технологиям относятся: эвристическая беседа, консультация, работа в малой группе (в паре или на третьей ротации), ролевая (деловая) игра, дискуссия, незавершенное предложение, метод PRES-формулы, дебаты, случаи решения проблем и многие другие. Все вышеперечисленные интерактивные методы, как показывает практика обучения, развивают разговорные навыки учащихся, расширяют их знания, мировоззрение, чего можно успешно достичь, используя навыки творческого и критического мышления. Также интерактивные методы сочетают в себе как теоретические, так и практические знания студентов, т.е. сначала они воспринимают полученную информацию, а затем используют ее в творческой работе. Критическое мышление, это не отдельный навык, а комплекс навыков и умений, которые постепенно формируются в процессе развития и обучения обучающегося. Технология развития критического мышления предлагает определенные методы, приемы и стратегии, которые объединяют процесс обучения по типам учебной деятельности при пошаговом внедрении на каждом этапе урока.

Анализ методической литературы и наш собственный опыт показывает, что формула PRES (Position-Reason-Explanation-Summary), созданная южноафриканским профессором Дэвидом Маккой-Мэйсоном, является хорошим подспорьем в развитии и совершенствовании умения говорить. Эта методика может быть использована во время дискуссии, так как на начальном этапе обучения студенты университета не знают, как вести дискуссию и слышать друг друга, аргументировано выражать свои мысли. Как отмечает К.Ю. Вартанова: "Основная ценность данного технологического приёма состоит в том, что с его помощью студенты могут активизировать свой мыслительный потенциал, а также сформулировать своё личное мнение в ясной и лаконичной форме, дать лаконичный ответ, выразить собственную точку зрения по тому или иному вопросу, ситуации, проблеме в рамках изучаемых тем". [2, 136].

Для достижения этих целей в ходе дискуссии преподаватели должны научить учеников пользоваться технологией PRES, которая состоит из четырех этапов:

Позиция - я думаю; я верю; я твердо верю; я считаю; я не могу не сказать; я полагаю; я уверена; я не думаю....;

Причина... (аргумент в поддержку позиции) потому что; как; с тех пор; в этом; быть тем;

Пример (факты, иллюстрирующие аргумент), например; допустим;

Следствие - то есть; так; соответственно; следовательно; следовательно.

Thus, using this method, each student has an opportunity to express his or her opinion on a certain topic of discussion in a concise form. With the help of this method, which is a framework for teaching speaking skills, students develop the ability to analyze the material, express their thoughts freely and without coercion, and argue their own point of view. This undoubtedly increases the level of language knowledge and provides an opportunity to improve the speaking skills of philological students.

Thus, the use of critical thinking technology in English language lessons as a means of forming communicative competencies allows significantly increase the time of speech practice in the lesson for each student, achieve mastery of the material by all participants in the group, and solve various educational and developmental tasks. The teacher, in turn, becomes the organizer of the independent educational, cognitive, communicative, creative activity of students, he has the opportunity to improve the learning process, develop the communicative competence of the students, the integral development of their personality.

Таким образом, используя этот метод, каждый учащийся имеет возможность выразить свое мнение по определенной теме обсуждения в сжатой форме. С помощью этого метода, являющегося основой для обучения навыкам разговорной речи, учащиеся развиваются способность анализировать материал, свободно и без принуждения выражать свои мысли, аргументировать собственную точку зрения. Это, несомненно, повышает уровень языковых знаний и дает возможность улучшить разговорные навыки филологов.

Таким образом, использование технологии критического мышления на уроках английского языка как средства формирования коммуникативных компетенций позволяет значительно увеличить время речевой практики на уроке для каждого ученика, добиться овладения материалом

всеми участниками группы, решить различные воспитательные и развивающие задачи. Преподаватель, в свою очередь, становится организатором самостоятельной образовательной, познавательной, коммуникативной, творческой деятельности учащихся, он имеет возможность совершенствовать учебный процесс, развивать коммуникативные компетенции учащихся, всестороннее развитие их личности.

Литературы

1. Richards J.C. and Rodgers S.T. Approaches and methods in language teaching (2addition).- Cambridge university Press,2001.- 230 p.
2. Vartanova K.Y.-A time to speak: a psycholinguistic inquiry in to the critical period for human speech.- M.: Publishing Corporation, 1998.-355 p.
3. Vygotsky N. Children in teaching process.- New York.: Paul Chapman Publishing, 2007.-420 p.
4. James J. Asher . “Learning Another Language Through Actions” –Oxford university Press, 2015.- 430 p.
5. Jeremy Harmer. “The Practice of English Language Teaching” - M.: Publishing House, 2005.-380 p.
6. David Peterson.“Reading English News on the Internet: A Guide to Connectors, Verbs, Expressions and Vocabulary for the ESL Student” - New York.: Paul Chapman Publishing, 2010.-390 p.

UDK: 378

XALQ TA’LIMI TIZIMIDAGI MUASSASALARING YAGONA AXBOROT MUHITINING ASOSIY FUNKSIYALARI

I.B.Aminov¹, R.Tugalov²

¹Samarqand davlat universiteti, ²Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

Annotatsiya. Maqolada xalq ta’limi muassasalarining yagona axborot muhitini yaratish maqsadi, tarkibiy qismlari va asosiy funksiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: axborot muxiti, axborot muxitini yaratish tamoyillari, axborot muxitining tarkibiy qismlari, vazifalari, funksiyalari.

Основные функции единой информационной среды учреждений в системе общественного образования

Аннотация. В данной статье рассматриваются цели создания информационного пространства сновные функции и структура, единого информационного пространства.

Ключевые слова: информационное пространство, основные принципы создания информационного пространства, структура информационного пространства, задачи, функции.

The main functions of a unified information environment of institutions in the public education system

Abstract. In clause the basic functions and structure, uniform information space establishment of national education are considered the purpose creation.

Keywords: information space, basic principles of creation of information space, structure of information space, task, function.

Yangi pedagogik texnologiyalar ta’lim-tarbiya va o‘quvchilar bilimini oshirish uchun yangi metodlarni va yondoshuvlardan foydalanishni talab qiladi. Bu erda rivojlanayotgan axborotlashgan jamiyat sharoitida o‘quvchilarni hayotga tayyorlash, ularning mavjud qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan masalalar muhim o‘rin tutadi.

Bu masalalarni echish uchun zamонави yagona axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish hamda xalq ta’limi muassasasining yagona axborot muhitinit yaratish zaruriyati tug‘iladi.

Ta’lim muassasasining yagona axborot muhitini yaratishning asosiy maqsadi o‘quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirish hamda samarali boshqaruv faoliyatini ta’minlashdan iboratdir.

Xalq ta’lim muassasasining yagona axborot muhitini asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:


- axborotlar turi va hajmining tez o‘zgarib turadigan sharoitda, bilim maskanini bitiruvchisining ijtimoiy moslashish imkoniyatini ta’minalash;

– o‘quvchilar va o‘qituvchilarni axborot muhitiga moslashishni, o‘quv jarayonida va kunlik ish faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni, axborot madaniyatni shakllantirishni o‘rgatish;

- elektron axborot muhitida qobiliyatli va bilimli shaxsni shakllantirish;
- o‘quvchilar va o‘qituvchilarning o‘z ustida mukammal uzlucksiz ishlashi uchun sharoit yaratish;
- o‘quvchilarning mustaqil ishlashi va ijodiy salohiyatini oshirish uchun sharoit yaratish;
- o‘quv jarayoni boshqaruvini maksimal darajada avtomatlashtirishni ta’minlash;

Ta’limni axborotlashtirish jarayonida xalq ta’limi muassasalarini yagona axborot muhitining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat bo‘ladi: tarbiyaviy, axborot, uslubiy, kommunikatsion, texnik, ta’lim, boshqaruv (**1-rasm**).

Boshqaruv funksiyasi ta’lim muassasasi rahbarining faoliyati undan qo‘yilgan vaqtida vazifaning bajarilishini, ishning hozirgi holatini doimiy nazorat qilishni talab qiladi. Bundan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, har qanday boshqarish faoliyati axborotlar, axborotlar bilan ishlash jarayonlari bilan bog‘liq bo‘ladi.



1-rasm. Axborot muhitning asosiy funksiyalari

Texnik vositalar va kompyuterlardan foydalanish axborotlarni yig‘ish va qayta ishlash muddatini qisqartiradi, qabul qilinadigan boshqarish qarorlarini operativligi va sifatini oshiradi.

Ta’lim muassasasida quyidagi tizimlarni boshqarish amalga oshiriladi:

- o‘quv-tarbiya jarayoni;
- kadrlar;
- material-texnik ta’minoti.

Diagnostika o‘tkaziladi:

- ta’lim sifati;
- tarbiyaviy ishning samaradorligi;
- o‘quvchi-o‘quvchilarning salomatligi va ruhiy holati.

Tashkiliy-boshqarish jarayonini ta’minlash uchun rahbariyat boshqalarning avtomatlashtirilgan ishchi o‘rinlarini tashkil etish kerak.

Ta’lim funksiyasida o‘quv yurti yagona axborot muhitining markazida o‘quvchi turadi. Axborot muhit o‘quvchilar uchun yaratilgan bo‘lib, ularni kerakli bilimlarni olishi, doimiy ravishda o‘z ustida ishlab turishi, olgan bilimlarini amaliyotga jalb etishi, fikrlash doirasini kengayishi, mustaqil fikrlay olishi va kerakli qarorlarni o‘z vaqtida qabul qilishi uchun imkoniyat yaratib beradi.

O‘quv muassasasining yagona axborot muhiti birinchi navbatda o‘quv jarayonini tashkil qilish va boshqarish faoliyatini ta’minlashi va unga xizmat qilishi lozim.

Ta’lim funksiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish;
- ilmiy-tatqiqot ishlarini loyihalash va boshqarish;
- o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va boshqarish;
- professor-o‘qituvchilarni va xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- qo‘srimcha ta’lim turlarini tashkillashtirish va boshqarish;

Ta’lim faoliyatini amalga oshirish uchun oliy o‘quv yurti turli predmetlar bo‘yicha har xil tashuvchilarda ta’limning axborot resurslari, shu bilan birga uzlucksiz ta’lim uchun kerakli materiallar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari o‘quv jarayonida ularni samarali ishlashi uchun kerakli shart sharoitlar yaratilishi kerak.

Tarbiyaviy funksiyalar- inson jamiyatda yashaydi va ishlaydi, lekin o'quvchilarga kelajakda jamiyatda o'z o'rnnini topib olishiga imkoniyat yaratib berish kerak. Ularni atrof muhitda bo'ladigan o'zgarishlarni boshqarish lozimligini tushunishga tayyorlash kerak bo'ladi.

Tarbiyaviy ish faoliyatini yurgizish uchun o'quv yurtida muloqot qi-lishning turli imkoniyatlari, shu jumladan ichki lokal tarmoq va Interntg'a chiqish bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Tarmoq texnologiyalari o'quvchilarni nafaqat axborot muhitda, balki oddiy hayotiy faoliyatda ham initsiativlik, ijodkor shakl sifatida takomillashtirish amalga oshiradi.

Ta'lim muassasasining yagona axborot muhitining axborot funksiya-lari quyidagicha:

- pedagogik axborotlar bankini yaratish;
- dasturiy-metodik fondni shakllantirish;
- kompyuter dasturlari fondini shakllantirish;
- kutubxona va mediateka fondini tashkil etish;
- o'quvchilar salomatligi to'g'risida axborotlar bankini yaratish va boshqalar.

Pedagogik axborotlar banki quyidagilardan tashkil topgan:

- ta'lim texnologiyalari;
- pedagogik izlanishlar;
- innovatsion ta'lim loyihalari;
- oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari.

Dasturiy-metodik fondning tarkibi:

- o'quv rejalari va dasturlari;
- axborot manbalar, predmetga va mavzuga birlashtirilgan majmua.

Predmetli va mavzuli majmua turli grafik tasvirlar, turli ko'rinishdagi matnlar, shu jumladan giperilovalar, san'at asarlarining raqamli nusxalari, badiiy va ilmiy-ommabop filmlar va boshqa ob'ektlardan iborat bo'lishi mumkin.

Yangi uquv-uslubiy materiallar ta'lim natijalarini yuqori sifat darajasiga ko'tarish uchun mo'ljallangan.

Kompyuter dasturlari fondi o'quv jarayoni, sinfdan tashkari ishlarni takomillashtirish hamda ta'lim muassasasi ma'muriyati ishini ta'minlash uchun dasturiy vositalardan tashkil topgan bo'lishi kerak.

Uslubiy funksiya quyidagilarni ko'zda tutadi:

- o'quv-tarbiyaviy jarayonni qo'llab quvvatlash uchun uslubiy materiallarni yaratish;
- turli axborot tashuvchilarda axborot-pedagogik modullarni yaratish;
- axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib pedagogik loyihalarni ishlab chiqish.

Yangi ta'lim natijalariga erishish maqsadida o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini shakllantirish axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanmasdan amalga oshirib bo'lmaydi.

Ishlab chiqilayotgan uslub mavjud o'quv-uslubiy komplekslar va adabiyotlardan zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida, hamda ma'lum bir tanlangan fan bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish talabini to'liq ta'minlovchi multimedia adabiyotlaridan foydalanishga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Zamonaviy uslub kommunikativ, intinsiv va faoliyatli ta'limga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Kommunikatsion funksiya-hozirgi vaqtida o'quvchilarda kommunikativ madaniyatni shakllantirishga katta ahamiyatga ega bo'lmoqda, ya'ni u boshqalar bilan muloqot qilish va hamkorlikda ishlash, hamda boshqa kishilar bilan ruhiy kontaktni o'rnatish imkonini beradi. Kommunikatsiyaning asosida muloqotning umumiyligini qabul qilingan ma'naviy talablari yotadi: muloyimlik, kamtarinlik, aniqlik, ogohlantiruvchanlik va hokoza.

Bugungi kunda tarmoq texnologiyasi nafaqat axborotlarni uzatishda, balki muloqotda ham muhim rol o'ynaydi. Lokal tarmoqni tashkil etish va Internetdan foydalanish o'quv muassasasini axborotlashtirish modelining majburiy komponentalaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim muassasasining lokal tarmog'i muassasaning umumiyligini apparat vositalari va infomatsion tizimdan birgalikda foydalanish, ma'lumotlarni tezkor almashtirish imkonini beradi.

Internetga ulanish ta'lim jarayonining barcha ishtiroychilariga nafaqat elektron pochta , World Wide Web (WWW) va arxiv faylarni yuklash xizmatidan, balki telekonferensiyalar va yig'lnlarda ishtiroy etish imkonini beradi. Internetda interfaol muloqot vaqtning real tartibida matnlar, ovozli xabarlar, videotasvirlarni almashtirish imkonini beradi.

Tarmoq aloqasi tufayli yangi ijtimoiy birlashtirishlash shakllanmoqda.

Texnik funksiyada ta'lim muassasasining yagona axborot muhitini yaratish uchun quyidagilar zarur:

- ta'lim muassasasi o'quvchilari uchun ham, xodimlari uchun ham zamonaviy multimedia vositalari bilan jihozlangan ishchi o'rinalarini yaratish;

- lokal tarmoq tashkil etish;
- ixtiyoriy kompyuterdan Internetga murojaat qilish;
- hisoblash vositalari va multimedia texnikalarini modernizatsiyalash va ta'mirlash uchun texnik xizmat ko'rsatish tizimlarini yaratish.

Xulosa qilib aytganda har bir ta'lim muassasasi o'zining shaxsiy axborotlashtirish modeliga, axborot-ta'limga muhitiga, axborot madaniyatni egallagan va ta'limning axborot texnologiyalarini o'zlashtirgan tizimiga ega bo'lishi bugungi kunning muhimm vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Леднев В.С. Содержание образования: сущность, структура, перспективы. - М.: Высшая школа, 1991. - 224 с.
2. Максимовская М. А. Информационное управление школой // Информатика и образования — 2003. — № 11.
3. Раскина И.И. Системный подход к изучению научных основ информационных технологий // Стандарты и мониторинг в образовании, 2004. - № 6.
4. Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании: дидактические проблемы; перспективы использования. - М. : Школа - Пресс, 1994.

UDK: 37.017

TALABALAR ILMIY-TEXNIKAVIY IJODKORLIK FAOLIYATIDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK VA TASHKILIY PEDAGOGIK ASOSLARI

X.X.Igamberdiyev, B.N.Gapparov

Jizzax politexnika instituti

igamberdiyev1953@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyati jarayonida shaxsning ehtiyojlarini shakllantirishni va qondirish uchun imkoniyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ijodkorlik, shaxs, jarayon, sifat, tarbiya, fikrash, etakchilik, munosabat, intilish, mahorat.

Педагогические и психологические основы воспитания творчества у студентов, как научная и техническая деятельность

Аннотация. В статье изложена информация способности студентов о формировании и удовлетворения потребности личности в процессе научно-технического творчества.

Ключевые слова: творчество, личность, процесс, качество, воспитание, мышление, лидерство, отношение, стремление, умение.

Psychogical and organizational pedagogical bases of education of students in cientific and technical creativity

Abstract. The article provides information on the ability of students to form and satisfy the needs of the individual in the process of scientific and technical creativity.

Keywords: creativity, personality, process, quality, upbringing, thinking, leadership, attitude, aspiration, skill.

Ijodkorlikda shaxsning ichki his-tuyg'usini rivojlatirish va tarbiyalash muammosiga etakchi psixologlar vakillari e'tiborini qaratganlar. Ijodkorlikda shaxs hissiy ehtiyojini shakllantirish talabalarni ijodkorlikka tayyorlashning muhim vositalaridan biridir. Bu ishni samarali amalga oshirish esa, shaxs ichki ehtiyojining o'ziga xos bo'lish – psixologik jihatlari tabiat va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilishni taqazo etadi.

Shu ma'noda talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida rahbarning shaxsiy sifatlari namoyon bo'ladigan uning tashkiliy – pedagogik va psixologik jihatlari talabalarda ehtiyojini tarbiyalashning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

Talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyati jarayoni shaxsning ehtiyojlarini shakllantirish va qondirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj deganda, shaxsning yuqori maqsad yoki natijaga erishishga bo'lgan intilishni tushuniladi. Bu ehtiyoj kishining faol izlanishi, tinib-tinchimaslik xususiyatlarini namoyon qiladi.

Birinchilikka erishi ehtiyojining aksi esa omadsizlikdan qochish (qo‘rqish), loqaydlik va tanballik hisoblanadi. Bunday shaxslar muvaffaqiyatga erishidan ko‘ra ko‘proq ortiqcha ko‘ngilsizlik, gap-so‘zdan qochibgina ishlarni nomiga bajaradilar.

Hozirgi zamonda shaxsnинг muhim ijodkorlik faoliyati shakli sifatida fikrlash e’tirof etiladi. Fikrlash 3 ta o‘ziga xos tavsifga ega.

1. **Fikrlash** - bu har xil muammo masallalarini echishga yo‘naltirilgan faoliyat;
2. **Fikrlash** - bu inson ichki tuyg‘usi bilan bog‘liq amalga oshiriladigan faoliyat;
3. **Fikrlash** - bu odamni o‘rab turgan muhit haqidagi tasavvur va tushunchalar asosida vujudga keladigan faoliyat bo‘lib, uning asosini fikrlash jarayoni tashkil qiladi.

Fikrlash jarayoni muammoli vaziyat vujudga keltirilgandan boshlab sodir bo‘ladi. Bu muammoli vaziyat qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar, unda bosh o‘rinda – sub‘ektning ehtiyoji va imkoniyati o‘rtasidagi qarama-qarshilik turadi. Natijada ijodkor shaxs muammo echimini topish uchun ishchi farazni shakllantiradi. Boshqacha aytganda bu erdagи ijodkorlik masalasi muammoli vaziyatda o‘ziga xos fikrlash obrazi (modeli) hisoblanadi. Masalaning qo‘yilishi bilan nima qilmoq va nimani izlamoq (topmoq) kerak, buning uchun nimalar zarur degan ehtiyojiy talablar paydo bo‘ladi. SHunday qilib, ijodkorlik masalasini muammoli vaziyatning modeli deyish o‘rinli bo‘ladi.

Yuqoridagi ehtiyojiy fazilat va xususiyatlar talabalarning yosh xususiyatiga xos muhim shaxsiy sifatlarga ham taalluqlidir. Ularda ana shunday ehtiyojlarni tarbiyalash imkoniyatlari ko‘p. Afsuski ana shunday qudratli ehtiyojni talabalarda tarbiyalash masalasi ba’zi tashkiliy – pedagogik va psixologik tadbirlarning sayozli yoki umuman yo‘qligi tufayli “ochilmagan qo‘riq” dek o‘zlashtirilmay kelinmoqda. Bu erda etakchillika ehtiyoj bilan muvaffaqiyatga ehtiyojlarni bir-biridan farqlash kerak bo‘ladi.

Yetakchilik (liderstvo) ehtiyoji – bu shaxsnинг boshqalardan oldinda bo‘lish, g‘alabaga erishish, o‘zining qarashlari bilan boshqalarni lol qoldirishga intilish kabi fazilatlari bo‘lib, bu ham ijodkorlik jarayonida muhim harakatlantiruvchi omil hisoblanadi. Tajribalarning ko‘rsatishicha, etakchilikka intilish ehtiyoji uyg‘unlashganda talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyati eng yuqori kutilgan natijalarni beradi.


Bilish ehtiyoji – bu eng ko‘p tarqalgan va hayotiy tabiiy ehtiyoj hisoblanadi. Chunki har bir inson hamisha o‘zini o‘rab turgan dunyo (muhit) to‘g‘risida bilishga intilib yashaydi. Bu ehtiyoj talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida ishga vijdoran munosabatda bo‘lish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Buni uning barcha shakldagi ijodkorli jarayonini faollashtirishdagi roli orqali izoxlash mumkun. Tadqiqotlarga ko‘ra, ijodkorlikda bilishga ehtiyoji yuqori bo‘lgan shaxsnинг o‘zlashtirishi, ehtiyoji past shaxsniga qaraganda ikki marta yuqori bo‘ladi. Agar bu ehtiyojni shaxsnинг muvaffaqiyatga erishi ehtiyoji bilan uyg‘unlashtirishga erishilsa, u holda o‘zlashtirish yanada yuqori bo‘lishiga olib keladi.[4,123-125]

Munosabat ehtiyoji – talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida munosabat psixologlar tomonidan alohida e’tirof etiladi. Chunki talaba ijodkorlik masalasi echimini topishda nafaqat kitoblar bilan muloqatda bo‘ladi va hatto shu sohaning etakchi mutaxassisidan, rahbari va o‘rtoqlari bilan ham fikrlashadi. Bu ehtiyoj nerv-hissiy yuklanishi, asabiylashish, baxslashishga olib kelishi va ba’zi hollarda ijodkorlik masalasi echimining noto‘g‘ri bo‘lishiga olib kelishini nazarda tutadi. Umumiy holda bu ehtiyoj ijodkorlikga ijobjiy ta’sir qilib, xususiy (alohida)lik kasb etadi. Chunki hamma hollarda ham masalaning echimida ko‘plab kishilarning ishtirok etishi (ko‘maklashishi, munosabat bildirishi) shart emas.

Shaxsnинг ehtiyoji, jumladan yuqoridagi ijodkorlik faoliyatida kishi tomonidan hamisha ham to‘liq anglab olinavermaydi. Ehtiyojni aniqlash sababning xususiyatlarida yaqqol ko‘rinadi.

Insonlar har qanday faoliyatida bo‘lgani singari talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida ham shaxs intilishi ta’sir doirasi o‘ziga xos hatti – harakatlarga undaydigan sabablardan iborat ehtiyoja asoslanadi va u ma’lum maqsad (ob‘ekt) sari intilishni ifodalaydi. Bu intilish esa o‘z navbatida: 1. Masalani qo‘yish; 2. Aqliy yoki jismoniy ta’sir; 3. Bajarish bosqichlari; 4. Maqsadga erishishlarni o‘z ichiga oladi. Ularning har biri esa o‘ziga xos motim pisixologik, tashkiliy – pedagogik va uslubiy ehtiyojlar asosida amalga oshib nihoyasiga etadi (1-shakl).

Ilmiy doiraning ushbu tarkibiy qismi, ya’ni tadqiqot elementlari bilan tajriba o‘tkazish yanada murakkab va talaba va rahbardan dastlabki nazariy va amaliy tayyorgarlikni talab qiladi. Ushbu bosqichda talaba o‘qituvchining rahbarligi ostida texnik bosqichda ishlab chiqilgan va ishlab chiqarilgan taklif qilingan ishchi organlar yoki qurilmalar, sxemalar va boshqalardan foydalangan holda oldindan mavhum qo‘ylgan muammoni amaliy hal qilish bo‘yicha kolxozlar, sovxoziyalar yoki tegishli korxonalarda tajriba o‘tkazadi. modellashtirish va dizayn. Buning uchun talaba rahbar bilan bir qatorda ishchi organlar, qurilmalar va boshqalarning ushbu dizaynini takomillashtirish va takomillashtirishda bevosita ishtirok etadi. mavsumiy ishlarda.



1-shakl. Talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida ehtiyojni qondirishga intilish asoslari

Bunday hollarda talabalarga dala eksperimentiga borishdan oldin tadqiqot topshiriqlari beriladi. Shu bilan birga, muammoning mohiyati va zarur nazariy materiallar, tadqiqot metodologiyasi unga aniq bo'lishi kerak. Keyin, fermada u o'qituvchilik rahbarligi ostida va ushbu ferma mutaxassislari ishtirokida ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatni aniqlaydi, xom ashyo sifatini, jarayondagi uzilishlarning sabablarini, uskunalar, mashinalarning ishlamay qolishi va hokazolarni tahlil qiladi. U kuzatuvlar va tajribalar o'tkazadi, muammoning echimini taklif qiladi. Bu erda, fermada u tajriba ma'lumotlarini qoralama ichida qayta ishlaydi va universitetga qaytib kelib, ushbu ishni yakunlaydi, ishlab chiqarish uchun xulosalar va tavsiyalarni tayyorlaydi.

Ixtiro katta ijtimoiy ahamiyatga ega, jamoaning axloqiy muhitiga, yoshlarning ma'naviy rivojlanishi va ta'limga faol ta'sir qiladi. Texnik ijodkorlik mashg'ulotlari talabalarga - yoshlarga kollektivizm tuyg'usini, fuqarolik burchini to'g'ri tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Boshqa tomondan, texnik ijodkorlik tanlangan kasblarni chuqr rivojlantirish va kasbiy bilim va ko'nikmalarni takomillashtirishga yordam beradi. Ba'zida ijodkorlik - tanlanganlarning taqdiri, deganlar, hamma ham bunga qodir emas. Va savol tug'iladi: ijodkorlikni o'rgatish mumkinmi? Javob bu erda bitta - albatta mumkin. Biror kishining noaniqligi va tortinchoqligini engib o'tish, unga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlarni yaratish kerak. Birinchidan, o'qituvchi har xil muammolarga asl echim topishga qodir yoshlarga xos bo'lgan yoshlarga bo'lgan ishonchni to'liq targ'ib qilishi shart. Keyin u talabalarga diqqatni jalb qiladigan vazifani tanlashga yordam berishi, bunday muammolar haqida misollar keltirishi va ularga qanday qarashni o'rgatishi kerak. Dastlab, bu o'quv laboratoriysi, ustaxona, uyda ovqat tayyorlash, traktor, qishloq xo'jaligi texnikasi, mashina va boshqalar bilan bog'liq vazifalar bo'lishi mumkin. Keyinchalik jamoatchilik ongi o'zlarining fikrlarini nogironlarga, yolg'iz keksa odamlarga yordam

berish, qishloq xo'jaligi va yo'l-transport hodisalarining oldini olish uchun yo'naltiradi. Patent tadqiqotlari yangi texnologiya ob'ektlarini yaratish bilan bog'liq ixtirochilik tajriba-konstrukturlik va tajriba-konstrukturlik ishlarini olib borish jarayonining ajralmas qismi va ajralmas qismidir.[1,157-159]

Adabiyotlar

1. B.N.Gapparov, D.X.Igamberdiev "Talabalarning ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirish kasbiy tayyorgarlikda muhim omil hisoblanadi". Texnik universitetdagi zamonaviy ta'lim muammolari. VI xalqaro ilmiy-uslubiy konferentsiya materiallari. Gomel, 2019 yil 24-25 oktyabr 157-159 betlar.
2. X.Tagayev, X.X.Igamberdiev "Formirovaniye u studentov izobretatel'skix umeniy v politexnicheckom obrozovaniye". Problemi arxetekturi i stroitelstva (nauchno-texnicheskiy jurnal) g.Samarkand, 2019 god, №2, str.142-145.
3. T.Ismoilov. Bo'lajak kasb talimi o'qituvchilarini ijodkorlik faoliyatga tayyorlash. "Uzliksiz ta'lim" № 3, 2008 yil. 78-80 bet.
4. E.G'oziev, K.Mamedov. "Kasb psixologiyasi". Toshkent, UMU, 2003 yil. 123-125 bet.

UDC: 378.2

RECOMMENDATIONS FOR IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS AT SAMARKAND STATE UNIVERSITY (ON THE EXAMPLE OF, THE FACULTY OF EDUCATION)

Azizuddin Khan¹, Sh.B.Akhmedova²

¹*Indian institute of technology Bombay*, ²*Samarkand state university*
shahzodaaxmedova@gmail.com

Abstract. Conducted research in the form of a survey of students to improve the quality of education and improve the quality of optimization in the distribution of the required disciplines through the students eyes.

Keywords: Education, survey, students, optimization, recommendation, research, attention.

Samarqand davlat universitetida o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar (Pedagogika fakulteti misolida)

Annotatsiya. Talabalar nigohida talab qilinadigan fanlarni taqsimlashda ta'lim sifatini oshirish va optimallashtirish sifatini oshirish uchun talabalar o'rtasida so'rovnama shaklida tadqiqotlar olib borildi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, so'rovnama, talabalar, optimallashtirish, tavsiya, tadqiqot, e'tibor.

Рекомендации по совершенствованию учебного процесса в Самаркандском государственном университете (на примере Педагогического факультета)

Аннотация. Проведено исследование в форме анкетирования студентов с целью повышения качества обучения и улучшения качества оптимизации распределения необходимых дисциплин глазами студентов.

Ключевые слова: Обучение, опрос, студенты, оптимизация, рекомендации, исследования, внимание.

Today, the world is experiencing the consequences of the COVID 19 pandemic, which has had side effects not only on global business, but also on the quality of education system. In the days of the pandemic, I had to adhere to strict quarantine and conduct studies at home, in which everyone had to understand a little that we were not yet ready to carry out this type of activity, outside the aisles of higher educational institutions. As such, teachers and students had to improve their skills in providing online learning.

It can be noted that this research survey can attract our attention, each respondent who shared his opinion and views on improving education was very essential for us, we called this survey, which took place among students, as "Education through the young students' eye".

The relevance of this research survey lies in the fact that it can contribute to the improvement of the educational process, which will allow SSU to reach a qualitative new level of development and comply with the internationally recognized quality standards in the field of education. This survey can serve as a basis for the development of management decisions to improve the educational process.


To study the issue of improving the educational process at SSU, a study was conducted to identify the opinions of students studying at the Faculty of Pedagogy regarding the educational process, which includes the curriculum, forms and methods of teaching and controling, organization of practice and employment.

As a result of the research, students of the Faculty of Pedagogy were interviewed, the next courses II (20%), III (55%), IV (4%), masters (21%) and the following faculties: IEP (28%), Russian Philology (7%).

As a result of the survey, 80% confirmed the need to improve the educational process.

The survey revealed the main problems of students and the necessary improvements:

- Provide places of practice and assign to work after training;
- Return specialty;
- Improve control methods;
- Computerize teaching methods;
- Use individual learning plans, with a choice of extracurricular activities and the elimination of couples that do not generate interest;
- Give priority to the time of classes in specialized subjects;
- Competently distribute the load of couples during the day (no windows) and during the week (approximately the same number of couples every day);
- Provide high quality and inexpensive power supply in the enclosures;
- Increase the loyalty of teachers in relation to students;
- Introduce business specialists into the educational process;
- Rejuvenate the teaching staff;
- Increase the interest of teachers in their work;
- Lower tuition fees;
- Financially stimulate students: increase scholarships, pay bonuses for activity and scientific work;
- Improve the standard of living in hostels, create conditions with the Internet, introduce an electronic library in each of the buildings of the hostel;
- Update teaching materials to reflect modern changes;
- Strengthen the language training of students;
- Increase the number of consultations;
- Correct the scoring system for assessing knowledge;
- To systematize the work of the dean's office;
- To increase the factors motivating students in the learning process - to make the couple more interesting, to increase the variability of homework;



The study of the collected data allowed us to identify the benefits of the educational process, as well as formulate recommendations for improving the educational process:

- Fit hours into the curriculum set aside for group projects, in which students must explore a real problem or situation and find solutions using the knowledge gained during the study of the subject;
- Consideration should be given to leading a discussion between teacher and students during lectures, which helps to attract the attention of students and increases interest in the subject;
- Organize communication with native speakers in the framework of teaching a foreign

language;

- Provide the opportunity to choose one or two subjects from other faculties of their own free will for self-development and self-determination [1];
- Develop a system of computer technology (create a web page for each subject, administered by the teacher, with the layout of all training materials and assignments;
- Provide the ability to upload completed assignments to the training server for verification by the teacher and quickly receive an assessment),
- To equip study places in each building for classes outside of lectures.

Resources

1. Innovative Approach to the Organization of the Educational Process in Samarkand State University (On the Example of Students of the Pedagogical Faculty) // Test Engineering Management / p.10284-10287
2. <https://www.surveymonkey.ru>
3. "7 avlod vakillari sammiti" t.me/Yettiavlod_7G_Summit.

UDK: 371+002.6+37

TALABA-YOSHLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

B. X. Baydjanov

Farg'onan davlat universiteti
baybekzod@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada axborot tizimlarining rivojlanish jarayonlari, axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash yo'llari hamda talaba-yoshlarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirish kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: axborot, axborotlashtirish, ta'lif, tarbiya, internet, qonunlar, zararli axborot, buzg'unchi g'oya, informatsion xavfsizlik.

Правовые основы формирования навыков информационной безопасности у студентов

Аннотация. В статье анализируются развитие информационных систем, основные направления государственной политики в области информатизации, способы обеспечения информационный безопасности и развития у студентов компетенций в области информационной безопасности.

Ключевые слова: информация, информатизация, образование, воспитание, интернет, законы, вредная информация, деструктивная идея, информационная безопасность.

Legal basis for developing informational security skills in students

Abstract. The article analyzes the development of informational systems, the main directions of state policy in the field of informatization, methods of ensuring informational security and the development of students' competencies in this field.

Keywords: information, informatization, education, upbringing, internet, laws, harmful information, destructive idea, informational security.

XXI asr xalqaro hamjamiyat tomonidan tezkor va keng ko'lamdag'i axborot tizimining rivojlanish davri sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potensiali va imkoniyatlarining o'sishi, uni jamoatchilik va davlat hayotidagi turli xil yo'nalishlarda keng tarzda ishlatalishi, yaqin kelajakda odamzot taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillarning biri bo'la oladi.

O'zbekistonda ham jamiyatni axborotlashtirish masalasi qonun bilan belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni 4-moddasida axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati aniq belgilab berilgan. Unga ko'ra, axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanishini ta'minlash;

- davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O‘zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;
- xalqaro axborot tarmoqlari va internet jahon axborot tarmog‘idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;
- davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o‘zaro aloqada ishlashini ta’minlash;
- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;
- axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko‘maklashish;
- dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilishini rag‘batlantirish;
- tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;
- kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirishdan iborat [7, 50-b].

“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasida shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi uning axborotdan erkin foydalanishi zarur sharoitlari va kafolatlarini yaratish, shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash, axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta’sir ko‘rsatilishidan himoya qilish yo‘li bilan ta’minlanadi. Shu o‘rinda qayd etish kerakki, “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasiga binoan, foydalanuvchilarining intellektual, ma’naviy-axloqiy, madaniy va ta’lim olish ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, milliy madaniyatni tiklashga va yanada rivojlantirishga ko‘maklashish, O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini saqlash axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunining 12¹-moddasiga binoan, hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborotni Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish tartibi belgilab qo‘yilgan. Veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining egasi, shu jumladan bloger hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot joylashtiriladigan internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytidan va (yoki) veb-sayt sahifasidan O‘zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga da‘vat etish, urush, zo‘ravonlik va terrorizmni, shuningdek diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g‘oyalalarini targ‘ib qilish, davlat siri bo‘lgan ma’lumotlarni yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni oshkor etish, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atuvchi, shuningdek fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro‘siga putur etkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l qo‘yuvchi axborotni tarqatish, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni targ‘ib qilish, pornografiyani targ‘ib qilish, qonunga muvofiq jinoi va boshqa javobgarlikka sabab bo‘ladigan boshqa harakatlarni sodir etish maqsadlarida foydalanilishiga yo‘l qo‘ymasligi shart etib belgilab qo‘yilgan [4].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, Internetda tarqatish tartibi to‘g‘risidagi Nizomda har qanday ma’lumotlar Internetda tarqatilishiga yo‘l qo‘yilmasligiga doir bir qancha qoidalari o‘rnatilgan bo‘lib, axborot ayirboshlash vositalari tarkibiga axborot resurslaridan foydalanishning alohida qoidalari belgilangan davlat axborot tizimlari, tarmoqlarini ulash axborot xavfsizligi talablariga muvofiq attestatsiyadan o‘tkazilgandan keyin O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan amalga oshiriladi degan qoida o‘rnatilgan [5]. Bundan ko‘rinadiki, Internet tarmoqlariga ulanayotgan axborot tizimlari axborot xavfsizligiga qanchalik javob berilishi tekshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasida ommaviy axborot vositalari e’lon qilinayotgan axborotning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rishlari shart va ular axborot beruvchi bilan birqalikda uning to‘g‘riliği uchun qonun hujjalari belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar deb belgilangan [6].

Bunday javobgarlik masalalari boshqa qonun hujjalari uchun ham (O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, Jinoyat kodeksi) o‘rnatilganligiga qaramasdan, ayrim shaxslar xavfli axborotlardan g‘araz maqsadlarda foydalanayotganligi hammamizga ma’lum.

O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, axborot borasidagi xavfsizlik deganda, axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holati tushuniladi [7]. Shuningdek, ushbu Qonunga ko‘ra, axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘ladi hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi

xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalişlarini, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolarning o'rni va ahamiyatini belgilaydi.

Mazkur qonunning 15-moddasida davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash yo'llari ko'rsatilgan. Bular quyidagilardan iboratdir:

- axborot sohasidagi xavfsizlikka tahdidlarga qarshi harakatlar yuzasidan iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa tusdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- davlat sirlarini saqlash va davlat axborot resurslarini ulardan ruxsatsiz tarzda foydalanishidan muhofaza qilish;
- O'zbekiston Respublikasining jahon axborot makoniga va zamonaviy telekommunikatsiyalar tizimlariga integratsiyalashuvi;
- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hududiy yaxlitligini, suverenitetini buzishga, hokimiyatni bosib olishga yoki qonuniy ravishda saylab qo'yilgan yoxud tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga va davlat tuzumiga qarshi boshqacha tajovuz qilishga ochiqdan-ochiq da'vat etishni o'z ichiga olgan axborot tarqatilishidan himoya qilish;
- urushni va zo'ravonlikni, shafqatsizlikni targ'ib qilishni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovat uyg'otishga qaratilgan terrorizm va diniy ekstremizm g'oyalarni yoyishni o'z ichiga olgan axborot tarqatilishiga qarshi harakatlar qilish.

Axborot xavfsizligini ta'minlashga doir xorijiy tajribalar tahlili asosida bir qator rivojlangan mamlakatlarda nosog'lom axborot oqimlarining oldini olish, bartaraf etish va unga qarshi kurashishning o'ziga xos qonunchilik tizimi yaratilganligidan dalolat beradi. Jumladan, bu borada xalqaro amaliyotdagi "Kiber jinoyatlar to'g'risida"gi konvensiya, "Voyaga etmaganlar uchun xavfsiz internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida"gi Evropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, Germaniyaning "Talabalarni himoyalash to'g'risida"gi, Litvaning "Voyaga etmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida"gi va Rossiyaning "Bolalarni sog'lig'i va rivojlanishiga ziyon etkazuvchi axborotdan himoyalash to'g'risida"gi qonunlarini misol qilib keltirish mumkin.

AQSHda 1998 yil qabul qilingan qonun o'n etti yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoni va ruhiy rivojlanish jarayonida internetning salbiy ta'siridan himoya qilishni tartibga soluvchi normalarni o'zida aks ettirdi (Child Online Protection Act). Mazkur qonun voyaga etmaganlar uchun zararli bo'lgan rasmlar, tasvirlar, grafiklar, audiomateriallar, videofayllarni internet tarmog'ida joylashtirganlik va tarqatganlik uchun javobgarlik masalalarini nazarda tutdi. Shu bilan bir qatorda qonun ota-onalar, tarbiyachilar, sanoat vakillarining voyaga etmaganlarni internetdagи salbiy axborotlardan himoya qilishga majburligini belgilab qo'ydi. Qonunning o'ziga xos tomoni shundan iborat bo'ldiki, Vakillar Uyi Spekiri va Senat liderlarining ko'pchiligi tomonidan shakllantiriladigan 17 a'zodan iborat muvaqqat Komissiya tuzilishi ko'rsatib o'tildi. Komissiya a'zolariga internet sohasidagi biznes vakillaridan tashkil topib, Komissiyaning vazifasi etib voyaga etmaganlarni o'quv jarayonida internetdan foydalanishida zararli axborotlar ta'sirini kamaytirib turuvchi tadbirlarni muvofiqlashtirib borish belgilandi [15].

2001 yili kuchga kirgan qonun bilan davlat dotatsiyasini oluvchi ommaviy muassasalarning barchasiga kontent filtratsiya tizimini o'rnatish majburiyat yuklandi (Child Internet Protection Act). Ayni paytda provayderlarga bolalar pornografiyasi bilan bog'liq axborot joylashgan tarmoqlarga to'siq qo'yish majburiyatini yuklash bo'yicha tegishli qonun hujjalari alohida me'yor kiritildi [16].

Fransiyada qabul qilingan "Loppsi-2" nomli yangi qonun davlatga internetni tartibga solish, internetdan foydalanish borasida monitoring qilish huquqini berdi. Unga ko'ra endilikda internetga kirganlik haqidagi barcha axborotlar milliy ma'lumotlar bazasiga yo'llanadi. Ayrim Evropa davlatlarida salbiy mazmundagi saytlarni taqilash qonun asosida belgilab qo'yilgan. Masalan, Germaniyada bu masala sud qarori asosida amalga oshiriladi. Rossiyada turli axborot xurujlariga qarshi kurashish maqsadida "Xavfsiz internet markazi" tashkil etilgan. Shuningdek, bu borada Evropa Ittifoqi tomonidan 6 ta qonun hujjati qabul qilingan hamda "Xavfsiz internet" dasturi ishlab chiqilgan [11].

Globallashayotgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ya'ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobji, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu ma'noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo'lgan mamlakatlardan qulay sharoitga ega bo'ladilar. Mana shu ustunlik tufayli ular o'z shaxsiy manfaatlariga mos keluvchi qadriyatlarni, nuqtai-nazarlarni, g'oyalarni, fikrlarni ilgari surishlari mumkin va surmoqdalar ham. Shunga ko'ra, ko'pgina davlatlarda globallashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, ular yagona jahon uyg'unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, globallashuvga qarshi harakatning o'zi tobora global harakat tusini olmoqda.

Jahon miqyosida kezib yuruvchi bunday axborotlar muayyan davlat manfaatlariga ta'sir etmay qolmaydi. Bu faqat shu axborot tarqaladigan alohida olingen bir mamlakatdagi ijtimoiy, siyosiy va jarayonlardan darak berishi bilangina emas, balki boshqa mamlakatlarning mazkur xabarlar haqida hech narsa aytilmagan auditoriyasi bularni o'z davlatidagi holatga qiyoslashi bilan ham mazkur mamlakat manfaatlariga ham ta'sir etadi. Shu sababli davlatlar, xukumatlar o'rtasida ayrim kelishmovchiliklar vaqtiga bilan yuzaga chiqib turishi mumkin. Bunda kim haq yoki kim nohaq ekanligini aniqlash har doim ham oson bo'lavermaydi.

Tezkor axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida dunyodagi turli xalqlar va elatlar orasida globallashuv jarayonlari sodir bo'layotgan vaqtida butun insoniyat, jumladan, xalqimiz ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli mafkuraviy tahdidlar asosida yashamoqda.

Yangilikka, turli axborotlarga hamisha qiziqish bilan qaraydigan talabalar ongiga internet qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani haqida aytileyotgan har bir fikr zamirida ulkan ma'no mujassam. Talabalarning internetga bo'lgan qiziqishlarini yaxshi bilgan ayrim buzg'unchilar bundan juda ustalik bilan foydalanib, "axborot xuruji"ni avj oldirmoqdalar.

Shu o'rinda Prezident Sh.Mirziyoevning "Bugun yoshlar soxta aldonlarga uchib, o'z umrini xazon qilayotganini o'ylab, to'g'risi tunlari uxlamay chiqaman. Axir, kechagina bu yoshlar o'zimizning qorako'zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o'g'limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku! Ular qachon adashdi, qachon noto'g'ri yo'lga kirib ketdi? Biz nega g'aflatda qoldik? Qachon, qaerda xatoga yo'l qo'yidik? Farzandlarimiz qachon begonalar qo'liga o'tib ketdi? Nima jin urdiyu, ular o'z otanasi, o'z yurtining dushmaniga aylanib qoldi?" [3] – degan xitoblari hammamizni chuqur mulohaza qilishga da'vat etadi.

Axborot xuruji avvalo, talabalarga, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarga qaratilar ekan, bu xurujning salbiy siyosiy qarashlarni shakllantiruvchi omillarini keskin ravishda pedagogik-psixologik jihatdan bartaraf etish shart.

Siyosiy jarayonlarning motivlari hamda shaxsni siyosiy tarbiyalash, axborot xurujlariiga qarshi immunitetni shakllantirish va rivojlantirish masalalarining mohiyatini bilish va ularga faol ta'sir ko'rsatish talab qiladi. Shuning uchun ham Davlatimiz yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini yo'naltirish, ularning siyosiy, huquqiy, mafkuraviy ongini shakllantirishga juda katta e'tibor qaratmoqda [13; 14].

Axborot xuruji inson, jamiyat ongiga manfaatlari axborot ta'siri bo'lib, uning xulq-atvorini o'zgartirishga yoki uni barqarorlashtirishga qaratilgan. Axborot xurujining manbalari xilma-xil. Ularning sub'ekti sifatida ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat tashkilotlari, jamg'armalar, oddiy kitob, film, haykal, rasm va hokazolar ham chiqishi mumkin. Axborot xuruji ob'ekti esa – bu bir individ yoki ijtimoiy guruh, davlat. Bugun zamonaviy jahonda jamiyat sohalarining takomillashuvi, kishilarning intellektual darajasining oshishi axborot xuruji mexanizmlarini takomillashtirishni ham talab etadi. Chunki bu muayyan jamiyat ustidan hukmronlikni o'rnatishning qulay va samarali usuli deb qaraladi. O'z navbatida axborot xavfsizligi masalasi dolzarblastib bormoqda, siyosiy, ijtimoiy institutlar tomonidan fuqarolarning ma'naviy dunyosini mustahkamlashga e'tiborini kuchaytirishga sabab bo'lmoqda. Axborot xurujining ko'rinishlari xilma xil bo'lganligi bois, ularning har birini o'rganish va salohiyatini tahlil etish va shu asnoda ularga qarshi immunitetni shakllantirish lozim.

Bu turdag'i tahdidlar insonning ijtimoiy ongini noto'g'ri shakllantirish va shu tariqa o'zligiga ega bo'limgan olomonni tarkib toptirishni ko'zlaydi. Informatsion tahdidlar axborot xuruji sifatida ham talqin qilinadi va shaxsni o'zi istagan tarzida shakllantiradi va muammolar girdobiga tashlaydi. Natijada fuqarolarning ijtimoiy ongi zaharlanib, jamiyatda ijtimoiy xastalik vujudga keladi [12; 19-b.].

Hozirgi vaqtida axborot xurujlarning quyidagi turlari keng tarqalgan: davlatning milliy siyosatini atayin tanqid qilish; soxta xabarlar tarqatish; ijtimoiy ongni manipulyasiya qilish; kichik muammoni katta, yirik muammo sifatida tasvirlash; talabalarni chalg'itish; milliy qadriyatlarni noto'g'ri talqin qilish; etti yet begona ma'naviy qadriyatlarni singdirish; xalqning tarixiy xotirasini buzish va o'zgartirish; kiberterrorizm.

Hozirgi zamon axborot tizimi, uning juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umummilliylar manfaat va umummilliylar taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqaruv mexanizmini yaratish, uning mohiyati va unsurlarini chuqur anglash zarur bo'lib qolmoqda.

Davlatimizning axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida olib borayotgan siyosati bugungi kungacha davom etayotganligini amalda qabul qilinayotgan yangi qonun hujjatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sont Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni

ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar deb nomlangan beshinchı ustuvor yo'nalishida axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish masalasi alohida yo'nalish sifatida belgilanib, bunda talabalar ongiga tahdid soluvchi axborot xurujlarining oldini olish, talabalarda internet va boshqa axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilgan [2].

Harakatlar strategiyasi doirasida axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son Qarori qabul qilindi. Qarorda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini boshqarish va joriy etish sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga, sifatli axborot xizmatlarini ko'rsatishga to'sqinlik qilmoqda. Xususan, davlat axborot tizimlari va resurslarida axborot xavfsizligini va axborotni muhofaza qilishni ta'minlash ishlarining zaif tashkil etilganligi axborotdan ruxsatsiz foydalana olish, ma'lumotlar bazalarining butunligi va maxfiyligini buzish imkoniyatini oshirib yuborayotganligi alohida ta'kidlab o'tilgan [8].

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 martdag'i "Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya xizmatlari sifatini yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 185-son Qarorida qonunchilik va boshqa normativ hujjatlar, davlat standartlari talablari hamda aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati buzilganligi uchun moliyaviy sanksiyalar (jarimalar)ni hisoblash tartibi [9] asosida axborot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asosi takomillashtirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 1 maydag'i 318-sun qarori 1-ilovasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi [10].

Mazkur Nizomda vazirlikning funksiya va vazifasi sifatida axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq uchta band kiritildi: axborot xavfsizligi va kiberxavfsizligi tahidilarini aniqlash va ularga qarshi kurashish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan jinoiy, razvedka va terroristik maqsadlarda foydalanish bilan kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish va joriy qilish yo'li bilan ushbu maqsadlarda foydalanish holatlarini to'xtatish; axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik tahidilari to'g'risidagi axborotlarni yig'ish va tahlil qilish, kerakli axborotni tegishli davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga taqdim etish; axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik, loyiha, qidiruv va texnologik ishlasmalarni tashkil qilish va o'tkazish.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarda axborot-xavfsizligini ta'minlashning huquqiy assoslari yaratildi va masalaning dolzarb ahamiyatga egaligi bilan bog'liqlikda uni takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu esa, o'z navbatida talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2009.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizni sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi / "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 17 iyun.
4. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni // Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – T.: Adolat, 2008. – 290 b.
5. "O'zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, Internetda tarqatish tartibi to'g'risida"gi Nizom. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2004 y., 19-sun, 220-modda.
6. O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 4-5-sun, 108-modda; 2001 y., 1-2-sun, 23-modda; 2015 y., 52-sun, 645-modda.
7. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y., 1-sun, 2-modda; 2015 y., 52-sun, 645-modda.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y., 06/18/5349/0792-son.

9. Vazirlar Mahkamasining “Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya xizmatlari sifatini yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 185-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y., 06/18/5349/0792-son.

10. Vazirlar mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo‘yicha inspeksiya to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 318-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2018 y., 09/18/318/1108-son.

11. Badalov.M. Yoshlar ongida hayotbaxsh g‘oyalar // Huquq va burch jurnali. – T., 2014. - №6. // www.huquqburch.uz.

12. Grinin L.E., Korataev A.V. Sotsialnaya mikroevolyusiya i istoricheskiy protsess. // J.Filosofiya i obshchestvo. – M., 2007. - №2. – S.19-24.

13. Nazarov N. Jamiyatda milliy-etnik jarayonlar rivojining siyosiy-faalsafiy tahlili: Siyos. fan. dok. ... diss. – Toshken: DJQA, 2005 – 355 b.

14. CHoriev S. Siyosiy etuk shaxsni shakllantirish muammolari: Fal. fan. dok. ... diss. – Toshkent: O‘zMU, 2005. – 294 b.

15. 105 th Congress Report House of Representatives 2d Session 105 775 Child online protection act October 5, 1998.

16. Dawn S. Conrad, Note, Protecting Children from Pornography on the Internet: Freedom of Speech is Pitching and Congress May Strike Out, 9 RICH. J.L. & TECH. 2 (Winter 2002), at <http://jolt.richmond.edu/v9i2/Note1.html>.

UDK: 372. 851

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IMLOVIY SAVODXONLIK TA’LIM KO‘ZGUSI SIFATIDA

G. A.Ergasheva

Samarqand viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish hududiy markazi gulshoda-ergasheva @ mail ru

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida savodxonlik va nazariy bilimlar bilan amaliyotning bog‘liqligi, savodxonlikka erishishning metod va usullari xalq ta’limi tizimini rivojlantirish omillaridan biri ekanligi xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: savodxonlik, yozma nutq, uzviylik va izchillik, xalq ta’limi, imloviy savodxonlik, mantiqiylizchillik, imlo lug‘at.

Орфографическая грамотность в начальной школе как зеркало образования

Аннотация. В статье рассматривается связь между грамотностью и теоретическими знаниями и практикой в системе начального образования, а также методы и приемы достижения грамотности, являющиеся одним из факторов развития системы государственного образования.

Ключевые слова: грамотность, письменная речь, членство и последовательность, государственное образование, орфографическая грамотность, логическая последовательность, орфографический словарь.

Spelling literacy in primary school as a mirror of education

Abstract. The article discusses the connection between literacy and theoretical knowledge and practice in the primary education system, the methods and techniques of achieving literacy is one of the factors in the development of the public education system.

Keywords: literacy, written speech, membership and consistency, public education, scientific literacy, logical consistency, spelling dictionary

O‘qituvchilar malakasini oshirish tizimidagi ko‘p yillik pedagogik faoliyatim davomida amaliyotchi o‘qituvchilar bilan o‘quvchilarning savodxonligi muammosi yuzasidan ko‘p martalab suhbatlashishga to‘g‘ri keladi. Kuzatishlarga qaraganda, hamkasblarimizning aksariyati savodxonlikni til ta’limi bilan bog‘lab asoslashga harakat qiladilar. Aslida-chi?

“Savodxonlik” atamasi nafaqat imloviy xatolarsiz yozish, balki boshlang‘ich sinflardan boshlab alifbeni o‘qitish jarayonida tovush va harfni tanib-bilib olish orqali o‘qish va yozishni egallash ma’nosida ham tushuniladi. “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da ham “savodxonlik” so‘ziga “o‘qish va yozishni biladigan, xat-savodli odam” tarzida izoh berilishi beziz emas. Shu ma’noda “yo‘zma nutq savodxonligi” birikmasi ham keng qamrovli mazmunga ega bo‘lib, fikr mazmunini ifodalovchi so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, ularni gap qurilishida o‘rinli qo‘llash, ortiqcha ko‘p so‘zlilikka yo‘l qo‘ymaslik, fikrni ixcham tarzda aniq ifodalay bilish, fikrning mantiqiy izchilligi va uzviylikiga erishish, mavzuni yoritish jarayonida nutqni to‘g‘ri boshlash, davom ettirish, yakunlash va xulosa chiqarish kabilarni nazarda tutadi. Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinflarda imloviy savodxonlikka erishish doimiy ravishda maqsadga yo‘naltirilgan izchil metodik mashqlarni taqozo etadi.

Imloviy savodxonlik masalasining dolzarbli shundaki, maktab o‘quvchilaridan tashqari, OTM talabalari va hatto amaliyotchi o‘qituvchilar yozma nutqida ham turli darajadagi imloviy xatoliklarga yo‘l qo‘yilganini kuzatish mumkin. Vaholanki, imloviy savodxonlik fikrning to‘g‘ri va ravon ifodalaniishi bilan birga kishining madaniy-ma’rifiy saviyasini belgilovchi omillardandir. Fikrni ixcham va to‘g‘ri, mantiqiy jihatdan asosli tarzda ifodalash uchun har bir madaniyatli xalq va uning har bir a’zosidan imloviy va punktuatsion savodxonlik talab etiladi.

Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi sifatida quydagilar belgilab qo‘yilgan: “o‘quvchi shaxsini fikrleshga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyanı rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrni to‘g‘ri va ravon bayon eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat” belgilab qo‘yilgan [2].

Sir emas, ta’lim tizimida imloviy savodxonlikni shakllantirish borasida hal qilinishi kerak bo‘lgan ko‘pgina muammolar bor. Fikrimizcha, buning sababi quydagilardan iborat.

1. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining imloviy savodxonlik ustida doimiyva izchil shug‘ullanmasligi hamda bu boradagi ishlarni amalga oshirish qat’iy tartibda rejalashtirilmasligi.

2. Imloviy savodxonlikni shakllantirish ona tili ta’limming eng muhim vazifasi sanalsa-da, imloga o‘rgatish matematika, tabiat, musiqa, rasm, mehnat, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining ham vazifalari doirasiga kirishiga nolisandlik bilan qarashning mavjudligi.

Ma’lumki, matematika, tabiat, musiqa, rasm, mehnat, jismoniy tarbiyaga oid atamalarona tili darslarida kam qo‘llanishi yoki umuman qo‘llanmasligi ham mumkin. Lekin o‘quvchi ularga o‘quv faoliyatidan tashqari boshqa yozma aloqa munosabatida ham murojaat qilishi hisobga olinsa, har bir fan o‘qituvchisining o‘z darslarida shu fanga oid atamalarning lug‘aviy etimologik ma’nosidan tashqari, imlosi ustida ham ishlashi zarurligini ko‘rsatadi. Demak, savodxonlikni shakllantirish ma’lum ma’noda mактабда o‘qitiladigan barcha fanlarning vazifasi doirasiga kiradi.

3. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarining imloviy savodxonligini belgilaydigan so‘z minimumi va so‘z maksimumi aniqlab olinmaganligi. Ta’kidlash lozimki, ona tili ta’limida buni belgilash tamoyillari haligacha ishlab chiqilmagan. SHuning uchun ham boshlang‘ich sinflarning ona tili dasturida bu muammo o‘z echimini topmagan. 4-sinf o‘quvchilarim imlosini bilishlari kerak deb berilgan so‘zlar 1-sinf dasturidan ham o‘rin olganligi shu tufaylidir.

4. Imloga o‘rgatishning “Imlo lug‘ati” kabi qo‘shimcha vositalari ham borki, bunday lug‘atning 1973 yilda yaratilgani nazarda tutilsa, u til taraqqiyotining hozirgi talablariga javob bermasligi o‘z o‘zidan anglashilarlidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqidagi imlo xatolarining kelib chiqish sababini aniqlamasdan turib, imloviy savodxonlikni shakllantirish haqida gap bo‘lishi mumkin emas.

Kuzatishlarga qaraganda, asosida boshlang‘ich ta’limda imlo xatolarining kelib chiqish sabablarini quydagicha ikki guruhta ajratish mumkin:

1. Imlo xatolarga sabab bo‘ladigan tashqi ta’sirlar:

1) imlo rejimiga to‘liq amal qilinmaslik (sinf va mактаб jihozlarida imloga e’tiborsiz qarash);

2) tevarak-atrof ta’siri (ko‘cha-ko‘ylardagi shiorlarga, bino peshtoqlaridagi yozuvlarga bolaning ko‘zi tushadi, natijada ularning imlosi tasavvurida muhrlanib qoladi);

3) sinf jamoasinig tarkibi (turli sheva vakillarining yoki tarbiyaviy jihatdan turli darajadagi oilalar farzandlariningbir sinfga jam bo‘lishi va ularning bir-biriga ta’siri).

2. Ona tili ta’limi jarayonida imlo xatolariga sabab bo‘ladigan holatlar:

1) imloga o‘rgatishda izchillik va uzviylikka amal qilinmasligi;

2) imloga o'rgatishning metod va usullarini to'g'ri tanlay olmaslik;

3) izohlashning turli omillariga e'tibor bermaslik.(o'qituvchining mavzuni tushuntirishda, mustahkamlashda, o'quvchilar bilimini nazorat qilishda o'z nutqidagi muayyan so'zlarga asoslanib qolishi, misollar xilma-xilligiga e'tibor qaratmasligi; oqibat-natijada o'quvchilarning o'qituvchi aytgan misol – so'zlar bilangina cheklanib qolishi);

4) o'quvchilarda imlo qoidasini amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasining shakllantirilmaganligi;

5) imloviy sezgirlikning rivojlantirib borilmaganligi.

Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylilik mavjud bo'lган so'zлар guruhining yozilishini tartibga soladi. O'quvchida imloviy sezgirlik shakllanganda bir imlo qoidasini boshqa so'zlarga tadbiq eta oladi. Bu o'quvchini har bir so'zning imlosini yodda saqlashdan qutqaradi. Negaki barcha so'zlarni yodda saqlab ham bo'lmaydi. Imloviy sezgirlikni shakllantirishda "So'zlarning qaysi o'rinalarda xatoga yo'l qo'yishingiz mumkin?" degan savoldan foydalanish;

6) o'quvchining shaxsiy nutqiy nuqsonlari ustida tegishli darajada tushuntirish ishlari olib borilmaganligi;

7) til ta'limida tayanch va fanga oid kompetensiyalarga qat'iy amal qilinmasligi.

Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti va ona tili dasturida o'quvchilarning imloviy savodxonligiga qo'yilgan talablarni bajarishda imloga o'rgatishni quyidagicha ikki xil yo'l bilan amalga oshirish ko'zda tutiladi:

1) Imloviy savodxonlik grammatik mavzular asosida shakllantiriladi. O'quvchi oldin grammatikaga oid nazariy bilimlar bilan tanishtiriladi, so'ngra ma'lumotlarga asoslanib imloga o'rgatiladi.

2) Imloviy savodxonlik mashq matnlaridan kelib chiqqan holda tahlil-tarkib metodlari orqali amalga oshiriladi. Imlosi o'rgatiladigan so'z bo'g'in-tovush, tovush-harf tomonidan tahlil qilinadi va bir butun holda yozish mashq qildiriladi.

Yozma nutq savodxonligiga erishish uchun yuqorida ilmiy-nazariy va metodik qarashlar asosida imloviy mashqlar, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish hamda ularni amalda qo'llash usullarini belgilab olish bu boradagi muammolar echimiga xizmat qiladi.

Taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy o'quvchilarning orfografikko'nikmalari ustida ishlashdan oldin ularning grammatik bilimlarni o'zlashtirgan bo'lishlari lozimligini alohida ta'kidlab ko'rsatgan. O'quvchilar grammatik tushunchalar va bilimlar bilan tanishgach, orfografik qoidalarni o'zlashtiradilar. SHundan so'ng orfografik mashqlar ustida tizimli tarzda tahliliy ishlari olib boriladi. K.D.Ushinskiy sistematik mashq tushunchasiga alohida diqqat qaratib shunday yozadi: "Muvaffaqiyatning eng birinchi va bosh asosi sistematik mashq, muvaffaqiyatsizlikning bosh sababi sistematik mashqdagi nuqsonlardir. Bu uzoq vaqt ko'plab tashkil qilingan mashqlarning samarasiz natijasiga sabab bo'ladi" [3].

Orfografik mashqlarni tizimli tarzda tashkil qilish lozimligi boshqa olimlarning ishlarida ham ta'kidlangan. Ular har qanday orfografik mashqning oldingi mashq bilan bog'liq bo'lishi ishning bir qadam oldingga siljishiga olib kelishiga alohida e'tibor qaratganlar. Orfografik mashqlardagi tizimlilik turli darajada bo'lishi mumkin. Bunda o'quvchilarning o'zlashtirish imkoniyatlariga qarab imlosi o'rganilayotgan so'zlar mashq tarkibiga kiritiladi. Mashq ustida ishlash davomida qancha ko'p so'zlar taqdim qilinsa, o'qituvchi o'quvchilarga shuncha kam yordam ko'rsatishi kerak bo'ladi. Orfografik mashqlar o'quvchilarning lug'atini so'zlar bilan bilan boyitishga xizmat qilishidan tashqari, ularning bog'lanishli nutqini o'stirishdaham muhim o'rinni tutadi.

Orfografik ko'nikmalar uzoq vaqtni mashqlar natijasida malakaga aylanadi. Orfografik malaka o'quvchining yozuv jarayonida orfografik qoidalarni eslamasdan yozishini anglatadi. Avtomatlashgan malaka ongli o'zlashtirilgan bilimlar asosida g'ayri shuuriy ravishda amalga oshiriladigan jarayondir. Ko'rinish turibdiki, onglilik va avtomatlashish bir-birini inkor qilmaydigan o'zaro bog'liq holatlardir. Orfografik bilimlarsiz, bilimga asoslanilmagan holatda so'zlarni mexanik ravishdatorg'ri yozish mumkin. Lekin bunday malaka bir necha yillarda davomida ko'chirib yozish asosida shakllanadi. Umumiy o'rtalama maktablarining boshlang'ich sinflarida olib borilgan pedagogik kuzatishlarimiz natijasida shunday xulosaga keldikki, o'quvchilar tomonidan savodli yozuvni egallash malakasini shakllantirishda grammatikaga asoslanilgan holda yozuvni amaliy mashq qilish talab etiladi.

Imloga o'rgatish tarixida grammatikaga asoslanilmagan holda orfografik ko'nikmalarni shakllantirish mumkinligi haqidagi ta'limotlar ham mavjud bo'lib, ularda orfografiyani o'zlashtirish ko'ruv sezgisi orqali asta-sekin shakllanib boradigan jarayon deb izohlanadi. Masalan, XIX asrning 40-yillarda olmoniyalik olimlar ko'chirib yozuv usulini imloviy savodxonlikning asosi deb ko'rsatganlar. Rossiyalik V.P.Sheremetev, A.K.Solomonovlar esa orfografik ko'nikmani egallashda ko'ruv sezgisiga asoslanishga alohida diqqat qaratganlar [4]. Ulardan tashqari, ayrim metodistlar orfografik ko'nikmalarning shakllanishida ko'ruv, eshituv va qo'l motorikasini asos qilib ko'rsatish orqali imloviy savodxonlikda

grammatikaning o‘rnini inkor qiladilar. Keyingi davrlarda rus metodist olimlari orfografik ko‘nikmalar asosida grammatic bilimlar yotishini tan oldilar. Ularning qarashlarida orfografik ko‘nikmalarni shakllantirishda ko‘ruv, eshituv, nutqiy harakat, motorika va fikrlash asosiy omil hisoblanadi degan xulosa ilgari suriladi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarda orfografik ko‘nikmalarni shakllantirishda orfografiyaning psixologik tabiatidan kelib chiqishi amaliyotda allaqachon o‘z tasdig‘ini topgandir. Darhaqiqat, orfografik ko‘nikmalar ko‘p martalik takrorlashlar natijasidagina shakllanib qolmay, ongi murakkab amaliy mashqlar asosidavujudga kelishi ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining orfografikk‘o‘nikmalari 1-sinfdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirib boriladi. Orfografik ko‘nikmalarning muvaffaqiyati o‘qituvchi qo‘llagan metodik usullarga bog‘liqligi sir emas.

O‘quvchilar tomonidan orfografik ko‘nikmalarning pishiq-puxta egallashi quydigitalablarga riosa qilishni taqozo etadi:

1. O‘quvchilarning nutqini doimiy tarzda kuzatib borish. O‘quvchilarning noto‘g‘ri talaffuz qilgan biror so‘zini yoki iborasini nazardan qochirmaslik va to‘g‘rilamay o‘tib ketmaslik.
2. Har qanday yangi materialni, jumladan, imlosi o‘rganilayotgan so‘z va imlosi ilgari o‘rganilgan so‘zlarni ham matnga kiritish.
3. O‘quvchilarning imloga doir bilimlarini aniq ifoda qilishini va qayta so‘ralganda uni yangi misollar – so‘zlar bilan isbotlashimi talab qilish.
4. O‘quvchilar bilan so‘zni tarkibiga ko‘ra ko‘proq tahlil qilish: ongi ravishda so‘zning asosini aniqlash, unga asosdosh so‘z topish, iloji boricha asosdosh so‘zlarning turli turkumlarga xos bo‘lishiga harakat qilish.
5. Imloviy malakalarni so‘zni ko‘chirib yozish, xotirasida saqlash va yozish orqaliasta-sekinlik bilan shakllantirish.

Buning uchun bir imlo qoidasidan ikkinchi imlo qoidasiga o‘tadigan takroriy mashqlarni amalgalashirish. Masalan: *maktabda, maktabdan, maktabga* kabi so‘zlar orqali b va d, b va g tovushlari yonma-yon kelganda p-t, p-k kabi talaffuzdan bd, bg talaffuzga o‘rgatish kabi.

6. Tahliliy mashqlar materialiga imlosi qiyin so‘zlarni kiritib borish.
7. O‘quvchilarning diqqatini imlosi qiyin so‘zlarning yozilishiga qaratish. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning diqqatini so‘zning talaffuziga, bo‘g‘in tuzilishiga, talaffuzi bilan yozilishi o‘rtasida farqqa qaratadi. Berilgan so‘zlarning talaffuzini oldin o‘qituvchi, so‘ngra o‘quvchilar mashq qilib ko‘rsatadi. So‘ngra mazkur so‘zlar doskada va daftarlarga yozdiriladi. Masalan: *Men hozir so‘zni talaffuz qilaman, siz eshititing. Siz uning yozilishini esingizda olib qolishga harakat qiling: chuqur, uchqur* [5].

O‘qituvchi butun sinf o‘quvchilarining diqqatini bir yo‘la so‘zni eshitib yozilishini doskada kuzatishga jalb qiladi. Doskaga xato yozishlari mumkin bo‘lgan harflarning rangli bo‘r bilan yozib ko‘rsatilishi mazkur so‘zlarning imlosi o‘quvchilar yodida qolishiga yordam beradi. O‘qituvchi “So‘zni yozing” deyishdan oldin o‘quvchilarning diqqatini so‘zlarning talaffuzini eshitishga, yozilishini kuzatishga tortishi lozim. O‘quvchilarning diqqatini so‘zlarning yozilishiga qaratish boshqacha usulda ham amalgalashirishi mumkin. SHunisi xarakterlik, dastlabki paytda o‘quvchilarning eslab qolishi uchun 1-2 tadan ortiq so‘z berilmaydi.

O‘qituvchi har bir orfografik mashq ustida olib boradigan tahliliy ishlarini ijodiy yondashgan holda tashkil qilishi lozim. Aynilsa xotirasi sezilarli darajada bo‘sh o‘quvchilar tez unutuvchan bo‘ladi. Ular uchun individual tarzda maxsus orfografik mashqlar ishlab chiqish talab etiladi. Boshlang‘ich sinflarning imloviy savodxonligi yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz imlosi qiyin so‘z va iboralarni doskadan ko‘chirib yozishga, shunday so‘zlarni sinfda tuzilgan “Imlo lug‘ati” dan topib ko‘chirib yozishga ruxsat berish hamda zaruriy hollarda yakka tarzda tushuntirish kabi yordamchi usullarni qo‘llashamaliy mashqlarning samaradorligiga muayyan darajada yordam berishini ko‘rsatdi.

Ammo mazkur usullar savodxonlikni to‘liq ta’minlamaydi.

Imloviy savodxonlik o‘quvchilarning o‘qituvchi yordamida gap va matn mazmunini, uning mantiqiy izchilligini tushunishlarini ham talab etadi. Zarurat sezilganda gapni bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratib tahlil qilish o‘quvchilarning savodxonlik bilan nazariy bilimlarini boyitadi. Bundan tashqari, gapni mantiqiy, uslubiy jihatdan to‘g‘ri tuzish qoidasini zarur so‘zga tadbiq etishga yordamlashadi. Masalan, kelishik qo‘shimchalaridan to‘g‘ri foydalinishga o‘rgatishda *maktabga bordi, tog‘ga chiqdi, elakka ketdi, qulqqa eshitildi* kabi birikmalarining talaffuzi va yozilishiga oid usullar o‘quvchilarning grammaticadan olgan bilimlarini yozuvda qo‘llashlariga yordam beradi.

Diktant, bayon va insho kabi yozma ishlar o‘quvchilardan xotiraviy zo‘riqish bilan butun diqqatini to‘plab, matnni yozishni talab etadi. Shuning uchun diktant yozishdan asta-sekinlik bilan bayon va insho

yozishga o'tilar ekan, o'qituvchi, birinchidan, ayni vaqtida o'quvchilarning ishini baholi qudrat amalga oshirish holatini belgilab olishi; ikkinchidan, o'quvchilarni bayon va insho yozishga tayyorlovchi butun jarayonni jiddiy o'ylab ko'rishi zarur. Demak, o'qituvchi darsning asosiy maqsadini aniq shakllantirishi, ish turlari va usullarini amalga oshirish rejasini tuzishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF – 5712- sonli Farmonida qayd qilinganidek, "ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta'lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko'zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish" talabi ham savodxonlik bilan chambarchas bog'liqdir [1].

Zero, "xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PLSA (The Programme for International Student Assessment) umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish" da savodxonlikka erishish xalq ta'limini rivojlantirishning muhim omillaridan ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF – 5712- sonli Farmoni. QHMMB: 0619/5712/3034-con, 29.04.2019 y.
2. Umumiyo o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi // Boshlang'ich ta'lim ona tili dasturi. –T.: 2017 yil, 7-bet
3. К.Д.Ушинский. Сбор.соч. –М.: 1949. Том – 7. – стр 321.
4. Н.С. Рождественский. Обучение орфографии в школе. –М.: 1960. – стр 52. Ushbu adabiyotlar eski
5. K. Qosimova va b. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent: Noshir. 2009 yil, 12-bet

UDK: 796.34

OLIMPIYA O'YINLARIGA SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMINI BOSHQARISHDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Kipchakov B.B.

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Maqolada yuqori toifali sportchilarni tayyorlash tizimida boshqarishning yangi prinsiplari va tizimlarini tadbiq etish orqali innovation pedagogik texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan. Innovation pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish terma jamoalarni xalqaro musobaqaqlarga tayyorlashdagi o'quv-mashg'ulot jarayonining samaradorligini oshirish imkonini berishi talqin qilingan.

Kalit so'zlar: sportchilar, tayyorgarlik, usullar, natijalar, musobaqa, pedagogik texnologiyalar, takomillashtirish, mahorat, tadbiq etish, harakatlar.

Olimpiya o'yinlariga sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar

Аннотация. В статье обоснована целесообразность использования инновационных педагогических технологий в системе подготовки высококвалифицированных спортсменов на основе внедрения новых принципов и схем управления. Реализация инновационных педагогических технологий позволит повысить эффективность учебно-тренировочного процесса при подготовке сборных команд к международным соревнованиям.

Ключевые слова: спортсмены, подготовка, методы, результаты, соревнование, педагогические технологии, совершенствование, мастерство, внедрить, движения.

Olimpiya o'yinlariga sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar

Abstract. The article substantiates the feasibility of using innovative pedagogical technologies in the training system of highly qualified athletes based on the introduction of new principles and management schemes. The implementation of innovative pedagogical technologies, the efficiency of the educational process in the preparation of national teams for international competitions are highlighted.

Keywords: athletes, training, methods, results, competition, pedagogical technologies, improvement, skill, introduce, movement.

Yuqori sport natijalarining nufuzliligi, yirik xalqaro musobaqlarda raqobatning chuqurlashuvi, o'zbek sporti ko'lami va imkoniyatlarining kengayishi yuqori toifali sportchilarini tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini aniqlab beradi. Yuqori natijalar sporti ma'lum bir individning yoki butun bir millatning genetik iqtidorini aniqlovchi, jamiyatning darajasi va ijtimoiy tuzilmasini belgilab beruvchi omil sifatida bo'lishi kerak. Yuqori toifali sportchilarini tayyorlash uslubiyati va nazariyasini har xil innovasion g'oyalar bilan boyitish va yangilash zarur, ularni tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish yo'llarini izlash va ilmiy tasavvurlarning yangi tizimini tadbiq etish orqali takomillashtirish zarur. Zamonaviy sportda yutuqqa erishish shartlaridan biri yuqori toifali sportchilar tayyorlashda innovasion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitlarda jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish darajasi ko'p jihatdan ilmiy izlanishlar va ishlanmalarning samaradorligi bilan aniqlanadi, ularni ta'minlash uchun esa yangi usullar, boshqarish vositalari qo'llanilishi zarur.

Jahon championatlarining, va ayniqsa, Olimpiya o'yinlarining nufuzi oshib bormoqda. Bu o'z navbatida xalqaro sport arenasida raqobatni kuchaytirdi, milliy nufuz va ilg'or sport natijalari uchun kurashni jadallashtirdi.

Bu omil milliy jamoalarni ahamiyatli moddiy vositalar va yangi ilmiy yutuqlarni qo'llash orqali faollashtirishga sabab bo'lmoqda. Umuman, ushbu jihat shunga olib keldiki, alohida milliy jamoalarni umumiy va jismoniy tayyorgarlik va texnik-taktik mahoratga tayyorlash darajasi tenglashdi va sport bellashuvlarida ustunlikka erishish ancha murakkablashdi.

Shunday qilib, sport amaliyoti murabbiylar, olimlar va tashkilotchilar oldiga ko'plab savollar va vazifalarni qo'ysi, asosiy xalqaro arenadagi, ya'ni Olimpiya o'yinlaridagi g'alaba yoki yengilish mana shu savollarning yechimiga bog'liq.

Sport fani hozirda yuqori toifali sportchilarini va yaqin zahiradagi sportchilarini tayyorlash tizimi bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni takomillashtirish bosqichida turibdi. Aytish joizki, bu tizim mazmuni xaqidagi ilmiy ma'lumotlarda aytarli o'zgarishlar yo'q, lekin ilgari shakllangan nazariy va amaliy yondashuvlar oydinlashtirilmoxqda. Ayniqsa, sport mashg'ulotlari nazariyasi va amaliyotining innovasion pedagogik texnologiyalarni qo'llash kabi bo'lmlarida takomillashuv jarayonlari yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Innovasion pedagogik texnologiyalar professional sportni darajasini bizni mamlakatimizda oshirish uchun obyektiv sharoitlar yaratuvchi faoliyat usullarini yorituvchi omillar sifatida ko'rib chiqilmoqda.

Bunda innovasiya (yangilik kiritish) deganda quyidagilar tushuniladi: a) yangi texnologiyalar ilmiy-texnik yuksalish yutuqlarining natijasi sifatida; b) innovasion faoliyatning pedagogik jarayonga yangi yoki takomillashgan ko'rinishda singdirilgan yakuniy mahsuli sifatida.

Pedagogik texnologiyalarni innovasion tadbiq etish nuqtai nazardan ushbu ish sport tayyorgarligining musobaqa faoliyati mexanizmlarining fiziologik, psixofiziologik, psixologik qonuniyatlarini xaqidagi ma'lumotlarga asoslangan vosita va usullari tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Innovasion texnologiyalarni qo'llash nuqtai nazardan bu tayyorlash tizimini professional terma jamoalarni tashkillashtirishdagi prinsipial yangiliklar kiritish, boshqarishning yangi prinsiplari va tizimlarini tadbiq etish hisobiga takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunday innovasion yondashuvlar quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Yosh sportchilarning individual mahoratini musobaqa harakatlarining kengaytirilgan diapazonida takomillashtirish.
2. Taktik harakatlar xilma-xilligini oshirish.
3. Atletik tayyorgarlikning bazaviy darajasini tezlik-kuch sifatlarini va maxsus chidamlilikni rivojlantirishga urg'u bergen holda oshirish.
4. Musobaqa faoliyati potensialining dinamik to'planishi.
5. Terma jamoalar butun instituti o'zaro harakatlarining uslubiy birlik borasida, g'oyaviy va strategik tayyorgarlikdagi fikrlash yakdilligi borasidagi takomillashuvi.
6. Quyidagi jihatlar asosida terma jamoalarning butun instituti faoliyatini optimallashtirish: tayyorlash dasturining qat'iy tushunarli bo'lishi, zahira jamoalarda individual ishlash vaqtining oshirilishi, texnik-taktik mahoratni takomillashtirish bo'yicha maxsus o'quv-mashg'ulot yig'inlarini doimiy ravishda o'tkazish.

Hozirgi vaqtida mavjud bo'lgan yuqori toifali sportchilarini tayyorlashni ilmiy ta'minlash tizimi quyidagi ish shakllarini nazarda tutadi:

- tayyorgarlikning turli bosqichlarida yutuqqa erishish uchun zarur bo‘lgan sport natijalarini prognozlashtirish;
- sportchining musobaqa faoliyatini tahlil qilish va modellashtirish;
- sportchi tayyorgarligining har xil tomonlarini tahlil qilish va modellashtirish;
- rejalahtirilgan natijaga erishishga yo‘naltirilgan sport mashg‘ulotini tahlil qilish va dasturlashtirish.

Mana shu har bir bo‘limlar bo‘yicha ish sportchi holatini nazoratidan kelib chiqib (umumiyo‘ning) ko‘rinishda bu nazorat sportchi tayyorgarligining har xil tomonlari holatining modeli tavsiflarga mos kelishini tekshirishni namoyon qiladi) va sportchi mashg‘ulotining yangi usullarini ishlab chiqish va uning ish layoqatini tiklash, hamda ularni organizmga ta’sir qilishini nazorat qilish usullaridan kelib chiqib yo‘lga qo‘yiladi.

Yuqori toifali sportchilar tayyorlash tizimidagi asosiy masalalardan biri – bu modelli tavsiflarni ishlab chiqish. Olimpiyachining modelli tavsiflari sportchi organizmning uni rekord natjalarga erishishga imkon beruvchi alohida parametrlerining xususiyatlari yoki darajasini namoyon qilishi kerak, shu bilan bog‘liq holda har xil sport turida olimpiyachi modelini tuzishga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- modelli tavsiflar sportchining tayyorgarlik darajasini yuqori darajada namoyon qiluvchi maqsad nuqtai nazaridan eng ahamiyatli parametrler asosida qurilishi kerak;
- modelli parametrler strukturali-iyerarxik bog‘liqlik bilan birlashtirilishi kerak;
- har bir asosiy parametrler uchun maqsadli vazifalarga bog‘liq holda o‘zgarishlar diapazoni ko‘rsatilishi kerak;
- modelli parametrler yetarlicha ishonchli va qulay ro‘yxatdan o‘tkazuvchi apparatura bilan va mos uslubiyat bilan to‘liq ta‘minlanishi kerak;
- modelga zaruriy qo‘sishma – bu - u yoki bu parametrler ishlashining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi batareya vositalari va usullarning zaruriy to‘plamini tayyorlab qo‘yish;
- modelli parametrлarni ro‘yxatdan o‘tkazish kompyuterlashtirilgan bo‘lishi kerak.

Bu yo‘nalishning keyingi rivoji quyidagicha: alohida modelli ko‘rsatkichlardan ular o‘rtasidagi alohida o‘zaro aloqalarni izlashgacha; alohida aloqalarni ro‘yxatdan o‘tkazishdan tizimli tahlilgacha, rekord sport natijasi va nihoyat sport mashg‘ulotining mantiqan bir biriga zid bo‘lmagan to‘laqonli nazariyasini tuzish.

Ideal variantda olimpiyachi modeli quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga kiritishi kerak:

- Mashg‘ulot jarayoni tavsifi (yuklamalar qamrovi, tezkorlikni almashtirib turish va boshqalar);
- Organizmning funksional holati tavsifi (fiziologiya, bioximiya);
- Tayyorgarlik darajasi tavsifi (jismoniy, texnik, taktik, psixologik).

Ushbu talabga organizmning alohida tizimlarining standart yuklamaga o‘zgarishlari darajasini kuzatish imkoniga ega bo‘lish uchun rioya qilish zarur.

Shunday qilib, modelli parametrler o‘zaro ishonchli, ham gorizontal bo‘yicha, ham vertikal bo‘yicha korrelyasion bog‘liklikka ega bo‘lishi kerak, hattoki hozirgi paytda bu aloqalarning alohida parametrler o‘rtasidagi korrelyasiya koeffisiyentlari matematik ifodasi ishlab chiqilmagan bo‘lsada.

Ma’lumki, tizimni boshqarish uzlusiz, maqsadga yo‘naltirilgan, optimal natjalarga erishish uchun har xil usul va vositalar yordamida amalga oshiriluvchi jarayon sifatida belgilanadi. Boshqarishning asosiy vazifasiga shunaqa shart va sharoitlar yaratish kiradiki, bunda faoliyat minimal xarajatlarda maksimal samara bilan, manbalarni eng kam yo‘qotish bilan kechishi lozim. Bularni hammasi to‘laqonli me’yorda sport tayyorgarligi tizimiga kiradi.

Yuqori natijalar sportiga taalluqli jihat – bu sport rivojlanishi strategiyasini, xalqaro arenada sport natijalari va yutuqlarining o‘sishini belgilab beruvchi tashkillashtirilgan tizimlar funksiyasi. Ye.A.Shirkoves (8) boshqarish tizimida boshqarishning tashkillashtirilgan tuzilmasini va tayyorgarlik tizimining ishlashini va maqsadga erishishni ta‘minlovchi mexanizmni ajratib ko‘rsatadi. V.N.Platonov (6,7) tashkillashtirilgan tuzilma deganda har xil sport tashkilotlarining o‘zaro tobeligini va o‘zaro aloqalar birligini, tashqi sharoitlarning va tizimning ichki holatini har xil o‘zgarishlarida maqsadga erishishga yo‘naltirilgan harakatlarni muvofiqlashtiruvchi alohida komponentlarni yagona boshqarish tizimiga keltirishni tushunadi. Sportchilar tayyorgarligini boshqarishda qo‘llaniladigan har xil usullar, vositalar va stimullar majmuasi boshqarish mexanizmlari deyiladi (4,5).

Sport tizimini boshqarish menejment va boshqarish nazariyasining asosiy jihatlariga asoslanadi. Mashg‘ulot va musobaqa jarayonlarini samarali boshqarish uchun boshqarishning tashkiliy shakllari tuzilmasini takomillashtirish, sportchilar tayyorgarligining har xil tomonlarini baholash mezonlarini tanlash, sportchilar harakatli faoliyatining har xil tavsiflarini sifatli axborotni qo‘llash orqali sifatli tahlil qilish masalalarini yechish zarur bo‘ladi.

Hozirgi vaqtida sportchilar tayyorgarligi tizimini boshqarish hech shubhasiz intellektual faoliyatning ancha murakkab shaklidir, musobaqlar jarayoni va ularga tayyorgarlik boshqariladigan bo‘lishi kerak. Aniq ifoda etganda yuqori natijalar sportida boshqarish – bu sportni rivojlantirish strategiyasini belgilab beruvchi tashkillashtirilgan tizimlar funksiyasi, xalqaro arenalarda sport natijalarining va yutuqlarning o‘sishi.

Sport faoliyati miqyosining oshishi, dasturlarning olimpiya nomerlarida sport-texnik natijalar o‘sishining intensiv rejimini ta’minlash, informasion, ilmiy-sport va iqtisodiy aloqalarning murakkablashuvi olimpiya tayyorgarligi qismida oliv natijalar sportining ijtimoiy-biologik va ilmiy-sport muammolarini kompleks yechish rolini oshiradi. Yagona, xususiy, lokal ilmiy vazifalarni yechish, alohida tashkiliy-uslubiy ko‘rsatmalarni ishlab chiqish, oliv natijalar sportining zamonaviy ilmiy-sport progresida tavsiyalar berish kompleks tadqiqotlar va ishlanmalarning barqaror tendensiyasini belgilaydi, sport turlari bo‘yicha sport mahoratini shakllantirishning yagona tashkiliy ilmiy-metodik konsepsiyanı yaratishga va tadbiqu etishga va ilmiy-metodik va tibbiy-biologik nazoratning o‘zaro bog‘liq tizimini yaratishga imkon beradi. Mas’uliyatli musobaqlarga sportchilarni tayyorlash amaliyoti ilg‘or sportchilarning, O‘zbekiston terma jamoasi a’zolarining sport mahoratini shakllantirishni rejalashtirish va boshqarishning afzalliklarini ko‘rgazmali isboti bo‘ldi. Bular quyidagilarni o‘z ichiga kiritadi:

- sportchilarning ruhiy tayyorgarligini o‘rganish;
- o‘rganishning tibbiy-biologik usullarini qo‘llash orqali sportchilar organizmi funksional holatini nazorat va tahlil qilish tizimini ishlab chiqish va tadbiqu qilish;
- sportchilar ish layoqatini oshiruvchi farmakologik vositalarni o‘rganish va ularni samarali qo‘llash usullarini ishlab chiqish;
- zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash bilan mashg‘ulot jarayoni va musobaqa faoliyatini nazorat qilish tizimini ishlab chiqish;
- sportchilar, O‘zbekiston Respublikasi terma jamoalarining o‘quv-mashg‘ulot jarayonini rasional tuzishni o‘rganish.

Tayyorgarlikning zamonaviy tizimini optimallashtirish va tayyorlanishda innovasion jarayonlarni rivojlantirish strategiyasi hozirgi vaqtida O‘zbekiston Respublikasi terma jamoasi a’zolari-sportchilarni tayyorlashning muhim vazifalaridan biridir.

Taklif qilingan tizimning ishslash texnologiyasining asosiy, prinsipial ifodasi O‘zR madaniyat va sport ishlari bo‘yicha vazirlik va federasiyasining, terma jamoalarning quyidagi jihatlarga kompleks yo‘naltirilganligidir:

- murabbiylarning, sportchilarning, mas’uliyatli xalqaro musobaqlarda ijobiy natija olish jamoalarni tayyorlantirishga mas’ul bo‘lgan hamma shaxslarning ijtimoiy-psixologix mas’uliyati darajasini oshirish;
- yuqori murakkablikdagi masalalarni yechishga sportchilarni va jamoalarni tayyorlash darajasini oshirish;

Hozirgi vaqtida milliy jamoalar faoliyatining ilg‘or g‘oyasi yakdil fikrlovchi, kurashuvchan jamoani yaratish hisoblanadi (murabbiylar, o‘yinchilar, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar).

Faoliyat ko‘rsatish texnologiyasining aniq ifodalanishi quyidagilar:

- tayyorgarlikning an‘anaviy, olimpiya sikllariga yaxshi aprobasiyadan o‘tgan, innovasion va oldindan tekshirishdan o‘tgan vosita va usullarini bir butun tizim sifatida shakllantirish;
- markazlashgan tayyorgarlikda trenirovka jarayonining jadalligini oshirish va kuchli raqiblar bilan musobaqa bellashuvlari sonini oshirish;
- terma jamoalar tayyorgarligiga jalb qilingan hamma mutaxassislar urinishlarini konsolidasiya qilish va viloyat markazlari bilan terma jamoalariga nomzodlarni tayyorlash jarayonini nazorat qilishni amalga oshirish va tayyorlashning yagona strategiyasini ishlab chiqish uchun aloqalarni kuchaytirish;
- terma jamoalarning hamma a’zolarida «g‘alaba ruhi» ni tarbiyalash.

Shunday qilib, yuqori toifali sportchilarni tayyorlash tizimini bu tizimni tashkil qiluvchi hamma jabhalarni yagona funksional mexanizmga birlashtirilsa, hamda bu mexanizm to‘g‘ri boshqarilsagina optimal darajada amalga oshirish imkonini bo‘ladi. Demak, nafaqat sportchilar tayyorlashning zaruriy texnologik jarayonini takomillashtirish kerak, balki tashkiliy tizimini va bu jarayonni maxsus boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, terma jamoalarni sport turlari bo‘yicha Olimpiya o‘yinlariga tayyorlashning maqsadli kompleks dasturi dasturlashning quyidagi asosiy elementlarini o‘z ichiga kiritishi zarur:

- tayyorgarlikning asosiy maqsadlarini yorituvchi maqsadli topshiriqlar usuli;
- maqsadli dasturlash tizimi vositalarini tadbiqu qilishning murakkab tuzilmali-mantiqiy tizimi;
- ham alohida elementlarning, ham butun tayyorgarlik tizimining samaradorlik jihatlari tizimi;

- oraliq va yakuniy natijalar bo'yicha dasturni tadbiq qilish jarayonini nazorat qilish tizimi;
- Maqsadli dasturni tadbiq qilishning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi.

Adabiyotlar

1. Бальсевич В.К. Контуры новой стратегии подготовки спортсменов олимпийского класса // Теория и практика физической культуры. – 2001. - №6. – С.9-10.
2. Геращенко И.Г., Зубарев Ю.А., Шамардин А.И. Роль инноваций в спортивной педагогике // Теория и практика физической культуры. - 1998. - №4. - С.24-26.
3. Ильинкова С.Д. Инновационный менеджмент: Учебник для студентов ВУЗов. – М.: Изд-во. объединение «Юнити», 1999. - С.7-19.
4. Матвеев Л.П. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты: Учебник для завершения уровня высшего физкультурного образования. – Ч.1. – М.: Известия, 2001. – 303 с.
5. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры: Учебник для вузов. Ч.1. – М., 2004. – 177 с.
6. Платонов В.Н. Построение процесса спортивной подготовки. // Современная система спортивной подготовки. - М.: Изд-во СААМ, 1995. - С.8-12.
7. Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев: Олимпийская литература, 1997. – 584 с.
8. Ширковец Е.А. Система оперативного управления и корректирующие воздействия при тренировке в циклических видах спорта: Автореф. дисс. доктора пед. наук. - М., 1995. – 48 с.

UDK: 37.008

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA SENSOR TARBIYANING O'RNI

Nigmatova M. Z.

Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish hududiy markazi
Nigmatova.mavjuda@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga sensor tarbiya berish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Bu jarayonning asosiy ishtirokchisi, ya'ni tarbiyachiga qo'yiladigan hozirgi zamон talablari bayon etilgan.

Kalit so'zlari: Bola, tabiat, hodisa, sensor, tasavvur,o'yin.

Роль сенсорного воспитания в развитии познавательных процессов у детей дошкольного возраста

Аннотация. В данной статье обоснованы особенности процесса сенсорного обучения. А также изложено важность игр в усовершенствовании данного процесса.

Ключевые слова: Ребенок, природа, событие, сенсор, воображение, игра.

The role of sensory education in the development of cognitive processes in preschool children

Abstract. This article describes the specific features of the process of sensory education of children of preschool age. It is stated that games play an important role in development of this process.

Keywords: Child, nature, event, sensorium, imagination, game.

Kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ahamiyati kattadir. Bu o'z navbatida O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni va "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"ning qabul qilinganligi hamda ushbu hujjalalar mohiyatiga ko'ra uzliksiz ta'lim tizimining shakllanganligi ta'lim –tarbiya asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Maktabgacha bolalikda sensor jarayonlar ayniqsa alohida ahamiyatga ega bo'ladi, chunki voqelikdagi narsa va hodisalarining shakli katta–kichikligi, rangi va boshqa xossalalarini to'g'ri va aniq idrok qilish qobiliyati ayni shu maktabgacha tarbiya yoshi davrida tez rivojlanadi.Sensor "sensorium" lotincha sezgi organlari degan ma'noni bildiradi. Narsalarning turli xil rangi, shakllari katta-kichikligi va fazodagi holatini ko'zi bilan ko'rib, musiqa, inson nutqi kabi har xil tovushlarni qulog'i bilan eshitib, qattiq-yumshoqligini g'adir-budurligini, sovuq yoki issiqligini qo'llari va terisi bilan sezib, turli hidlar va mazza–

ta'mlarni his qilib, bolada sekin-asta sensor tajriba to'planib boradi va mana shu asosida bilim doirasi kengayadi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni mana shu buyumlarning shakli, katta-kichigligi va rangi bilan tanishtirish hamda ularda bu xossalarni to'g'ri idrok qilishi ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi sensor tarbiya sohasiga kiradi. Bu tarbiya qanchalik to'g'ri hal qilinsa, bolalarning faqat aqliy tarbiyasigina emas, balki estetik, jismoniy va hatto axloqiy tarbiyasi ham muvaffaqiyatli amalga oshiriladi, ya'ni bola har tomonlama rivojlanib boradi.

Sensor harakatlarning rivojlanish darajasi bolaning qobiliyatlarini shakllanayotganda hamda muayyan bilimlarni va ayrim amaliy ko'nikmalarni egallash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bolada shakl va bo'yoqlarni idrok qilish qobiliyati rivojlangan bo'lsa, u tevarak-atrofdagi narsalarning xossalarni har tomonlama ko'ra oladi va akslantira oladi. Bu esa ularni tasvirlash, rasm chizish, loydan, qog'oz va matodan qirqib har xil narsalar yasash hamda ko'rish-yasash ko'nikmalarni rivojlanirishga imkon beradi.

Tug'ilgandan to'lg'aygungacha, bolalar o'zlarining his-tuyg'ularidan foydalanib, atrofdagi dunyoni anglashga intilishadi. Ular buni ushslash, tatib ko'rish, hidlash, ko'rish, harakat qilish va eshitish orqali amalga oshiradilar.

Bolalar va hatto kattalar o'zlarining sezgi organlari orqali to'liroq ma'lumotni olishadi va uni xotirada saqlab qolishadi. Ko'pgina eng yaxshi xotiralarimiz bir yoki bir nechta hissiyotlarimiz bilan bog'liq. Masalan, yozgi tungi gulxanning hidi yoki siz bolalikdagi do'stingiz bilan yodlagan qo'shiq. Endi sizning burn va qulqlarining o'sha tanish hidlar va tovushlarni sezganda, miyangiz o'sha vaqtarda saqlangan xotirani qo'zg'atadi.

Bolalarga "sensor o'yinlar" orqali o'zlarining dunyolarini kashf qilishlarida sezgilaridan faol foydalanishlarga o'rgatish miyaning rivojlanishi uchun juda muhimdir - bu miyadagi turli markazlar aloqalarni yaratishga yordam beradi.

Bu bolaning yanada murakkab o'quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyatini, kognitiv o'sishni, tilni rivojlantirishni, vosita ko'nikmalarni, ijtimoiy o'zaro ta'sir va muammolarni hal qilish ko'nikmalarni rivojlaniradi.

Biz ko'pincha beshta sezgi borligini bilamiz. Bular:

Ta'm bilish - ta'm retseptorlari og'zimizdagi kimyoviy moddalar bilan reaksiyaga kirishganda paydo bo'ladigan ta'sir.

Sezish - bu bizning terimizdagi bosim, issiqlik, sovuq yoki tebranishga nisbatan sensorli retseptorlardan kelib chiqadigan stimulyatsiya.

Hid - yuqori havo yo'llarida (burun) kimyoviy retseptorlarni qo'zg'atish.

Ko'rish - bizning miyamiz tasvirlarni talqin qildigan bizning ko'zlarimizdagi yorug'lik retseptorlarni qo'zg'atish.

Eshitish - bizning ichki qulog'imizdagi maxsus vositalar yordamida ovozni qabul qilish.

Ammo biz ko'pincha unutib qo'yadigan yana ikkita ta sezgi bor:

Proprioteptsiya - miyamiz mushaklarimizdagi retseptorlari va bo'g'inlardagi bosim retseptorlari orqali bizning tanamiz fazoda ekanligi to'g'risida ma'lumot olishga imkon beradi.

Muvozanat - tanamizning pozitsiyasini bilish uchun ichki quloqning vestibulyar tizimini stimulyatsiya qilish asosida paydo bo'ladigan sezgidir.

Bu sezgilar sensor o'yinlar jarayonida asosiy ahamiyat kasb etadi. Sensor o'yinlar yosh bolaning his-tuyg'ularini uyg'otadigan har qanday faoliyatni o'z ichiga oladi. Bolalarsensor o'yin jarayonida, quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar: mustaqil o'yin qobiliyatları ustida ishslash, matematik qobiliyatlar, syujetli-rolli o'yin, hayotiy ko'nikmalar (quyish, ochish, uzatish), ta'sirli o'rganish, o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantirish va shu kabilar. Bolalar tartibsizlikka yo'l qo'ymasdan o'ynashni o'rganishlari kerak [5].

Bolalarning yoshi ulg'ayib, hayot tajribalari ortishi, sharoitlarning o'zgarishi bilan idrok etish jarayoni va unga qo'yiladigan talab ham murakkablashadi.

Ezish, chapillatish, aylantirish, sachratish, siqish, portlash, yugurish, chayqash, silkitish, surish, otish va og'zini ochish – bolalar bu hissiyotlar orqali dunyoni o'rganishi juda foydalidir. Bu ba'zan shovqinga sabab bo'lishi mumkin, shuning uchun tarbiyachilar ko'pincha ushbu o'yin turlarini qisqartirishga harakat qilishadi. Aslida, sensor o'yin - har qanday bolaning his-tuyg'ularini uyg'otadigan o'yin va u bolaning sog'lig'i va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu orqali bola kognitiv ko'nikmalarni rivojlaniradi va dunyo haqida ko'proq bilib oladi.

Bolalarni sensor tarbiyalash jarayonida tarbiyachi bolalarga tegishli topshiriqlar berishi: buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yishda ularning og'irligini his qilish, buyumni qo'liga olib,

uning sirtini sezish va sifatini-silliq yoki g‘adur-budurligini, issiq yoki sovuqligini va shunga o‘xshashlarni aniqlashi kerak.

Bolalarni tekshirish usullari va buyumlarning sifatlari bilan tanishtirgandan keyin tarbiyachi, bu sifatlarni ajratish bo‘yicha ularni mashq qildirishni tashkil etish lozim. Bunda bolada qo‘llayotgan usulning hamda so‘z orqali beriladigan ta’rifning aniqligini ta’minalash muhimdir. Mashq qildirish uchun mazkur sifatga ega bo‘lgan turli buyumlarni tanlash zarur. Mashqlarni mazkur sifat belgisi asosida xilma-xil buyum guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bunday sharoitda sifatning aniq bir buyumdan ajralishi ro‘y beradi, bu esa yangi bosqichga turli xossalalar haqida umumlashgan tasavvurlarni shakllantirish uchun asos bo‘ladi.

Sensor tarbiya mazmuni butun maktabgacha yoshdagagi bolalik davomida bolalarda turli yosh davrlarida vujudga keladigan va rivojlanadigan faoliyat turlarini hisobga olib amalga oshiriladi. Sensor tajriba natijasida bola dunyoni hissiy bilish, ko‘rgazmali obrazli fikrlash usullarini egallaydi. Bolalarning barcha turdagi faoliyati yanada takomillashadi, nazariy va amaliy faoliyatda nisbiy mustaqillik shakllanadi.

Bola uch yoshga to‘lib MTTga qatnay boshlagach, bolaning faoliyat doirasi juda kengayib ketadi, nutqi g‘oyat jadallik bilan o‘sma boshlaydi. Buning natijasida bola juda ko‘p narsalar bilan mustaqil hamda bevosita munosabatda bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bola hayotidagi bu o‘zgarish o‘z navbatida uning idrokiga ta’sir etmay qolmaydi. Ular kundalik faoliyatlar davomida juda ko‘p narsalar bilan to‘qnashadilar. Shunday bo‘lishiga qaramay kattamaktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar o‘zlari idrok etayotgan narsalarning nima ekanini har doim kattalarning yordamisiz bilavermaydilar.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar idroking xarakterli tomonlaridan biri shundaki, ular turli narsalarni idrok qilishda ko‘zga tashlanib turadigan belgilariga asoslanadilar. Biroq tajribalari hali yetarli bo‘lmagani, ya’ni ko‘p narsalarning mohiyatiga mutlaqo tushuna olmasliklari narsalarning mohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim va umumiyligi belgilarni aks ettira olmaydilar. Ular narsalarni idrok qilishda konkret tasavvurlarga asoslanadilar. Shu sababli bolalar uchun narsalarning asosiy va muhim belgilari ularning rangi va shaklidir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar shuning uchun ham o‘xshash narsalar shaklini bir-biridan bemalol ajrata oladilar.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar idrok qilish paytida narsalarni chuqur tahlil qila olmaydilar. Bolalar idrokidagi bu yetishmovchilik ularning turli rasmlarni idrok qilishlarida yaqqol ko‘rinadi. Bolalar rasmda tasvirlangan narsalarning holatiga va fazoviy munosabatlariga tamomila befarq bo‘ladilar. Ular rasmlarni teskari ushlab ham zavq bilan tomosha qilaveradilar. Buning asosiy sababi rasmni idrok qilishga nisbatan bolalarning analistik munosabatda bo‘lomasliklardir. Bolalar rasmda tasvirlangan narsalarni bir-biri bilan ma’lum munosabatda emas, balki tasvirlangan narsalarning hammasini butunligicha idrok qilishga intiladilar. Ularda hali tahlil qilish xususiyatlari yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Shuning uchun rasmlar bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda tarbiyachi bolalarga yo‘naltiruvchi savollar berib, ularni analiz qilishga o‘rgatib borishi lozim. Rasmlarni idrok qilish ana shunday tarzda yo‘lga qo‘yilgandagina bolalarning idrok qilish qobiliyatini hamda kuzatuvchilik xususiyatini rivojlantirish mumkin.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda fazoviy tasavvurlarning yetarli darajada aniq emasligini ularning chizgan rasmlarida yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan, kichik va o‘rtalik guruh bolalari rasm chizganlarida narsalarning hajmiy munosabatlariga unchalik e’tibor bermaydilar. Ularning chizgan rasmlarida uyning balandligi avtomashinaning balandligi bilan, odamning bo‘yi esa terakning bo‘yi bilan barobar bo‘lishi mumkin. Bu bolalarni mutlaqo hayron qoldirmaydi. Fazoviy munosabatlarni to‘g‘ri idrok qilish va binobarin, fazoviy munosabatlar haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lish asta-sekinlik bilan bolalarning turmush tajribalari orta borishi davomida o‘sib boradi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning vaqtini idrok qilishlari ham mukammal xarakterga ega emas. Bolalarda vaqtini to‘g‘ri va anglab idrok qilish fazoni idrok qilishga nisbatan qiyinroq. Bolalar uchun vaqtini idrok qilishning qiyin tomonlaridan biri, ular vaqtning uzluksiz o‘tvchanligini (ya’ni vaqtning beto‘xtov o‘tishini) anglay olmaydilar va binobarin, idrok ham qila olmaydilar. Bu narsani ularga ko‘rgazma asosida ko‘rsatib bo‘lmaydi. Natijada bolalar vaqt tushunchalarini ma’lum narsalar va hodisalar orqali konkretlashtirib idrok qilishga intiladilar. Kichik yoshdagagi bolalarining vaqtini idrok qilishlari shu narsa ko‘zga tashlanib turadiki, ular bir-biri bilan tez almashib turadigan vaqt o‘lchovlarini qiyinlik bilan o‘zlashtiradilar.

Maktabgacha ta’lim yoshida boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojiana boshlaydi. Biroq kichik yoshdagagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik yoshdagagi bolalarida kun sayin paydo bo‘ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o‘yinchoq faoliyatlarining xilma-xil bo‘la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi.

Maktabgacha ta’lim yoshida bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya’ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topib, yuksala boshlaydi. Buni biz bolalarning (xususan o‘rtalik va katta bolalarning) bir

ish ustida uzoq vaqt davomida o‘tira olishlaridan, ba’zi o‘yinlarni zerikmay soatlab o‘ynay olishlaridan, ta’limiy mashg‘ulotlarda chidam bilan o‘tira olishlaridan ko‘rishimiz mumkin.

Maktabgacha ta’lim yoshida bolalarda avvalgi davrlarga nisbatan diqqat ko‘lami (hajmi) ham ancha kengayadi. Bolalar diqqatining ko‘lami katta odamlarnikiga nisbatan hali juda tor bo‘ladi. Masalan, katta odamlar diqqatining ko‘lami ayni vaqtida 5-6 narsani (bir-biri bilan ma’naviy bog‘lanmagan harflarni yoki raqamlarni) sig‘dira olsa, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar diqqatining ko‘lami ayni bir vaqtida 1-2 narsanigina (kichik guruh bolalari bitta, o‘rtta va katta guruh bolalari esa ikkita) sig‘dira oladi. Kichik guruh bolalari diqqatlarini ikkita narsaga bo‘lishga harakat qilsalar ham buning uddasidan chiqqa olmaydilar. Masalan, 3-yoshli bolaga bir piyola suv olib kelish buyurilsa, u albatta svuni to‘kib-sochib olib keladi. Bu uning o‘quvsizligi, bo‘shangligi yoki anqovligidan emas, balki o‘z diqqatini ayni bir vaqtida ikkita narsaga bo‘la olmasligidandir. Bola o‘zining diqqatini yurib kelish bilan piyoladagi svuni to‘kmay, chayqaltirmay olib kelishga bo‘la olmaydi. Shuning uchun bunday hollarda bolalarni koyish yaramaydi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning diqqati ko‘pincha ularning qiziqish hamda hissiyotlari bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli konsentrashgan(to‘plangan), ya’ni bir narsaga qaratilgan bo‘ladi. Ana shuning uchun bu yoshdagagi bolalarda diqqatning bo‘linuvchanlik xususiyati deyarli rivojlanmagan bo‘ladi. Maktabgavha ta’lim yoshidagi bolalar diqqati bo‘linuvchanlik xususiyatining zaifligi va ko‘lamining torligi sababli ular ayrim narsalarni qayta-qayta idrok qilib, eslarida olib qolishga intiladilar.

Bola esida olib qolgan narsalarida hali sistema yo‘q, shuning uchun bola dastavval chuqr taassurot qoldirgan, ya’ni esida chuqr o‘rnashib qolgan narsalardan boshlab gapiraveradi. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: agar bog‘cha yoshidagi bolaga bir vaqtning o‘zida haddan tashqari ko‘p narsalar ko‘rsatilsa, ular hamma narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar va birontasini ham puxtarloq esda olib qololmaydilar.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, keyingi yillar mobaynida maktabgacha yoshidagi bolalarda mantiqiy, ya’ni ma’nosiga tushunib esda olib qolishga nisbatan mexanik esda olib qolish ustun bo‘ladi, degan fikr mavjud bo‘lib, shu bilan birga mexanik esda olib qolish mantiqiy esda olib qolishga qarama-qarshi qo‘yilar edi. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan ekperimental tekshirishlar natijalarining ko‘rsatishicha, maktabgacha yoshidagi bolalarda ham narsa va so‘zlarning ma’nosiga tushunib eslab qolish katta o‘rin tutadi. Lekin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning mantiqiy esda qoldirishlari ularga o‘zlarini tushuniladigan material berilganda yaqqol ko‘rinadi.

MTTda jamoa tomonidan talab etiladigan tartiblarga bo‘ysunish, qoidali o‘yinchoq shartlarini so‘zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam va qunt bilan ado etish kabi hollar bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o‘yinchoqning ahamiyati juda kattadir. Chunki o‘yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to‘plab, o‘z tashabbuslari bilan ma’lum maqsadlarni ilgari suradilar. O‘yinlarning qanday qoidalar asosida o‘ynalishimi o‘zlarini mustaqil ravishda tanlab oladilar. O‘yin qoidasidan chetga chiqib ketmaslik uchun o‘z harakatlarini o‘yin qoidalariga moslashtirishga va o‘yinda qatnashuvchi o‘rtoqlarining harakatlarini ham kuzatib borishga tirishadilar.

O‘yin bolaning amaliy faoliyati shakkidan biri bo‘lib, uning tevarak-atrofidagi hayotni o‘zlashtirib olishga qaratilgandir. Ammo bu bilishdan oldin uning bevosita shakkllari (idrok qilish, kuzatish) ro‘y beradi, bu esa o‘yinda bolaning sensor rivojlanishiga rahbarlik qilishga alog‘ida talablar qo‘yadi:

1) bolalarning sensor rivojlanishiga ta’sir etish o‘yinning mazmuni, uning tuzilishi, tasviriy vositalari bilan ifodalanadi. Shuning uchun ijodiy o‘yinda nazariy tushunchalar orqali rejalashtirilayotgan bilim va malakalarni mustahkamlab bo‘lmaydi;

2) bolalar o‘yinlarining mazmunini ularning tevarak-atrofdagi narsalar haqida taassurotlar bilimlarni kengaytirish orqali boyitish ijodiy o‘yinda bolalarning aqliy rivojlanishiga rahbarlik qilishning asosiy yo‘lidir. O‘yin jarayonida bilimlar qayta ishlanadi, ular takomilashtiriladi;

3) o‘yinlarni diqqat bilan kuzatish va tahlil qilish bolalarning ma’lum bir voqeя yoki hodisalarni tushunish darajasini aniqlashga hamda bilimlarni oydinlashtirish, chuqurlashtirish yoki tuzatishga doir ishlarni tashkil etishga imkon beradi;

4) bolalarning sensor o‘yinlariga kundalik rahbarlik qilishda ularning fantaziyasini rag‘batlanirish kerak.

5) o‘yinlarga rahbarlik qilish bolalarning o‘yin mavzusini oldindan belgilashga, rollarni taqsimlashga, o‘yinning asosiy yo‘nalishini aniqlashga o‘rgatishga qaratilgan bo‘lishi kerak. [4].

Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun mashg‘ulot jarayonida turli xil o‘yin turlaridan foydalanish mumkin. Bolaning aqliy rivojlanishida didaktik o‘yinlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o‘yin - bu bolalarning yosh va imkoniyatlariiga mos keladigan ta’lim berish usulidir. Tarbiyachi bu o‘yinlardan bolalarni jamiyatga aralashtirish uchun har xil rejalar, vazifalarini qo‘rqmasdan bajarishi uchun foydalanadi. Didaktik o‘yinlar ta’lim tarbiyaning vazifasi hamda maqsadlariga muvofiq

kelishi lozim. Didaktik o‘yinlar bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, shuning uchun unda bolalar mashg‘ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadi. Didaktik o‘yin bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olganbilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.

Bunday o‘yinlarga kichik guruh bolalari uchun “Rangiga qarab top”, “Shakliga qarab top” kabi o‘yinlarni misol sifatida keltirish mumkin. Katta guruh bolalari uchun “Sharbat va sho‘rva”, “Quvnoq qistirgichlar”, “Soatcha”, “Xaritani to‘ldir” va boshqa o‘yinlarni ko‘rsatish mumkin. Didaktik o‘yinlar bolalarning tevarak-atrofhaqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bola o‘zi yakka tartibda va mashg‘ulotlar jarayonida olgan bilimlarini amalda qo‘llashga o‘rgatadi. Ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodkorlik kuchlarni, sensor jarayonini rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariiga mos, qiziqarli faoliyat orqali o‘yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o‘zlashtiradi. Didaktik o‘yinlar kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o‘yin elementlari qancha ko‘p bolsa, bolalarga u shuncha ko‘p quvonch bag‘ishlaydi [2].

Didaktik o‘yining kerakli tomoni uni o‘tkazishdan ko‘zda tutiladigan g‘oyadir. O‘yin g‘oyasi bolalarda o‘yinga qiziquvchanlikni uy‘otadi, ko‘pincha bu g‘oya didaktik o‘yinni boshlashga sababchi bo‘ladi. Masalan: «Ajoyib xaltacha» yoki «Kim qanday qichqiradi» va boshqalar. Ta’lim tarbiya uchun o‘yin natijasi hamma vaqtbalolarning bilim egallashida, aqliy faoliyatida, o‘zaro munosabatlarida erishgan yutuqlarining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Uning mazmuni, g‘oyasi, harakatlari va qoidalari o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ularning bittasi bo‘lmasa ham o‘yinni o‘tkazib bo‘lmaydi. Didaktik o‘yining o‘yin faoliyati sifatidagi o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachining bolalar bilan va bolalarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlari o‘yin tarzida bo‘ladi. Bolalar ko‘pincha o‘yin mazmuni bilan belgilanadigan vao‘yin harakatlari talab etadigan bitta rolni tanlaydi. Masalan: do‘kon o‘yininda bilish mazmuni shundan iboratki, xaridor bolalar o‘zlarini sotib oladigan narsalarning belgilarini aytishi, sotuvchi bolalar bo‘lsa talab qilingan narsaning nima ekanligini xaridor aytgan belgilar bo‘yicha bilib olishlari kerak. O‘yin qoidalalarini xaridorlarning oladigan narsalarni olishi, sotuvchiga yaxshi munosabatda bo‘lishi, oladigan buyumni tasvirlab berishi, uni har tomonlama ko‘rib chiqishi va uni boshqa buyumlar bilan taqqoslashi, belgisini aytishi va pul to‘lashidan iborat. Sotuvchilarning vazifasi esa xaridorlar so‘zlayotganda ularni yaxshi e’tibor bilan tinglash, so‘zlarini bo‘lmaslik, so‘ragan buyumlarini olib, qog‘ozga o‘rab berishdan iborat bo‘ladi.

Bu qaysi hayvon o‘yini

O‘yining maqsadi: bolalarni tashqi belgilari bilan tanish bo‘lgan narsalarni tanib olishni o‘rgatish (bu holatda hayvonlar turli yo‘llar bilan tanishtiriladi). Bundan tashqari, o‘yin tasavvurni, harakatlarni muvofiqlashtirishni va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi (bolalarni tavsija etilgan belgilar asosida mantiqiy xulosalar chiqarishga o‘rgatadi).

Kerakli jihozlar: Hayvonlar haykali tasvirlari (bir xil o‘lchamda). Bu yovvoyi va uy hayvonlari bo‘lishi mumkin. Eng muhimi, bu hayvonlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlar to‘plamiga ega bo‘lishi kerak.

O‘yining tartibi (o‘yin bir guruhda o‘tkazilishi mumkin). Tarbiyachi bolalarga tasvirlangan hayvonlarning suratlarini ko‘rsatadi, ularni nomlashni taklif qiladi. Agar o‘yin yosh bolalar orasida o‘tkazilsa, u holda bu yoki boshqa hayvon qanday qilib "gapiradi" deb so‘rash kifoya. Agar 4.5-5 yoshdagি bolalar o‘ynayotgan bo‘lsa, unda biz bu yovvoyi hayvonning yashaydigan joyini eslashga chorlashimiz mumkin.[3].

Tarbiyachi har bir hayvonning yurishini takrorlashi kerak. Misol uchun, quyonning kichkina va yengil ekanligi, shuning uchun u yaxshi sakrashi mumkin va ayiq katta va og‘ir bo‘lib, shuning uchun qattiq urishadi. So‘ngra bolalarni ham turli hayvonlarning "yurishini" taqlid qilishga chaqiradi.

Bolalarning hayvonlar haqida bilimlarini kuchaytirish uchun, tarbiyachi stol ustidagi rasmlarni tasvir tomonini yashirib, so‘ngra o‘yin ishtirokchilarini stoldan rasm olishni so‘raydi. Bolalar vazifani olib, hayvonni tasvirlab, «yurish» ni taqlid qilishadi va oxirida uni nomini so‘rashadi. Qolgan bolalar rasmida qanday hayvon tasvirlanganini bilishlari kerak.

O‘yin oxirida o‘qituvchi bolalarni rag‘batlantiradi va biron hayvon haqida she‘r o‘qishga taklif qiladi.

Didaktik o‘yining ahamiyati shundan iborat, u olingan bilimlarini turlicha qo‘llash uchun, aqliy faoliyatini kuchaytirish uchun hayotiy sharoit yaratadi. Bunda bolalar yo‘l qo‘yilgan xatolar va ular nimadan qiynalayotganligi ma‘lum bo‘ladi. Tarbiyachi bu xatolarni tuzatish va qiyinchiliklarni yengishda birdan birzarur vosita hisoblanadi. Yakka tartibdagi didaktik o‘yinni paydo qilish bilan tarbiyachi o‘zaro munosabatlar uchun qulay sharoit yaratadi, aqiliy faoliyatda orqada qolishning sabablarini aniqlaydi, ko‘p mashg‘ulot o‘tkazish bilan bunday bolalarning o‘sish darajasini oshiradi.

Bolada sensomotorikani rivojlantirish masalalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, sensor tarbiyaning sistemasi bolalarni faqat idrok qilinadigan xislatlar bilan tanishtirishgina emas, shu bilan birga ularda bu xuslatlarni ajratib ko'rsatish va takrorlash imkonini beradigan his etib mo'ljallash harakatlarini tartib topshirishni ham nazarda tutadi. Bunday harakatlarning sensor madaniyatni takomillashtirish, maktabgacha yoshdan boshlab bolalarning rivojlanishi uchun yetakchi bo'lgan predmet faoliyatini yaxshiroq egallash va umumiy aqliy kamolot uchun ahamiyati shak-shubhasizdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agar sensor harakatlarni tarkib toptirish sohasidagi ishlar mumtazam ravishda olib borilar ekan, bolalarning sensor rivojlanishda faqat umumiy siljishga erishib qolmasdan, shu bilan birga aqliy jarayonlarning ham rivojlanishiga erishish mumkin.

Adabiyotlar

1. Maktabgacha yoshdag'i bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat Talablari. Toshkent 2018 yil
2. Didaktik o'yinlar to'plami. «Istiqlol» nashriyoti -2004-yil, 15-bet
3. Jumanova. D.M., Tursunova Yu.K. «Quvnoq logotipik o'yinlar». Toshkent 2010 yil, 10-bet
4. Козлова С.А., Кушкова Т.А. Дошкольная педагогика. – М., 2000. – стр 56
5. N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. Toshkent «Yangi asr avlodii» – 2008 yil, 76-bet

UDK:378.2

INFORMATIKA FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA KREATIV VOSITALARDAN FOYDALANISH

I.B.Aminov, A.Nizamov

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Bugungi kunda samarali o'qitishning muhim shartlaridan biri o'quvchilar-da yuqori darajadagi fikrlashni shakllantirisdan iborat bo'lib, fikrlash faoliyati-ning bunday uslubida o'quvchi ma'lumotni tahlil qilish va sintez qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish, dalillarni yaratish va faktlarni tanqidiy qayta ishslash imkoniyatiga ega bo'ladi. Maqolada informatikadan amaliy darslarni tashkil qilishda kreativ masalalardan foydalanishning didaktik masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'limda o'yin texnologiyalari, o'quv jarayonini tashkil etish, modellasshtirish vositalari, multimedia, model, matematik model, kompyuterli modellasshtirish, kompyuter model, o'quv jarayonida modellasshtirish bosqichlari.

Использование креативных средств при организации практических занятий по информатике

Аннотация. Сегодня одним из важных условий успешного обучения является формирование у учащихся мышления высокого уровня, такого стиля мыслительной деятельности, когда учащийся умеет анализировать и синтезировать информацию, делать логические выводы, строить доказательства, критически перерабатывать факты. В статье рассматриваются дидактические средства использования креативных задач при организации практических занятий по информатике.

Ключевые слово: игровые технологии в образовании, организации учебного процесса, средства моделирования, мультимедиа, математическая модель, компьютерное моделирование, компьютерная модель, основные этапы моделирования в учебном процессе.

Use of creative tools in organization practical exercises in informatics

Abstract. One of the important conditions for successful learning is the formation of high-level thinking in students, a style of thinking activity when the student is able to analyze and synthesize information, draw logical conclusions, build evidence, critically process facts. The article deals with the didactic issues of using creative tasks in organizing practical lessons in informatics.

Keywords: information technologies in education, organization of educational process, means of modeling, of multimedia, mathematical model, computer modeling, of computer model, basic stages modeling in educational process.

O`zbekiston Respublikasining ta`lim sohasini isloh qilishdag'i sa`y harakatlarining biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga xamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chukur bilim, ko`nikma, malaka va madaniyatga ega bo`lishlarini talab etmoqda. Bu esa o`z-o`zidan ta`lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o`rganuvchi pedagogika faniga

«kreativlik» degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi, kreativlikning shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta'siri ushbu masalasini ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o'rganishni talab etmoqda.

Ayniqsa umumta`lim maktablarida o`qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo`lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi magistrlik dissertatsiya ishimiz mavzusi dolzarbligining yana bir ko`rinshi hisoblanadi.

Vaholanki, bu muammo bugungi kunga qadar ko`plab G`arb mamlakatlarida hamda Rossiya davlatlarida turlicha tahlil etilgan va o`rganilgan. Masalan, N.N. Nechaev, Ya.A. Ponomarev, B.M. Teplov, D.V. Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda o`rgangan bo`lsalar, N.A. Berdyaev, V.S. Bibler, V.N. Drujinin, P.A. Florenskiylar kreativlikning ma`naviy, psixologik jixatlarini tahlil etgan. E.Yu.Artem`eva, A.Yu. Agafonov, M.M. Baxtin, A.N. Leont`evlarning ilmiy ishlarda kreativlik shaxsning sifati sifatida tahlil etilib, kreativlikni tashxis qilish masalalari tahlil etilgan. Ayniqsa kreativlikni tashxis qilish metodlarini ishlab chiqish ilm-fan sohasidagi asosiy muammolarning biri hisoblanadi. A.Abduqodirov, N.Tayloqov, F.Zakirova, J.G.Yo`ldoshev va R.A.Mavlanova singari ko`plab pedagog olimlarimizning ilmiy ishlarida kreativlik – bu innovatsion faoliyatning alohida ko`rsatkichi sifatida tahlil etilgan.

O'quvhida kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha “create”dan olingan bo`lib, yaratish ma`nosini bildiradi. Ta`limda kreativlik deganda o'quvhining yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning mazmunida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli usullardan foydalanib yondashishni anglatadi.

Informatikadan amaliy darslarni tashkil qilishda algoritmlash, loyihalash, modellashtirish o'quvhining o'quv jarayoniga bo`lgan shaxsiy mas`uliyatini oshiradi. Ularda motivatsiyaning kuchayishi orqali qo'shimcha ma'lumotlar olish asosida o'z bilimini boyitib borish ehtiyojini tug'diradi.

Informatikadan amaliy darslarni tashkil qilishda o'quvchilarini kreativ yo'naltirish uchun:

1.O'quv jarayoni o'quv materialini berib borish, boshqa qiziqrli qo'shimcha materiallarni taklif etish va o'quvhini izlanishga, ijodkorlikka yo'naltiruvchi masalalar asosida uni o'z ehtiyoji, xohishi bilan yangilik sari yetaklash.

2.O'quv jarayonini ham shunday o'zgartirish kerakki, o'quvchi o'quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o'quv materiali o'sha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

3.O'quv materillariga yangi qo'shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklif etish orqali o'quvhining ijodiy fikrlashga bo`lgan qiziqishini oshirish kerak.

Kreativ mashg'ulot – ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan bo`lib, jamoada sog`lom muhitni yaratish orqali talim sifati va samaradorligini oshirish o`zaro hamkorlik asosida muammolarning yechimlarini topish aniq maqsadli natijalarini kafolatlash demakdir. Kreativlik – kishining o'z qiziqishi, ijodiy namunalariiga yangiliklar kiritishga keng iimkoniyatlar ochadigan mashg`ulotlar bilan shug`ullanishga intilishlarida o`z aksini topadi.

Informatikadan amaliy darslarni tashkil qilishda kreativ masalalardan foydalanish, o'quvchilarini qo'yilgan masalaning mohiyatini tushunish, uni yechish modelini yaratish, modellar uchun algoritmlar tuzish, tuzilgan algoritmlar asosida kompyuter dasturini ishlab chiqish va uni hal qilish, olingan natijalar asosida boshqa masalalarni yechish va har bir masalani yechishga ijodiy yondoshish kabi bilim va malakalarni shakllantirishga olib keladi. Shuning uchun ham o'quvchilarini ijodkorlik doirasini kengaytirish, ularni kompyuterlarning zamonaviy dasturiy vositalaridan foydalanish ijodiy amaliy malakalarini oshirish maqsadida o'quv mashg`ulotlarini kreativ masalalar asosida tashkillashtirish zaruriyati tug'iladi [5].

Pedagoglarning o'quv mashg`ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy talablarga muvofiq ish ko'rishlari kutilgan ta'limiy natijaning qo'lga kiritilishi uchun zarur sharoitni vujudga keltiradi:



- aniq maqsadga yo'naltirilgan bo`lishi;
- o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi;
- o'quv axborotlarining asoslanganligi;
- o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini
- faollashtirish imkoniyatiga egalik;
- o'quvchilarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlariga uchun sharoit yaratish;
- o'quvchilarda mustaqil, ijodiy, tanqidiy va

- kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- zamonaviy ahamiyat kasb etishi;
- estetik jihatdan sifatli bo'lishi;
- noaniq tushuncha va iborallardan holi bo'lishi;
- aniq natijani kafolatlay olishi;
- turli vaziyatlarda qo'llay olish imkoniyati tiga egalik;
- mavjud bilim, ko'nikma, malakani mustahkamlashga xizmat qilishi.

Informatikadan amaliy darslarni axborot texnologiyalari asosida tashkil etishda o'qituvchi faoliyatiga mavzuga oid axborot obyektlarini yaratish, zarur axborot obyektlarini izlash, axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va ajratib olish, tashkillashtirish, kerakli ko'rinishda tasvirlai, axborot obyektlarini uzatii, modellashtirii, loyihalashtirish va boshqalar kiradi.

Informatikadan amaliy darslarni axborot texnologiyalari asosida tashkil etishda o'quvchilar berilgan masalaning mazmunini va yechilish shartini tushunishda ba'zi bir qiyinchiliklarga duch kelishadi. Masalaning mohiyati va mazmunini tushunmasdan turib uni hal qilishga, jarayonda qatnashayotgan miqdorlarni bog'liqligini o'zida aks ettirgan formulalarni topishga harakat qilishadi. Bu yerda asosiy muammo, talabalar o'rganilayotgan jarayonlarning modelini tassavur va ifoda qilolmasligidadir. Buning uchun esa o'qituvchi dars jarayonini tashkil etishda samarali bo'lgan metodlarndan foydalanishi kerak.

Masalan, "Paint grafik muharriri" mavzusidagi amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi tasvirlarni chizishni tavsiya etish mumkin:



Albatta, bu topshiriqlarni bajarish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va yondoshuvni shakllantirishga xizmat qiladi.



Shunday ekan, "Informatika" fanini o'qitish samaradorligini oshirish o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish hamda o'tkazishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, o'qitish mazmuniga mos dasturiy ta'minotini ishlab chiqish, ularni o'quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ushbu vazifalarni dolzarbligini e'tiborga olgan holda "Informatika" fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish holatini o'rganish, tahlil etish, ulardan samarali foydalanish metodikasini, mos uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish zarur.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birqalikda faoliyatning

asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariiga tayanadi.O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.



O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llanadi. O'yining didaktik maqsadi bilimlar doirasи, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko'nikmalarini qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. O'yining tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi[2].

Rebus, krossvordlar ham o'yinli texnologiyalarga sirasiga kiradi. "Rebus" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "So'zlar orqali emas, balki rasmlar orqali ifodalash" ma'nosini anglatadi. Bu - biror so'z yoki atamaning rasmlari, notalar, xarflar bilan birgalikda ifodalanishi orqali hosil qilingan jumboqdир.

Masalan:



Talabalarning terminologik savodxonligini shakllantirish uchun eng samarali va qulay foydalanish krossvord hisoblanadi.



Ko'pchilikka ma'lum va ommabop bo'lgan krossvord o'yini talabalarda qiziqish uyg'otishi tabiiydir. Krossvord ko'rinishidagi so'rov shakli talabalar uchun har doim qiziqarli va o'ziga tortadigan metoddir. Ushbu o'yinga talabalar shu darajada kirishib ketadilarki, hatto, o'zлari ham informatikaning turli mavzulari bo'yicha krossvordlar tuzishlari mumkin. Mustaqil ijodiy faoliyatning bunday shakli foydali bo'lishi bilan birga, faqatgina bilimdon talabalarnigina emas, balki past o'zlashtiruvchilarni ham qamrab oladi.

Bundan tashqari o'qituvchi noan'anaviy metodlarni qo'llaganda fikr mulohazalarni umumlashtirish va xulosa chiqarishni bilishi hamda guruhni boshqarish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak [2].

Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini axborot texnologiyalari asosida tashkil etishga katta e'tibor qaratilganligi sababli, bugungi kunda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan dars jarayonini tashkil etishda foydalanish ijobjiy natijalarni berish bilan ,birga uning samaradorligini ham oshirmoqda.

Ana shunday metodlardan biri modellashtirish metodi bo‘lib hisoblanadi. Modellashtirish bu ilmiy tatqiqot izlanishlarning samarali metodlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi zamon ilmiy bilish usuli hisoblangan modellashtirish voqyelikdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishda keng qo‘llaniladigan usullardan birdir. Modellashtirish metodi voqyelikni bilvosita o‘rganishga moslangan ilmiy usuldir.

Modellashtirish metodlaridan foydalanish uchun o‘qituvchi darsni tashkil etish loyihasini tuza olishi, mavzu mazmunini bayon qilishi va talabalarining dars jarayonidagi faoliyatini bilishi lozim.

O‘rganilayotgan jarayonning modellari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o‘zlashtiriladi. Odatda dars jarayonida modellashtirish metodidan foydanilganida asosan ikki xil moddiy va abstrakt(g‘oyaviy) modellar ishlataladi.

O‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil etishda modellashtirish metodlaridan foydalanishni quyidagi vositalar orqali amalga oshirishi mumkin:

- multimedia vositalari.
- matematik usullar(matematik modellashtirish).
- dasturlash vositalari (kompyuterda modellashtirish).

Multimedia vositalari ko‘proq moddiy modellarni yaratishda ishlataladi. Multimedia vositalari orqali modellashtirish amalga oshiruvchi o‘qituvchiga:

- ma’ruza matnlari, amaliyot bilan bog‘liq topshiriqlarni tayyorlash;
- uslubiy ko‘rsatmalarni, nazorat savollarini, to‘g‘ri javoblar variantini tuzish;
- ishchi dastur va texnologik xaritani tuzish;
- bilimni nazorat qilish natijasini tahlil etish;
- har bir mavzu bo‘yicha dinamik ko‘rinishda aks etuvchi jarayonlarning animasiyalarini tasavvur etish;
- mustaqil ishlar bo‘yicha o‘quvchilarga nazariy va amaliy savollar yuzasidan maslahatlar berishni tashkil qilish;
- o‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan mavzular bo‘yicha o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazish kabi talablar qo‘yiladi.

Multimedia namoyishlari yaratishda o‘qituvchi Paint grafik muharriri (oddiy ko‘rinishdagi turli rangdagi tasvirlarni-modellarni yaratishda), Word matn muxarriri (turli matn, jadval, formula, krossvord va boshqa obyektlarni yaratishda), Excel elektron jadval (jadvallar, turli diagram-malar, grafiklar va boshqa obyektlarni yaratishda), Power Point taqdimot dasturi (ovozli va harakatli obyektlarni yaratishda) va boshqa dasturiy vositalardan foydalanishi mumkin.

Bundan tashqari o‘qituvchi multimedia namoyishlarini yaratishda kompyuter, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proyektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar qurilmalar bilan ishslash malakasiga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Multimedia vositalari asosida dars jarayonini tashkil qilish o‘qituvchilarning ish faoliyatini osonlashtirib, o‘quv jarayonini boshqarish, uning samaradorligini yanada ko‘tarish, o‘qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, dars jarayonida namoyish qilinishi kerak bo‘lgan obyektning ichki, tashqi xossalarni ko‘rsata olishdek muhim vazifani amalga oshirish imkoniyatini yaratadi [5].

O‘qituvchi dars jarayonini tashkil etishda o‘quvchilar o‘tilayotgan mavzuni mohiyatini yaxshiroq tushunib olishi, uning mazmunini to‘liq anglashi va shu jarayonni hal qilishi uchun kerakli matematik ifodalarni bayon qila olishi uchun matematik modellashtirish vositasidan foydalanish o‘z samarasini beradi.

Bizga ma’lumki, o‘rganilayotgan xodisa, jarayon yoki obyektni matematik ifodalar, munosabatlar va formulalar yordamida ta’savvur etish jarayoni matematik model deyiladi. Tadkik etilayotgan obyektni modellashtirish obyektni shakllashtirishdan boshlanadi, ya’ni mos matematik model tuziladi. Buning uchun uning esa ma’lum va noma’lum parametrlar ajratib olinib, ular matematik munosabatlar, ya’ni formula-lar yordamida ifodalanadi.

O‘quv jarayonini tashkil etishda matematik modellashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Masalaning mohiyatini tushunish. Modellashtirish jarayoni o‘rganilayotgan masalaning qo‘yilishi bilan boshlanadi. O‘rganilayotgan masala murakkab va ko‘p komponentali bo‘lishi mumkin. Biz bir vaqtning o‘zida o‘rganilayotgan jarayonning hamma xossa va xususiyatlarini bila olmaymiz. Shuning uchun shunga mos ravishda o‘rganilayotgan jarayonning ba’zi bir xossa va xususiyatlarini ajratib olamiz. Uning natijasida, masalaning aniq mohiyati kelib chiqadi.

2. Jarayonni o‘rganish. Bunda sodir bo‘layotgan jarayon o‘rganiladi, obyektni ko‘rib turgan tashki muhit chegarasi aniqlanadi. Bundan tashkari bu boskichda o‘rganilayotgan jarayonning xamma ma’lum va noma’lum parametrlari va ularni modellashtirish jarayoniga ta’siri o‘rganiladi.

3. Modelni tavsiflash. O'rganilayotgan jarayonning xamma ma'lum va noma'lum parametrlarini o'zaro bog'lanishini belgilash va ifodalash.

4. Matematik modellashtirish. Tavsiflangan modelni matematika formulalar orqali ifodalash. Bu ifodalar o'rganilayotgan jarayonning xamma ma'lum va noma'lum parametrлari orasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Bunday ifodalanish turli xil ko'rinishdagi matematik, matematik dasturlash, chizikli algebra, differensial va integral xisoblash va boshkalar masalalar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

5. Masalani yechish usulini tanlash yoki yaratish. Bu boskichda vujudga kelgan matematik masala uchun mos keluvchi usul tanlanadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini tashkil etishda kompyuterli modellashtirishdan keng foydalanilmoxda. Kompyuterli modellashtirish o'quvchilarga o'rganilayotgan jarayon mazmunini anglab olish, uni kompyuter ekranida ko'rish, o'zgartirish va ma'lum bir natijaga erishish imkoniyatini yaratadi.

Kompyuter modellari modellashtirishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, fizika, iqtisodiyot, mexanika, ximiya, biologiya, astrofizika va boshqa sohalarda amaliy masalalarni yechishda ishlatalidi. Kompyuter modellari o'rganilayotgan jarayon yoki obyektlar to'g'risida hamda ularni holatini taqribi baholash haqida to'liqroq va yangi ma'lumotlarni olish uchun ishlatalidi.

Kompyuterli modellashtirish murakkab tizimlarni o'rganishning samarali usullaridan biri bo'lib, kompyuter modellari ustida real tajribalar o'tkazish qiyinchilik tug'diradigan holatlarda tekshirish o'tkazishda sodda va qulay imkoniyatni yaratadi. Kompyuter modeliga jarayon yoki obyektlar haqida aniqlangan qanchalik ko'p xossalari kiritilsa, u shunchalik haqiqiy jarayon yoki obyektga yaqin bo'ladi hamda o'rganish imkonini shunchalik yuqori bo'ladi.

Kompyuterli modellashtirish kompyuterda ko'p maratoba takroriy hisoblash tajribalarini o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, o'rganilayotgan jarayon yoki obyektning real holati bilan modellashtirish natijalarini tahlil qilish, modelning mosligi va aniqligini tekshirish vazifasini bajaradi.

O'quv jarayonini tashkil etishda kompyuterli modellashtirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o'rganilayotgan jarayon yoki obyekt sohasini kengaytiradi;
- real sharoitda ro'y bermaydigan, takrorlanmaydigan jarayonlar, oldingi va keyingi jarayonlarni o'rganish imkonini beradi;
- abstrakt obyektlarni vizuallashtiradi;
- vaqt bo'yicha tekshirish, tezlatish yoki sekinlashtirish;
- jarayonni yoki obyektni sonli yoki grafik ko'rinishlardagi xossalarni o'rganadi;

Dars jarayonini tashkil etishda kompyuterli modellashtirishning quyidagi bosqichlaridan foydalaniladi:

- masalaning qo'yilishi va uning tahlili;
- informasion modelni yaratish;
- kompyuter modelini hal qilish metodini tanlash va algoritmini tuzish;
- kompyuter modelini yaratish;
- tajriba o'tkazish.

O'quv jarayonini tashkil etishda kompyuterli modellashtirish metodidan foydalanish tamoyillari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- kompyuter modeli tajribani o'tkazish mumkin bo'lmasagan yoki tajriba kuzatib bo'lmas darajada harakatlangan paytda qo'llanilishi lozim.
- kompyuter modeli o'rganilayotgan detalni aniqlashda yoki yechilayotgan masalaning illyustrasiyasida yordam berishi kerak.
- tajriba natijasida talabalar model yordamida hodisalarni xarakterlovchi kattaliklarning ham sifatiy, ham miqdoriy bog'lanishlarini ko'ra bilishlari kerak.
- model bilan ishslash paytda talabalarning vazifikasi turli murakkablikdagi topshiriqlar ustida ishslashdan iborat, chunki bu o'z ustida mustaqil ishslashga imkon beradi .

Umuman aytganda o'quv jarayonini tashkil etishda modellashtirish vositalaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- o'quvchilarda fanni o'rganishga qiziqishni oshiradi;
- kompyuter bilan ishslashni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi;
- kompyuterlardan foydalanish bilan bog'liq dunyoni ilmiy bilishning hozirgi zamon metodlari bilan tanishtiradi;
- ta'limda o'quvchining individuallik darajasini oshiradi;
- o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;
- materiallar mazmunining xilma-xillagini ta'minlaydi;

- ta'limda foydalaniladigan o'quv materiallari doirasini kengaytiradi;
- ta'limda ko'rgazmalilikni kuchaytiradi.

Umuman, xulosa qilib aytganda amaliy mashg'ulotlarda kreativ vositalardan foydalanish uchun:

1. O'quv jarayoni o'quv materialini berib borish, boshqa qiziqarli qo'shimcha materiallarni taklif etish va o'quvchini izlanishga, ijodkorlikka yo'naltiruvchi material asosida uni o'z ehtiyoji, xohishi bilan yangilik sari yetaklash.

2. O'quv jarayonini ham shunday o'zgartirish kerakki, o'quvchi o'quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o'quv materiali o'sha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

3. O'quv materillariga yangi ko'shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklif etish orqali o'quvchining ijodiy fikrlashga bo'lgan qiziqishini oshirish kerak.

Adabiyotlar

1. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining Farmoni "2017—2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". //7 aprel, 2017 yil.
2. Беспалько В. П. Образование и обучение с участием компьютеров – М.: Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2002. – 352 с.
3. Дахин А.Н. Педагогическое моделирование: сущность, эффективность и неопределенность // Педагогика. 2003. № 4. С. 21-26.
4. Хуторской А.В. Развитие одаренности школьников: Методика продуктивного обучения: Пособие для учителя. - М., 2000.
5. Шамсутдинова Т.М. Развитие творческого мышления на уроках информатики //Информатика и образование. - 2001. - №5. - С.46.
6. Лебедева И . П . О технологиях обучения в вузе на основе математического моделирования // Современные исследования социальных проблем . 2012 . № 4 (12).
7. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учеб.пособие.- Тошкент. ТДПУ 2003. - 192 с.

UDK: 378.004.9

YOSHLARNING ISHBILARMONLIK QOBILIYATINI INNOVATSION TARZDA SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

G·T. Babaxolov

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Ishbilarmonlik sotsial-iqtisodiy fenomen sifatida tahlil qilinib, yosh o'zbek tadbirkorining falsafiy qiyofasini yaratish, yoshlar ishbilarmonlik tafakkurini shakllantirishning innovatsion institutsional tizimini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy ishlanmalarni tayyorlash haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: ishbilarmonlik, biznes, innovatsiya, ishbilarmonlik falsafasi, Yosh ishbilarmonning falsafiy qiyofasi, ishbilarmonlik madaniyati, xususiy ishbilarmonlik, soxta ishbilarmonlik.

Вопросы инновационного формирования и развития предпринимательских возможностей молодежи

Аннотация. Проанализировано предпринимательство как социально-экономический феномен, высказаны мнения о создании философского образа молодого узбекского предпринимателя, о подготовке научно-практических разработок для развития инновационных институциональных систем формирования молодежного бизнес-мышления.

Ключевые слова: предпринимательство, бизнес, инновации, философия бизнеса, философский образ молодого предпринимателя, бизнес-культура, частный бизнес, фиктивный бизнес.

Issues of innovative formation and development of business potential of youth

Abstract. Business is analysed as a socio- economical phenomenon, opinions are expressed on the creation of a philosophical image of a young entrepreneur in the preparation of scientific and practical developments for the development of innovative institutional systems for the formation of youth entrepreneurial thinking.

Keywords: business, innovation, business philosophy, philosophical image of young businessman, business culture, private business, fake business.

XXI asrga kelib jahonda iqtisodiy jihatdan rivojlagan mamlakatlarning mehnatga layoqatli aholisining 40 dan 55 foizgacha bo‘lgan qismi 20 kishidan kam bo‘lman turli xil kichik korxona, firma va shunga o‘xshash ishbilarmonlik subyektlaridan tashkil topgan xususiy sektorlarda ishlamoqda. Jami yaratilgan yalpi ichki mahsulotning Fransiyada - 62, Italiyada - 60, Yaponiyada - 55, Germaniyada - 54, Buyuk Britaniyada - 53, AQShda - 52, umuman o‘rtacha olganda 56 % ularning ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.[1] Shuning uchun ham bugungi kunda kichik biznes va xususiy ishbilarmonlik dunyo miqyosida katta iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan kuchga aylanib bormoqda. Demak, ishbilarmonlik ijtimoiy borliq sifatida mavjud bo‘lib, uning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini falsafiy jihatdan o‘rganish dolzarb muammo sifatida zaruriylik kasb etmoqda.

Jahonda yuz berayotgan global iqtisodiy inqirozning cho‘zilib ketishi, raqobatning keskinlashuvi, ishsizikning tobora ortib borishi, ekologik vaziyatning yomonlashuvi, aholi migrasiyasining kuchayishi, moddiy resurslarga egalik qilishning avjiga chiqishi, ochlik va qashshoqlikning o‘sib borishi kabi bir qator muammolarni ijobjiy jihatdan hal etish masalasi ham pirovardida mamlakatlarning aholi o‘rtasida ishbilarmonlik ishlarini qanday qonunlar, usul va vositalar orqali tashkil etayotganligiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy ishbilarmonlikka mulkiy va huquqiy jihatdan keng yo‘l ochib berilganligi tufayli, ularning iqtisodiyotda band bo‘lganlar sonidagi ulushi Yaponiyada 78,0., Italiyada 71,0., Germaniyada 69,5., Buyuk Britaniyada 56,0., AQShda 54,0 foizni tashkil etgan holda yuqorida sanab o‘tilgan muammolarning mumkin qadar ijobjiy hal etilayotganligini ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy sohasida ishbilarmonlik bilan shug‘ullanayotganlar iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 78,2 %, ularning 61,9 % yakka tartibdagi ishbilarmonlikda, 16,3% esa kichik korxona va mikrofirmalarda mehnat qilgan holda yaratgan boyliklarining yalpi ijtimoiy mahsulotdagi ulushi 56,9 foizni tashkil qiladi.

Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari 218170 tani tashkil etib, ularning 61220 tasi savdo, 42862 tasi sanoat, 21796 tasi qurilish, 18051 tasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Umuman olganda mamlakatimizda 10 milliondan ortiq kishi kichik biznes va xususiy ishbilarmonlik bilan shug‘ullanmoqda.

Biroq, bu hali yetarli emas. Uning rivojlanishiga asossiz tekshiruvlar, korrupsiya holatlarining mavjudligi, huquqiy savodxonlikning pastligi, ishbilarmonlik qobiliyati va madaniyatining rivojlanmaganligi, byurokratik to‘siqlarning to‘lig‘icha tugatilmaganligi kabilar to‘sqinlik qilib kelmoqda. Bu xususda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: “Jahon banking biznes yuritish sohasidagi reytingida mamlakatimiz qurilish bo‘yicha 134-o‘rinni egallagan. Bu esa bu sohada ko‘plab muammolar borligidan dalolat beradi”[2], shuning uchun ham “ishbilarmonlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qilish – davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga to‘sqinlik qilish, deb baholanadi”[3], – degan edi. Demak, ishbilarmonlikning tarixiy ildizlarini, ma’naviy-axloqiy zaminlarini, dunyoviy asoslarini tadqiq qilish orqali yoshlar ongida ishbilarmonlik haqida yangicha dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi o‘zbek milliy ishbilarmonlik falsafasini yaratish hozirgi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Biz bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 64% ni yoshlar tashkil etishini inobatga oladigan bo‘lsak, kichik biznes va xususiy ishbilarmonlik sohasida aksariyat yoshlar (O‘zbekistonda aholining o‘rtacha yoshi 26,9 yoshni tashkil etmoqda) shug‘ullanmoqda. Ana shu obyektiv zaruriyat endigina mulkka egalik qilib ishbilarmonlik faoliyatini boshlagan mulkdor yoshlarning ishbilarmonlik qibiliyatini shakllantirish masalasi ham bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosatining izchil ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi muqarardir.

Ishbilarmonlik – bu o‘z mulki yoki o‘zgalar mulkini ishlatish asosida tovarlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish evaziga daromad topish va foyda ko‘rishdan iborat bo‘lgan faoliyatdir. Ishbilarmonlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarni ishbilarmonlar deb atashadi. Hozirgi kunda ishbilarmonlar, ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar hisobidan shakllanib, o‘rta mulkdorlar sinfining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bularning ichida yoshlarning soni tobora ortib bormoqda.

Yoshlarning ishbilarmonlik qibiliyati – bu yoshlarning o‘z mulki yoki o‘zgalar mulkini ishlatish asosida tovarlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish evaziga daromad topish va foyda ko‘rish ishini uddalay olishining subyektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari hisoblanadi. Ularni qobiliyati bor yoki qobiliyatsiz ishbilarmon kabi turlarga ajratish mumkin.

Yosh qobiliyatlari ishbilarmoniga xos bo‘lgan ruhiy va jismoniy xususiyatlarga mayl, qiziqish, iste’dod, talant, layoqat, qudratilik kabi fazilatlarni kiritamiz. Shunga ko‘ra, yosh qobiliyatlari ishbilarmon deganimizda – ishbilarmonlik bilan shug‘ullanishga chin dildan qiziqqan, iste’dodli, talantli, layoqatli, doimo yangicha fikrlaydigan, biror ish qo‘lidan keladigan shaxsni tushunamiz. Yosh qobiliyatsiz

ishbilarmon deganimizda esa ishbilarmonlik bilan shug‘ullanishga shunchaki qiziqqan, iste’dodsiz, talanti yo‘q, loqayd, biror ish qo‘lidan kelmaydigan, layoqatsiz shaxsni tushunamiz.

Hozirgi kunda yoshlarning ishbilarmonlik qobiliyatini innovation tarzda shakllantirish va rivojlantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, “Faol ishbilarmonlik biznes faoliyatini innovation, ya’ni zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo‘nalishdir”[4].

Yoshlarning ishbilarmonlik qobiliyatini innovation tarzda shakllantirish va rivojlantirishni tashkil etishda asosan quyidagilar e’tiborga olinishi zarur.

1. Oilada bolani bolalikdan boshlab ishbilarmonlikning dastlabki elementlarini, ya’ni bolalarni biron-bir narsani o‘z qo‘li bilan yasashga o‘rgatish va yasagan narsasini maqtab qo‘yish.

2.Maktablarda bolalarni har xil to‘garaklarga, ayniqsa texnik ijodkorlik bo‘yicha tashkil qilingan ilmiy-amaliy to‘garaklarga qatnashishilariga keng imkoniyat yaratib berish.

3.Mahallalarda ota-bobolarimizdan merosdan-merosga o‘tib kelayotgan hunarmandchilik sirlarini o‘rgatib, ularni innovation tarzda zamonaviylashtirib borish ishlarini yo‘lga qo‘yishga o‘rgatish.

4.Kitob va jurnallarda beriladigan yangiliklar bilan tanishtirib borish,ularni amaliyotda sinab ko‘rishni o‘rgatish.

5. “Ustoz va shogird” an’analarini uzlusiz tarzda davom ettirish va boshqalar.

Yoshlarning ishbilarmonlik qobiliyatini innovation tarzda shakllantirish va rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar jumlasiga:

- o‘zining xususiy mulkiga ega ekanligi;
- xususiy mulk asosiga qurilgan ishlab chiqarish korxonasining mavjudligi;
- bankda pul mablag‘larining borligi;
- xizmat haqini to‘lash qobiliyatiga ega ekanligi;
- iste’mol bozoriga chiqish imkoniyatining mavjudligi;
- ishlab chiqarayotgan mahsulotining raqobatbardoshligi;
- xom ashyo resurslarining yetarli darajada borligi va boshqalar kiradi.

Ishbilarmonlik faoliyati bilan shug‘ullanishni jazm qilgan yosh ishbilarmon ana shu normalarga amal qilgandagina katta yutuqlarni qo‘lga kiritishi mumkin. Bordi-yu, ana shu omillarni hisobga olmas ekan, u albatta iqtisodiy jihatdan tanazzulga uchraydi.

Yoshlarning ishbilarmonlik qobiliyatini innovation tarzda shakllantirish va rivojlantirishga o‘zining ta’sirini o‘tkazuvchi siyosiy-huquqiy omillarga esa:

- ishbilarmonlik haqidagi zaruriy normativ-huquqiy hujatlarning mavjudligi;
- aholining huquqiy savodxonlik darajasi;
- tuzilgan shartnomalar va ularning bajarilishi;
- ko‘rilgan foydaning qonunga muvofiq tarzda taqsimlanishi;
- xorijiy davlat tadbirkorlari bilan aloqasi;
- g‘ayri qonuniy bo‘lgan xar xil siyosiy tashkilotlarga bo‘lgan munosabati;
- yoshlarning siyosiy savodxonligi va demokratik tafakkur tamoyillariga amal qilish qobiliyati;
- kontrabanda yo‘li bilan topilgan daromadlarga nisbatan bo‘lgan munosabati kabilar kiradi.

Yoshlarning ishbilarmonlik qobiliyatini innovation tarzda shakllantirish va rivojlantirishiga ta’sir etuvchi axloqiy - ma’naviy omillar jumlasiga:

- milliy g‘oyaning e’tiqod darajasiga ko‘tarilganligi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi;
- ishbilarmonlik haqidagi ilg‘or ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar bilan tanish ekanligi;
- umuminsoniy axloq normalariga amal qilish darajasi;
- vijdon amrining ustunligi;
- Halol rizq topishning axloqiy qonun darajasiga ko‘tarilganligi;
- axloqiy illatlarga qarshi kurash muhitining qanday darajada ekanligi kabilar kiradi.

Yoshlarning ishbilarmonlik qibiliyatini innovation tarzda shakllantirish va rivojlantirishning pirovard maqsadi aholining ishbilarmonlik madaniyatini o‘stirishda iboratdir.

Ishbilarmonlik madaniyati – bu o‘zlarining xususiy mulki yoki o‘zgalarning mulkidan tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish evaziga daromad topish, foyda ko‘rish maqsadida faoliyat yuritayotgan fuqarolarning jamiatida o‘rnatilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, axloqiy-ma’naviy normalariga muvofiq tarzda tavakkalchilik hamda tashabbuskorlikka asoslangan holda sodir etadigan nazariy va amaliy xatti-harakatlarining yaxlit tizimidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda yoshlarning ishbilarmonlik

qobiliyatini innovasion tarzda shakllantirish va rivojlantirishiga uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishni tavsya etamiz:

1.Oliy va o‘rtamaksus ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan Falsafa (Etika va estetika)”, fanining o‘quv dasturlariga “O‘zbekistonda yoshlarning ishbilarmonlik madaniyatini shakllantirish” nomli mavzuni kiritish va shu asosda ularga ishbilarmonlik madaniyati bo‘yicha ta’lim va tarbiya berish hamda amaliy ko‘nikmalarini hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

2.Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Markazi rahbarligida “O‘zbekiston yosh ishbilarmonlarining axloqiy – ma’naviy madaniyati” nomli kodeks loyihasini ishlab chiqish va tadbirkorlar muhokamasidan so‘ng qabul qilish.

3. O‘zbekistonda yoshlarining ishbilarmonlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha ommaviy axborot vositalari orqali ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan tadbirkorlar bilan tele muloqotlarni yo‘lga qo‘yish.

4.Jahon mutafakkirlari tomonidan ishbilarmonlik haqida aytilgan hikmatli so‘zlarni to‘plab “Jahon mutafakkirlari ishbilarmonlik haqida” nomli to‘plamni nashr etish.

5.“Yosh o‘zbek ishbilarmon tadbirkorning falsafiy qiyofasi”ni yaratishning konseptual modelini ishlab chiqish.

Zero, ishbilarmonlik – zamonaviy tarzda innovasion faoliyat yuritishga asoslangan jamitimizni har tomonlama rivojlantirishga qodir bo‘lgan kuchdir. “Innovasiya – bu kelajak degani. Innovasion yashash har birimizning hayot tarzimizga aylanishi lozim”[4]

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy ishbilarmonlikning rivojlanishi //<https://stat.uz/uz/statinfo/kichik-biznes-va-tadbirkorlik/tahlillar-kichik-biznes/432-analiticheskie-materialy-uz/2031-o-zbekiston-respublikasida-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkar Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.2018 yil 28 dekabr//«Xalq so‘zi» gazetasi 2018 yil 29 dekabr.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz// Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. - B.147-148.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O‘zbekiston, NMIU, 2018. – B.19.

UDK: 372. 851

KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING IJODIY FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH

G.H.Saidova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotasiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda ta’lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar, “kasbiy tayyorgarlik” tushunchasining maqsadi, bo‘lajak o‘qutuvchining ijodiy faoliyatning turli ko‘rinishlarida o‘zini namoyon qila olish ehtiyojlari bilan bog‘liq shaxsiy o‘z-o‘zini amalda ko‘rsatish motivlari, kasba moslashish, bilih-kasbiy faoliyatida bo‘lajak o‘qituvchining faolligi talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatning shakllanishi anglash-faoliyatli yondashuvda yuzaga kelishi va hokazolar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: “Kasbiy tayyorgarlik”, “tayyorgarlik”, “tayyorlik”, “aqliy hujum”, “Kreativ maydon”, “triz”

Организация творческой деятельности будущего учителя начальных классов в процессе профессионального обучения

Аннотация. В данной статье описываются реформы, направленные на вывод системы образования на качественно новый уровень в нашей стране, цель концепции «профессиональной подготовки», мотивы самореализации личности в связи с потребностями будущих учителей выражать себя в различных формах творческой деятельности. формирование профессионально-педагогической деятельности у студентов происходит в рамках когнитивно-деятельностного подхода и т. д.

Ключевые слова: “Профессиональная подготовка”, “тренировка”, “брейнсторминг”, «творческое поле», «триз»

Organizing the creative activity of a future primary school teacher in the process of professional training

Abstract. This article describes the reforms aimed at bringing the education system to a qualitatively new level in our country, the purpose of the concept of "vocational training", the motives for personal self-realization in connection with the needs of future teachers to express themselves in various forms of creative activity. The formation of professional pedagogical activity among students occurs within the framework of a cognitive-activity approach, etc.

Keywords: "Vocational training", "training", "brainstorming", "creative field", "trize"

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fanlar asoslari bo'yicha bilim o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivasiyani shakllantirish» [1] kabi muhim vazifalar belgilangan.

"Ta'lim sifatini oshirish, asosan, o'qituvchilar va o'quvchilar bilim va ijodiy salohiyatini oshirish, intellektual darajani ko'tarish bilan bog'liq" [2].

"Kasbiy tayyorgarlik" tushunchasining maqsadi shaxsnинг kasbiy jihatlari uyg'unligini shakllantirish hisoblanib, biz unga kasbni egallashning tayyorlov bosqichi sifatida emas, balki uni bevosita egallashda maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida qaraymiz.

Pedagogik ta'lim nazariyasi rivojlanishida kasbiy tayyorgarlik va pedagog shaxsnинг shakllanishi qonuniyatlarini yorituvchi qator muhim tadqiqotlar mavjud. Ushbu o'rinda F.N.Gonobolin, K.M.Duray-Novakova, M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovich, N.V.Kuzmina, Yu.N.Kulyutkin, V.A.Ponomarenko, V.A.Slastenin, A.I.Ilyerbakov va boshqalarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari borasida (V.I.Zagvyazinskiy, I.A.Kolesnikov, V. A. Slastenin); o'qituvchi kasbiy mehnatini o'rganishning yangi istiqbollarini borasida (T.A.Kovalev, K.A.Markova, A.B.Orlov); o'qituvchining kasbiy rivojlanishi konsepsiyalari to'g'risida (L.M.Mitina) fikr bildirishgan.

Yuqorida qayd qilingan tadqiqot yo'nalishlari tahlili izchillik tamoyili asosida kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish g'oyasini ajratish imkonini beradi. Shuningdek, kadrlarni izchil kasbiy tayyorlash deganda ta'lim hamda shaxsiy mehnat faoliyatining maqsadga yo'naltirilgan bosqichma-bosqich almashinuvi, bir-biriga singishi va o'zaro bir-birini boyitishi asosida shaxsnинг moyilligi va qobiliyatiga muvofiq tarzda kasbiy bilim, ko'nikma, mahoratlarni doimiy egallah, qo'llash va takomillashtirish kabi jihatlar nazarda tutiladi.

Tahillar shuni ko'rsatadiki, kasbiy tayyorgarlik tushunchasi bir necha ma'nolarda qo'llaniladi, ba'zan kasbiy tayyorgarlik bilan aynanlashtiriladi. Leksik belgilarni umumlashtiruvchi ma'lumot "tayyorgarlik" termini "tayyorlik" tushunchasini boyitadi degan xulosani beradi, ya'ni kasbga tayyorgarlik unga tayyorlikni shakllantirish demakdir. Kasbiy tayyorlik-nafaqat natija, balki kasbiy tayyorgarlik maqsadi, har bir shaxs imkoniyatlari samarali amalga oshirishining boshlang'ich va asosiy shart-sharoiti hamdir.

Pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlik turli mualliflar (A.A.Derkach, K.M.Duray-Novakova, S.A.Nikolayenko, T.F.Sadchikova, V.A.Slastenin, R.G.Shakirova, A.I.Ilyebetenko va boshqalar) tomonidan kasbiy ahmiyatli sifatlar va ruhiy holatlarni tizimini o'zida aks ettiruvchi murakkab shaxsiy ta'limni nazarda tutadi, u o'z navbatida pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni belgilovchi uyg'unlikni o'zida mujassamlaydi.

K.M.Duray-Novakova o'z tadqiqotida kasbiy-pedagogik faoliyatga nisbatan ruhiy tayyorlik strukturasiini sezilarli darajada kengaytiradi va motivasion va tezkor-amaliy natija beradigan tarkibiy qismlardan tashqari boshqa mohiyatlarni ajratib ko'rsatadi:

- aniqlash-tushunish-baholash (kasb mazmuni va kasbiy rollar talablari, kasbiy vazifalarni hal qilish usullari, kasbiy tayyorgarlikni baholash borasidagi bilim va tasavvurlar),
- hissiy-irodali (faoliyat natijalari ustidan javobgarlik hissi, o'z-o'zini nazorat qilish, harakatlarni boshqara olish kabilar orqali kasbiy majburiyatlarni amalga oshirish shakllanadi)
- yo'l-yo'riqli va xulqiy (pedagogning halol ishslash kayfiyati) tarkibiy qismlari.

K.M.Duray-Novakovaning istiqboldagi o‘qituvchining kasbiy faoliyatga tayyorlik strukturasiga nisbatan aytigan fikriga S.A.Nikolayenko ham qo‘shiladi va u motivasion, bilish-aniqlash, amaliy natija beradigan, hissiy-irodali hamda baholash tarkibiy qismlarini ajratadi.

O‘quv faoliyati motivasiyalarini shakkantirish muammolari L.I.Bojovich, V.M.Borovskiy, N.N.Lange, A.N.Leontyev, V.S.Merlin, K.K.Platonov, S.L.Rubinshteyn, A.A.Smirnov, D.N.Uznadze, P.M.Yakobson va boshqalarning psixologik asarlarida ko‘rib chiqilgan.

Pedagogik tadqiqotlarda ta’lim olish asoslari B.I.Adaskin, M.F.Belyayev, A.M.Vasilevskaya, Ye.D.Varnakova, O.S.Grebenyuk, V.S.Ilin, Yu.V.Sharov, G.I.Щукина va boshqalarning monografiyalarida batafsil yoritilgan.

O‘qituvchining innovation faoliyati motivasiyasini tadqiq qilib, B.A.Slastyonin [4], L.S.Podymova [3] va boshqa olimlar dalillarning quyidagi guruhlarini ajratib ko‘rsatadilar:

- ijodiy faoliyatning turli ko‘rinishlarida o‘zini namoyon qila olish ehtiyojlari bilan bog‘liq shaxsiy o‘z-o‘zini amalda ko‘rsatish motivlari;
- o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashga intilish kabi umumiy ko‘rinishdagi kasbiy motivlari;
- atrofdagilarning tashqi ijobjiy bahosi orqali o‘zini namoyon qilish bilan bog‘liq jamiyatdagi mavqyeini belgilab olish motivlari;
- ijodiy faoliyat natijalari ustidan moddiy yoki ma’naviy rag‘batlantirishga erishish bilan bog‘liq tashqi rag‘batlantirish motivlari shular jumlasidandir.

Kasbiy tayyorgarlik–ko‘pgina ichki va tashqi omillar bilan terminlashtirilgan holatdir. Shuning uchun uning mohiyati va ko‘rsatkichlarini belgilashda ko‘pgina qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tizimli-strukturali tahlil va faoliyatli yondashuv kasbiy tayyorgarlikni quyidagi bosqichlar orqali ta’riflash imkonini beradi:

- 1) kasbga moslashish;
- 2) bilish-kasbiy faoliyatida talabaning faolligi;
- 3) talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatning shakllanishi anglash-faoliyatli yondashuvda yuzaga keladi (ushbu bosqichni biz pedagogik amaliyot bilan bog‘laymiz);
- 4) ijodiy pedagogik faoliyatning barcha qadamlarini bajarish zaruriyatini his qilishni nazarda tutuvchi pedagogik tadqiqotni amalga oshirishda shaxsiy qayta o‘zgarishlar, ijodiy ilhomlanish bosqichi.

Shunday qilib, kasbiy tayyorgarlik jarayonini – ko‘p qatlamlari ta’lim deb tasdiqlay olamiz, uning barcha tarkibiy qismlari o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini taqazo qiladi, shuningdek, bo‘lajak pedagogda qayd qilinganlardan birining mavjud bo‘lmasisi mutaxassis shaxsiyati strukturasida albatta nomutanosiblikning vujudga kelishiga olib keladi.

A.A.Verbiskiy bitiruvchilarning kasbga nisbatan yetarlicha tayyor emasligi sabablarini tadqiq qilib, qator ziddiyatlarni aniqladi:

- o‘quv predmetining mavhum jihatni va kasbiy faoliyatning aniq predmeti o‘rtasida;
- ko‘pgina o‘quv fanlari bo‘yicha bilimlarning tarqoqligi va ularidan tizimli foydalananish zaruriyati orasida;
- ta’limda talabaning ijrochilik holati va pedagogning tashabbuskorlik vaziyati o‘rtasida;
- talaba o‘quv ishlarining alohida jihatni va guruh ishlariga qo‘yilgan talablar orasidagi qarshiliklar.

Ko‘p yillik kuzatishni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash joizki, “mustaqil, ijodkor o‘qituvchi-tadqiqotchi”ni rivojlantirishga qaramasdan, amaliyotda asosan yetarlicha ijodkor, tashabbuskor bo‘Imagan, “o‘rta” mutaxassisni bir qolipda takror ishlab chiqarish amalga oshirilmoqda. Bu esa talabalarning talab doirasidagi ijodkorlikka, ishning turi va shakllariga nisbatan mustaqillikka qiziqishining yo‘qolishi, ta’lim ijobjiy motivasiyasining pasayishiga olib keladi.

Hozirgi kunda pedagogik ta’lim jiddiy o‘zgarishlarga duch kelmoqda: ta’lim vazifalari, mazmuni, usullari qayta ko‘rib chiqilmoqda. Kasbiy faoliyatni ijodiy amalga oshirishga qodir mutaxassisni pedagogik o‘quv muassasasida tayyorlashning asosli tizimini yaratish zaruriyati borasidagi fikr tobora baralla yangramoqda. Shunga ko‘ra, pedagogik o‘quv muassasalarida talabalar ijodiy faoliyati shart-sharoitlarini tashkillashtirish bo‘yicha pedagogik zahirada to‘plangan tajribani tadqiq qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Pedagogika tamoyilini Ya.A.Ponomarev, V.I.Andreyevlar tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy pedagogika tamoyillari bilan qiyoslab, biz ijodkorlikka yo‘naltirilgan jarayonda amalga oshirilishi talab qilinadigan uch tamoyilni ajratdik:

- 1) o‘quvchi shaxsiga nisbatan hurmat;
- 2) optimistik munosabat;
- 3) hamkorlik (birgalikda ijod qilish).

Ushbu tamoyillarni amalga oshirish talabalar ijodiy faoliyatini tashkillashtirishning quyidagi usullariga ko'maklashadi.

P.Torrans tomonidan asoslangan ijodiy qobiliyatni tadqiq qilish yo'naliishi keng qamrovli bo'ldi. *Testlarni* ishlab chiqish bilan S.Rimm, G.Devis, T.Beltcher, B.Uaytin, D.Xolm va boshqalar shug'ullanishdi. Barcha metodiklar u yoki bu shaxsiy tavisiflarni namoyon qilish va ularning ijodiy imkoniyatlari bilan aloqasini belgilashga e'tibor qaratdilar

Ijodiy qobiliyatni belgilash testi tahlil qilinar ekan, N.F.Talibzina ularning qobiliyatga nisbatan mexanik yondashuv ekanligini adolatli tanqid qiladi, unda miqdoriy farqlargina tan olinadi va sifat jihatidan o'ziga xoslik e'tiborsiz qoldirilishini ta'kidlaydi.

D.B.Bogoyavlenskaya testlarning qadr-qimmatini noaniq rag'batlantiruvchi omil, vazifalarning ochiqligi, javoblarning ko'p ma'noliligi, jiddiy vaqtinchalik cheklardan xoli sifatida qayd qiladi. Biroq testlarning ijodiy qobiliyat tashhisi muammosini samarali hal qilish imkoniga ega emasligi borasida gapiradi, uning fikricha, ijodkorlikning har qanday tadqiqi bir necha bor olib borilishi zarur. Testlarning kamchiligi, D.B.Bogoyavlenskayaning fikricha, sinaluvchidan vazifa talab qilgan aqliy qobiliyatning namoyon qila oladi, test ijodiy imkoniyatning namoyon bo'lishini cheklaydi.

D.B.Bogoyavlenskaya tomonidan ishlab chiqilgan "Kreativ maydon" metodi tashxisiy usulning deyarli yangi modeli hisoblanadi. Uning asosiga "rag'batlantirmaslik" tamoyili qo'yilgan, ya'ni har qanday ichki va tashqi rag'batlantirish bo'lmaydi. Tadqiq qilinayotgan "Kreativ maydon" faoliyati ikki qatlamdan iborat. Birinchisi, ustki qatlam-natija va baholashga mo'ljallangan topshirilgan faoliyat; ikkinchisi, tadqiq qilish uchun aniq bo'lmagan chuqur qatlam. Intellektual faollikni namoyon qilish uchun "Kreativ maydon" metodi belgilangan.

Hozirgi kunda tobora keng tarqalgan metod "aqliy hujum" usulidir. V.I.Andreyev ushbu metodni pedagogikaga xos—ajoyib g'oyalarni jamoa bo'lib izlash deb nomlashni taklif qiladi. Uning mohiyati g'oyaning paydo bo'lishi jarayonini baholashdan ajratib olishdir.

Aqliy hujum metodi (breystorming) amerikalik psixolog A.Osborn tomonidan 30-yillarda asos solingan. Qo'llash natijalari yuqori bo'lgan va bu metodga katta umid bog'lashgan. A.Osbori esa Z.Freydning hal qilish g'oyasi inson tasavvurida, ongida joylashgan va uni u yerdan olib chiqish uchun sharoit yaratish zarur degan g'oyasidan foydalangan. Ma'lum bo'lishicha, shaxs ijodiy qibiliyatni namoyon bo'lishiga asosiy to'siq bo'lib psixologik (ruhiy), ham ichki, ham tashqi to'siqlar hisoblanadi. Ushbu to'siqlarni bartaraf qilish uchun ham qoidalar ishlab chiqilgan, ular aqliy hujum asosida yotadi: *tanqid qilmaslik, fantaziyanı (xayol)rag'batlantirish, keng miqdordagi g'oyalarga intilish kabilalar shular jumlasidandir.*

O'qituvchining roli unga qulay muhit yaratishdan iborat. Pedagogdan uni uyushtirish qobiliyati va jamoa ishini texnik tashkillashtirish talab qilinadi. Klassik usul vaqtini to'g'ri taqsimlash va ijrochilar g'oyalaring yuzaga kelish bosqichlarini boshqarishni nazarda tutadi. Ishtirokchilar orasida albatta "yaratuvchilar" va "tanqidchilar" bo'lishi zarur. Yaratuvchilar g'oyalarning loyiq yoki loyiq emasligini baholamay iloji boricha ko'proq maqsadlarni namoyon qilishlari, ikkinchi guruh vakillari – tanqidchilar esa taklif qilingan g'oyalarni tanqid qilishlari lozim. Tanqid jarayonida ularning birikuvi boshlanadi.

Aqliy hujumning bir necha turlari mavjud: to'g'ridan-to'g'ri aqliy hujum, teskari aqliy hujum, "g'oyalalar anjumani" va boshqalar.

Shuningdek, individual aqliy hujum metodi ham mavjud bo'lib, unda inson navbatma-navbat "yaratuvchilik" va "tanqidchi" rolini o'ziga oladi. Biroq g'oyani guruh bilan muhokama qilish ancha samarali.

Aqliy hujum metodining kelgusidagi ishlanmalarini Ye.A.Aleksandrov va G.Ya.Bush tomonidan olib borilgan. Ular tomonidan yangi o'zgargan – destruktiv murojaatli baholash dialogi holati taklif qilingan. Ishtirokchilar ijodiy ehtiyojlarini faollashtirishdan tashqari mualliflar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vazifasini ilgari suradilar hamda uni hal qilish yo'llarini taklif qiladilar.

Triz elementlaridan xatto bolalar bog'chasida ham foydalanishadi. Bu, o'z navbatida, TRIZ-pedagogikani alohida soha sifatida ajratish zaruriyatiga olib keldi. Ushbu muammoga I.L.Vikentyev, B.L.Zlotin, A.V.Zusman va boshqalar o'z tadqiqotlarini bag'ishlaganlar [7, 8, 9, 10].

Adabiyotlar tahlili *talabalar ijodiy faoliyatini tashkillashtirish shakllarini* ajratish imkonini berdi: muammoli ma'ruza, seminar, laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar, rasmiy o'yinlar, muammoli laboratoriylar, maxsus kurslar va maxsus seminarlar, treninglar.

Muammoli ma'ruza ta'limi tashkillashtirishning shakli sifatida A.A.Verbinskiy, B.P.Bitinas, L.M.Luzina, N.M.Yakovleva va boshqalarning ishlarida uchraydi. Muammoli ma'ruza jarayonida har bir talabaning fikrlash faoliyati faollashadi, anglash jarayoni tadqiqot faoliyati bilan yaqinlashadi. Muammoli bayon qilish uchun fanning muhim bo'limlari tanlab olinadi, ular birgalikda o'quv fanining asosiy mazmunini tashkil qiladi va kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun o'ta muhim hisoblanadi hamda talabalar tomonidan o'zlashtirilishi ancha murakkab sanaladi. [5, 6].

Barcha davrlardagi buyuk ma'ruzachilar tushunilishi oson bo'lishi, g'oyaviy va hissiy ta'siri ortishi uchun ma'ruzalarni muammoli amalga oshirishdan foydalanganlar. Muammoli ma'ruza ustalari K.A.Timiryazev,D.I.Mendeleyev, P.F.Lesgaftlar bo'lganlar.

Ta'limning eng keng tarqalgan shakllaridan biri *seminar* sanaladi. Uning asosiy maqsadi talabalarga ilmiy xodimlar faoliyatining modellashgan shakllari sharoitida nazariy bilimlardan amaliy foydalanish imkoniyatini yaratishdir. (A.A.Verbinskiy, A.M.Matyushkin) [5, 6].

Tadqiqotimiz doirasida *laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar* sifatidagi ta'limni tashkillashtirish qiziqish uyg'otishi tabiiy, 10-15 kishiga bo'linish o'quv jarayonini darajalash va alohidalashtirish imkonini beradi. Ijtimoiy psixologiya bo'yicha tadqiqotlar (Ya.L.Kolominskiy, I.S.Kon) shuni ko'rsatadiki, kichik guruhlarda ishslash katta guruhlardagiga nisbatan ancha samaraliroq bo'ladi. [5, 6]

O'quv muassasasi ishi amaliyotida talabalar o'quv-anglash faoliyatini tashkillashtirish konsepsiyasini qayta ko'rishga nisbatan g'oyalar aniqlanadi, uni pedagogik boshqarish talab qilinadi. Jiddiy avtoritar boshqaruvdan talabalar ongli faoliyatini tashkillashtirish va rag'batlantirish, ta'limning demokratik uslubiga o'tiladi. Bunday shakllardan biri – treningdir. "Trening" termini (ingliz tilidan train, training) qator ma'nolarga ega: ta'lim, tarbiya, mashg'ulot, o'rgatish demakdir. Treningning asosiy maqsadi–faol shaklda ijtimoiy-psixologik bilimlarni egallash, ya'ni bu maxsus ishlab chiqilgan harakatlar jarayonida ro'y beradi. Trening ta'siri natijasida muhim tushunish, xabardor bo'lish, ko'rsatma olish, shaxsning motivasion sohasini o'zgartirish sodir etiladi. Trening guruhidagi ta'sirning asosiy vositalari bo'lib guruhi me'yordi, guruhi tomonidan qo'llab-quvvatlash, qarshi aloqa, guruhi tomonidan kuzatish hisoblanadi [5, 6]

Xulosa qilib aytganda zamonaviy ta'lim muassasasi o'zining doimiy murakkab ijtimoiy rolini ushbu muassasada doimiy ijodiy izlanishga nisbatan o'z qobiliyati bilan ajralib turuvchi, yuqori kasbiy mahoratga ega, axloqiy-insonparvar sifatlar mavjud bo'lgan, dadil mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir o'qituvchilar ishlagandagina muvaffaqiyatlari amalga oshirishi mumkin.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sen Farmoni.
2. M.Daminova., T.Adambekova "O'yin mashg'ulotlari". Toshkent: O'qituvchi. 1993 y. 11 b.
3. O.F.Potemkina, Kak sdelat urok interesnym dlya uchitelya i yego uchenikov: metod, posobiye / O.F. Potemkina. - M.: In-t psixologii, 1993. - 67s.
4. G.S.Suxobskaya Problema tvorcheskoy deyatelnosti pedagoga i yego professionalizma / G.S. Suxobskaya, Ye.A. Sokolovskaya // Informacionnyy byulleten. Problemy nepreryvnogo obrazovaniya: pedagogicheskiye kadry. - 1988. - № 11. - S. 6-11.
5. A.V.Torxova Individualnyy stil deyatelnosti uchitelya /A.V. Torxova // Pedagogika. - 2003. - № 6. - S. 59-66.
6. A.M.Matyushkin Osnovnyye napravleniya issledovaniya myishleniya i tvorchestva / A.M. Matyushkin // Psixologicheskiy jurnal. - 1984. - №1.-S. 9-17.
7. S.Z.Xutinayeva Pedagogicheskoye tvorchestvo uchitelya v obrazovatelnom chrejdennii / S.Z.Xutinayeva : avtoref. dis...kand.ped. nauk. - Vladikavkaz: VShU, 2000. - 21 s.
8. A.J.Ovchinnikova Esteticheskoye otnosheniye k deystvitelnosti kak faktor razvitiya mladshix shkolnikov: monografiya /A.J.Ovchinnikova. -M.: Nauka, 1997. - 174 s.
9. N.V.Martishina Sennostnyy komponent tvorcheskogo potensiala lichnosti pedagoga / N.V.Martishina//Pedagogika. - 2006.- JNr23.-s. 48-57.
10. J.B.Carroll Can we defuse the IQ controversy? [Text] / J.B. Carroll //Contemporary psychology. - V. 27. - No. 7. - N.Y., 1982. - P. 72-86.

UDK:371.3:796.5

UMUMTA'LIM MAK TABI O'QUVCHILARIDA EKSKURSIYA TURIZMI VOSITASIDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI

E.Abdumannotov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lism maktabi o'quvchilarida ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg'usini takomillashtirishning mexanizmi yoritilgan. Ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg'usini takomillashtirishning dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, ekskursiya, turizm, vatanparvarlik, tarbiya, pedagogika, mexanizm, takomillashtirish

Механизм воспитания чувства патриотизма у школьников через экскурсионный туризм

Аннотация. В статье описан механизм повышения чувства патриотизма у школьников через экскурсионный туризм. Отражены педагогические условия совершенствования чувства патриотизма посредством экскурсионного туризма на уроках и внеклассных воспитательных мероприятиях.

Ключевые слова: школьник, экскурсия, туризм, патриотизм, образование, педагогика, механизм, совершенствование.

The mechanism of fostering a sense of patriotism among schoolchildren through excursion tourism

Abstract. The article describes the mechanism of increasing the feeling of patriotism among schoolchildren through excursion tourism. Pedagogical conditions of improvement of the sense of patriotism in the means of excursion tourism are reflected in the implementation of educational activities in addition to lessons and lessons.

Keywords: schoolchildren, excursion, tourism, patriotism, education, pedagogy, mechanism, improvement.

Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirish bilan UNISEF, UNESCOning Butundunyo ta’lim forumi Deklaratsiyasi, BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030” dasturi, Erasmus + Capacity Building Project dasturi, IMEP loyihasi, Yevropa umumta’lim sifat va nazorat muassasalari assotsiatsiyasi, umumta’lim maktabalarida ta’lim sifatini ta’minlash Yevropa Ittifoqi davlatlarining yagona Yevropa ta’lim hududi shug‘ullanmoqda. [8]

Respublikamizda ham aholining barcha qatlamlariga mo‘ljallangan ichki turizmning jadal rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, umumta’lim maktabi o‘quvchilarini turizm infiltratzilmasi ob’ektlariga: ya’ni tarixiy va me’moriy yodgorliklar, muzeylar, teatrlar, madaniyat uylariga sayohatlar tashkil etish orqali mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ijtimoiy faolligini oshirish va iste’dodini qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchi-yoshlarda ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirish uchun imkoniyatlar yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3509-son Qarori, 2018 yil 6 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3510-son Qarori, 2018 yil 7 fevraldagagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3514- son Qarori hamda videoselektor yig‘ilishlarida bildirgan fikr-mulohazalarida o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, turizm va sport bilan shug‘ullanish sohasidagi manfaatlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun imkoniyatlar yaratishga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. [2]

O‘quvchilarda ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirish masalalari hukumatimizning yoshlarni madaniy sog‘lomlashtirish, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yuqori pog‘onaga ko‘tarish borasida olib borayotgan chora-tadbirlari quyidagi yo‘nalishlarda o‘z aksini topgan:

- umumta’lim maktabi o‘quvchilarida ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalash bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- turistik-rekreatsion hududlarni barpo etish;
- madaniy meros ob’ektlari hududida milliy urf-odat va an’analarni namoyish etish orqali o‘quvchi-yoshlarga ta’lim berish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va kamolga yetkazish;
- o‘quvchi-yoshlarni turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish bo‘yicha axborot targ‘ibot tadbiralarini muttazam o‘tkazilishini ta’minlash. Bu jarayonda o‘quvchilarda iqtisodiy tarbiyani ham shakllantirish imkonini yaratish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash kabi jihatlarga e’tibor qaratgan.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” dasturiy g‘oyasi asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, tashabbuskorlik, fidoiylik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish sharaflı vazifa ekanligi davlatimiz rahbari tomonidan ta’kidlab o‘tildi. [1]

Davlatimiz rahbari tomonidan qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishning shakllaridan biri o‘quvchilarda turizm vositasida vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirishdir. Bu borada dastlab turizmnинг paydo bo‘lishi va rivojlanishini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish zarur. 5-9-sinf

o‘quvchilarida ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda “vatanparvarlik”, “turizm”, “ekskursiya” kabi atamalarning mazmunini yoritishga harakat qildik. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Vatanparvarlik” so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Vatan g‘amxo‘rlik qiluvchi. O‘z vatanini, ona yurtini xalqini cheksiz seuvuchi, Vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko‘rsatuvchi” 2. “Vatanparvarlik” vatanparvarlarga xos ish, hatti-harakat, xislat. [6]

Turizm uzoq tarixga ega bo‘lib, unga turlicha ta’riflar berilgan. Turizm so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib “turizm (*tourisme, ot tour*) “aylanish”, “qidirish”, “sayohat” degan ma’nolarni bildiradi.” [7]

“Turizm to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida turizmga shunday ta’rif beriladi: “Turizm – jismoni shaxsnинг doimiy istiqomat qiladigan joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi)” [3] dan iborat.

Butunjahon turizm tashkilotining ta’rifiga ko‘ra “Turizm – insonlarning odatdagi muhitdan tashqarida hordiq chiqarish, ish va boshqa maqsadlarda 24 soatdan 1 yilgacha bo‘lgan muddatda sayohat qilishi hisoblanadi”. [8]

Tadqiqotchi M.A.Vinokurov “Что такое туризм” nomli ilmiy maqolasida turizm – o‘zga millat madaniyatini o‘rganishning eng qulay usuli ekanligini ta’kidlab, turizmni dam olishning faol turi sifatida talqin etib, yangi va qiziqarli ma’lumotlarni to‘plash zamirida boshqa millat madaniyati bilan yaqindan tanishish imkonini beruvchi, insoniyatni diniy, jismoni, aqliy rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida e’tirof etgan. [5]


Turizm o‘zi istiqomat qilmaydigan joyga safarga, sayru-sayohatga chiqish bilan bog‘liq ekan, uni amalga oshiruvchi “turist” atamasining, bizningcha, o‘zbek tiliga eng yaqin tarjimasi “ziyoratchi” bo‘ladi.

“Turist” so‘zi inglizcha “tur (tour)” atamasidan kelib chiqqan bo‘lib, Webster lug‘atida “Tur – har bir shaxsnинг boshlang‘ich nuqtasiga qaytib keluvchi sayohati; odatda biznes, rohatlanish yoki ta’lim olish maqsadidagi aylanma sayr” deb izohlangan.


O‘quvchilarda ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlikni tarbiyalash muammosi alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilmagan. Shuning uchun ushbu dolzarb muammoni yetarlicha o‘rganish uchun mavzuga oid tarixiy, ilmiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarni va boshqa ilmiy manbalarni tahlil qildik. Shuningdek, umumta’lim maktabida o‘qitilayotgan (5-9-sinflarda) “Adabiyot”, “Geografiya”, “O‘zbekiston tarixi”, “Jahon tarixi” kabi ijtimoiy fanlar orqali o‘quvchilarda ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirishning amaliyotdagi holati va imkoniyatlari o‘rganildi. Bundan tashqari o‘quvchilarda ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirishning dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirdorda amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari tajriba-sinovdan o‘tkazildi va jarayonni takomillashtirishning samarali yo‘l-yo‘riqlari borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘quvchilarda turizm vositasida vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirish mexanizmini quyidagicha ifodaladik:

O‘quvchilarda ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirish mexanizmi





O'quvchilarda ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg'usini takomillashtirish mexanizmi



Demak, o'quvchilarda ekskursiya turizmi orqali vatanparvarlik tuyg'usini takomillashtirish natijasida Vatanga sadoqatlilik, yurtga daxldorlik, vijdonlilik, halollik, qanoatlilik, saranjom-sarishtalilik, mehribonlik, xushmuomilalik kabi fazilatlar shakllanadi. O'quvchi-yoshlarda yuqoridaq insoniy sifatlar takomillashtirilsa barkamol avlodni tarbiyalashdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo'лади.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi 2020 yil 25 yanvar
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori (Ko'chirma) www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasining "Turizm" to'g'risida"gi Qonuni.// Xalq so'zi gazetasi 1999 yil 21 avgust
4. Библиотека и туризм: импульс взаимодействий методическое пособие // ГБУК СК "Ставропольская краевая библиотека для молодежи имени ВИ.Слядневой. сост: М.В.Колгина, Л.А Халкечева. Ставрополь 2017. -38- стр
5. Винокуров М.А., Журнал "Известия", 2004, №3 (40) -19-24ст. <http://izvestia.bgu.ru/reader/article.aspx?id=4481>
6. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J-III-N-Tartibli/ - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 563 b
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, 8-jild. 639-bet
8. UNWTO technical manual: Collection of Tourism Expenditure Statistics. 1995. p10

UDK 504.75

**O'ZBEKİSTONDA EKOLOGIYA VA TABİATNI MUHOFAZA QILISH FANINI O'QITİSHDA
O'ZGARİSHLAR**

X.S.Xushvaqtova¹, D.Dj.Sharipova²

¹*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*, ²*Toshkent davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya. So'nggi yillarda respublikamizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu maqolalarning dolzarbligidan kelib chiqib, ushbu maqolada so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslarni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qonunlar va qarorlar, shuningdek ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari or'ganilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, qonunlar, ekologik bilimlar, ekologik muammolar, global isish, ekologik tushunchalar, madaniyat, ekologik pedagogika.

Изменения в области преподавания предмета экология и охрана окружающей среды в Узбекистане

Аннотация. В последние годы в республике уделяется большое внимание обучению вопросам экологии и охраны окружающей среды. Исходя из актуальности данных вопросов в данной статье рассмотрены принимаемые Законы и Постановления в области охраны природных ресурсов за последние годы в Республике Узбекистан, а также особенности преподавания предмета экология и охрана окружающей среды.

Ключевые слова: экология, законы, экологические знание, экологические проблемы, глобальное потепление, экологические понятия, культура, экопедагогика.

Changes in the teaching of the subject of ecology and environmental protection in Uzbekistan

Abstract. In recent years, the republic has paid great attention to teaching the issues of ecology and environmental protection. Based on the relevance of these issues, this article discusses the adopted laws and regulations in the field of protection of natural resources in recent years in the Republic of Uzbekistan, as well as the peculiarities of teaching the subject of ecology and environmental protection.

Keywords: ecology, laws, ecological knowledge, ecological problems, global warming, ecological concepts, culture, ecological pedagogy.

Respublika Prezidentining Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish bo'yicha keyingi yillarda qabul qilgan farmon, qaror va farmoyishlari, mamlakatimizda tabiatni asrash va muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini tizimli tarzda amalga oshirish va ekologik sohada qabul qilinayotgan konsepsiya va dasturlarni o'z vaqtida bajarishga qaratilmoqda. Chunki keyingi yillarda dunyoda borayotgan global isish masalasi republikada ham suv tanqisli, cho'llanish va Orol dengizining qurishi bilan o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Tabiatni asrash va bioxilmassallikni saqlash borasida respublikada bir qator huquqiy, amaliy va ilmiy ishlar olib borilmoqda.

"O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qumitasi faoliyatini tashkil etishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezidentning 21.04.2017 yilda PQ-2915 sonli qaroriga muvofiq, Tabiatni asrash va muhofaza qilish qo'mitasiga, Ekologiya va tabiatni asrash va muhofaza qilish qo'mitasiga aylantirildi.

Tashqi dunyoda bo'layotgan global isish o'zgarishlaridan so'ng mamlakatdagi ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish lozimligini keltirib chiqardi. Insonlar ongida ekologik madaniyatni shakllantirish zarurligi, bugungi global isish davrida vujudga keldi va qator muammoli masalalarni yechish lozimligi kun tartibiga quyildi. Eng katta ekologik muammolardan biri bo'lgan global isishnng oldini olish, va uning zararlarni xalq xo'jaligining barcha sohalarida ko'rsatish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof muhitni himoya qilish uchun ekologik ta'limni talabalar ongiga singdirish lozim.

Respublikada 2019 yil 22 aprelda oyida ekologik ta'lim rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi, ushbu konsepsiya amalga oshishi natijasida, mamlakatda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat kadastrini yuritish, bioxilmassallikni saqlab qolish, zoologiya va botanikaga oid organizmlarni, shaharlar ekologiyasini saqlab qolishga erishiladi. Yangi qabul qilingan ekologik ta'lim konsepsiyasig ko'ra, ekologik ta'lim, ong, targ'ibot va madaniyatni tizimli uzluksiz ravishda barqaror

rivojlantirish, shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida bilimli mutaxassislarни tayyorlash bugungi kunning vazifasidir (21.04.2019 y. PQ-4391).

Ekologik ahvolning muammolarini hal qilish uchun tabiatni tushunish va uni atrof muhitni muhofaza qilish ishlariiga keyingi yillarda e'tibor berilmoqda. Respublika Oliy ta'lim tizimidagi barcha yo'nalihslardan ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fani o'qitilmoxda, ammo hali dars beruvchi o'qituvchilarining hammasining ekologik sohada bilimlari talab darajasida emas. Ekologiya fani falsafa fani kabi barcha fanlar bilan bog'liq holda rivoolanishini bugungi zamon talab qilmoqda. Jamiyatning qaysi jabhasi bo'lmasin hamma joyda ekologik muammolar kelib chiqmoqda, demak bu sohada kadrlar masalasiga e'tibor berishi kerak yoki OTMlarda ekologiya o'qitish metodikasini xorij davlatlari tajribalarini o'rGANIB, raqamlashtirishga va barqaror ekologik ta'limning o'rganishini uzluksizlikka olib chiqish kerak. Barcha ta'lim yo'nalashlarida ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fanidan o'qitiladigan ma'ruza, amaliyot va mustaqil dars soatlarini ko'paytirish va talabaga o'zi yashab turgan tabiatni asrash va saqlash uning burchi ekanligini uning ongida shakllantirishga erishish kun talabidir.

Demografik muammolar natijasida aholi tomonidan tashlanadigan maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalgalash oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 2017-2021 yillar uchun yana PQ qabul qilindi, (21.04.2017 y. PQ-2916). Ma'lumki mamlakatda tashlanadigan maishiy chiqindilarni qayta ishslash va undan bir necha xil mahsulotlar ajratib olish hamda foydalanishi bilan bog'liq ishlarni sanoat asosida tashkil qilish, urbanizatsiya va ekologik buhronlar kuchayib borayotgan davrda eng dolzarb masalalardan birib bo'lib qolmoqda. Ekologik muammolarning bir qator salbiy oqibatlari demografik muammolar bilan bog'liq bo'lib, antropogen omillar ayniqsa shahar sharoitida ekologiyaga salbiy ta'siri tez ko'zga tashlanadi.

Har bir mamlakat o'z ekologik muammosini yaxshilash uchun avvalo oliy ta'lim muassasalarida pedagogik yo'nalihslardan kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalihslarini va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalihsda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, yuqori malakali ekolog pedagog kadrlarni yetkazib berish lozim [2], [3], [4].

Tabiatdagi global o'zgarishining oldini olish va tabiatni bugungi holida saqlab qolish uchun maktablarda va Oliy ta'lim muassasalarida ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fani va uni o'qitishga talab darajasi yuqori saviyada olib borilmaganligi sezilmoqda, ekologik barqaror ta'limni shakllantirib talabalarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirishgina bu krizis holatidan olib chiqadi [5].

Oliy ta'lim muassasalarida olib borayotgan ekologiya darslarida ekologik ta'limning ilmiy-metodik asoslari kompleksini uzluksiz ta'limda bir-biriga bog'lab o'quvchilar ongiga yetkazish muammosi turibdi.

Ekologik bilim va talabani bir biriga bog'lash uchun, bir qator masalalarni yechish lozim bo'ladi:

Birinchidan – ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish fanini o'qitishning zamonaviy modul asosida nazariy-metodikasi asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'lash lozim;

Ikkinchidan – OTMlarda o'qitish uchun uzluksiz ekologik ta'lim tizimining yangi zamonaviy pedtexnologiyalar asosi boshqa fanlarda olib borayotgan kreativ usullarni qo'llab, pedagoglarning ekologik kompetentsiyasini shakllantirish kerak;

Uchinchidan – bugungi globallashuv davrida tabiatni asrash va saqlash uchun "ekologik xavfsizlik" tushunchasiga e'tibor kamligi, biz tabiatga emas, balki bizga tabiat kerakligi ekologik ta'limda singdirish va har bir talabda ekologik ong va madaniyat tushunchalarni amaliyotda shakllantirishga erishishi lozim;

To'rtinchidan – gumanitar yo'nalihs tabalabari orasida ekologik kompetentligi ma'lum bo'lganlarni ya'ni emperik- ekologik metodlarni o'rGANISH juda sust kechishi ma'lum bo'lganligi uchun olib borayotgan ekopedagogik ta'limning nazariy asoschilarining ishlab chiqqan nazariy va amaliy metodikalarini har tomonlama o'rGANIB, ekologiya va atrof muhitni himoya qilish fanini o'qitishning zamonaviy nazariy-metodik asoslarini bugunga moslab ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdilar.

Xulosa. Ekologik dunyoqarash, ekologik madaniyat, ekologik barqaror rivojlanish tizimini uzluksizligini ta'minlash va tabiatni asrashda ekologik tarbiya va madaniyatni o'rgangan bir qator olimlar hududning ekologik sharoitidan kelib chiqib, ekologiya fanidan dars soatlarini kreativ asosda modul usulida olib borishni barcha oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatadigan bir pedagogning ekologiya fanini o'qitish metodikasi bo'lib qolishi lozim.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. “Экология ва атроф-мухитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш тӯғрисида”ги Фармони. 21 апрель 2017 йил. Тошкент.
2. Беспалько В.П. Основы теории педагогических систем: проблемы и методы психолого-педагогического обеспечения технических обучающих систем / Воронеж: Изд-во Воронеж, ун-та, 1977. – 304 с.
3. Залесский Г.Е. Психология мировоззрения и убеждений личности. – М., 2008. – С.231.
4. Толипова Ж.О., Гафуров А.Т. Биология ўқитиши методикаси. - Т.: «Иқтисод ва молия», 2007. – С. 201-206.
5. Шарипова Д.Д. Формирование здорового образа жизни в условиях непрерывного образования. 2013 Ташкент. – 127 с.

УДК: 378.1

**КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ВОЗМОЖНОСТИ КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЫ
ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ
КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ**

У.И.Муртазаева

*Самаркандинский филиал Таишкентского университета информационных технологий
E-mail:murtazayeva1982@yandex.ru*

Аннотация. В работе рассмотрены концептуальные особенности и возможности кредитной системы обучения для совершенствования учебно-исследовательских компетенций студентов вузов. Выявлены особенности применения кредитной системы в образовательном процессе вуза, проанализировано преимущества кредитной системы обучения в формировании учебно-исследовательских компетенций студентов.

Ключевые слова: система высшего образования, кредитная система, компетенция, учебный процесс.

**Oliy ta'limgan muassasalarini talabalarining o'quv-ilmiy kompetentligini takomillashtirish uchun kredit
o'qitish tizimining konseptual xususiyatlari va imkoniyatlari**

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'limgan muassasalarini talabalarining o'quv-ilmiy kompetentligini takomillashtirish uchun kredit ta'limi tizimining kontseptual xususiyatlari va imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Oliy ta'limgan muassasalarining o'quv jarayonida kredit tizimidan foydalanish xususiyatlari ochib berildi, talabalarning o'quv-ilmiy kompetentligini shakllantirishda kredit o'qitish tizimining afzalliklari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: oliy ta'limgan tizimi, kredit tizimi, kompetensiya, o'quv jarayoni.

**Conceptual features and possibilities of the credit system of education for improvement of
educational and scientific competence of students of higher educational institutions**

Abstract. The paper considers the conceptual features and capabilities of the credit education system for improving the educational and research competencies of university students. The features of the use of the credit system in the educational process of the university are revealed, the advantages of the credit system of education in the formation of educational and research competencies of students are analyzed.

Keywords: higher education system, credit system, competence, educational process.

Роль образовательной системы в современном мире неуклонно возрастает параллельно с углублением глобализационных процессов и бурным развитием информационных технологий [1]. Сегодня на уровень развития страны указывают не столько ее экономические показатели, уровень культуры или военная мощь, сколько ее интеллектуальный потенциал. Наблюдение показывает, что наиболее динамично развиваются государства, опирающиеся на достижения научно-технического прогресса, который возможен благодаря высокому образовательному уровню [2].

В национальном проекте «Образование» заложена современная мировая практика проектирования образовательных программ, основанная на планировании результатов обучения, получившая название «компетентностный подход». При этом компетенция определяется как «способность применять знания, умения, навыки и личностные качества для реализации успешной

профессиональной деятельности» [3,4]. Для достижения максимального эффекта, нужно изначально определить технологию оценки компетенций выпускников в качестве планируемых результатов обучения, т.е. сформулировать ожидания от студентов (какие способности в использовании знаний и умений, а также личные и специальные навыки они должны продемонстрировать).

Обзор современной литературы по этой проблеме показал, что проектирование образовательной программы складывается из следующих этапов:

- 1) определение целей образовательной программы;
- 2) разработка структуры образовательной программы;
- 3) кредитная оценка модулей образовательной программы;
- 4) выбор образовательных технологий;
- 5) планирование организации учебного процесса;
- 6) оценка достижения результатов обучения по программе.

Представленный алгоритм проектирования образовательных программ является удобным инструментом для разработки ГОС ВПО [5].

Возможности кредитной системы обучения для совершенствования учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений был рассмотрен на примере Международном университете Кыргызстана (МУК) [6]. Этим университетом была разработана модель образовательной программы, в основу которой был положен проект учебного плана конкретного направления подготовки бакалавров.

На основе базовых учебных планов в соответствии с действующими государственными образовательными стандартами были созданы рабочие и индивидуальные учебные планы, введен в действие контролирующий график поэтапного освоения студентом каждой учебной дисциплины и определены критерии допуска студента по академическим эталонам к текущей и итоговой аттестации.

Как выяснилось позже, успех функционирования спроектированной образовательной технологии зависел от выполнения следующих требований:

- ориентация на подготовку конкурентоспособного компетентного специалиста, т.е. переход от объяснительно-иллюстративного обучения к проблемному;
- замена информационной технологии обучения на деятельностную, моделирующую будущую профессиональную деятельность, в результате чего меняется роль преподавателя: он становится организатором и руководителем самостоятельной учебно-познавательной и научно-исследовательской деятельности студентов;
- применение активных форм и методов обучения: информационно-развивающих, проблемно-поисковых и творчески-продуктивных (не только передача готовой информации, но и самостоятельное добывание знаний из литературы, работа с обучающей программой, с информационными базами данных) [5].

Конечным результатом педагогических технологий обучения являются компетенции. Компетенции и результаты образования рассматриваются как интегрирующие начала модели выпускника. Компетенции должны быть идентифицированы с помощью корректных процедур, их освоение должно оцениваться. Оценивающие технологии и средства призваны включать в себя индикаторы, которые можно измерить. В свою очередь, результаты обучения, достигнутые студентом за определенное время на конкретном этапе, оцениваются в кредитах. Кредит также представляет собой способ определения количественных результатов обучения - набора компетенций (что студент будет знать, понимать или чем способен будет владеть после завершения процесса обучения) [5].

Наиболее приемлемой из существовавших в Европе на момент подписания Болонской декларации систем кредитов была признана система ECTS (European Credit Transfer System – Европейская система взаимозачёта кредитов). Кредиты в ECTS могут быть получены только после выполнения требуемой работы и выставления оценки за достигнутые результаты обучения.

В процессе педагогического эксперимента, который проводили ведущие высшие учебные заведения, в Узбекистане был установлен объем кредита ECTS - 36 академических часов и была установлена годовая учебная нагрузка студента - 60 кредитов ECTS. Это исходит из того, что учебный год в среднем продолжается примерно 40 недель.

Количество кредитов ECTS на учебную дисциплину определяется делением общего объема часов, запланированных на изучение дисциплины на цену кредита (с округлением до 0,5 кредита). Например, если для изучения дисциплины выделяется 108 часов, то это соответствует трем кредитам. В этом случае дисциплина формируется из трех модулей [7].

Наиболее удобно определять удельный вес каждой дисциплины в общей нагрузке по количеству аудиторных часов и пропорционально распределить 30 кредитов, зарабатываемых за семестр, между дисциплинами, изучаемыми в данном семестре. Рекомендуется пересчитывать учебную нагрузку в кредиты путём математического деления общей (аудиторной и самостоятельной) учебной нагрузки в семестре на коэффициент 36 (36 часов общей нагрузки).

Бакалавр в течение своего обучения должен набрать не менее 180 кредитов (три года в соответствии с нормой в 60 кредитов) или не менее 240 кредитов (4 года). Магистр суммарно должен заработать не менее 300 кредитов. Отсюда вытекает зависимость срока обучения на магистра от продолжительности обучения на бакалавра [7].

Кредиты и образовательные модули выступают основой, обеспечивающей каждому студенту возможность приобретения компетентностей, компетенций, квалификаций, то есть профессионализма в ходе обучения. Аттестация дисциплины включает аттестацию разделов и итоговую аттестацию в форме зачета или экзамена, предусмотренных учебным планом. Аттестация разделов осуществляется по форме контроля, предусмотренной в структуре дисциплины. Итоговая оценка выставляется по результатам аттестации разделов и сдачи зачета или экзамена. Итоговая оценка выставляется в пяти-балльной (российской) и европейской (ECTS) системах путем перевода набранной студентом суммы баллов (по 100-балльной системе) в эти системы. В итоговую сумму баллов входят результаты аттестации разделов дисциплин и итоговой формы аттестации (зачет/экзамен). Максимальный итоговый балл всегда равен 100. Максимальный балл за экзамен (зачет) устанавливается в интервале от 0 до 50. Разделы дисциплины оцениваются по многобалльной шкале оценок в соответствии с утвержденной на кафедре структурой дисциплины. Студент считается аттестованным по разделу, зачету или экзамену, если он набрал не менее 60% от максимального балла, предусмотренного рабочей программой.

Для оценки практики, курсовых работ и проектов предусмотрен максимальный балл, равный 100. Результаты текущей аттестации оцениваются по принятой шкале в интервале от 1-100, и учитываются преподавателем согласно выбранной системе оценивания. Студент может быть аттестован по дисциплине, если он аттестован по каждому разделу, зачету/экзамену и его суммарный балл составляет не менее 60.

При переводе или восстановлении студента в установленном порядке на другую образовательную программу он должен быть переаттестован в соответствии с его новым рабочим или индивидуальным учебным планом. Переаттестация дисциплин при переводе студента из другого вуза, осуществляется на основе академических часов и начисленных кредитов. В случае несогласия студента с переводом традиционных оценок в шкалу ECTS допускается передача соответствующих дисциплин.

Отметим, что преимущества кредитной системы касаются в первую очередь три взаимодействующих стороны – студентов, преподавателей и учебное заведение. И каждая из сторон выигрывает от этого по-своему. Для студентов преимуществами являются: свободный выбор предметов, преподавателей и расписания; накопительная система оценок, т.е. возможность оценивать свои знания в ходе процесса обучения, а не после него; расширенные возможности коммуникации, навыки быстрой адаптации к новой обстановке, общения и обмена информации; конфиденциальность сведений студента о его оценках, количество набранных кредитов, обеспеченная присвоением идентификационного номера [8].

С 2018-2019 учебного года в Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезми и его филиалах была внедрена кредитная система образования по подготовке кадров в сфере информационно-коммуникационных технологий.

Переход на новую систему образования проходит в соответствии с постановлением Кабинета Министров Узбекистана «О мерах по коренному совершенствованию и повышению эффективности системы подготовки кадров в Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезмии» от 24 июля 2018 года.

В соответствии с новой системой получение степени бакалавра предусматривало четыре года обучения. За это время студент должен был освоить около 40 дисциплин, в среднем по три кредита каждый. При этом для получения степени необходимо набрать заданное количество «кредитных часов», так называемых зачетных единиц. В системе высшего образования кредит-час служит основой для составления расписания, подсчета среднего балла – GPA, для определения нагрузки кафедр, преподавателей и студентов, оплаты за обучение и преподавание, регулируя, таким образом, многостороннюю деятельность университетов [7].

Кредитная система образования повышает мобильность студентов, так как полученные в одном университете кредиты засчитываются в другом, и студенты могут переходить из одного вуза в другой без потери зачетных единиц, и подобная практика также делает возможной связь между прерванным и восстановленным обучением. Именно академическая мобильность, которая предоставит возможность узбекским студентам продолжать обучение в ведущих иностранных вузах без прохождения сложных бюрократических процедур, стала одним из главных катализаторов перехода Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезми на кредитную систему обучения.

Несмотря на явные различия, кредитные системы образования разных стран легко сочетаются, а получаемые после обучения документы признаются во всех вузах применяющих такие образовательные программы.

Внедрение кредитной системы образования в Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезми, позволило значительно повысить качество подготовки местных ИТ-специалистов, а также привлекать к проведению лекций и семинаров ведущих специалистов отрасли из зарубежных образовательных учреждений и предприятий. Студенты вуза смогут самостоятельно выбирать интересующие их дисциплины, что станет очередным шагом в направлении развития индивидуального подхода в образовании. Кроме того, с целью обеспечения интенсификации процесса обучения на основе опыта лучших иностранных учебных заведений были разработаны абсолютно новые учебные программы, учитывающие запросы, как местного, так и международного рынка труда.

Обучение на основе кредитной системе обучения предполагает наличие определенных навыков к самостоятельной работе, внутреннюю дисциплину и желание учиться.

На наш взгляд в условиях кредитной системы обучения можно выделить следующие особенности подготовки будущих специалистов в узбекских вузах:

- изменение и адаптацию стиля деятельности преподавателя вуза к особенностям кредитной системы обучения;

- создание специальной информационно-образовательной среды вуза;
- достижение максимальной индивидуализации в подготовке будущих специалистов;
- привлечение и участие работодателей в реализации образовательной программы.

Нужно отметить, что выделенные особенности не являются исчерпывающими, так как могут варьироваться и дополняться, обуславливаясь спецификой того или учебного заведения.

Литература

1. Абдукаримова Г.Б. Научно-философский анализ современного этапа глобализации // Наука, образование и культура, 2019. № 4 (38). С. 36-37.
2. Муминов А.Г. Реформы в образовании Узбекистана: состояние и перспективы // Бюллетень науки и практики, 2019. Т. 5. № 9. С. 478-483.
3. Окуловский, О. И. Компетенции и компетентностный подход в обучении / О. И. Окуловский. // Молодой ученый. — 2012. — № 12 (47). — С. 499-500.
4. Методические рекомендации по разработке и реализации на основе деятельностно-компетентностного подхода образовательных программ ВПО, ориентированных на ФГОС третьего поколения/ Афанасьева Т.П., Караваева Е.В., Канукоева А.Ш., Лазарев В.С., Немова Т.В. – М.: Изд-во МГУ, 2007. – 96 с.
5. Наркозиев А.К. Кредитная технология обучения как основа проектирования результатов образования // Журнал “Высшее образование в России”. -2010. - № 3. С.143-146.
6. Абдулдаев Д.А., Дюшеева Н.К., Токтосопиев А.М. Болонский процесс и кредитная технология ECTS в вузах Кыргызской Республики: Учебно-метод.пособие. /Ысык.гос.ун-т им.К.Тыныстанова. – Каракол: 2007. - 64с.
7. <https://www.nuu.uz/rus/press/news/events/ev-univercity/790>
8. Сагимбаева Г.С., Дарвиш О.Б. Особенности подготовки будущих специалистов в условиях кредитной системы обучения (на примере Казахстана) // Журнал «Современные проблемы науки и образования». – 2014. – № 6. стр.

UDK 378.147

**DISKRET MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA MASOFAVIY TA'LIM
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI**

N.I. Abdullayeva

*Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand filiali
nazokatabdullayeva779@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada diskret matematika fanini masofadan o'qitishning uslubiy jihatlarini "Mulohazalar algebrasi" bo'limini o'rganish misolida ko'rib chiqilgan. Fanni o'qitishni optimallashtirish maqsadida tayyorlangan on-line komponentini yaratishning ilmiy-uslubiy asoslari xususiyatlari olib berildi, masofaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalananishning afzalliklari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lif texnologiyalar, o'quv kontenti, mulohazalar algebrasi, on-line dars.

**Методические аспекты обучения дискретной математике с использованием
дистанционных образовательных технологий**

Аннотация. В работе рассмотрены методические аспекты дистанционного обучения дискретной математике на примере раздела «Алгебра логики». Выявлены особенности научно-методической базы для создания on-line компонента для оптимизации преподавания дискретной математики, проанализированы преимущества использования технологий дистанционного обучения.

Ключевые слова: технологии дистанционного обучения, образовательный контент, алгебра логики, онлайн-урок.

**Methodological aspects of teaching discrete mathematics using distance educational
technologies**

Abstract. The paper considers the methodological aspects of distance learning in discrete mathematics using the example of the section "Algebra of logic". The features of the scientific and methodological base for the creation of an on-line component for the optimization of teaching discrete mathematics are revealed, the advantages of using distance learning technologies are analyzed.

Keywords: distance learning technologies, educational content, logic algebra, online lesson.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi ta'lif tizimida ham keng miqyosdag'i o'zgarishlarga olib keldi. Ta'lif jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalananish hamda o'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalananish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarining mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lif-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lif jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lif muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardag'i samarali usul va vositalarni milliy ta'lif tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda, butun dunyoda Covid-19 pandemiyasi sharoitida masofaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalananish yanada dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Respublikamizda uzlksiz ta'lif tizimining barcha bosqichlarida on-line ta'lif shakliga o'tilishi sababli masofaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalananish har bir fandan pedagoglar oldida katta hajmdagi vazifalarini keltirib chiqardi.

Masofaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalananish pedagogik jarayonga yangi unsurlarni kiritadi va ularni yangi (an'anaviy bo'lmagan) usullarini ishlab chiqishni talab qiluvchi ta'lif vazifalarini belgilaydi. Zamonaviy masofaviy ta'lif texnologiyalari o'qituvchiga o'quvchilarga o'z vaqtida va dolzarb ma'lumotlarni taqdim etishga, individual maslahatlar berishga va o'rganishning barcha bosqichlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lifning asosiy vazifalaridan biri talabalarining o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish va olingan bilimlaridan ijodiy foydalana olishini o'rgatish ekanligi, talaba oligohni bitirgach mustaqil tarzda yangi bilimlarni olishiga hissa qo'shadigan o'quv vositalarini topish masalasi kelib chiqardi. A.L.Nazarenko aytganidek, "AKTni ta'limga integratsiyasi to'g'risida gap ketganda, eng diqqatga

sazovor bo‘lgan birinchi assotsiatsiya - masofaviy o‘qitishdir. Ushbu novatsiyadan oldin ham, o‘z maqsadlarini to‘liq bajaradigan kompyuter o‘qitish dasturlari mavjud edi, hozirda ham o‘rgatuvchi dasturlarning yangi avlodlari ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda. Ammo masofaviy o‘qitish - o‘quvchiga “ta’limni etkazib berish”, ta’limga nisbatan harakat vektorining o‘zgarishi (ya’ni, barchasi bir markazga - ta’lim ortida emas, balki bitta markazdan - ta’limga - barchaga) misli ko‘rilmagan interaktivligi bilan, albatta, yangi va ta’sirchan hodisa edi ... Masofaviy ta’lim - raqobatchilari bo‘lmagan elektron ta’lim vositasi sifatida o‘z mavqeini topdi»[3].

Axborot-ta’lim muhiti asosiy tarkibiy qism sifatida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi tarkibiy qismalarni o‘z ichiga oladi: ta’lim resurslari - ta’lim kommunikasiysi - ta’limning o‘zaro ta’sirini boshqarish [4]. Ushbu yondashuvga muvofiq biz “Kompyuter injiniringi” yo‘nalishida tahsil oluvchi bakalavrлarga “Diskret matematika” fanini o‘qitish uchun masofadan o‘qitish vositalarini yaratish muammosini ko‘rib chiqamiz.

Maqolada Muhammad – al Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filialida “Diskret matematika” fanini o‘qitishni optimallashtirish maqsadida tayyorlangan on-layn komponentini yaratishning ilmiy-uslubiy asoslari xususiyatlariga to‘xtalamiz. Respublikamizdagi ko‘plab OTM lar qatori TATU Samarqand filialida ham asosiy masofaviy ta’lim kontenti sifatida Moodle tizimidan foydalanilmoqda. Bundan tashqari, dars jadvali asosida Zoom platformasi orqali on-line darslar asosida olib borilmoqda.

“Diskret matematika” kursi materiallari masofaviy o‘qitish tizimiga elektron shaklda turli xil formatlarda kiritilgan. Mavzularni mustaqil o‘rganish uchun talabaga ushbu kurs bo‘yicha biz ma’ruza materiallari, mavzunu yorituvchi taqdimotlar, amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha tavsiyalar, individual topshiriqlar shaklida, shuningdek ochiq ma’ruzalarni olib boradigan saytlarga havolalar joylashtirdik. Filialda talabalar kredit modul tizimida oq’ganligi bois har bir semestrda 15 hafta muddatni o‘z ichiga oladi. Elektron ta’lim platformasiga o‘quv materiallari ham haftalik qilib joylashtirigan va hafta ohirida talabalar individual topshiriqlarni deadline tugagunga qadar bajarib topshirishlari lozim.

“Kompyuter injiniringi” yo‘nalishida tahsil oluvchi bakalavrлarga “Diskret matematika” fani bo‘yicha o‘quv rejada 60 soat ma’ruza va 30 soat amaliy mashg‘ulotlar uchun ajratilgan. Shundan kelib chiqib <http://mt.samtuit.uz> elektron ta’lim tizimiga fan bo‘yicha har bir haftaga 4 soatlik ma’ruza (2 coatdan 2 ta mavzuga ajratilgan holda) va 2 soatlik amaliy mash’qulot materiallari va ularning tarkibiy qismlari, hamda talabalar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan vazufalar 1-jadvalda keltirilgan tartibda joylashtirilgan:

Nº	O‘quv kontentiga joylashtirilgan o‘quv metodik materiallar nomenklaturasi (Moodle tizimida foydalanilgan element yoki resurs nomi va formati)	O‘quv metodik materiallarning tashkil etuvchilari va manbaalar	Talaba tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar
1	1-ma’ruza materiali (Lesson)	Mavzu, reja, kalit so‘zlar, ma’ruza matni, mavzuni mustahkamlash uchun savollar, mavzu bo‘yicha test savollari, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	Ma’ruza materialalarini o‘zlashtirish va navbatdagи mavzuga o‘tish uchun test topshiriqlarini to‘g‘ri yechish
2	2-ma’ruza materiali (Lesson)	Mavzu, reja, kalit so‘zlar, ma’ruza matni, mavzuni mustahkamlash uchun savollar, mavzu bo‘yicha test savollari, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	Ma’ruza materialalarini o‘zlashtirish va navbatdagи mavzuga o‘tish uchun test topshiriqlarini to‘g‘ri yechish
3	1-mavzu taqdimoti (File, ppt)	Mavzu, reja, kalit so‘zlar, manbaalar ro‘yxati, asosiy tushunchalar, saytlarga havolalar.	Taqdimot faylini yuklab olib, berilgan materiallarni o‘zlashtirish
4	2-mavzu taqdimoti (File, ppt)	Mavzu, reja, kalit so‘zlar, manbaalar ro‘yxati, asosiy tushunchalar, saytlarga havolalar.	Taqdimot faylini yuklab olib, berilgan materiallarni o‘zlashtirish
5	Amaliy mashg‘ulot materiali (File, pdf va ms word)	Mavzu, nazaiy materiallar, misol va masalalarni yechish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, mustaqil yechish uchun misol va topshiriqlar toplami.	Misol va masalalarni yechish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalardan foydalanib mustaqil yechish uchun misol va topshiriqlarni bajarish

6	Haftalik topshiriq (Assignment)	Amaliy mashg'ulotda o'tilgan mavzu yuzasidan misol va topshiriqlar	Topshiriq turiga qarab o'zining individual topshirig'ini bajarib deadline tugagunga qadar tizimga biriktirish
7	1-mavzu bo'yicha video dars (URL)	Fan o'qituvchisi yoki tomonidan otilgan dars video tasviri yoki ochiq ma'ruzalarini olib boradigan saytlarga havolalar	Mavzuni mustahkamlash uchun video darslarni ko'rish
8	1-mavzu bo'yicha video dars (URL)	Fan o'qituvchisi yoki tomonidan otilgan dars video tasviri yoki ochiq ma'ruzalarini olib boradigan saytlarga havolalar	Mavzuni mustahkamlash uchun video darslarni ko'rish
9	Zoom platformasi orqali on-line darsga havola (URL)	Fan o'qituvchisining dekanat tomonidan tasdiqlangan dars jadvali asosida o'tkaziladigan Zoom platformasi orqali on-line darsiga havola	Dekanat tomonidan tasdiqlangan dars jadvali asosida Zoom platformasi orqali o'tkazilayotgan on-line darsga qatnashish
10	Test (Quiz)	Hafta davomida o'tilgan mavzular bo'yicha test	Testni topshirish
11	Forum (Forum)	Hafta davomida o'tilgan mavzular bo'yicha talabalarni qiziqtirgan savollari bo'yicha savol javoblar o'tkaziladi	Hafta davomida o'tilgan mavzular bo'yicha talabani qiziqtirgan yoki tushunmagan savollari bo'yicha savol yuborish yoki savollarga javob yo'llash

O'quv dasturida diskret matematika fani quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- To'plamlar nazariyasi (8 soat);
- Kombinatorika qoidalari (6 soat);
- Mulohazalar algebrasi (34 soat);
- Graflar nazariyasi (12 soat).

Fanning masofadan o'qitishni uslubiy jihatlarini fanning "Mulohazalar algebrasi" bo'limini o'rganish misolida ko'rib chiqamiz. "Mulohazalar algebrasi" bo'limida talaba mulohaza tushunchasi va asosiy mantiqiy amallarini o'rganishi kerak; mulohazalar algebrasi formulalari va ularning ekvivalentligi tushunchalarini o'rganishi; mantiqiy algebra qonunlari yordamida mantiqiy masalalarni echimi bilan tanishish; mulohazalar algebrasining funksiyalarini o'rganish; soxta va muhim o'zgaruvchilarni aniqlash; mantiqiy funksiyalar sifining to'liqini tekshirish; mantiqiy munosabatlар, mulohazalarining to'g'riligini tekshirish masalalarini o'rganishi lozim.

Diskret matematikadagi "Mulohazalar algebrasi" bo'limi tarkibiga kiruvchi mavzu va asosiy tushunchalari 2-jadvalda keltirilgan:

2-jadval

"Mulohazalar algebrasi" bo'limi mavzulari	Mavzular bo'yicha "Mulohazalar algebrasi" bo'limining asosiy tushunchalari
Mulohaza tushunchasi, asosiy mantiqiy amallar.	Sodda (elementar) mulohazalar. Murakkab (qo'shma) mulohazalar. Chinlik jadvali. Mantiqiy amallar: diz'yunksiya, kon'yunksiya, inkor, implikasiya, ekvivalensiya.
Mantiqiy formulalar, formulalarning teng-kuchliligi	Formulalar. Aynan chin formulalar. Aynan yolg'on formulalar. Bajariluvchi formulalar. Teng kuchli formulalar
Bul funksiyalari, soxta va muhim o'zgaruvchilar	Mantiqiy funksiya. Tengkuchlimas funksiyalar soni. Muhim o'zgaruvchi. Soxta o'zgaruvchi
Bul funksiyalarini normal shakllarga keltirish	Kon'yunktiv normal shakl (KNSh), Diz'yunktiv normal shakl (DNSh), Mukammal kon'yunktiv normal shakl (MKNSh), Mukammal diz'yunktiv normal shakl (MDNSh).

Funksional yopiq sinflar	Nol saqlovchi funksiya. Bir saqlovchi funksiya. O‘z-o‘ziga ikkitaraflama (qo‘shma) funksiya. Monoton funksiya. Chiziqli funksiya funksiyalarni Jegalkin ko‘phadi ko‘rinishida ifodalash.
Funksiyalar sinfining to‘liqligi	Superpozitsiyaga nisbatan yopiq sind. Post jadvali. Funksiyalar sinfining to‘liqligi.
Predikatlar mantiqi	Predikat va sub’yekt tushunchasi. Kvantor amallari. Mayjudlik va umumiylilik kvantori. Umumqiyatli predikat. Aniqlanish sohasi. Qiymatlar toplamni.
Mulohazalar algebrasining texnikaga tatbiqi	Rele-kontaktli sxemalar. Ikkilik mantiqiy elementlar, funksional sxemalar. Mantiqiy sxemalarda analiz va sintez masalalari.
Mantiqiy funksiyalarni mimimallashtirish muammosi	Mimimallashtirish muammosi, implikanta, qisqartirilgan DNSh, tupikli DNSh, minimal DNSh, minitermlar, Karno kartalari.
Mantiq algebrasi qonunlari	
Diz'yunksiyaning (kon'yunksiyaning) kommutativligi; Diz'yunksiyaning (kon'yunksiyaning) assotsiativligi; 1-distributivlik (taqsimot) qonuni; 2-distributivlik (taqsimot) qonuni; ikki karrali inkorni yechish (olib qo'yish) qonuni; de Morgan qonunlari; yutilish qonunlari; yarim yutilish qonunlari; ikkitalaraflamalik qonunlari.	
Mantiq algebrasi teoremlari	

Endi 1-jadvalda keltirilgan mashg‘ulot turlaridagi uslubiy jihatlarni yoritib o‘tmochiman.

Ma’ruza (Leksiya). Aksariyat ma’ruzalar talabalar bir-biri bilan qisqa, kontseptual muammolarni hal qilish uchun "tushunchangizni tekshiring" degan katta tarkibiy qismalarni o‘z ichiga oladi. Bu yerda biz Erik Mazur tomonidan taklif qilingan "tengdoshlarga ko‘rsatma" uslubidan foydalandik, "tengdoshlarga ko‘rsatma" metodida ko‘pincha to‘g‘ri deb hisoblangan fikrlarga klik qo‘yishga mo‘ljallangan va bir nechta to‘g‘ri javoblarga ega bo‘lgan tanlov savollaridan foydalanadi. Bizning savollarimiz mulohazalar va ular ustida bajariladigan amallarni muhokama qilishdan tortib, mantiqiy funktsiyalarni mimimallashtirishga qadar farq qiladi. Umuman olganda, talabalar faol ma’ruzalarga ijobjiy javob berishdi; ularning aksariyati, odatda, hech bo‘lmaganda berilgan savollarga javob berishga urinishgan.

Amaliy mashg‘ulot. Amaliy mashgulot materiallari mavzuni qamrab olgan va misol va masalalarni yechish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar bilan boyitilgan. Amaliy mashg‘ulot materiallarda berilgan savol va topshiriqlar natijalarini talabalar tizimga biriktirishadi va baholanadilar.

Haftalik topshiriq (Assignment). Bu yerda biz talabalaga bir necha turdag‘i topshriqlarni joylashtirdik: mavzularning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib tuzilgan savollarga qisqacha fikr bildirish yoki esse yozish; savolga berilgan bir nechta javob va fikrlar variantlaridan to‘g‘ri, mosini tanlash; savol yoki topshiriq sifatida berilgan sxemalar yoki jadvallarni to‘ldirish; qoidalar, asosiy tushunchalar, olimlar fikrlari, jumladan tushirib, bo‘s sh qoldirilgan so‘zlarning o‘rnini to‘ldirish; berilgan asosiy iboralar va tushunchalarga ta’rifni to‘g‘ri yozish; to‘liq berilmagan fikrlarni davom ettirib to‘ldirish; mavzular matnlaridan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlarni tanlash; cavollarga javob yozish va misollarning yechimini ms word faylida saqlab tizimga biriktirish.

Test (Quiz). Masofaviy o‘qitish tizimida, o‘quv portal test o‘tkazishning moslashuvchan tashkil etilishiga imkoniyat beradi. Test o‘tkazish o‘qitish va nazorat qilish rejimida bo‘lishi mumkin. Nazorat qilish rejimida ta’lim oluvchi har bir topshiriqning natijasi va test bahosini topshiriqni bajarish yakunida ko‘radi. O‘qitish rejimida har bir topshiriq tekshiruvga yuborilishi mumkin, unda topshiriqni bajarishning aniq varianti ko‘zga tashlanadi. Test o‘tkazish natijalari tizim tomonidan baholanadi. Testdan o‘tish uchun bir nechta urinishlar va vaqt limiti ham beriladi.

Forum (Forum). Qayta aloqaning mavjudligi, bunda nazorat tadbiridan keyin ta’lim oluvchi o‘qituvchidan va guruhdagi talabaldardan sharhlar va fikrlar bilan javob olishi imkon yaratilgan.

Fan boyicha 30 ta ma’ruza va 15 amaliy mashg‘ulot materiallari yuqorida uslubda masofaviy ta’lim tizimiga joylashtirildi.

Masofaviy ta'limgan talabaning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil bilim olishga, izlanishga, fikrlashga o'rgatadi. Masofaviy ta'limgan afzalligi shundaki, unda har kim o'ziga qulay vaqtida, qulay joyda, qulay muhitda bilim olishi mumkin. Shu tufayli ushbu tizim bugungi kunda dunyoda keng ommalashmoqda. Masofaviy ta'limgan ijobiy tomonlarini ko'radigan bo'lsak, bugungi kunda dunyoda ko'pgina OTMlar, yirik korxonalar mutaxassislar malakasini oshirishda ushbu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab pul mablag'larini tejamoqda. Eng muhim mamlakatimizdagi epidemilogik vaziyat va sinovli kunlarda yurtimizning barcha ta'limgan muassasalarida juda qisqa fursat ichida onlayn darslar yo'lgan qo'yildi. Dastlab, mazkur o'zgarishlar shubhasiz, muayyan noqulayliklarni keltirib chiqardi, ammo pandemiya sababli kuzatilayotgan o'zgarishlar va ta'limgan yangi yechimlar, hozirgi davr uchun zarur bo'lgan innovasiyalarni ta'limgan sohasiga kiritilishiga sabab bo'ldi.

Adabiyotlar

1. A.E.Ibraymov. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. – Toshkent: "Lesson press", 2020, 112 bet.
2. Sh.K. Shayakubov, R.X. Ayupov (2012) Interfaol ta'limgan usullari. T.: «Tafakkur-Bo'stoni», 136 bet.
3. Назаренко А.Л. Информатизация образования: синтез традиционного и электронного обучения (опыт создания новой модели лекционного курса) // Открытое образование. Научно-практический журнал. – 2015. № 2 (109). – С. 71–72.
4. Павлова Т.Б. Информационный ресурс коллективного педагогического сопровождения внеаудиторной самостоятельной работы студентов. – Новые образовательные стратегии в современном информационном пространстве: Сборник научных статей. – СПб.: Изд-во Лема, 2012. – С. 148–153.

UDK: 378.2

PROFESSIONAL TA'LIMDA SIMULYATSION-IMITATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

M.Xolmuxamedov

*Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va
ularning malakasini oshirish instituti
mxolmuxamedov@mail.ru*

Annotatsiya. Jahonda innovatsion texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlariga shiddat bilan kirib kelishi, jamiyatda raqamli muhitning kengayib borayotganligi, yoshlarning mazkur sharoitlarda munosib o'rin egallashiga bo'lgan intilishlariga munosib ravishda ta'limgan texnologiyalarni intensivlashtirishni taqozo qilmoqda. Maqolada professional ta'limgan jarayonini ta'limgan natijalariga yo'naltirilgan konsept asosida rejalashtirish va uni samarali tashkil etishda simulyatsion-imitatsion ta'limgan texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etishi nazariy va metodologik nuqtai nazardan asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: professional ta'limgan, intensiv ta'limgan texnologiyalari, simulyatsion texnologiyalar, imitatsion ta'limgan muhiti.

Проблемы развития симуляционно – имитационных образовательных технологий в профессиональном образовании

Аннотация. Стремительное появление инновационных технологий, расширение цифровой среды в обществе, открытие широких возможностей для реализации устремлений молодежи требуют интенсификации образовательных технологий. В статье подчеркивается важная роль имитационно-имитационных технологий обучения в планировании и организации процесса профессионального образования на основе концепции, ориентированной на результаты обучения с научно-методической точки зрения.

Ключевые слова: профессиональное образование, интенсивные образовательные технологии, имитационные технологии, имитационное обучение, имитационная обучающая среда.

Issues of development of simulation-imitation educational technologies in Professional education

Abstract. The rapid emergence of innovative technologies, the expansion of the digital environment in society, the opening of wide opportunities for the aspirations of young people require the intensification of educational technologies. The article highlights the important role of simulation-imitation learning technologies in the planning and organization of the process of professional education on the basis of a concept focused on learning outcomes from a scientific and methodological point of view.

Keywords: professional education, intensive educational technologies, simulation technologies, simulation training, imitation learning environment.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5812сон Farmonida [1] belgilangan vazifalar professional ta’lim tizimida yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlari, jumladan, ta’lim texnologiyalarini joriy qilishni taqozo qilmoqda.

Professional ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi bozor iqtisodiyotining o‘zgarib borayotgan talablariga moslashib borish, bunda iqtisodiyot tarmoqlari, biznes sub’ektlari, yangi investitsion loyihalar asosida kirib kelayotgan texnologik jarayonlarga qo‘yilayotgan talablarga mos mutaxassislarini tayyorlash tizimimi yo‘lga qo‘yish va tegishli ta’lim yo‘nalishlari va ixtisosliklariga mo‘ljallangan yangi avlod o‘quv dasturlarini joriy etish masalasi kun tartibiga qo‘yildi.

Yangi joriy qilingan kasb-hunar maktablarida boshlang‘ich professional ta’lim dasturlari asosida o‘quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha maxsus ta’lim texnologiyalarini joriy qilish zarur.

Tadbirkorlik faoliyatining xususiyati shundan iboratki, biznes jarayonida ma’lum bir mahsulot yetishtirish yoki ishlab chiqarish yoki muayyan sohada xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan texnologik kompetensiyalar bilan parallel ravishda daromad olishga qaratilgan iqtisodiy kompetensiyalar talab etiladi.

Mazkur “ikki qutbli” kompetensiyalar integratsiyasini ta’minalash o‘ziga xos murakkab pedagogik vazifa bo‘lib, bunda birinchidan, o‘quv jarayonini ta’lim natijalariga yo‘naltirilgan konsept asosida rejalshtirish, ikkinchidan, ta’lim dasturlarini joriy etishda original pedagogik shart-sharoitlar yaratish, uchinchidan, ta’lim texnologiyalarini intensivlashtirish zarur bo‘ladi.

Ta’lim texnologiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili tibbiyot, veterinariya, avtotransport kabi sohalarda mutaxassis tayyorlash jarayoniga simulyatsion-imitatsion o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash yuqori samara berishini ko‘rsatadi.

Simulyatsion ta’lim – o‘ziga xos ta’lim texnologiyasi bo‘lib, unda real hayotiy voqelikka yaqinlashtirilgan holda sun‘iy ravishda tashkil etilgan muhitda o‘quvchi-yoshlarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Ta’kidlash lozimki, tibbiy ta’lim sohasida simulyatsion texnologiyalarga oid ilk tadqiqotlar Ibn Sino ta’limotiga borib taqaladi. Ulug‘ mutafakkir olim suyak parchalanishi va sinishini davolashni o‘rgatishda simulyatsion ta’limning original metodikasini qo‘llagan. Unda mato xaltachadagi bo‘laklarga bo‘lingan (sindirilgan) sopol ko‘zani qayta yig‘ish jarayoni mashq qilingan [2].

Keyinchalik, XVIII asrda Fransiyada Madam dyu Kudre (Angélique du Coudray) akusherlikka o‘qitish kurslari uchun maxsus simulyator yaratgan [3].

XIX asrda kelib, Yaponiyada tibbiy simulyatsion manekenlar paydo bo‘ladi. Shundan so‘ng, ushbu tadqiqot ob‘ekti tibbiy ta’limni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishi sifatida qaralib, xalqaro ilmiy markazlar tomonidan rivojlantirildi.

Xususan, 1960-90 yillarda AQSh va Norvegiya olimlari Piter Safar, Maykl Gordon, Devida Gabalar tomonidan yangi simulyatsion o‘qitish texnologiyalari rivojlantirilgan, yangi simulyatsion uskunalar yaratilgan [4].

1992 yilda Garvard tibbiyot matabida (Boston, AQSh) «Buyuk simulyatsion tajriba» (The Great Simulation Experiment) o‘tkazilgan va tibbiyot sohasida simulyatsion o‘qitishning samaradorligi qat’iy isbot qilingan. Shu tariqa 1993 yilda Garvard tibbiyot simulyatsiya markazi tashkil etilgan [5].

Shundan buyon tibbiyot sohasida bo‘lgani kabi ta’lim sohasida ham simulyatsion o‘qitish texnologiyalari jadal rivojlanib kelmoqda.

Texnika sohasida esa dastlabki simulyatsion o‘qitish usullari murakkab texnik vositalarni boshqarishga o‘rgatish jarayoniga tadbiq etilgan. Jumladan, 1909 yilda ilk simulyator qurilmasi «Antuanetta» samolyotini boshqarishni o‘rgatish maqsadida maxsus simulyatsion trenajyor o‘qitish vositasi sifatida yaratilgan [6].

Texnik sohada simulyatsion trenajerlar kosmonavtika, samolyot, kemalar, metallurgiya, harbiy texnika boshkarish va boshqa turdagji texnik vositalardan foydalanishni o‘rgatish kurslarida muvaffaqiyatlari qo‘llanib kelinmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan sohalarda simulyatsion o‘qitish usullarining qo‘llanilishi qimmatga tushadigan xatolarni keskin kamaytirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni jadallashtirish kabi samara bergen.

Masalaning dolzarb jihat shuki, professional ta’lim muassasalaridagi simulyatsiya markazlari tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotda kichik biznes ulushini oshirishga, yoshlarda tadbirkorlik iqtidorini erta aniqlash va uni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etishga turki beradi.

Chunki tadbirkorlik kompetensiyalarni shakllantirish, tizimli rivojlantirish ta'lim muassasalariga muayyan vazifalar qo'yadi. O'quvchilar biznes modellari bilan tanishishlari, unda o'zlarini sinab ko'rishlari, xatolar ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun pedagogik sharoitlar yaratish lozim.

O'quvchilarni biznes va tadbirkorlikka o'rganishda asosan an'anaviy o'qitish usullari (kitob o'qish va nazariy bilimlar berish) kutilgan natijalarni bermayapti. Ammo real biznes shart-sharoitlari mavjud bo'lgan jarayonning bevosita ishtirokchisi bo'lish (ko'z bilan ko'rish, qo'l bilan ushslash, jarayonni boshqarish, sinab ko'rish) haqiqiy biznesni biznes ta'limi bilan maksimal darajada yaqinlashtirish imkonini beradi.


Cimuyatsion ta'lim jarayonini tashkil etish ham o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, bunda ham maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarini tayyorlash, ularning amaliyotdagi mutaxassislar bilan hamkorligini yo'lga qo'yish, turli xil vaziyatlar uchun imtiatsion ssenariylar ishlab chiqishi, imtiatsion texnologiyalar, simulyatsion mulyajlar, ishlab chiqarish uskunlari prototiplarini yaratish, o'quv vositalari bilan ishlash jarayonida texnika xavfsizlik qoidalarini ta'minlash talab etiladi.

Bunda simulyatsion ta'limda o'rganib tajriba orttirish talab etiladigan amaliy mashg'ulotlar dasturini shakllantirishdan tortib, o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan kasb-hunar muassasalarining bazasida immitatsion biznes modullar yaratilishi lozim.

Quyida simulyatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etiladigan mashg'ulotning sxemasini beramiz.

1 – sxema.

Simulyatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etiladigan mashg'ulotning sxemasi.



Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mashg'ulotda kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini bir necha bloklarga bo'lamiz:

1. Motivatsiya qismida:

- o'quvchilarining mashg'ulotga bo'lgan diqqati jamlanadi;
- o'quv mashg'ulotining dolzarbligi, ushbu ko'nikmalarning muhimliligi tushuntiriladi.

2. Brifing qismida:

- mashg'ulotning maqsadi va vazifalari belgilanadi;
- texnologik liniyadagi mashg'ulot mavzusiga tegishli jihozning texnik-texnologik aparametrlari bilan tanishtiriladi;

– xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtiriladi;

– mashg'ulotning nazariy jihatlari bo'yicha aqliy hujum uyushtiriladi.

3. Biznes jarayon qismida o'quvchi:

- biznes trener rahbarligida biznes jarayonni kuzatadi, ishtirok etadi;
- biznes trener bilan hamkorlikda jarayonni yuritadi;
- biznes trener kuzatuvida jarayonni mustaqil amalga oshiradi.

4. Debriefing qismida:

- mashg‘ulot jarayonidagi yutuq va xatolar tahlil qilinadi.
- tahlil asosida o‘quvchining harakatlari takomillashtiriladi.

5. Yakuniy qism – xulosa qilinadi. Bu bosqichda biznes trener o‘quvchi tomonidan olingan bilim va egallagan ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga ruhlantiradi.

Professional ta’lim dasturlarini joriy qilinishida zamonaviy simulyatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni. Toshkent. 2019-yil 6-sentabr, PF-5812-son. <https://lex.uz/docs/4500926>.

2. Baltaev M. Abu Ali ibn Sina - velikiy myslitel, uchenyyu ensiklopedist srednevekovogo Vostoka. M: Sam-po, 2020. 400 s.

3. La simulation obstetricale du mannequin d’Angelique du Coudray aux Environnements Virtuels Exemple d’un Simulateur numerique pour l’acquisition de Competences Non-Techniques/ <https://www.researchgate.net/publication/322663119>.

4. M.D.Gorshkov, A.L.Kolyshev. Istoryya simulyatsionnogo obucheniya v Rossii i zarubejom.

5. Center for Medical Simulation <https://www.healthysimulation.com/center-for-medical-simulation-harvard/>

6. <http://owlshead.org/collections/detail/1909-antoinette>

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma’lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodالangan bo‘lishi kerak va unda umumiyligini qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavida ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E-mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib
Texnik muharrir

X. Sh. Tashpulatov
A. I. Inatov

Muharrirlar:

I.Sulaymonov	- f.f.d., dotsent
A.Abdumannotov	- ped.f.n., dotsent
O.Yusupova	- fil.f.n., dotsent
A.R.Safarov	- PhD., dotsent

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev	- k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov	- f.-m.f.n.
X. S. Xaydarov	- f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
E-mail: axborotnama@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 31.12.2020 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 350. Adadi 30 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.